

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI



TOSHKENT MOLIYA INSTITUTTI
“SOLIQLAR VA SOLIQQA TORTISH” KAFEDRASI
“SOLIQ TUSHUMLARI HISOBI VA PROGNOZI”
FANIDAN

O'QUV-USLUBIY MAJMUA

Ta'lif sohasi: 230000 –Iqtisod

Ta'lif yo'nalishi: 5230800 –Soliqlar va soliqqa tortish;



TOSHKENT–2018/2019

Fanning o'quv-uslubiy majmuasi o'quv va ishchi o'quv reja hamda o'quv dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan.

- Tuzuvchilar:** Jo'rayev A.S. - TMI, "Soliqlar va soliqla tortish" kafedrasi mudiri, i.f.d., professor
Shirinov S.E. - TMI "Soliqlar va soliqlatortish" kafedrasi, dotsenti, i.f.n.

- Taqrizchilar:** Xudoyqulov S.K. - - TDIU , "Moliya va soliqlar" kafedrasi mudiri, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent. (*turdosh OTMdani*)
Safarov G'.A. - TMI, "Soliqlar va soliqla tortish" kafedrasi dotsenti, i.f.n.

Fanning o'quv-uslubiy majmuasi kafedraning 2018 yil __-__ dagi __-sonli yig'ilishi muhokamasidan o'tkazilgan va fakultet Kengashida ko'rib chiqish uchun tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri

Jo'rayev A.S.

Fanning o'quv-uslubiy majmuasi Sug'urta fakulteti Kengashida muhokamadan o'tkazilgan va tavsiya etilgan (2018 yil __-iyundagi __-sonli qarori).

Fakultet dekani

Safarov G'.A.

Kelishildi:

O'quv-uslibiy bo'lim boshlig'i:

Baymuradov T.M.

**O'quv ishlari bo'yicha
prorektor**

Qo'ziyev I.N.

“Солик тушмлари хисоби ва прогнози” fani bo'yicha

o'quv-uslubiy majmua

MUNDARIJASI

t/r	Asosiy bo'limlar	Betlar
1	O'quv materiallar	
2	Mustaqil ta'lim mashg'ulotlari	
3	Талаба портфолиоси	
4	Ўқув портфолиосининг турлари	
5	Glossariy	
6	Ilovalar:	
	-fan dasturi	
	-ishchi fan dasturi	
	-tarqatma materiallar	
	-testlar	

I. O'QUV MATERIALLARI

1.1. “SOLIQ TUSHUMLARI HISOBI VA PROGNOZI FANINING MAQSADI, PREDMETI VA VAZIFALARI” O‘QUV MODULI YUZASIDAN MA’RUZA MATNI

I. O‘QUV MATN (MODUL)

MODUL: SOLIQ TUSHUMLARI HISOBI VA PROGNOZI FANINING MAQSADI, PREDMETI VA VAZIFALARI



Reja:

- 1.Soliq tushumlari hisobi va prognozi fanining, maqsadi, predmeti va vazifalari.
- 2.Soliq tushumlari hisobi va prognozi fanining boshqa fanlar bilan bog‘liqligi.
- 3.Soliq tushumlari hisobi va prognozining tashkil etilishi hamda tamoyillari.
- 4.Statistik kuzatish shakllari, turlari, kuzatish materiallarini jamlash, svodkalash va guruhlash, mutloq va nisbiy ko‘rsatkichlar hamda prognozlashtirish metodlari va modellari.

Tayanch so‘z va iboralar: Soliq tushunchasi, soliq tushumlari hisobi, soliq tizimi, soliq obektlari, soliq bazalari, prognozlash, statistik kuzatuv, statistik hisobot, mutloq miqdorlar, nisbiy miqdorlar, soliq tushumi prognози.

1.Soliq tushumlari hisobi va prognozi fanining, maqsadi, predmeti va vazifalari. Biz soliq tushumlari hisobi va prognozi fanining, maqsadi, predmeti va vazifalari to‘liq tushunishimiz uchun, dastavval soliq so‘zining tarixan mavjud bo‘lgan iqtisodiy ma’nosini to‘g‘ri tushunib tahlil qilib olishimiz lozim.Tarixan soliqlar, davlatni saqlab turish uchun zarur bo‘lgan majburiy to‘lovlar sifatida, davlat paydo bo‘lishi bilan vujudga kelgan. Soliqlar, davlat faoliyat ko‘rsatishining moddiy asosini tashkil etadi, ularning iqtisodiy tabiatи xuddi shu yerdan kelib chiqadi.

Soliq tushunchasi - iqtisodiy munosabatlarda asosiy o‘rinni egallaydi. Uning xarakterli tomoni shundaki - u tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanadigan yuridik va jismoniy shaxslardan ularga mulkchilik, xo‘jalik yuritish yoki tezkor boshqaruv huquqida tegishli bo‘lgan pul mablag‘larini davlat va munitsipal tuzilmalarni moliyaviy ta‘minlash maqsadida begonalashtirish shaklida undiriladigan majburiy, yakka tartibdagи qaytarib berilmaydigan to‘lovlarни aks ettiradi, ya’ni soliq - davlat tomonidan xo‘jalik yurituvchi subektlar va fuqarolardan majburiy qonuniy tartibda belgi=langan stavkalar bo‘yicha, soliq to‘lovchining bundan biron bir muayyan manfaat ko‘rishi bilan bevosita bog‘lanmagan tarzda undiriladigan pul yig‘imi.

Hozirgi vaqtda soliqlar vositasida davlat daromadlarining asosiy qismi shakllantiriladi. Bozor munosabatlarining shakllanishi davrida soliqlar korxonalarining iqtisodiy faoliyatini tartibga solishning bilvosita quroli hisoblanadi.

Yuqorida ta’riflarni tahlil qilgan holda quyidagilarni ifodalash mumkin:

- a) soliqlarni belgilash huquqi faqat davlatning qonun chiqaruvchi oliy organi - parlamentga beriladi;
- b) soliqni fuqaro emas, mulkdor to‘laydi;
- v) soliq davlat byudjetiga daromad olish uchun belgilanadi;
- g) soliq to‘lash majburiy xususiyatga ega.

Demak, soliqlar - byudjetga tushadigan pul va qonunda belgilangan majburiy munosabatlardir. Soliqlarning majburiyligi Oliy majlis bilan tasdiqlangan huquqiy va meyoriy qonunlar bilan ta‘minlanadi. Shunday ekan, soliqlarni to‘lamaslikka, soliq obektini yashirishga, soliq summasini kamaytirib ko‘rsatishga na huquqiy va na jismoniy shaxslarning haqqi yo‘q.

Soliq to‘lash xo‘jalik yurituvchi subektlar va fuqarolar bilan davlat o‘rtasida yangidan yaratilgan qiymatni taqsimlashning asosiy vositasi hisoblanadi. Biror bir jamiyatni soliq tizimisiz tasavvur qilish mumkin emas. Chunki soliqlar byudjet daromadlari (pul fondi)ni tashkil etishning asosiy vositasi bo‘libgina qolmay:

- mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirishga;
- ishlab chiqarishni rag‘batlantirishda investitsiyalarni ko‘paytirishga;
- raqobatbardosh mahsulot hissasini ko‘paytirishga;
- kichik va o‘rta biznesni rivojlantirishga;
- xususiy korxonalar ochish bilan bog‘liq bo‘lgan bozor infratuzilmasini barpo qilishga;
- umum davlat ehtiyojlarini qondirishga va boshqalarga xizmat qiladi.

Jamiyat rivojlanishi tarixida hali birorta davlat soliqlarsiz mavjud bo‘lgan emas. Bozor iqtisodiyotida ham davlat o‘zining ichki va tashqi vazifalarini, har xil ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan mablag‘larning asosiy qismini soliqlar orqali to‘playdi.

Soliq tizimi bu o‘zaro bog‘liq mohiyati jihatidan bir xil bo‘lgan soliqlar va soliqsiz to‘lovlari, soliq siyosati va soliq mexanizmlarining o‘zaro majmui bo‘lib, respublika budjet tizimi, ya‘ni davlat budgeti va mahalliy budgetlar uchun muhim moliyaviy resurs hisoblanadi. Hozirgi vaqtida davlat budgeti daromadlarining 80-85 foizga yaqini soliqlar va soliqsiz to‘lovlari hisobiga shakllanmoqda.

Soliq tushumlari hisobi va prognozining zarurligi soliqlar tomonidan bajariladigan fiskal (xazina), nazorat funksiyalari bilan bevosita bog‘liq.

Ayrim iqtisodchi olimlar soliqlar fiskal va nazorat qilish funksiyalaridan tashqari rag‘batlantirish, iqtisodiyotni boshqarish hamda daromadlarni boshqarish kabi funksiyalarini ham bajaradi deb ta‘kidlashadi.

Soliq tushumlari hisobi va prognozi fanining boshqa fanlar singari o‘ziga xos predmet va vazifalari mavjud. Soliqlar davlatning iqtisodiy va ijtimoiy siyosatini amalga oshirishning asosiy manbai hisoblanadi. Bu masalani echish soliq tushumlarining ob‘ektiga soliq bazasiga bog‘liq. «Soliq tushumlari hisobi va prognozi» fanining predmeti soliqlar va yig‘imlar tushumini, soliqqa tortiladigan baza va uni tashkil etuvchi elementlarning hisobini hamda ularning rivojlanishi tendentsiyasini chuqur o‘rganish va shu asosda budjet tushumlari ob‘ektlarini har birini alohida, shuningdek ularning umumiylajkini ma‘lum davr uchun prognozlash jarayonlarida yuzaga keluvchi munosabatlarni o‘rganishdir.

Soliq tushumlari hisobi va prognozi fani amaliyotidagi qonuniyatlarni o‘rganib boradi. O‘z vaqtida, soliq tushumlari hisobi va prognozi nazariyasi voqeliklarni amaliyotdan oladi va yana amaliyotga eng to‘g‘ri, ma‘qul va ilg‘or tajribalar olinib amaliyotga yo‘l ko‘rsatish uchun o‘rgatiladi. Demak, nazariya amaliyot uchun kerak va amaliyot uchun kompas, barometr, yo‘l boshlovchi vazifasini bajaradi. Nazariyasiz amaliyot yo‘ldan adashgan yo‘lovchidir. Nazariyani chuqur bilgan amaliyotchi har qanday o‘zgarishlarda ham ishlab keta oladi va yo‘ldan adashmaydi.

Soliq xizmati xodimlariga ular zimmasiga yuklangan vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishlari uchun faqat amaliy jihatdan soliqlarni bilibgina qolmasdan, soliq tushumlari hisobi va prognozining mazmun mohiyatini, soliq tushumlari hisobini yurtish qoidalarini hamda prognozlash jarayonlarini bilishi zarur. Buning uchun esa soliq tushumlari hisobi va prognozi fanini chuqur o‘rganish kerak. Har qanday vazifalarni kadrlar hal qiladi. Shuning uchun, soliqqa tortish sohasidagi bo‘lajak yetuk kadrlar soliq tushumlari hisobi va prognoziga oid chuqur nazariy bilimga va kasb mahoratiga ega bo‘lishlari o‘ta muhim.

«Soliq tushumlari hisobi va prognozi» fanining maqsadi – soliq tushumlari hisobi va prognozlashning nazariy asoslarini amaliyot bilan bog‘lagan holdan rivojlantirib borish, talabalarga soliq tushumlari hisobi va prognozlashni bo‘yicha bilim berish, soliq hisobi va prognozi tizimni mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasiga mos holda rivojlantirib borish hisoblanadi.

Mazkur fanni o‘qitishning zarurligi bozor iqtisodiyoti munosabatlari ichida soliq munosabatlarining ahamiyati o‘sib borayotganligidan kelib chiqadi.

“Soliq tushumlari hisobi va prognozi” fanining asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

1. Soliq idoralarida soliq to‘lovchilar, soliq obektlari, soliq bazalari, soliq imtiyozlariga doir ma’lumotlarni hisobini yuritish orqali ma’lumotlar bazasini shakllantirish, soliq tushumlariga oid statistik ko‘rsatkichlarni shallantirish va qayta ishslash jarayonlarini o‘rgatish;

2. Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning turlari bo‘yicha mamlakat, viloyatlar hamda tuman va shaharlar kesimida soliq tushumlarini prognozlash jarayonlarini, usullarini o‘rgatish;

3. Soliq tushumlari bo‘yicha prognoz ko‘rsatkichlarini bajarilishini ta‘minlash usullarini o‘rgantish, O‘zbekiston soliq qonunchiligiga muvofiq soliqlar va majburiy to‘lovlar yig‘ishni ta‘minlash.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral, “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli, 2017 yil 13 dekabardagi “Mhalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy erkinligini oshirish, mahalliy byudjetlarga tushumlarning to‘liqligini ta‘minlash bo‘yicha soliq va moliya organlari javobgarligini kuchaytirishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5283-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 iyuldagagi “Soliq ma’muriyatichilagini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning yig‘iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5216-sonli Farmonlarini qabul qilinishi mazkur fanning oldiga bir qator qo‘srimcha vazifalar qo‘ymoqda.

2.Soliq tushumlari hisobi va prognozi fanining boshqa fanlar bilan bog‘liqligi. Soliq tushumlari hisobi va prognozi fani soliq nazariyasi fani bilan chambarchas bog‘liqdir.Chunki soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning nazariy asoslarni bilmasdan turib, mazkur fanni to‘liq o‘zlashtirish mumkin emas. Buxgalteriya hisobi fani ham biz o‘rganayotgan fan bilan yaqindan bog‘liq hisoblanadi. Soliq tushumlarini hisobini yuritish ham aynan hisob tamoyillariga asoslanadi. Ehtimollar nazariyasi, statistika, ekonometrika fanlarining ayrim usullaridan soliq tushumlarini prognozlashda foydalanishi orqali ular orasidagi bog‘liqlik tushuntirib beriladi.

«Soliq tushumlari hisobi va prognozi» fani davlat budgeti fani bilan ham o‘zaro bog‘liqdir. Chunki soliqlar oxir oqibatda budget daromadlarini shakllantiradi. Soliq tushmulari hisobi va prognozlash masalalari Davlat byudjeti doirasida amalga oshiriladi. Soliq tushmulari bo‘lmasa budget munosabatlarning o‘zi bo‘lmaydi. Shu sababli, mazkur fan moliya nazariyasi, davlat moliyasi, korxonalar moliyasi kabi fanlar bilan ham o‘zaro bog‘liqdir.

3.Soliq tushumlari hisobi va prognozining tashkil etilishi hamda tamoyillari.

Soliq tushumlari hisobi va prognozlashtirish O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, Prezident Qaror va Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Davlat soliq qo‘mitasining hamda Moliya vazirligining nomativ-meyoriy hujjalari asoslarda tashkil qilinadi. U soliq to‘lovchilar tomonidan taqdim qilinadigan soliq va moliyaviy hisobotlar, hisob-kitoblar, dasturiy mahsullar asosida amalga oshiriladi.

Hisobotlar soliq to‘lovchilar tomonidan quyidagi tartiblarda taqdim etishlari mumkin:

a) soliq to‘lovchi hisobga qo‘yilgan davlat soliq xizmati organiga bevosita tashrifi orqali.

Soliq to‘lovchilar tomonidan hisobotlar soliq inspeksiyalardagi alohida maxsus ajratilgan xonalarda (operatsion zallarda) taqdim etiladi.

b) pochta aloqasi orqali.

s) elektron hujjat aylanishi orqali.

DSQning 1996 yil 8 avgustdagagi 168-sonli buyrug‘iga asosan, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Bank va DSQ o‘rtasida ma’lumotlar almashishni avtomatlashtirilgan holda elektron ko‘rinishda qabul qilish ishlari tayyorgarliklar boshlandi.

DSQning 1996 yil 9 oktabrdagi 223-sonli buyrug‘iga asosan, jismoniy shaxslar bo‘yicha bank hujjatlarini kiritish, boqimanda va ortiqcha to‘lovlarni tahlil qilish va hisobotlarni tuzish dasturlari tajribaviy ishlatish uchun joriy qilindi va 1997 yil 1 yanvar oyidan boshlab to‘liq qo‘llashga o‘tildi.

DSQning 1996 yil 18 oktabrdagi «Qog‘ozsiz ish yuritish texnologiyasiga to‘liqligicha o‘tish” haqidagi 229-sonli buyrug‘iga asosan, 1997 yil 1 yanvardan boshlab, yuridik shaxslarning hisob varaqlari, boqimanda bo‘yicha (1-NN) va soliq, tushumlar bo‘yicha (1-N) hisobotlar ko‘rsatilgan yo‘riqnomalarga asosan faqatgina kompyuterda yuritilishi belgilandi.

Tasdiqlangan va amalda foydalaniladigan hisobotlardan asosiysi bu «hisoblangan va davlat byudjetiga haqiqatda tushgan soliqlar va boshqa majburiy to’lovlar summasi to’g’risida» gi 1-«N» hisoboti.

1 – «N» hisobotida umumiy soliqlar tushumi va soliq turlari boyicha xukumat tomonidan belgilangan prognoz ko’rsatkichlari, xaqiqatda byudjetga o’tkazilgan summalar, o’rtasidagi farqi va bajarilish foizlari aks ettiriladi. Ko’rsatkichlar yil boshidan, chorak va oy boshidan o’sib borish surati bilan jamlanib boriladi.

Hisobotlar har oyning 1-sanasiga soliq turlari boyicha to’liq va asosiy soliq turlari boyicha qisqartirilgan shaklda har oyning 16 sanasiga jamlanadi.

Tuzilgan hisobot davlat boshqaruvi, moliya, statistika idoralariga foydalanish uchun taqdim etiladi. hisobotdagi malumotlar orqali respublika va ma halliy byudjetlarning bajarilishi tahlil qilinadi.

Ushbu hisobot asosida Moliya Vazirligi davlat byudjetini daromad qismini to’ldirilshini va byudjetning harajat qismini etarli mablag` bilan taminlanishini tahlil qilib, kerakli chora-tadbirlar belgilab oladi.

Olib borilgan ishlar «Soliq to’lovchilarni faoliyatini nazorat qilish to’g’risida»gi 2-«N» hisobotida aks ettiriladi.

Bu hisobotda quyidagi ko’rsatkichlar aks ettiriladi:

- davlat soliq inspeksiyasida royxatdan o’tgan soliq to’lovchi huquqiy va jismoniy shaxslarni soni;

- ular tomonidan byudjetga o’tkazilgan soliqlar va majburiy to’lovlar summasi;

- soliq to’lovchi huquqiy va jismoniy shaxslarni faoliyatini nazorat qilish borasida o’tkazilgan tekshirishlar, aniqlangan qonunbuzarchiliklar va ko’rilgan moliyaviy, ma’muriy choralar, jarimalar;

2-«N» hisobotidagi malumotlarini soliq inspeksiyasining nazorat ishlarini baholovchi asosiy ko’rsatkichlar deb hisoblasa bo’ladi.

Bu hisobot quyidagi turlarga bo’ladi:

- to’liq hisobot. Bu hisobot turi yarim yillik va bir yillik shaklida o’sib borish tartibi bilan tuziladi. Bu hisobotda xudduddagi jami soliq to’lovchilar mulkchilik shakliga, tarmoqlarga mansubligiga asosan ko’rsatiladi, ularning to’lagan soliq summalarini, faoliyatini tekshirish natijalari aks ettiriladi;

- har oyning boshida tuziladigan qisqartirilgan turi. Hisobotning bu shaklida soliq to’lovchi yuridik va jismoniy shaxslarni umumiy soni, tekshirishlar soni, aniqlangan qonunbuzarliklar va ko’rilgan moliyaviy, ma’muriy choralar va jarimalar aks ettiriladi.

Davlat soliq organlarida «Xo’jalik yurituvchi subektlarni boqimandasini to’g’risida»gi «1-N-N» hisoboti tuziladi.

Ushbu hisobotda xalq xo’jaligi tarmoqlariga mansub xo’jalik yurituvchi subektlar, ularning soliqlar va boshqa majburiy to’lovlar boyicha boqimanda summasi, hisoblangan penya summalarini aks ettiriladi.

Bu turdagи hisobot har oyning boshiga soliq inspeksiylaridan viloyat soliq boshqarmalariga, viloyat soliq boshqarmalaridan Davlat soliq qo’mitasiga uzatiladi.

Davlat soliq xizmati idoralarini zamonaviy kompyuter texnologiyalari orqali bir-biri bilan bog’lash, yagona axborotlar bazasini takomillashtirish maqsadida Davlat soliq qo’mitasi 2003 yilga qadar malumotlarga ishlov berishni yagona kompyuter tizimini (MIYAKT) tashkil qilishni maqsad qilib qo’yilgan edi.

Ushbu konsepsiya DSQda soliq axborotiga ishlov berishning avtomatlashtirilgan tizimini rivojlantirishning asosiy tamoyilini va yo’llarni belgilab berdi.

Ishlab chiqilgan konsepsiyaning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat edi:

- barcha tarkibiy qismlarni samarador va maqbul faoliyat ko’rsatadigan foydalanish tizimiga kiritish hamda integratsiyalash bosqichida MIYAKTni boshqarishdan imkonli boricha katta samara olish;

- soliq inspektorlarining soliqlar tushumini yig’ish bo‘yicha yanada samaraliroq ishlashiga erishish;

- soliqlar va soliq to‘lovchilar bo‘yicha aniq axborot olish;
- mavjud axborotni himoyalash.

Soliq xizmati faoliyatining turli xillarini avtomatlashtirish bo‘yicha kichik tizimlarni barpo etish va foydalanishga topshirishning quyidagi bosqichlari belgilanadi:

- soliq axboroti ma’lumotlariga ishlov berish va ularni saqlash uchun Davlat soliq qo‘mitasining barcha uchta darajasi uchun hisoblash, periferiya ofis uskunalari bilan qo‘sishma ravishda jihozlash;

- soliq idoralarining har bir bo‘linmasida lokal-axborot-hisoblash tarmoqlarini (LAXT) o‘rnatish uchun kerak bo‘lgan kommunikatsiya uskunalari bilan jihozlash va barcha muntazam hamda yordamchi dasturiy taminot bilan birga DSQ keng qamrovli korporativ axborot-taqsimlash tarmog‘ini (KKKAXT) yaratish;

- taqsimlangan ma’lumotlar bazalari bilan ishslash, soliq ma’lumotlarining yagona axborot makonini barpo etish uchun mijos-server, mijoz-tarmoq va internet texnologiyalarini joriy etish;

- byudjetga soliq to‘lovlarining o‘z vaqtida va to‘liq kelib tushishini ta’minalash hamda soliq idoralarida bugungi kun talabiga javob beradigan ma’lumotlarni tezkor ishslash va uzatish tizimini yaratish uchun zamonaviy telekomunikatsiya vositalarini joriy etish.

Ushbu maqsadlarni amalga oshirish uchun 1997 yil 31 dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 580-sonli «Davlat soliq qo‘mitasining keng qamrovli axborot tarmog‘ini yaratish to‘g‘risida»gi Qarori qabul qilindi.

Ushbu qarorga asosan Respublika soliq tizimining barcha bo‘g‘inlarida yo‘ldosh aloqa tizimi yo‘lga qo‘yildi.

Bugungi kunda soliq va boshqa moliyaviy hisobotlarni tadbirkorlik subektlaridan elektron ko‘rinishda yig‘ish va qayta ishslash tizimi ham tobora rivojlanib bormoqda. Xususan, Davlat soliq qo‘mitasining «soliq.uz» saytidan har qanday soliq to‘lovchi – yuridik va jismoniy shaxslar – maslahat olishi, elektron ko‘rinishda soliq hisoboti yoki daromadlar haqida deklaratsiya topshirishi, o‘z STIRini tasdiqlatishi mumkin.

Davlat Soliq Qo‘mitasining 2005 yil 10 iyuldagagi 2005-42-son qaroriga ilova qilib “Davlat soliq xizmati organlari tadbirkorlik subektlaridan moliyaviy hisobot, soliqlar, majburiy to‘lovlar va daromadlar to‘g‘risidagi deklaratsiyalar bo‘yicha hisob-kitoblar, yozma arizalar va bildirishnomalarni qabul qilib olish hamda ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risida” nizomi tasdiqlangan.

Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasi qonunlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 15 iyundagi "Tadbirkorlik subektlari tomonidan taqdim etiladigan hisobot tizimini takomillashtirish va uni noqonuniy talab etganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish to‘g‘risida"gi PQ-100 sonli qaroriga asosan soliq to‘lovchilar tomonidan moliyaviy hisobot, soliqlar, majburiy to‘lovlar va ajratmalar, daromadlar to‘g‘risidagi deklaratsiyalar bo‘yicha hisob-kitoblar (shu jumladan qonunchilikka muvofiq hisob-kitoblarga ilova qilinadigan hujjatlar) hamda soliqlar va majburiy to‘lovlarni hisoblash, to‘lashga doir yozma arizalar va bildirishnomalarni soliq organlariga taqdim etish borasida o‘zaro munosabatlar tartibini belgilaydi.

Mazkur Nizom amaldagi qonunchilikka ko‘ra soliq to‘lovchi bo‘lgan va davlat soliq xizmati organlariga hisobotlar takdim etishi belgilangan tadbirkorlik subektlariga va boshqa tashkilotlarga tatbiq etiladi.

Soliq to‘lovchilar tomonidan taqdim etiladigan moliyaviy hisobotlarning shakllari, ularni tuzish tartibi va taqdim etish muddatlari O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadi.

Soliqlar, majburiy to‘lovlar va ajratmalar bo‘yicha hisob-kitoblarni tuzish tartibi hamda taqdim qilish muddatlari O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi va boshqa qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Amaldagi qonunchilik bilan belgilangan moliyaviy, soliq hisobotlar va soliqlarni hisoblab chiqish bilan bog‘liq bo‘lgan majburiy ma’lumotnomalardan tashqari soliq to‘lovchilardan qo‘sishma ravishda har qanday ma’lumotlar, ma’lumotnomalar va hujjatlarni talab qilish qat’iyan man etiladi.

Bugungi kunda soliq tushumlarini hisobini tashkil qilish asosiy tamoyillariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- soliq ma'murchiligi tizimini takomillashtirish, soddalashtirish va shunigdek barkarorligini ta'minlash;

- soliq konunchiligining buzilishiga yo'l qo'ymasliq uni oldini olish va nazorat o'rnatish;

- tadbirkorlik subektlari tomonidan moliya va soliq hisobotlarini hisob-kitob qilishda yo'l qo'yilishi mumkin bulgan mantikiy xatoliklarni oldini olish;

- hisobot shakllarini xarid kilish xarajatlarini, soliq inspeksiyasiga kelish-ketish va navbat kutish uchun ketadigan vaqtini iktisod qilish;

- takdim etiladigan soliq va moliya hisobotlarini avtomat tarzda tahlil etib, ularning shaxsiy hisob varaqalariga o'tkazish;

- tadbirkorlik subektlariga sifatli xizmat kursatish va soliq xizmati organlari xodimlarining ishini yengillashtirish.

-soliq tushumlari, soliq obektlari. Soliqlarni hisoblash bilan bog'liq bo'lgan obektlarni to'liq, haqqoniy, o'z vaqtida hisobga olinishini ta'minlash.

Soliq tushumlarini prognоз O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi, Moliya vazirligi va tegishli hamda manfaatdor idoralar tmonidan tashkil qilinadi.

Soliq tushumlariga oid ko'rsatkichlar prognоз va hisobot toifalariga ajratishimiz mumkin. Prognoz ko'rsatkichlar kelajakda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan hodisaning miqdorini tavsiplaydi. Hisobot ko'rsatkichlar esa haqiqatda yuz bergan hodisaning miqdorini belgilaydi.

Prognozlashtirish (grekcha prognoses-oldindan ko'rish) moliyaviy menedjmentda uzoq istiqbolga moliyaviy xolatni bir butun xolda va turli qismlarini o'zgartirishni ishlab chiqish tushuniladi.

Prognozlash - bu ob`ektni yoki xodisani kelajakdagи me`yoriy yoki maqbul holatlari, ularga erishish va ularni royobga chiqarishning alternativ yo'llari to'g`risidagi ehtimolga yaqin tasavvurni ishlab chiqish. Prognozlash oldindan ko'rish formasi bo'lib, ijtimoiy iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy dasturlar va rejalarini ishlab chiqishdan oldin amalga oshiriladi. Rejalashtirish prognozlashtirishdan farqli ravishda ishlab chiqilgan prognozni bevosita amaliyatga tadbiq etish vazifasini oldiga qoymaydi. Prognozlar tegishli o'zgarishlarni oldindan ko'rishni o'zida aks ettiradi. Prognozlashtirishning o'ziga xos tomonlaridan yana biri moliyaviy ko'rsatkich va mezonlarni tashkil etishdagи muqobililikdir. Yuqorida mezon va ko'rsatkichlar moliyaviy holat rivojlanishini variantlilagini aniqlaydi. Ushbu variantlar ob`ektidagi jarayonlardagi xodisalarning variantliligi namoyon bo'layotgan tendentsiyalar asosida ishlab chiqiladi.

Soliq tushumlarini prognoz qilishning bir qancha umumiyl qoidalari mavjud. Ular quyidagilardan iborat:

- umumiyl va hududlar boyicha asosiy daromad turlariga doir yillik tushumlarning prognozi;

- asosiy daromad turlari oylarga bo'lingan holda choraklik tushumlar prognozi;

- prognoz hisob-kitoblari bilan belgilangan daromadlarni jalg etish boyicha choralarini amalga oshirish, soliq to'lovchilarining soliq to'lovchilarga faol ta'siri.

4.Statistik kuzatish shakllari, turlari, kuzatish materiallarini jamlash, svodkalash va guruhlash, mutloq va nisbiy ko'rsatkichlar hamda prognozlashtirish metodlari va modellari.

Statistik qonuniyatlarini aniqlash soliq statistikasida ham markaziy o'r'in egallaydi. Qonuniyat deganda soliqqa oid hodislarning hamda jarayonlarning vaqt va fazo boyicha o'zgarish qonuniyatlarini tushuniladi.

Soliq statistikasining tadiqot jarayoni quyidagi bosqichlardan tarkib topadi:

-axborotlarni yig`ish va dastlabki qayta ishlov berish;

-ma'lumotlarni gurhlash va ularga ishlov berish;

-statistik materiallarni umumlashtirish va tahlil natijalarini qayta ishlash;

-xulosa va tavsilarni ishlab chiqish.

Soliq statistikasida statistik kuzatuv ikki usulda tashkil qilish mumkin: jamlamaning barcha birliklarini kuzatish; fakt sodir bo'lganda kuzatuvni tashkil qilish.

Bundan tashqari kuzatuv yoppasiga yoki qiman usulida amalga oshirishi mumkin.

Qisman kuzatuvi statistik jamlamaning asosiy massivlarini yoki monografik yoki tanlama turlariga ajaratiladi.

Monografik kuzatuvda statistik jamlamaning ayrim tanlab olingan birliklari har tomonlama o'rganiladi.

Fakt sodir bo'lganda kuzatuvni tashkil qilish ham o'z navbatida uzlukli va uzluksiz turlariga bo'linadi.

Uzluksiz kuzatuvda sodir bo'luvchi barcha faktlar roy berish vaqtida royxatga olinadi.

Uzlukli kuzatuv sistematik tartibda, ayrim vaqt intervallarida amalga oshiriladi.

Soliq statistikasida statistik axborotlarni to'plash ikki usulda amalga oshirilishi mumkin: hujjatli hamda bevosita kuzatish(so'rov) usulida.

Ma'lumotlarni hujjatli usulida yig'ishda turli toifadagi hujjatlardan foydalaniladi. Ma'lumotlar olinayotgan hujjatlarga katta talablar qoyiladi. Ulardagi ma'lumotlar yuqori ishonchli bo'lishi lozim.

So'rov usulida ma'lumot yig'ish ekspeditsiya, korrespondentsiya, anketa, bevosita so'rovni amalga oshirish turlariga ajratiladi.

Soliq statistikasida statistik kuzatuv quyidagi shakllarda tashkil qilinadi:

-hisobot;

-maxsus tashkil qilingan statistik kuzatuv;

-registrlar.

Statistik hisobot - statistik kuzatuvning o'ziga xos bo'lgan kuzatuv turi bo'lib, soliq va soliq to'lovlarini to'g'risidagi ma'lumotlar korxona va tashkilotlar tomonidan taqdim qilinuvchi maxsus hujjatlardan yig'iladi. Statistik hisobotlarning taqdim qilish shakli va muddatlari amaldagi qonunchilik talablari bilan belgilanadi.

Statistik hisobotlar o'z navbatida maxsus va umum belgilangan turlarga guruhlanadi. Umum belgilangan statistik hisobotlarning ko'rsatkichlari barcha korxona va tashkilotlar uchun bir xil mazmunda bo'lsa, maxsus statistik hisobotlarning ko'rsatkichlari iqtisodiyotning ayrim tarmoqlari uchun mo'ljallanadi.

Taqdim qilish muddatiga qarab statistik hisobotlar kunlik, haftalik, dekadalik, oylik, choraklik, yarim yillik va yillik toifalariga bo'linadi.

Soliqlar va soliqqa tortish jarayonlarig oid faktlarni sodir bo'lishi vaqtida royxatga olish orqali kuzatuvni tashkil qilish- registr shakli deb ataladi. Masalan, soliq to'lovchilarni tashkil bo'lishi vaqtida ularni davlat royxatiga olish, ko'chmas mulk ob`ektlarini davlat royxatiga olish.

Statistik ko'rsatkichlar vaqt va fazo boyicha variatsiyaga ega bo'lib, ular natural, qiymat va mehnat shakllarida aks etishi mumkin.

Aniqlik darajasiga qarab statistik hisobot ko'rsatkichlari kutilayotgan, dastlabki, yakuniy turlariga bo'linadi.

O'r ganilayotgan statistik ob`ektning mazmuniga va hajmiga qarab, statistik ko'rsatkichlarni individual va jamlama turlariga guruhlanadi.

Jamlama statistik ko'rsatkichlarning statistik tadqiqotlarni amalga oshirishdagi ahamiyati quyidagilar bilan belgilanadi:

-o'r ganilayotgan hodisa to'g'risida umumiy xarakteristika beradi;

-hodisalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik darajasi aniqlanadi;

-hodisalarda yuz beruvchi o'zgarishlar va o'zgarish qonuniyatları aniqlanadi.

Statistik ko'rsatkichilarni tuzishda quyidagi tamoyillarga amal qilish lozim:

-ob`ektivlik va reallik;

-nazariy va metodologik jihatidan, har tomonlama asoslanganlik.

Mutloq statistik miqdorlar statistik hodislarning belgilarni sonli ifddodalari hisoblanadi. Ular tadiqot qilinayotgan ob`ektning miqdoriga vaqt va fazo boyicha xarakteristika beradi. Mutloq miqdorlar statistik kuzatuv natijasida shakllantiriladi, ayrimlari esa hisob-kitoblar natijasida ham aniqlanadi.

Mutloq miqdorlar soliqlarga oid hodisa va jarayonlarning tabiiy asosini tashkil qiladi. Shu sababli, ular o'rganilayotgan ob`ektning sonini, miqdorini naturada, qiymatda, mehnat birliklarida ifodalaydi.

Nisbiy miqdorlar statistik jamlamani tashkil qiluvchi birliklarning nisbiy miqdorini ifodalaydi. Ularni hisoblashda ikki ko'rsatkichning nisbati inobatga olinadi va quyidagi kattaliklarda o'lchanadi:

- foyzda;
- promilliyada;
- prodetsimiliyada.

Mazmuniga ko'ra nisbiy miqdorlar dinamika, shartnoma majburiyatlarini bajarish, tarkib, koordinatsiya, intensivlik, taqqoslash turlariga bo'linadi.

O'sish sur'ati dinamik miqdorning yorqin namoyondasi hisoblanadi. Ular yordamida statistik hodisalarining vaqt boyicha o'zgarishi belgilanadi.

Soliq statistikasida foydalaniluvchi nisbiy miqdor turlaridan biri- tarkibning nisbiy miqdori hisoblanadi. Tarkibning nisbiy miqdori ulush deb atalib, u tadiqoq qilinayotgan ob`ektning qismilarini umumiyligida miqdorga nisbatan aniqlanadi. Bunda, umumiyligida miqdor 100% deb qabul qilinadi.

Nisbiy miqdorning intensivligi soliq statistikasida keng qo'llaniluvchi ko'rsatkich bo'lib, u o'rganiluvchi ob`ektning tanlangan muhitda qanchalik tez uchrashi, tarqarganlik darjasini o'lchashda foydalaniladi. Turli toifadagi mutloq miqdorlarni o'zaro taqqoslash orqali nisbiy miqdorning intensivligi darajasi aniqlanadi. Taqqoslash natijasida hosil bo'lgan miqdorning kattalikligiga qarab 100 ga yoki 1000 ga, yoki 10000 ga ko'paytirilishi mumkin. 100 ga ko'paytirilgan ko'rsatkich foyizda, 1000 ga ko'paytirilgan ko'rsatkich promilda, 10000 ga ko'paytirilgan ko'rsatkich prodistsimilda hisoblangan deb qabul qilinadi.

Soliq statistikasining dinamika nisbiy miqdorlari deb, soliqqa oid xodisa va jarayonlarning vaqt va fazo boyicha o'zgarishini tavsiflovchi ko'rsatkichlarga aytildi.

Dinamik nisbiy miqdorlar soliq statistikasida o'sish darajasi ham deb yuritiladi. O'z navbatida dinamik nisbiy miqdorlarni hisoblashning bazisli va zanjirsimon usullar mavjud. Bazis davrga nisbatan keyingi davrlar darajasi qancha miqdorda o'zgorganligi bazisli usul yordamida hisoblanadi.

Zanjirsimon usul yordamida har bir keyingi davr o'zidan oldingi davr darajasiga nisbatan qancha o'zgarib borayotgani aniqlanadi. Dinamik ko'rsatkichlar koeffitsientlarda va foizlarda ifodalananadi.

Soliqlar bilan bog'liq ijtimoiy munosbatlarni statistik o'rganishda mutloq va nisbiy miqdordardan tashqari o'rtacha kattaliklardan ham foydalaniladi.

O'rtacha kattaliklar umumlashtiruvchi statistik ko'rsatkich hisoblanib, ommaviy hisoblangan ijtimoiy hodisalarga umumlashtiruvchi xarakteristika beradi. Ular variatsiyalanuvchi belgining individual ahamiyati asosida hisoblanadi. Boshqa so'zlar bilan izzohlaganda o'rtacha kattaliklar jamlama tarkibiga kiruvchi barcha o'rganilayotgan elementlarning umumiyligini tavsifini o'zida namoyon qiladi. O'rtacha kattaliklar yordamida jamlama elementlarining belgilarini o'zgarishiga sabab bo'lувchi barcha omillarning ta'sir miqdori o'rtachalashtiriladi.

Element belgilariga xos bo'lgan ahmiyatni haqqoniyligini ta'minlash maqsadida, o'rtacha kattaliklar faqat bir tipdagisi elementlardan tashkil topgan jamlama boyicha hisoblanadi.

Xullas, o'rtacha kattaliklar –bu aniq vaqt va fazoda aniqlanuvchi, jamlamaning bitta elementiga to'g'ri keluvchi belgilarning variatsilanish darajasini tavsiflovchi umumiyligida ko'rsatkich.

Jamlama boyicha o'rtacha kattaliklarni hisoblashda quyidagi talablarni bajarish muhim hisoblanadi:

- 1) o'rtacha kattalik aniqlanayotgan bir tipdagisi jamlamaning sifati;
- 2) mutloq individual xarakterga ega bo'lgan omillar va ularning sabalarini nazardan chetda goldirish;
- 3) o'rtacha kattalikni aniqlash maqsadi.

Jamlama boyicha aniqlangan o'rtacha kattalik umumiy o'rtacha kattalik, jamlama tarkibiga kiruvchi guruhlar oyicha aniqlangan o'rtacha kattalik guruh darajasidagi o'rtacha kattalik deb ataladi.

O'rtacha kattalikni hisoblashning bir qancha turlari mavjud. Masalan, o'rtacha arifmetik, o'rtacha garmonik, o'rtacha geometrik.

Soliq statistikasida qo'llaniluvchi o'rtacha kattaliklarni ikki guruhga ajratish mumkin:

1) Daraja ko'rinishidagi o'rtachalar- o'rtacha arifmetik, o'rtacha garmonik, o'rtacha geometrik srednyaya garmonicheskaya, o'rtacha kvadratik, o'rtacha kubik;

2) tarkibiy o'rtachalar – moda, mediana.

O'rtacha arifmetik kattalik quyidagi formula asosida hisoblanadi: $O' = (U_1 + U_2 + \dots + U_n)/n$ bu erda,

O' -o'rtacha arifmetik kattalik;

U_1, U_2, \dots, U_n - jamlama elementlarining qiymati;

n- elementlar soni.

Tortilgan o'rtacha arifmetik kattalik quyidagi formula asosida topiladi:

$O'AK = (\sum UF)/\sum F$ bu erda,

$O'AK$ - tortilgan o'rtacha arifmetik kattalik;

U-variantlar;

F- variantlar chastotasi.

Oddiy o'rtacha garmonik kattalik quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$O'oddgarm. = n/\sum 1/U$.

Tortilgan o'rtacha garmonik kattalik quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$O'tortgarm. = n/\sum ((1/U)^*F)$.

Jamlama elementlarni o'sish tartibida bir qator qilib joylashtiriganda, qatorning o'rtasini egallagan element jamalamaning medinanasini tashkil qiladi. Mediana qatorda joylashgan elementlar sonini teng ikkiga bo'ladi. Qator elementlari toq sonni tashkil qilganda moda quyidagi formula asosida topiladi:

$Med = (n+1)/2$

Qatorda joylashgan elementlar juft sonni tashkil qilsa, qatorni o'rtasida joylashgan ikki elementning o'rtacha kattaligi mediana sifatida qabul qilinadi.

Qator elementlari tarkibida eng katta qiymatga ega bo'lgan element jamlamaning modasini tashkil qiladi.

Qator elementlarining eng katta qiymati va eng kichik qiymatlari o'rtasidagi farq variatsiya deb talqin qilinadi.

Soliq statistikasi va prognozida dispersiya va o'rtacha kvadratik chetlanish statistik ko'rsatkichlardan ham foydalanadi. Dispersiya quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$D = (\sum (U - O')^2)/n$ bunda,

D-dispersiya qiymati.

O'rtacha kvadratik chetlanish quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$\sigma = \sqrt{D}$, bunda:

σ - o'rtacha kvadratik chetlanish qiymati.

Prognozlash jamiyatning barcha ijtimoiy-iqtisodiy sohalarida qo'llaniladi.

Prognozlash qo'llanilish sohasiga ko'ra quyidagi

- ijtimoiy prognozlash;

- iqtisodiy prognozlash;

- ilmiy texnikaviy prognozlashlarga ajratiladi.

Boshqaruv darajasiga ko'ra prognozlash – xalq xo'jaligini prognozlash, tarmoqni prognozlash, regional prognozlash hamda birlashma, korxonalarining moliyaviy-xo'jalik faoliyatini prognozlash toifalariga ajratiladi.

Shu bilan, birga barcha iqtisodiy fanlar kabi "Soliq hisobi va prognozi" fanining ham o'ziga xos ilmiy bilish usullari mayjud. Ulardan biri ilmiy abstraktsiya usulidir. Ilmiy abstraktsiya usulining mohiyati shundan iboratki, bunda tahlil paytida ob`ektning faqat bir tomoniga,

o'rganilayotgan jarayonning asl mohiyatiga e'tibor qaratiladi va ikkinchi darajali unsurlarning ta'siri e'tiborga olinmaydi.

"Soliq hisobi va prognozi" fani shuningdek, o'z predmetini o'rganishda nazariy tahlil va sintez usulidan ham foydalanadi. Tahlil - bu o'rganilayotgan butun ob'ektni qismlarga ajratish va ularni izchillik bilan tahlil qilish, bo'lsa, sintez esa, o'rganilgan qismlardan olingan xulosa va natijalarni bir butun yaxlit jarayon deb qarab, umumiy xulosa chiqarishdir. Soliplarga doir murakkab nazariy masalalar mana shu yo'l bilan o'rganiladi.

Rivojlangan davlatlarda soliq tushumlari prognozi soliqlarning yalpi bazasi va soliq stavkalari hamda mamlakat hududida realizatsiya qilinuvchi asosiy agregatlar va YAIM hajmi asosida tuziladi¹.

Rrognozlash qancha davrga mo'ljallanganligi boyicha prognozlash quyidagi turlarga bo'linadi:

- operativ(joriy)
- qisqa muddatli
- uzoq muddatli
- olis muddatli

Operativ prognoz: Tadqiqot ob'ektining rivojlanishida na miqdor o'zgarishlari, na sifat o'zgarishlari kutilmaydi.

Qisqa muddatli prognoz: Faqat miqdor o'zgarishlari yuz beradigan istiqbol.

O'rta moddatli prognozlash: Qisqa va uzoq muddatli prognoz o'rtasidagi istiqbol bo'lib, miqdor o'zgarishi sifat o'zgarishidan ustun bo'ladi.

Uzoq muddatli prognoz: Faqat miqdor o'zgarishlari emas, balkim ko'proq sifat o'zgarishlari yuz beradigan istiqbol.

Olis muddatli prognozlash: Ob'ektning juda umumiyl rivojlanish istiqbollari haqida so'z yuritiladi.

Prognozlashning asosiy tamoyillari:

- muqobililik
- asoslylik va to'g'rilik
- adekvatlilik.

Prognozing ob'ektiv qonuniyatlarga adekvatlilik tamoyilining mazmuni: Iqtisodiyotning rivojlanishdagi barqarorlik qonuniyatlarini, real jarayonlarning ehtimollik tasoddifik xususiyatlarini inobatga olish.

Prognozlashning muqobililik tamoyili: Tadqiqot ob'ekti va uning ayrim unsurlariniturlich har-xil yo'nalishda, bog'lanishda va tarkibiy nisbatda rivojlanishini inobatga olish, ob'ektning rivojlanish ayrim muqobil variantlari qanchalik real ekanligiga baho berish.

Prognozning asosliligi va to'g'riliği tamoyili: Jarayonlar rivojlanishinig ob'ektiv qonuniyatlarini bilish, ular asosida barqaror tamoyillarni aniqlash, prognoz natijalarining to'g'riliğini va aniqligini baholash.

Ilmiy asoslanganlik tamoyili: Ilmiy asoslanganlik tamoyili – prognoz ilmiy metodlar yordamida, tabiat, jamiyat va tafakkurning rivojlanish qonuniyatlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlarni tahlil qilish bosqichlari:

- retrospektiv
- diagnoz va prospeksiY.

Retrospeksiya: Prognozlash ob'ektining rivojlanish tarixi tadqiq qilinadi, zarur bo'lган axborot, manbaalar to'planadi va qayta ishlanadi, axborotlarni va taqdim qilish usullari optimallashtiriladi, prognozlash ob'ektining tuzilmasi va xususiyatlari tarkibi aniqlanadi.

Diagnoz- Prognozlash ob'ektining rivojlanish tamoyillari aniqlanadi, prognozlash usuli va modeli tanlanib, tahlil qilinadi.

¹ Forecasting Scottish taxes. The National Archives, Kew, London TW9 4DU. Crown copyright 2017. 25p/(20p.)

Prospektsiya- Diagnoz ma'lumotlari asosida ob'ektning rivojlanish prognozlarining aniqligi, to'g'riliqi, asoslanganligi baholanadi, ob'ekt modeliga yangi kelgan axborotga muvofiq tuzatish kiritiladi.

Prognozlash ob'ektlarining baholash asosi- Determinatsiyalik va noaniqlik jihatlari qo'shilib ketishiga asoslanadi. Ularning biri bo'lmasa, u ma'nosini yo'qotadi. Mutloq determinism holatida qarorlarni muqobililik asosida tanlab olish imkoniyati yo'qoladi. Mutloq noaniqlik holatida kelajakni aniq tasavvur etish bo'lmaydi.

Prognozlashning ikki jihat:

- nazariy bilish jihat
- olingan bilim asosida boshqaruq qarorlarini qabul qilish jihat.

Prognozlash metodlari:

Intuitiv metodlar:

- Individual ekspert baholash
- Kollektiv ekspert baholash

Formallahgan metodlar:

- EkstropolyatsiY.

Individual ekspert baholari metodi:

- “Intervyu” metodi
- Tahliliy metod
- Stsenariy tuzish.

Kollektiv ekspert baholari metodi:

- Komissiyalar metodi
- ”Delfi” modeli
- Kollektiv bo'lib g'oyalar yaratish metodi(aqliy hujum).

Ekstropolyatsiya:

- Oddiy ekstropolyatsiya
- Sirg'aluvchi o'rta ma'lumotlar metodi
- Eksponentsiyal silliqlash metodi

Prognozlashtirish eksport baholarini hisobga olgan holda o'tmishni kelajakka ekstrapolyatsiyalash asosida oshirilishi mumkin. Ushbu o'zgarishlar tasodifan yuz berishi mumkin.

Soliq prognozining asosiy vazifalari: Soliq tushumlarining kelajakdagi ilmiy asoslangan, obektiv holatini ishlab chiqish(bugungi kundagi jarayonlarga suyangan holda); Prognoz hisob-kitobi asosida faoliyat asosiy yo'nalishlarini hamda soliq siyosatini tanlash; kelajakda soliq tushumlariga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash.

Soliqqa tortish tizimini takomillashtirishda soliq statistikasi va prognoz qilish natijalaridan foydalanish: -soliq statistikasi yordamida soliq munosabatlарining o'zgarish qonuniyatlarini aniqlanadi, soliq tizimining holatiga baho beriladi, mavjud kamchiliklar va yutuqlarga xulosa beriladi

-soliq nushumlarini prognozlash uchun zarur bo'lgan malumotlar jamlanadi va qayta ishlanadi

-soliq qonunchiligini ishlab chiqishda soliq statistikasi va prognozi natijalaridan foydalangan holda kamchiliklarni bartaraf qilish, yutuqlarni rivojlantilish borasida tavsiyalar ishlab chiqilabi

Soliq tushumlari prognozining asosiy vazifalari sifatida quyidagilarni ko'rsatishimiz mumkin:

1. Soliq to'lovchilarni royxatga olish va faoliyatini nazorat qilish;
2. Soliqlar tushumi boyicha hukumat tomonidan belgilangan prognoz ko'rsatkichlarini bajarilishini o'rganish, va ushbu malumotlar asosida byudjetni daromad qismini to'ldirishga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilab chiqish;
3. Soliq tushumlari va boshqa majburiy to'lovlar turlarini o'rganib chiqish va soliq yukini taqsimotini o'rganish;
4. Soliqlar, yig'imlar va boshqa to'lovlar boyicha yig'ilgan malumotlarni o'rganish va hisobotlar tuzish;

5. Tuzilgan hisobotlarni tahlili asosida kelajak davr uchun soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar proqnozini tashkil qilish.

1. MAVZU. “SOLIQ TUSHUMLARI HISOBI VA PROGNOZI FANINING MAQSADI, PREDMETI VA VAZIFALARI” ЎЗАСИДАН КЕЙСЛАР ТҮПЛАМИ, АМАЛИЙ ТОПШИРИКЛАР, ИШЛАНМАЛАР

Reja:

- 1.Soliq tushumlari hisobi va proqnozi fanining, maqsadi, predmeti va vazifalari.
- 2.Soliq tushumlari hisobi va proqnozi fanining boshqa fanlar bilan bog'liqligi.
- 3.Soliq tushumlari hisobi va proqnozining tashkil etilishi hamda tamoyillari.
- 4.Statistik kuzatish shakllari, turlari, kuzatish materiallarini jamlash, svodkalash va guruhlash, mutloq va nisbiy ko'rsatkichlar hamda proqnozlashtirish metodlari va modellari.

Talabalarga beriladigan savollar ro'yxati:

1. Soliq tushumlari hisobi va proqnozi fanining, maqsadi va vazifalari nimadan iborat?
2. Soliq tushumlari hisobi va proqnozi fanining, predmeti nimadan iborat?
3. Soliq tushumlari hisobi va proqnozi fanining boshqa fanlar bilan bog'liqligini ianday tushuntirib berasiz?
4. Soliq tushumlari hisobi va proqnozi qanday tashkil qilinadi?
5. Soliq tushumlari hisobi va proqnozining tashkil etilish asosiy tamoyillarini tushuntirib bering.
6. Statistik kuzatish shakllarini, turlarini, kuzatish materiallarini jamlash tartibini tushuntirib bering.
7. Svodkalash va guruhlash, mutloq va nisbiy ko'rsatkichlarni mohiyatini tushuntirib bering.
8. Proqnozlashtirish metodlari va modellari nima?



1-topshiriq.

1-KEYS-STADI Kirish

Tavsiya etilgan keysni yechish quyidagi natijalarga erishishga imkon yaratadi:

- o'zlashtirilgan mavzu bo'yicha bilimlarni mustahkamlash;
- mantiqiy fikrlashni rivojlantirish;
- soliq tushumlari hisobi va proqnozi fanining maqsadi, predmeti va vazifalari borasida bilim va ko'nikmalarini egallash;
- soliq tushumlari hisobi va proqnozi fanining maqsadi, predmeti va vazifalari bilish va tushinish qobiliyatini tekshirish.

VAZIYAT

Soliq idoralarida kutilayotgan soliq tushumlari o'rganiladi. O'rganish natijasi obektiv reallikka maksimal darajada mos kelishi uchun o'rganuvchi soliq xodimiga haqqaoniy ma'lumotlar va ularning manbasi zarur bo'ladi. Bundan tashqari, soliq tushumlarini proqnoz qilish jarayoni ham haqqoniy ma'lumotlarga muhtojdir. Foydalilanuvchi ma'lumotlarning haqqoniylik darajasiga tahlil xulosasining ilmiylik darajasi bog'liq. Soliq tushumlarini proqnoz va tahlil qilishda birinchi ma'lumot banbasi bo'lib, soliq idoralarining ma'lumot bazasi hisoblanadi.

Ma'lumotning haqqoniylig darajasini aniqlash hamda qo'llaniluvchi usul samaraliliga baho berish.

SAVOLLAR VA TOPSHIRIQLAR:

Yuqorida keltirilgan fikirlardan kelib chiqib, mazkur ma'lumotlar manbasi yuzasidan o'z fikrig'mulohazangizni bering. Ma'lumotlarni yig'ishda qanday muammolar mavjud. Ma'lumotlarning haqqoniyligini o'rganishning qanday samarali usullar mavjud. Bu usullarning qo'llash shartlari nimalardan iborat?

Takliflar va tavsiyalar.

1. Holat haqida to'liq tassovvurga ega bo'lish uchun, o'rganilayotgan barcha ma'lumotlarnitshlis o'qib, chiqish zarur. O'qish davomida birdaniga tahlil qilishga urinmang.
2. Zarur hollarda. yana bir bor ma'lumotni o'qib chiqing. Sizga muhim bo'lib ko'ringan ayrim xatboshlarini o'zingizga belgilab qo'ying.
3. Holatni izzohlashga urining. Holatning mohiyatini tushunishga, ikkinchi darajali masalalarga kamroq e'tibor qarating.
4. Muammoga aloqador bo'lgan barcha faktlarni qayd qiling i keltirilgan ma'lumotlar o'rtaсидаги bog'lanishni nazorat qiling.
5. Taklif qilinayotgan yechimning asoslash kriteriyalarini ishlab chiqing.
6. Yechimlarning muqobil variantini tanlashga harakat qiling.
7. Yechimni amalga joriy qilish bo'yicha chora-tadbirlar ro'yxatini tuzing.

2-topshiriq.

Seminar mashg'ulotida "Baliq skeleti" grafik organayzeridan foydalangan holda soliq tushumlari proqnozi va hisobi muamolarni tahlil qiling va o'z xulosalariningizni bering:

1. Soliq tushumlarini hisobini yuritish metodologiyasi muammolari.
2. Soliq tushumlarini hisobini yuritish metodologiyasi muammolari.


"Baliq skeleti" grafik organayzeridan foydalanish umumiyy qoidalari

GO talabalarda mavzu yuzasidan muayyan masala mohiyatini tasvirlash va yechish qobiliyatini shakllantiradi. Uni qo'llashda talabalarda mantiqiy fikrlash, mavzu mohiyatini yorituvchi tayanch tushuncha, ma'lumotlarni muayyan tizimga keltirish, ularni tahlil qilish ko'nikmalari rivojlanadi.

Undan foydalanish quyidagicha amalga oshiriladi:

- {
1) ўқитувчи ўқувчи (талаба)ларни ГОни қўллаш шарти билан танишитиради;
2) ўқувчи (талаба)лар кичик гурухларга биректирилади;
3) гурухлар топширикларни бажаради;
4) гурухлар ўз ечимларини жамоага тақдим этади;
5) жамоа гурухларнинг ечимлари юзасидан мухокама уюштиради
}

Talabalar topshiriqlarni quyidagi tasvir asosida bajaradi:



Foydalilaniladigan adabiyotlar royxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiysi to‘g‘risida. 2018 yil 29 iyun. Elektron- huquqiy baza.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 488 b.
3. Mirziyoyev Sh.M.Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 104 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 48 b.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Soliq ma’muriyatichilagini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarining yig‘iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. 2017 yil 18 iyul, pf-5116-son. Elektron-huquqiy baza.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy erkinligini oshirish, mahalliy byudjetlarga tushumlarning to‘liqligini ta’minlash bo‘yicha soliq va moliya organlari javobgarligini kuchaytirishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida. 2017 yil 13 dekabr, PF-5283-son. Elektron-huquqiy baza.
7. Распоряжение Президента Республики Узбекистан. Об организации критического изучения деятельности финансовых, налоговых и таможенных органов. 16 января 2018 г. № р-5182. Электронно-правовая база.
8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini huquqiy tartibga solishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida. 2017 yil 28 avgust, 677-son. LEX.UZ. Elektron-huquqiy baza.
9. Абдуганиева Г.К., Бабабекова Н.Б. Прогнозирование налогов. Учебное пособие. – Т.: “Тафаккур-Бўстони”, 2012. - 224 с.
10. Doschanova N.P. Soliq statistikasi va prognozi. O‘quv qo‘llanma. – Т.: “Ren-Poligraf” bosmaxonasi, 2009. – 216 b.
11. Vahobov A.V,Jo‘rayev A.S Soliqlar va soliqqa tortish.Darslik.T: “Sharq”, 2009. -448 b.
12. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. “Norma” huquqiy bazasi.
13. O‘zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi. “Norma” huquqiy bazasi.
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 iyuldagи “Soliq ma’muriyatichilagini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarining yig‘iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5116-sonli Farmoni. Xalq so‘zi» gazetasи. 2017 yil 19 iyuldagи 141 (6835)-son.
15. Malikov T.S., Jalilov P.T. Byudjet-soliq siyosati. O‘quv qo‘llanma. – Т.: “Akademnashr”, 2011. - 472 b.
16. Haydarov N.H. Soliqlar va soliqqa tortish masalalari. O‘quv qo‘llanma. AkademiY. - Т.: 2007. - 214 b.;
17. Гадоев Э. и др. Упрощённая система налогообложений. Учебно практическое пособие. - Т.: Норма, 2011.- 324 стр.
18. Gadoev E. va b. Bilvosita soliqlar. O‘quv-amaliy qo‘llanma. - Т.: Norma, 2011.- 328 –b.
19. Gadoev E. va b. Foya solig‘i. O‘quv-amaliy qo‘llanma. - Т.: Norma, 2011.- 408-b.
20. Yax’yoyev Q. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. Darslik. Toshkent. 2003. 246 bet.
21. Zavalishina I.A. Soliqlar: nazariya va amalyot. “Iqtisodiyot va huquq dunyosi” nashriyot uyi, 2005. 544 bet.
22. Gadoev E, Kuzieva N. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish. Darslik. – Т.: “O‘zbekiston”, 2012. - 336 b

23. Jo'rayev A, S. Shirinov. Soliq statistikasi va prognozi: O'quv qo'llanma, T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2015.-392b.
24. Forecasting Scottish taxes. The National Archives, Kew, London TW9 4DU. Crown copyright 2017. 25p/(20p.).
25. Federal taxation: practice and procedure. Robert E., Richard J. Chicago, 2017.987p. (252p.).
26. Tax analysis and revenue forecasting. Issues and Techniques. By Glenn P. Jenkins Chun-Yan Kuo Gangadhar P. Shukla. Harvard Institute for International Development Harvard University . 2017. 187 p.(2p.).
27. An Analysis of Tax Revenue Forecast Errors. Martin Keene and Peter Thomson. New Zealand treasury working paper 07/02. 2017.41p.(2p.).
28. Tax policy, Revenue forecasting and economic analysis force. Joshua Goldstain, assistant director. Office of management and budget. The City of New York. 2017. 308p.(39p.)

Internet saytlari:


29. www. <http://el.tfi.uz/> - Toshkent moliya instituti elektron kutubxonasi;
30. www. <http://soliq.uz>;
31. www. <http://edu.uz>;
32. www. <http://mf.uz>;
33. www. <http://oxs.uz>;
34. www. <http://norma.uz>;
35. www. <http://lex.uz>;
36. www. <http://my.gov.uz>;
37. www. <http://alleng.ru>;

2.1. "SOLIQ TO'LOVCHILARNI HISOBGA OLISH VA DAVLAT SOLIQ XIZMATI ORGANLARIDA SOLIQ TO'LOVCHILAR BO'YICHA YAGONA REYESTR YURITISH, SHUNINGDEK DAVLAT SOLIQ XIZMATI IDORALARIDA AXBOROT-

KOMMUNIKATSIYA TIZIMI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH” O’QUV MODULI YUZASIDAN MA’RUZA MATNI

II. O’QUV MATN (MODUL)

MODUL: SOLIQ TO’LOVCHILARNI HISOBGA OLİSH VA DAVLAT SOLIQ XİZMATI ORGANLARIDA SOLIQ TO’LOVCHILAR BO‘YICHA YAGONA REYESTR YURITISH, SHUNINGDEK DAVLAT SOLIQ XİZMATI IDORALARIDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TIZIMI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH



Reja:

1.Soliq to‘lovchilarni hisobga olish, ularga identifikatsiya raqamini berish tartibi

2.Soliq solish obektlari hamda soliq solish bilan bog‘liq obektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar bazasini shakllantirish va yuritish tartibi

3.Soliq va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha soliq hisobotlarini taqdim etish tartibi va soliqlarni to‘lash muddatlari

4.Soliq to‘lovchilarining majburiyatları yuzaga kelganligi to‘g‘risida axborot taqdim etadigan organ va tashkilotlar hamda ular taqdim etadigan ma’lumotlar

Tayanch so‘z va iboralar: soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami, soliq to‘lovchilarining yagona reyestri, davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganlik to‘g‘risidagi guvohnoma, litsenziya, soliq solish bilan bog‘liq obektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar bazasi.

1.Soliq to‘lovchilarni hisobga olish, ularga identifikatsiya raqamini berish tartibi. Davlat soliq xizmati organlari soliq to‘lovchilarining hisobini yuritadi. Soliq to‘lovchilarining hisobini yuritish ularni hisobga qo‘yish va ular to‘g‘risidagi hisob ma’lumotlarini yuritish orqali amalga oshiriladi.

Soliq to‘lovchi sifatida quyidagilar hisobga qo‘yiladi:

1. yuridik shaxslar — O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari o‘zlari joylashgan yerdagi (pochta manzilidagi) davlat soliq xizmati organida;

2. yuridik shaxsning soliq majburiyatini mustaqil ravishda bajaradigan alohida bo‘linmalari — alohida bo‘linmaning joylashgan yeridagi yoki faoliyatni amalga oshirayotgan joyidagi davlat soliq xizmati organida;

3. jismoniy shaxslar — O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari jismoniy shaxsning yashash joyidagi davlat soliq xizmati organida;

4. yuridik shaxslar — O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari — doimiy muassasaning joylashgan yeridagi yoki faoliyatni amalga oshirayotgan joyidagi davlat soliq xizmati organida;

5. mol-mulk solig‘i va yer solig‘i to‘lovchilar bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslar — O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari — soliq solish obekti joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organida.

Soliq to‘lovchida u hisobga qo‘yilganidan keyin yer solig‘i, mol-mulk solig‘i yoki suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to‘lash bo‘yicha majburiyati hisobga qo‘yilgan joydan tashqarida yuzaga kelgan taqdirda, soliq to‘lovchi soliq solish obekti joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organida obekt bo‘yicha hisobga qo‘yilishi kerak.

Soliq to‘lovchilarni hisobga qo‘yish tartibi. Bir vaqtning o‘zida davlat soliq xizmati organlarida va davlat statistikasi organlarida hisobga qo‘yilgan holda davlat ro‘yxatidan o‘tkaziladigan yuridik va jismoniy shaxslar davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan joyda hisobga qo‘yilishi kerak.

Yuridik shaxslar — O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan kundan e’tiboran o‘n kun ichida davlat soliq xizmati organiga hisobga qo‘yish to‘g‘risidagi arizani taqdim etishi shart. Arizaga yuridik shaxs davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligini tasdiqlovchi hujjatning ko‘chirma nusxasi ilova qilinadi.

Soliq majburiyatlarini mustaqil ravishda bajaradigan alohida bo‘linmani hisobga qo‘yish uchun ushbu alohida bo‘linmani tashkil etgan yuridik shaxs uni tashkil etish to‘g‘risida yoki mustaqil balansga ajratish haqida qaror qabul qilingan kundan e’tiboran o‘n kun ichida davlat soliq xizmati organiga hisobga qo‘yish to‘g‘risidagi arizani taqdim etishi shart. Arizada bunday alohida bo‘linmani tashkil etgan yuridik shaxsning — soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami albatta ko‘rsatiladi. Arizaga yuridik shaxsning alohida bo‘linmani tashkil etish to‘g‘risidagi qarori, shuningdek uning rahbariga berilgan ishonchnoma ilova qilinadi.

Jismoniy shaxslar — O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari, soliq solish obekti vujudga kelgan kundan e’tiboran o‘n kun ichida davlat soliq xizmati organiga hisobga qo‘yish to‘g‘risidagi arizani taqdim etishi shart.

Yuridik shaxslar — O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari o‘z faoliyatni amalga oshirish boshlangan kundan e’tiboran bir yuz sakson uch kundan kechiktirmasdan davlat soliq xizmati organiga doimiy muassasa sifatida hisobga qo‘yish to‘g‘risidagi arizani taqdim etishi shart. Doimiy muassasa orqali faoliyatni amalga oshirayotgan yuridik shaxsning — O‘zbekiston Respublikasi norezidentining hisobga qo‘yish to‘g‘risidagi arizasiga shartnomaga yoki yuridik shaxs — O‘zbekiston Respublikasining norezidenti nomidan O‘zbekiston Respublikasida ish yuritish uchun berilgan ishonchnoma, shuningdek majburiyatlarining bajarilishi doimiy muassasa tashkil topishiga olib keladigan shartnomaga mavjud bo‘lsa, shu shartnomaga ilova qilinadi.

Yer solig‘i, shuningdek ko‘chmas mulkka taalluqli qismida mol-mulk solig‘i to‘lovchilari bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslar — O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari yer uchastkasiga, ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquq davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan kundan e’tiboran o‘n kun ichida davlat soliq xizmati organiga hisobga qo‘yish to‘g‘risidagi arizani taqdim etishi shart. Arizaga unda ko‘rsatilgan ma’lumotlarni tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinadi.

Benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni avtomobilarga yoqilg‘i quyish shoxobchalari orqali realizatsiya qiluvchi yuridik shaxslar avtomobilarga yoqilg‘i quyish shoxobchalari joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organiga transport vositalariga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq to‘lovchi sifatida hisobga qo‘yish to‘g‘risidagi arizani avtomobilarga yoqilg‘i quyish shoxobchasiga bo‘lgan huquq davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan kundan e’tiboran o‘n kun ichida taqdim etishi shart. Arizaga unda ko‘rsatilgan ma’lumotlarni tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinadi.

Davlat soliq xizmati organi hisobga qo‘yish to‘g‘risidagi ariza va unga ilova qilingan hujjatlar asosida soliq to‘lovchiga soliq to‘lovchining identifikatsiya raqamini beradi, soliq to‘lovchi haqidagi hisobga qo‘yish ma’lumotlarini O‘zbekiston Respublikasi soliq to‘lovchilarining yagona reyestriga kiritadi va tegishli ariza berilgan kundan e’tiboran uch kundan kechiktirmay soliq to‘lovchi hisobga qo‘yilganligi to‘g‘risida guvohnoma beradi.

Agar yuridik shaxs — O‘zbekiston Respublikasining rezidenti ushbu moddaning uchinchi qismida ko‘rsatilgan alohida bo‘linmalardan bir nechtasiga ega bo‘lsa, hisobga qo‘yish har bir alohida bo‘linma bo‘yicha tegishli davlat soliq xizmati organlarida amalga oshiriladi.

Agar yuridik shaxs — O‘zbekiston Respublikasining norezidenti O‘zbekiston Respublikasida bir nechta doimiy muassasaga ega bo‘lsa, u har bir doimiy muassasa bo‘yicha tegishli davlat soliq xizmati organlarida hisobga turishi shart. Bitta yuridik shaxsning — O‘zbekiston Respublikasi norezidentining bir nechta doimiy muassasa bo‘yicha soliq hisobotini jamlashga yo‘l qo‘yilmaydi.

Soliq to‘lovchi hisobga qo‘yilayotganda unga soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami beriladi hamda soliq to‘lovchi to‘g‘risidagi hisobga qo‘yish ma’lumotlari O‘zbekiston Respublikasi soliq to‘lovchilarining yagona reyestriga kiritiladi.

O‘zbekiston Respublikasi soliq to‘lovchilarining yagona reyestri O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan yuritiladi.

Davlat soliq xizmati organi tomonidan soliq to‘lovchiga berilgan identifikatsiya raqami berilganligi to‘g‘risidagi guvohnoma yoki soliq to‘lovchi bir vaqtning o‘zida davlat soliq xizmati organlarida va davlat statistikasi organlarida hisobga qo‘yilgan holda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan taqdirda, davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganlik to‘g‘risidagi guvohnoma soliq to‘lovchining hisobga qo‘yilganligini tasdiqlovchi hujjatdir.

Soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami muayyan soliq to‘lovchi hisobga qo‘yilganda unga beriladigan raqamdir.

Soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami muayyan soliq to‘lovchiga bir marta beriladi. Soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami o‘zgarmaydi va bekor qilinganidan keyin boshqa soliq to‘lovchiga berilmaydi.

Yuridik shaxsning alohida bo‘linmalariga ushbu alohida bo‘linmani tashkil etgan soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami nazorat belgilari qo‘shilgan holda beriladi.

Soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami quyidagilarda albatta yozib qo‘yilishi kerak:

1. yuridik va jismoniy shaxslarning davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi guvohnomada, ro‘yxatdan o‘tkazish davlat soliq xizmati organlarida va davlat statistikasi organlarida ularni hisobga qo‘yish bilan bir vaqtda amalga oshiriladi;

2. faoliyatning ayrim turlari bilan shug‘ullanishga doir litsenziyasida;

3. cheklardan tashqari, pul bilan hisob-kitob qilinadigan to‘lov hujjatlarida, shuningdek ularning elektron shaklida;

4. davlat soliq xizmati organlariga taqdim etiladigan moliyaviy va soliq hisoboti hujjatlarida;

5. yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan tuziladigan xo‘jalik, fuqarolik-huquqiy hamda mehnat shartnomalarida;

6. yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar bitimlar tuzganligini belgilovchi yoki tasdiqlovchi hujjatlarda, shu jumladan hisobvaraq-fakturalar hamda transport hujjatlarida;

7. yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarda qiymat ifodasiga ega bo‘lgan moliyaviy, mulkiy hamda boshqa majburiyatlar yuzaga kelganligini, shuningdek ularning bajarilishini belgilovchi yoki tasdiqlovchi hujjatlarda.

O‘zbekiston Respublikasi soliq to‘lovchilarining yagona reyestridan chiqarish quyidagicha amalga oshiriladi:

jismoniy shaxslar — O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari — ular vafot etganidan keyin, basharti soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash majburiyati ularning merosxo‘rlari tomonidan to‘liq uzelgan yoki soliq qarzi belgilangan tartibda hisobdan chiqarilgan bo‘lsa; yuridik shaxslar — O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari — ular tugatilganidan keyin, basharti soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash majburiyati to‘liq uzelgan yoki soliq qarzi belgilangan tartibda hisobdan chiqarilgan bo‘lsa; O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari — ularning O‘zbekiston Respublikasi soliq to‘lovchilarining yagona reyestriga kiritilishini belgilagan holatlar bekor bo‘lgan, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash majburiyati to‘liq uzelgan taqdirda.

АҚШ мамлакатида ҳам солик тўловчиларни хисобга қўйишда маҳсус, расмий ариза бланкаларидан фойдаланилади. Солик тўловчилар 8821 ракамили ариза балнкасини тўлдирадилар ва унда солик тўловчига оид барча маълумотларни берадилар².

2.Soliq solish obektlari hamda solish bilan bog‘liq obektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar bazasini shakllantirish va yuritish tartibi. O‘zbekiston Respublikasi soliq to‘lovchilarining yagona reyestri — soliq to‘lovchilarga oid davlat ma’lumotlar bazasi tizimi hisoblanadi. Shu sababli, soliq to‘lovchini obektlar bo‘yicha hisobga qo‘yish orqali solish obektlari hamda soliq solish bilan bog‘liq obektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar bazasi shakllantiriladi.

² Federal taxation: practice and procedure. Robert E., Richard J. Chicago, 2017.987p. (252p.)

Soliq solish obektlarini va soliq solish bilan bog‘liq obektlarni hisobga olish davlat soliq xizmati organi tomonidan har bir soliq to‘lovchi bo‘yicha hamda u to‘layotgan barcha soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlardan bo‘yicha, soliq solish obektlari hamda soliq solish bilan bog‘liq obektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar bazasini shakllantirish va yuritish, shu jumladan elektron shaklda shakllantirish va yuritish orqali amalga oshiriladi.

Soliq solish obektlari va soliq solish bilan bog‘liq obektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar bazasi soliq to‘lovchi tomonidan taqdim etilgan moliyaviy va soliq hisobotlarining ma’lumotlari va boshqa organlar, tashkilotlar tomonidan taqdim etiladigan ma’lumotlar, shuningdek davlat soliq xizmati organlari boshqa manbalardan to‘plagan, shu jumladan soliq tekshiruvlari vaqtida to‘plagan axborotlar asosida shakllantiriladi.

Soliq solish obektlari hamda soliq solish bilan bog‘liq obektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar bazasini shakllantirish va yuritish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan belgilanadi.

Tovarlarni O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali olib o‘tilishi munosabati bilan to‘lanishi lozim bo‘lgan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarga, shuningdek undirilishi tegishli davlat organlari va tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan boshqa majburiy to‘lovlardan bo‘yicha ma’lumotlar bazasi ushbu idoralarda shakllantiriladi. Soliq idoralari ushbu idoralardan tegishli ma’lumotlarni oladilar.

Soliq to‘lovchini obektlar bo‘yicha hisobga qo‘yish soliq solish obekti joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Soliq to‘lovchini obektlar bo‘yicha hisobga qo‘yish, uning hisobga qo‘yilganidan keyin, soliq to‘lovchida soliq to‘lovchi sifatida hisobga qo‘yilmagan joydagi yer solig‘i, mol-mulk solig‘i yoki suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to‘lash majburiyati yuzaga kelgan bo‘lsa, amalga oshiriladi.

Hisobga qo‘yilmagan joydagi yer solig‘ini, mol-mulk solig‘ini yoki suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to‘lash majburiyati yuzaga kelgan soliq to‘lovchi tegishli yer uchastkasiga bo‘lgan huquq davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan kundan e’tiboran yoki mol-mulk solig‘i yoki suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq solish obekti vujudga kelgan kundan e’tiboran o‘n kun ichida soliq solish obektlarini ular joylashgan yerda hisobga qo‘yish uchun davlat soliq xizmati organlariga murojaat etishi kerak.

Mol-mulk solig‘i va yer solig‘i to‘lovchi jismoniy shaxslarga hisoblanganda, obektlar bo‘yicha hisobga qo‘yilishi davlat soliq xizmati organlari tomonidan mustaqil ravishda amalga.

Davlat soliq xizmati organi soliq to‘lovchining ilgari berilgan identifikasiya raqamiga muvofiq soliq to‘lovchi murojaat etgan kundan uch kundan kechiktirmay uni obektlar bo‘yicha hisobga qo‘yadi.

Yuridik shaxs — soliq to‘lovchi to‘g‘risidagi asosiy hisob ma’lumotlari quyidagilardan iborat:

- soliq to‘lovchining identifikasiya raqami;
- nomi (to‘liq va qisqartirilgan nomi);
- joylashgan yeri (pochta manzili).

Yuridik shaxslar — O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari uchun yuqorida nazarda tutilgan asosiy hisob ma’lumotlariga qo‘srimcha ravishda quyidagilar ham hisob ma’lumotlari hisoblanadi:

tashkiliy-huquqiy shakli;

soliq majburiyatlarini mustaqil ravishda bajaradigan alohida bo‘linmalar, shuningdek xo‘jalik boshqaruvi organlarining tarkibiga kiruvchi yuridik shaxslar uchun — soliq to‘lovchi qaysi tashkilotning tarkibiga kirsa, shu tashkilot;

davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan sana, joy va tartib raqami;

tijorat tashkilotlari uchun — ustav fondining miqdori;

tijorat tashkilotlari uchun, aksiyadorlik jamiyatlari bundan mustasno, muassislarining — O‘zbekiston Respublikasining rezidentlarining soliq to‘lovchi tariqasidagi identifikasiya raqamini

hamda har bir muassisning ustav fondidagi ulushini ham ko'rsatgan holda muassislarning to'liq tarkibi.

Jismoniy shaxs — soliq to'lovchi to'g'risidagi hisob ma'lumotlari quyidagilardan iborat:

soliq to'lovchining identifikatsiya raqami; familiyasi, ismi va otasining ismi; fuqaroligi;

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun — fuqaroning identifikatsiya raqami (shaxsiy kodi); pasportining seriyasi va raqami, berilgan sanasi va joyi; yashash joyi (manzili).

Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun quyidagilar ham soliq to'lovchi to'g'risidagi hisob ma'lumotlaridir:

davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sana, joy va tartib raqami;

faoliyat turi;

faoliyat amalga oshiriladigan joy.

Soliq to'lovchilar to'g'risidagi hisob ma'lumotlarini yuritish soliq to'lovchilar hamda boshqa organlar va tashkilotlar tomonidan taqdim etiladigan ma'lumotlar asosida soliq to'lovchi to'g'risidagi hisob ma'lumotlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish orqali amalga oshiriladi.

Davlat soliq xizmati organlarida hisobda turmagan soliq to'lovchilar aniqlangan taqdirda, davlat soliq xizmati organlari ularga belgilangan tartibda hisobga turish to'g'risida talabnama taqdim etadi. Bunday talabnama olinganligi shaxsn ni javobgarlikdan ozod etmaydi.

O'zbekiston Respublikasi soliq to'lovchilarining yagona reyestriga kiritilgan yuridik va jismoniy shaxslar — O'zbekiston Respublikasi norezidentlari hisobga qo'yilgan joydagi davlat soliq xizmati organiga hisob ma'lumotlaridagi har qanday o'zgarishlar haqida bunday o'zgarishlar yuzaga kelgan kundan e'tiboran o'n kunlik muddatda ma'lum qilishlari shart.

Jismoniy shaxsning doimiy yashash joyi o'zgargan taqdirda davlat soliq xizmati organi mazkur soliq to'lovchiga taalluqli barcha materiallarni uning yangi yashash joyidagi davlat soliq xizmati organiga topshirishi shart. Bunday materiallarni topshirish-qabul qilib olish tartibi O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilanadi.

Soliq to'lovchining talabi bo'yicha davlat soliq xizmati organi mazkur soliq to'lovchi hisobga qo'yilganligini tasdiqlovchi ma'lumotnomani, shu jumladan o'zgarishlar kiritilgan hisob ma'lumotlarini ham ko'rsatgan holda berishi shart.

Davlat soliq xizmati organlari, bojxona organlari hamda zimmasiga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarini undirish vazifasi yuklatilgan boshqa davlat organlari hamda tashkilotlari byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga tushumlar hisobini yuritishi mas'uliyati yuklanadi.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar tushumini hisobga olish byudjet klassifikatsiyasiga muvofiq yuritiladi.

Davlat soliq xizmati organlari byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga tushumlar hisobini soliq to'lovchining shaxsiy kartochkasida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlearning, shuningdek penya va jarimalarning hisoblangan hamda to'langan summalarini aks ettirish orqali yuritadi.

Soliq to'lovchining shaxsiy kartochkasi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlearning har bir turi bo'yicha ochiladi.

Soliq to'lovchining shaxsiy kartochkasini yuritish tartibi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilanadi.

Bojxona organlari tovarlarni O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali olib o'tilishi munosabati bilan to'lanishi lozim bo'lgan boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha byudjetga hamda davlat maqsadli jamg'armalariga tushumlar hisobini O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi tomonidan belgilangan tartibda yuritadi.

Undirilishi boshqa davlat organlari va tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan ayrim turdag'i boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha byudjetga tushumlarni hisobga olish tartibi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilanadi.

3.Soliq va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha soliq hisobotlarini taqdim etish tartibi va soliqlarni to‘lash muddatlari. Soliq hisoboti soliq to‘lovchining soliq va boshqa majburiy to‘lovning har bir turi bo‘yicha yoki to‘langan daromadlar bo‘yicha hisob-kitoblar hamda soliq deklaratsiyalarini, shuningdek hisob-kitoblarga va soliq deklaratsiyalariga doir ilovalarni o‘z ichiga oladigan hujjati bo‘lib, u O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan shaklda tuziladi.

Soliq hisoboti qog‘ozda va (yoki) elektron hujjatga doir talablarga rioya etilgan holda elektron hujjat tarzida tuziladi.

Soliq hisoboti soliq to‘lovchi tomonidan imzolanishi kerak, shuningdek agar u kichik tadbirdorlik subekti bo‘limgan yuridik shaxs bo‘lsa, uning muhri bilan tasdiqlanadi. Elektron hujjat tarzida taqdim etilgan soliq hisoboti soliq to‘lovchining elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlanadi.

Yuridik shaxs — soliq to‘lovchi qayta tashkil etilayotganda yoki tugatilayotganda, har bir qayta tashkil etilayotgan yoki tugatilayotgan soliq to‘lovchiga soliq davri boshlanganidan e’tiboran qayta tashkil etish yoki tugatish tugallangan kunga qadar bo‘lgan davr yuzasidan tegishincha topshirish dalolatnomasi, taqsimlash balansi yoki tugatish balansi asosida alohida-alohida soliq hisoboti tuziladi. Mazkur hisobot topshirish dalolatnomasi, taqsimlash balansi yoki tugatish balansi tasdiqlangan kundan e’tiboran uch ish kuni ichida taqdim etiladi(boshqa yuridik shaxsni qo‘shib olish orqali qayta tashkil etilayotgan yuridik shaxslardan tashqari).

Tadbirkorlik subekti — yuridik shaxs ixtiyoriy tugatilgan taqdirda, unga soliq davri boshlanganidan to yuridik shaxslarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organ tugatish tartib-taomili boshlanganligi haqida xabardor qilingan sanagacha bo‘lgan muddat uchun alohida soliq hisoboti tuziladi.

Soliq hisobotida ko‘rsatilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligi uchun javobgarlik soliq to‘lovchining zimmasiga yuklatiladi.

Soliq hisoboti soliq to‘lovchi tomonidan belgilangan muddatlarda taqdim etiladi.

Soliq hisoboti soliq to‘lovchi hisobga qo‘yilgan joydagi davlat soliq xizmati organiga taqdim etiladi. Ayrim turdagи soliqlar bo‘yicha soliq hisoboti ham obektlar bo‘yicha hisobga qo‘yilgan joy bo‘yicha soliq to‘lovchi tomonidan taqdim etiladi.

Yirik soliq to‘lovchilar soliq hisobotini soliq to‘lovchi hisobga qo‘yilgan joydagi Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalariga taqdim etadi.

Jismoniy shaxslar soliq deklaratsiyasini yashash joyidagi davlat soliq xizmati organiga taqdim etadilar.

Soliq to‘lovchilar soliq hisobotini o‘z xohishlariga ko‘ra quyidagicha taqdim etishga haqli:

shaxsan olib borib berish tartibida;

pochta orqali buyurtma xat bilan;

telekommunikatsiya kanallari orqali elektron hujjat tarzida.

Tadbirkorlik subektlari soliq hisobotini telekommunikatsiya kanallari orqali elektron hujjat tarzida taqdim etadi.

Soliq hisobotini davlat soliq xizmati organiga taqdim etish sanasi quyidagilardir:

soliq hisoboti shaxsan olib borib berish tartibida taqdim etilganda — soliq hisoboti davlat soliq xizmati organi tomonidan qabul qilib olingan sana;

soliq hisoboti pochta orqali buyurtma xat bilan taqdim etilganda — aloqa tashkilotining tamg‘asida ko‘rsatilgan, pochta jo‘natmasi jo‘natilgan sana;

soliq hisoboti elektron hujjat tarzida taqdim etilganda — elektron hujjat davlat soliq xizmati organi tomonidan olingan sana.

Davlat soliq xizmati organi shaxsan olib borib berish tartibida taqdim etiladigan soliq hisobotini qabul qilib olishni rad etishga haqli emas hamda soliq to‘lovchining talabiga binoan soliq hisobotining nusxasiga hisobot qabul qilib olingan sana to‘g‘risida belgi qo‘yiladi.

Soliq hisoboti telekommunikatsiya aloqa kanallari orqali elektron hujjat tarzida qabul qilib olinganda davlat soliq xizmati organi soliq to‘lovchiga elektron tarzidagi hisobot qabul qilib olinganligi to‘g‘risida tasdiqnomasi yuboriladi.

Soliq hisoboti dastlabki tarzda kameral nazorat qilinmasdan va uning mazmuni muhokama etilmasdan qabul qilinadi.

Soliq hisoboti quyidagi hollarda davlat soliq xizmati organiga taqdim etilmagan deb hisoblanadi, agar unda:

soliq to‘lovchining identifikasiya raqami ko‘rsatilmagan yoki noto‘g‘ri ko‘rsatilgan bo‘lsa;
soliq davri yoki soliq yoki boshqa majburiy to‘lov summasi ko‘rsatilmagan bo‘lsa;
soliq hisobotini tuzishga doir belgilangan talablar buzilgan bo‘lsa.

Belgilanmagan shakldagi soliq hisoboti taqdim etilganda davlat soliq xizmati organi hisobot olingan kundan e‘tiboran uch kun ichida bu haqda soliq to‘lovchiga yozma bildirish yuboradi va aniq fikr-mulohazalarни ko‘rsatgan holda uni maromiga yetkazish uchun qaytaradi.

Kamchiliklari tuzatilgan soliq hisoboti uni taqdim etishning belgilangan muddati tugaguniga qadar taqdim etilgan taqdirda, soliq to‘lovchiga nisbatan javobgarlik choralarini qo‘llanilmaydi.

Davlat soliq xizmati organlariga soliq hisoboti taqdim etilgan davrga taalluqli xatolarni o‘zi mustaqil ravishda aniqlagan soliq to‘lovchi belgilangan soliq majburiyati bo‘yicha da‘vo qilish muddati ichida o‘sha davr yuzasidan aniqlashtirilgan soliq hisobotini taqdim etish huquqiga ega. Aniqlashtirilgan soliq hisobotini taqdim etish huquqi davlat soliq xizmati organlari tomonidan moliya-xo‘jalik faoliyati tekshiruvi doirasida tekshirish o‘tkazilgan davr uchun soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlardan summasining kamayishini nazarda tutuvchi aniqlashtirilgan soliq hisoboti taqdim etiladigan hollarda qo‘llanilmaydi.

Agar aniqlashtirilgan soliq hisoboti bo‘yicha hisoblab chiqarilgan soliq yoki boshqa majburiy to‘lov summasi ilgari taqdim etilgan soliq hisoboti bo‘yicha hisoblab chiqarilgan va to‘langan soliq yoki boshqa majburiy to‘lov summasidan ortiq bo‘lsa, tegishli soliq yoki boshqa majburiy to‘lovni to‘lash bo‘yicha soliq majburiyatlariga penya hisoblangan holda mazkur tafovut qo‘shiladi.

Agar aniqlashtirilgan soliq hisoboti bo‘yicha hisoblab chiqarilgan soliq yoki boshqa majburiy to‘lov summasi ilgari taqdim etilgan soliq hisoboti bo‘yicha hisoblab chiqarilgan va to‘langan soliq yoki boshqa majburiy to‘lov summasidan kam bo‘lsa, aniqlashtirilgan soliq hisoboti taqdim etilgan kundan e‘tiboran shaxsiy varaqada soliq yoki boshqa majburiy to‘lov summasi tafovut miqdoriga kamaytirilganligi aks ettiriladi. Soliqlar, boshqa majburiy to‘lovlardan, penyalarning ortiqcha to‘langan summasi hisobga olinadi yoki qaytariladi.

Soliq hisoboti davlat soliq xizmati organlarida va soliq to‘lovchida soliq majburiyati bo‘yicha da‘vo qilish muddati mobaynida saqlanadi.

4.Soliq to‘lovchilarining majburiyatlari yuzaga kelganligi to‘g‘risida axborot taqdim etadigan organ va tashkilotlar hamda ular taqdim etadigan ma’lumotlar. Yuridik shaxslarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organlar, ro‘yxatdan o‘tkazilgan joydagi davlat soliq xizmati organiga ushbu yuridik shaxslar davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan kundan e‘tiboran o‘n kundan kechiktirmay tegishli yuridik shaxslarning davlat reyestridan ko‘chirma topshirishi shart. Bunday organlar davlat soliq xizmati organiga tegishli yuridik shaxslarga taalluqli davlat reyestriga kiritilgan har qanday o‘zgartishlar to‘g‘risida ham bunday o‘zgartishlar kiritilgan kundan e‘tiboran o‘n kundan kechiktirmay ma’lum qilishi shart.

Litsenziya yoki boshqa ruxsat etuvchi hujjatlar beradigan organlar bunday hujjatlar berilgan shaxslar joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organlariga shunday hujjatlar berilganligi hollari haqida ma’lum qilishi, shuningdek mazkur hujjatlar bekor qilinganligi, ularning amal qilishi to‘xtatib turilganligi yoki tugatilganligi to‘g‘risida ma’lumot berishi shart.

Ichki ishlari organlari pasportlar berilganligi, shu jumladan yo‘qotilgan yoki amal qilish muddati o‘tgan pasportlar o‘rniga pasportlar berilganligi faktlari haqida, bekor qilingan pasportlar to‘g‘risida o‘zlari joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organlariga har oyda, shuningdek turar joyni ijaraga berish shartnomasi, tekin foydalanishga berish shartnomasi mavjud emasligining yoki turar joyni ijaraga berish shartnomasini, tekin foydalanishga berish shartnomasini majburiy notarial tasdiqlanishiga rioya etilmaganligining aniqlangan faktlari haqida o‘zlari joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organlariga yoki O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq, valyutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamentiga uch ish kuni ichida ma’lum qilishi shart.

Qurilishi tugallangan obektlarda tovarlar ishlab chiqarishni va xizmatlar ko'rsatishni tashkil etish bo'yicha olingen majburiyatlar tadbirkorlik subektlari tomonidan bajarilmagan hollardan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasining Davlat arxitektura-qurilish nazorati hududiy inspeksiyalari yer uchastkasi joylashgan joydagি davlat soliq xizmati organlariga bu haqda uch kalendar kun ichida xabar berishi shart.

Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organlar har yili 1 fevralgacha o'zları joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organlariga tegishli hududda joylashgan yer uchastkasi va boshqa ko'chmas mulk, uning mulkdorlari (egalari) to'g'risida 1 yanvar holatiga ko'ra ma'lumot berishi, shuningdek yer uchastkasi va boshqa ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlar yil davomida yuzaga kelganda — mazkur ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlar davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan e'tiboran o'n kun ichida ma'lum qilishi shart.

Suv resurslarini hisobga oluvchi organlar suvdan foydalanish yoki suv iste'moli joyidagi davlat soliq xizmati organlariga 1 fevraldan kechiktirmasdan o'tgan yil yakunlari bo'yicha o'lchov asboblarisiz foydalanilgan suv hajmlari to'g'risida xabar qilishi shart.

Davlat notarial idoralari tegishincha ko'chmas mulk oldi-sotdi shartnomalari, mol-mulk ijarasi shartnomalari tasdiqlanganligi va ijara haqi miqdori, shuningdek meros qilib olish yoki hadya tarzida fuqarolarning mulkiga o'tayotgan mol-mulk qiymati to'g'risida ko'rsatilgan notarial harakatlar amalga oshirilgan kundan e'tiboran o'n kundan kechiktirmay o'zları joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organlariga ma'lum qilishi shart.

Yer resurslarini hisobga oluvchi yoki baholovchi organlar yer uchastkasiga nisbatan huquqi yuzaga kelgan yoki tugatilgan shaxslarni ko'rsatgan holda yer uchastkasiga nisbatan huquq berilganligi yoki tugatilganligi hamda qishloq xo'jaligi yerlarining normativ qiymati to'g'risida yer uchastkasi joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organlariga ma'lum qilishi shart.

Foydalanishga berilgan yer qa'ri uchastkalarining davlat hisobi yuritilishini amalga oshiruvchi yoki yer qa'ri uchastkalaridan foydalanish huquqlarini davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organlar o'zları joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organlariga yer qa'ri uchastkasi joylashgan yer hamda mazkur yer qa'ri uchastkasidan foydalanish huquqi berilgan shaxs to'g'risidagi axborotni yer qa'ri uchastkasidan foydalanish huquqi ro'yxatdan o'tkazilgan (hisobga olingen) kundan e'tiboran o'n kun ichida ma'lum qilishi shart.

Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmasdan O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasiga o'zi va investitsiya vositachilari tomonidan ro'yxatga olingen aksiyalarga doir bitimlar to'g'risidagi axborotni taqdim etishi shart.

Banklar yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga faqat ular davlat soliq xizmatining tegishli organida hisobga qo'yilganligini tasdiqllovchi hujjatni ko'rsatgan taqdirda bank hisobvaraqlari ochishi mumkin va hisobvaraqlar ochilganligi to'g'risida o'sha organga keyingi kundan kechiktirmay ma'lum qilishi shart. Qonunda nazarda tutilgan hollarda banklar davlat soliq xizmati organlariga boshqa ma'lumotlarni ham taqdim etadi.

Bojaxona organlari har oyda eksport-import operatsiyalari, shuningdek tovarlarni olib o'tish, shu jumladan O'zbekiston Respublikasining bojaxona chegarasi orqali elektron tijorat shaklida amalga oshirilgan tovarlarni olib o'tish haqidagi ma'lumotni davlat soliq xizmati organlariga ma'lum qilishi shart.

Internet jahon axborot tarmog'i milliy segmentining domen nomlari tizimini belgilovchi organ tegishli ma'lumotlar bazasiga ularish uchun dasturiy vositalarni taqdim etish orqali davlat soliq xizmati organlariga domen nomlari administratorlari to'g'risidagi axborotdan foydalanish imkoniyatini beradi.

Soliq to'lovchilarning majburiyatları yuzaga kelganligi to'g'risida axborot taqdim etish tartibi organlar bilan kelishilgan holda O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'miasi tomonidan belgilanadi.

2. MAVZU. “SOLIQ TO‘LOVCHILARNI HISOBGA OLİSH VA DAVLAT SOLIQ XİZMATI ORGANLARIDA SOLIQ TO‘LOVCHILAR BO‘YICHA YAGONA REYESTR YURITISH, SHUNINGDEK DAVLAT SOLIQ XİZMATI IDORALARIDA AXBOROT-KOMMUNİKATSIYA TİZİMİ FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH”
ЮЗАСИДАН КЕЙСЛАР ТҮПЛӘМИ, АМАЛИЙ ТӨПШИРИКЛӘР, ИШЛАНМАЛАР

Reja:

- 1.Soliq to‘lovchilarni hisobga olish, ularga identifikasiya raqamini berish tartibi
- 2.Soliq solish obektlari hamda soliq solish bilan bog‘liq obektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar bazasini shakllantirish va yuritish tartibi
- 3.Soliq va boshqa majburiy to‘lovlardan bo‘yicha soliq hisobotlarini taqdim etish tartibi va soliqlarni to‘lash muddatlari
- 4.Soliq to‘lovchilarning majburiyatlarini yuzaga kelganligi to‘g‘risida axborot taqdim etadigan organ va tashkilotlar hamda ular taqdim etadigan ma’lumotlar

Talabalarga beriladigan savollar ro‘yxati:

1. Soliq to‘lovchilarni ro‘yxatga qo‘yish qanday amalga oshiriladi?
2. Qanday hujjatlar soliq to‘lovchilarni ro‘yxatga qo‘yish uchun asos bo‘ladi?
3. Nima uchun soliq idoralarida soliq to‘lovchilarga identifikatsion raqam beriladi?
4. soliq solish bilan bog‘liq obektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar bazasi nima va u nima uchun shakllantiriladi?
5. Davlat soliq xizmati idoralarida qachon soliq solish bilan bog‘liq obektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar bazasini shakllantirish ishlari boshlangan?
6. Soliq tushumlarini prognozlashda soliq hisobotlarini taqdim qilish davriyligi hamda topshirish muddatlari qanday hamiyatga ega?
7. Qanday davlat idoralari Davlat soliq xizmati idoralariga soliq to‘lovchilarning majburiyatlarini yuzaga kelganligi to‘g‘risida axborotlarni taqdim qilishadilar?



1-topshiriq.

**1-KEYS-STADI
Kirish**

Tavsiya etilgan keysni yechish quyidagi natijalarga erishishga imkon yaratadi:

- o‘zlashtirilgan mavzu bo‘yicha bilimlarni mustahkamlash;
- mantiqiy fikrlashni rivojlantirish;
- soliq to‘lovchilarni hisobga olish va davlat soliq xizmati organlarida soliq to‘lovchilar bo‘yicha yagona reyestr yuritish, shuningdek davlat soliq xizmati idoralarida axborotg‘kommunikatsiya tizimi faoliyati samaradorligini oshirish borasida, mustaqil ravishda qaror qabul qilish ko‘nikmalarini egallash;
- soliq to‘lovchilarni hisobga olish va davlat soliq xizmati organlarida soliq to‘lovchilar bo‘yicha yagona reyestr yuritish, shuningdek davlat soliq xizmati idoralarida axborotg‘kommunikatsiya tizimi faoliyati samaradorligini oshirish uslubiyatini qo‘llash qobiliyatini tekshirish.

VAZIYAT

2018 yilning 30 iyun kuni Mirobod tumani davlat soliq inspektorlari tomonidan o'tkazilgan nazorat tadbirida Toshkent shahrining Mirobod tumanida istiqomat qiluvchi fuqarog' Abdullayev O. Oziqg'ovqat mahsulotlari savdosi bilan, Muxammedov R. Avtomobil ehtiyot qisimlari savdosi bilan, davlat ro'yxatiga o'tmasdan turib shug'llanayotganligi ma'lum bo'ldi.

DSI xodimlari mazkur fuqarolarga ular Davlat soliq inspeksiyasidan soliq inspektorlari kelib ular soliq inspeksiyasida davlat ro'yxatidan o'tmasdan faoliyat yuritayotganligini va ular tegishli tarzda davlat ro'yxatidan o'tishi lozimligini taakidlardilar. Xo'sh, sizningcha bunday vaziyatda keltirilgan ikki fuqaro hamda soliq inspektori qanday yo'l tutishi kerak?

SAVOLLAR VA TOPSHIRIQLAR:

1. "Siz soliq inspektori hamda soliq to'lovchi sifatida, soliq inspeksiyasida davlat ro'yxatidan o'tish uchun nima qilgan bo'lar dingiz?
2. Davlat ro'yxatidan o'tish uchun qanday hujjatlar tayyorlardingiz?
3. Soliq inspektori sifatida mazkur fuqarolarni soliq to'lovchi sifatida qanday ro'yxatga qo'ygan bo'lar edingiz?

2-topshiriq.

Seminar mashg'ulotida "Baliq skeleti" grafik organayzeridan foydalangan holda quyidagi quyidagi muamolarni tahlil qiling va o'z xulosalaringizni bering:

1. Soliq to'lovchilarni ro'yxatga qo'yish tizimidagi muammolar va ularning yechimi.
2. Soliq solish bilan bog'liq obektlar to'g'risidagi ma'lumotlar bazasini shakllantirishda ma'lumotlar haqqoniyligi hamda to'liqligini ta'minlash muammoalri va ularning yechimi.


"Baliq skeleti" grafik organayzeridan foydalanish umumiyy qoidalari

GO talabalarda mavzu yuzasidan muayyan masala mohiyatini tasvirlash va yechish qobiliyatini shakllantiradi. Uni qo'llashda talabalarda mantiqiy fikrlash, mavzu mohiyatini yorituvchi tayanch tushuncha, ma'lumotlarni muayyan tizimga keltirish, ularni tahlil qilish ko'nikmalari rivojlanadi.

Undan foydalanish quyidagicha amalga oshiriladi:

- {
1) o'qituvchi o'quvchi (talaba)larni GO ni qo'llash sharti bilan tanishtiradi;
2) o'quvchi (talaba)lar kichik guruhlarga biriktiriladi;
3) guruhlar topshiriqlarni bajaradi;
4) guruhlar o'z yechimlarini jamoaga taqdim etadi;
5) jamoa guruhlarning yechimlari yuzasidan muhokama uyshtiradi
}

Talabalar topshiriqlarni quyidagi tasvir asosida bajaradi:



Foydalilaniladigan adabiyotlar royxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiysi to'g'risida. 2018 yil 29 iyun. Elektron-huquqiy baza.

2. Mirziyoyev Sh.M.Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak. – Toshkent: “O’zbekiston” NMIU, 2017. – 104 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: “O’zbekiston” NMIU, 2017. – 48 b.
4. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Soliq ma’muriyatichiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to’lovlarining yig‘iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. 2017 yil 18 iyul, pf-5116сон. Elektron-huquqiy baza.
5. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy erkinligini oshirish, mahalliy byudjetlarga tushumlarning to‘liqligini ta’minlash bo‘yicha soliq va moliya organlari javobgarligini kuchaytirishga oid qo’shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida. 2017 yil 13 dekabr, PF-5283-сон. Elektron-huquqiy baza.
6. Распоряжение Президента Республики Узбекистан. Об организации критического изучения деятельности финансовых, налоговых и таможенных органов. 16 января 2018 г. № р-5182. Электронно-правовая база.
7. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini huquqiy tartibga solishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida. 2017 yil 28 avgust, 677-сон. LEX.UZ. Elektron-huquqiy baza.
8. Абдуганиева Г.К., Бабабекова Н.Б. Прогнозирование налогов. Учебное пособие. – Т.: “Тафакур-Бўстони”, 2012. - 224 с.
9. Doschanova N.P. Soliq statistikasi va prognozi. O‘quv qo’llanma. – Т.: “Ren-Poligraf” bosmaxonasi, 2009. – 216 b.
10. O’zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. “Norma” huquqiy bazasi.
11. O’zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi. “Norma” huquqiy bazasi.
12. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 iyuldagи “Soliq ma’muriyatichiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to’lovlarining yig‘iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”ги PF-5116-сонли Farmoni. Xalq so‘zi» gazetasi. 2017 yil 19 iyuldagи 141 (6835)-сон.
13. Malikov T.S., Jalilov P.T. Byudjet-soliq siyosati. O‘quv qo’llanma. – Т.: “Akademnashr”, 2011. - 472 b.
14. Haydarov N.H. Soliqlar va soliqqa tortish masalalari. O‘quv qo’llanma. AkademiY. - Т.: 2007. - 214 b.;
15. Yax’yoyev Q. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. Darslik. Toshkent. 2003. 246 bet.
16. Zavalishina I.A. Soliqlar: nazariya va amalyot. “Iqtisodiyot va huquq dunyosi” nashriyot uyi, 2005. 544 bet.
17. Jo’rayev A, S. Shirinov. Soliq statistikasi va prognozi: O‘quv qo’llanma, Т.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2015.-392b.
18. Eshboyev T.T. Yuridik shaxslarni soliqqa tortish. Darslik. Т: “Cho‘lon” 2013, 296 bet
19. Перов А. Налоги и налогообложение. Учебное пособие. – М.: “Юрайт”, 2012 г. – 899 стр.
20. Пансков В. Налоги и налогообложение: теория и практика. Учебник. – М.: “Юрайт”, 2012 г. – 680 стр.
21. O’rmonov J. Kichik biznes subektlarini soliqqa tortishni takomillashtirishning dolzarb masalalari. –Т.: El-Press. 2011. – 132b.
22. Musagaliyev A. Yuridik shaxslarni soliqqa tortishni takomillashtirishning dolzarb masalalari. Soliq akademiyasi. Monografiya, Toshkent: 2010, 116 bet.
23. I.Xabibullayev, G.Mansurova, Soliq statistikasining nazariy asoslari. O‘quv qo’llanma - Т.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi», 2005.
24. Forecasting Scottish taxes. The National Archives, Kew, London TW9 4DU. Crown copyright 2017. 25p/(20p.).

25. Federal taxation: practice and procedure. Robert E., Richard J. Chicago, 2017.987p. (252p.).
26. Tax analysis and revenue forecasting. Issues and Techniques. By Glenn P. Jenkins Chun-Yan Kuo Gangadhar P. Shukla. Harvard Institute for International Development Harvard University . 2017. 187 p.(2p.).
27. An Analysis of Tax Revenue Forecast Errors. Martin Keene and Peter Thomson. New Zealand treasury working paper 07/02. 2017.41p.(2p.).
28. Tax policy, Revenue forecasting and economic analysis force. Joshua Goldstain, assistant director. Office of management and budget. The City of New York. 2017. 308p.(39p.)


Internet saytlari:

29. www. <http://el.tfi.uz/> - Toshkent moliya instituti elektron kutubxonasi;
30. www. <http://soliq.uz>;
31. www. <http://edu.uz>;
32. www. <http://mf.uz>;
33. www. <http://oxs.uz>;
34. www. <http://norma.uz>;
35. www. <http://lex.uz>;
36. www. <http://my.gov.uz>;
37. www. <http://alleng.ru>;

3.1. “SOLIQ SOLISH OBEKTLARI HAMDA SOLIQ SOLISH BILAN BOG‘LIQ OBEKTLAR BO‘YICHA MA’LUMOTLAR BAZASINI SHAKLLANTIRISH VA YURITISH TARTIBI” O‘QUV MODULI YUZASIDAN MA’RUZA MATNI

III.O'QUV MATN (MODUL)

MODUL: SOLIQ SOLISH OBEKTLARI HAMDA SOLIQ SOLISH BILAN BOG'LIQ OBEKTLAR BO'YICHA MA'LUMOTLAR BAZASINI SHAKLLANTIRISH VA YURITISH TARTIBI



Reja:

- 1.Soliq obekti va unga ta'sir qiluvchi omillar
- 2.Soliqqa tortiladigan baza va uga ta'sir qiluvchi omillar
3. Soliq solish bilan bogliq obektlar bo'yicha ma'lumotlar bazasiga kiritishda ichki va tashqi manbalar
4. Soliq solish obekti bo'yicha ro'yxatga olish ishlarini davlat soliq idoralarida tashkillashtirish tartibi.

Tayanch so'z va iboralar: soliq solinadigan oborot, yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'inining obekti, chegrilmaydigan xarajatlar, aksiz solig'inining soliq solish bazasi, ichki axborot manbalari, tashqi axborot manbalari, yer resurslarini hisobga oluvchi organ

1.Soliq obekti va unga ta'sir qiluvchi omillar. O'zbekiston Respublikasi soliq kodeksini 25 moddasiga asosan soliq solish obekti bo'lib, soliq to'lovchida soliq yoki boshqa majburiy to'lov hisoblab chiqarilishi va (yoki) to'lanishi yuzasidan majburiyat keltirib chiqaruvchi mol-mulk, harakat, harakat natijasi hisoblanadi. YA'ni, tovarlar, ishlra va xizmatlar realizatsiyasi, mulk, foyda, daromad, sotilgan tovarlar qiymati soliq solish obekti hisoblanishi mumkin.

Soliq obekti – bu, soliq majburiyatini yuzaga keltiruvchi buyum, bitim, pul mablag'i. Boshqa so'zlar bilan aytganda, soliq to'lovchini soliqlarni to'lash majburiyatiga olib keluvchi harakat, hodisa va holat – soliq obekti bo'lishi mumkin.

O'zining ma'nosi bo'yicha soliq obekti soliq predmetiga yaqin hisoblanadi.

E'tiborga molik jihat shundan iboratki, soliq obektini anilash asosiy tamoyillari va soliqlarni aniqlashga bo'lgan yondashuv bugungi kunga qadar saqlanib qolgan.

Soliq obektlariga qarab soliqlarni turlarga ajratish mumkin. YA'ni, soliq obektiga qarab soliqlar daromaddan, mulkdan, resurslardan olinadigan soliq hamda qo'shilgan qiymat va boshqa soliqlarga bo'lish mumkin.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'inining obekti quyidagilardir:

O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining, shuningdek O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining foydasi;

O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining va O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining ushbu bo'limga muvofiq chegirmalar qilinmagan holda to'lov manbaida soliq solinadigan daromadlari.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'inining obekti miqdoriga ta'sir qiluvchi sonli omillarga:

1) O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining, shuningdek O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasi norezidentlari uchun:

tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlar;

boshqa daromadlar;

-Soliq kodeksining 142-moddasiga muvofiq moddiy xarajatlar;

- Soliq kodeksining 143-moddasiga muvofiq mehnatga haq to‘lash xarajatlari;
- Soliq kodeksining 144-moddasiga muvofiq amortizatsiya xarajatlari;
- Soliq kodeksining 145-moddasiga muvofiq boshqa xarajatlar;
- Soliq kodeksining 146-moddasiga muvofiq kelgusida soliq solinadigan foydadan chegirib tashlanadigan hisobot davridagi xarajatlar;
- chegrilmaydigan xarajatlar.

2).O‘zbekiston Respublikasi rezidentlarining va O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari uchun: jami daromad miqdori. Ushbu holatda xarajatlarning oshishi soliq obektini kamayishiga olib kelmaydi.

Ikki holatda ham soliq obektiga ta’sir qiluvchi sifat omili sifatida soliq to‘lovchining rentabelligini, biznes uchun yaratilgan qulay sharoitni, bozordagi raqobat darajasini va boshqalarni ko‘rsatish mumkin.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bo‘yicha ularning quyidagi daromadlari soliq solish obektidir:

O‘zbekiston Respublikasi rezidentlarining O‘zbekiston Respublikasidagi va undan tashqaridagi manbalardan olingan daromadlari;

O‘zbekiston Respublikasi norezidentlarining O‘zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan daromadlari.

Korxona va tashkilotlarda ishlovchi xodimlarning oylik ish haqlarini oshirilishi soliq solish obektini oshishiga olib keladi.

Bundan tashqari, bugungi kunda ayrim tashkilotlarda ishchilar norasmiy ravishda ishslash hollari bo‘lishi mumkin. Albatta ularga to‘lanadigan ish haqi miqdori soliq solish bazasiga kiritilmaydi. Bunday holatlar mazkur soliq bo‘yicha soliq solish bazasini qisqarishiga olib keladi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha soliq solish obekti tarkibiga quyidagilar kiradi:

1)soliq solinadigan oborot:

A) mol-mulkka bo‘lgan mulk huquqini o‘tkazish, ishlarni bajarish, xizmatlar ko‘rsatish, shu jumladan:

B)tovarni va boshqa mol-mulkni jo‘natish (sotish);

V)ustav fondiga (ustav kapitaliga) qo‘shilgan hissa;

G)mol-mulkni bepul berish (ishlarni bepul bajarish, xizmatlarni bepul ko‘rsatish), shu jumladan yuridik shaxs xodimlariga ularning mazkur yuridik shaxsdagi faoliyati bilan bog‘liq bo‘limgan shaxsiy ehtiyojlari uchun mol-mulkni bepul berish (ishlarni bepul bajarish, xizmatlarni bepul ko‘rsatish;

D)boshqa tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) almashtirish uchun mol-mulkni berish (ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish);

YE)xodimga ish haqi hisobiga yoki muassisiga (ishtirokchiga) dividendlar to‘lash hisobiga mol-mulk berish (ishlarni bajarish, xizmatlar ko‘rsatish);

L)garov bilan ta’milangan majburiyatlar bajarilmagan taqdirda, garovga qo‘yuvchi tomonidan garov narsasini berish;

T)zayom shartnomalari asosida tovar-moddiy zaxiralarni berish;

2) bitta yuridik shaxsning bir tarkibiy bo‘linmasi tomonidan boshqa tarkibiy bo‘linmasiga, agar tarkibiy bo‘linmalar ushbu Kodeksga muvofiq mustaqil soliq to‘lovchilar bo‘lsa, mol-mulkni berish, ishlarni bajarish, xizmatlar ko‘rsatish;

3) mol-mulkni moliya ijarasiga (shu jumladan lizingga) berish;

4) to‘lovn bo‘lib-bo‘lib to‘lash sharti bilan tovarni jo‘natish;

5) mol-mulkni operativ ijaraga berish;

6) intellektual mulk obektlariga bo‘lgan huquqni o‘tkazish yoki ulardan foydalanish huquqini berish;

7) yuridik shaxslardan olinadigan foya solig‘ini hisoblab chiqarishda xarajatlari chegirilmaydigan soliq to‘lovchining o‘z ehtiyojlari uchun o‘zi ishlab chiqargan tovarlarni berish, o‘z kuchi bilan ishlarni bajarish, xizmatlar ko‘rsatish.

2) soliq solinadigan import: O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududiga olib kirilayotgan tovarlar soliq solinadigan importdir.

Quyidagi operatsiyalar aksiz solig‘i solinadigan obektdir:

1) aksiz to‘lanadigan tovarlarni realizatsiya qilish, shu jumladan: - tovari sotish (jo‘natish); -garov bilan ta’milangan majburiyat bajarilmagan taqdirda, garovga qo‘yilgan aksiz to‘lanadigan tovarlarni garovga qo‘yuvchi tomonidan topshirish; -aksiz to‘lanadigan tovarlarni bepul topshirish; -aksiz to‘lanadigan tovarlarni ish beruvchi tomonidan ish haqi hisobiga yollangan xodimga qonun hujjalarda nazarda tutilgan hollarda topshirish yoki hisoblangan dividendlar hisobiga yuridik shaxsning muassisiga (ishtirokchisiga) topshirish; - aksiz to‘lanadigan tovarlarni boshqa tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) ayriboshlash uchun topshirish;

2) aksiz to‘lanadigan tovarlarni yuridik shaxsning ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissa yoki pay badali tariqasida yoxud oddiy shirkat shartnomasi bo‘yicha sherikning (ishtirokchining) hissasi sifatida topshirish;

3) aksiz to‘lanadigan tovarlarni yuridik shaxsning ishtirokchisiga (muassisiga) u yuridik shaxs tarkibidan chiqqan (chiqib ketgan) taqdirda yoki yuridik shaxs qayta tashkil etilganligi, tugatilganligi (bankrotligi) munosabati bilan topshirish, shuningdek oddiy shirkat shartnomasi doirasida ishlab chiqarilgan aksiz to‘lanadigan tovarlarni mazkur shartnoma shergiga (ishtirokchisiga) uning shartnoma ishtirokchilari umumiyligi mol-mulkdan ulushi ajratib berilgan yoki bunday mol-mulk taqsimlangan taqdirda topshirish;

4) aksiz to‘lanadigan tovarlarni ulush qo‘shish asosida qayta ishslashga topshirish, shuningdek ulush qo‘shish asosida xom ashyo va materiallarni, shu jumladan aksiz to‘lanadigan xom ashyo va materiallarni qayta ishslash mahsuli bo‘lgan aksiz to‘lanadigan tovarlarni ishlab chiqaruvchi tomonidan qayta ishslashga berilgan xom ashyo va materiallarning mulkdoriga topshirish;

5) ishlab chiqarilgan va (yoki) qazib olingan aksiz to‘lanadigan tovarlarni o‘z ehtiyojlari uchun topshirish;

6) aksiz to‘lanadigan tovarlarni O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududiga import qilish.

2.Soliqqa tortiladigan baza va unga ta’sir qiluvchi omillar. Soliq solinadigan baza soliq solish obektining soliq yoki boshqa majburiy to‘loving stavkasi tatbiqan belgilangan ko‘rsatkichlardagi qiymat, miqdor, fizik va boshqa tavsiflarini ifodalaydi.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining obekti quyidagilardir:

O‘zbekiston Respublikasi rezidentlarining, shuningdek O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshiruvchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlarining foydasi;

O‘zbekiston Respublikasi rezidentlarining va O‘zbekiston Respublikasi norezidentlarining ushbu bo‘limga muvofiq chegirmalar qilinmagan holda to‘lov manbaida soliq solinadigan daromadlari.

Yuqorida keltirilgan soliq solish bazasini tarkibidan ko‘rinib turibdiki, mazkur soliqning soliq solish bazasiga to‘g‘ri proporsional bo‘lgan omillar mavjud. Ularga quyidagilarni ko‘rsatishimiz mumkin:

-yuridik shaxsning jami daromad summasi;

- chegrilmaydigan xarajatlар miqdori;

1) moddiy qimmatliklarning tabiiy kamayishi normalaridan ortiqcha yo‘qotishlar va buzilishlar;

3) normalardan ortiqcha xarajatlар (xizmat safarları, vakillik xarajatlari, ixtiyoriy sug‘urta turlari bo‘yicha sug‘urta mukofotlari (badallari);

6) umumiyligi ovqatlanish korxonalar yoki boshqa chet tashkilotlarga joylarni bepul berish xarajatlari, ushbu korxonalar va tashkilotlar uchun kommunal xizmatlar ko‘rsatish qiymatini to‘lash;

9) jismoniy shaxsning moddiy naf tarzidagi daromadlari hisoblanadigan soliq to‘lovchining xarajatlari;

11) dala ta’moti, xizmat maqsadida xodimning shaxsiy avtovansportdan foydalanganlik uchun qonun hujjalarda belgilangan normalardan ortiqcha to‘langan to‘lovlar;

12) pensiyalarga ustamalar;

13) xodimlarga to‘lanadigan moddiy yordam;

14) mehnatda mayib bo‘lganlik, kasb kasalligi yoki mehnat vazifalarini bajarish bilan bog‘liq holda sog‘lig‘ining boshqacha shikastlanishi sababli xodimlarga yetkazilgan zararning o‘rnini qoplash uchun qonun hujjatlarida belgilangan normalardan ortiqcha to‘lanadigan to‘lovlar;

15) ekologiya, sog‘lomlashadirish va xayriya jamg‘armalariga, madaniyat, sog‘liqni saqlash, mehnat organlari, jismoniy tarbiya va sport muassasalariga, ta’lim muassasalariga, mahalliy davlat hokimiyati organlariga, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga badallar, homiylik va xayriya yordamlari tarzidagi mablag‘lar;

16) va boshqlar.

Soliq solish bazasi miqdori bilan teskari bog‘lik bo‘lgan omillarga quyidagilarni keltirishimiz mumkin: - o‘tgan soliq davrlariga tegishli, joriy soliq davriga o‘tkazilishi lozim bo‘lgan zararlar; - chegriladigan xarajatlar; -soliq to‘lovchining daromadi hisoblanmaydigan tushumlar; - soliq imtiyozlari summasi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining soliq solinadigan bazasi jami daromaddan kelib chiqib, soliq solishdan ozod qilingan daromadlar chegirilgan holda aniqlanadi.

Jismoniy shaxsning chet el valyutasida ifodalangan daromadlari daromadlar amalda olingan sanada O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kurs bo‘yicha milliy valyutada qayta hisoblab chiqiladi.

Quyida ko‘rsatilgan jismoniy shaxslarning daromad turlari soliq solish bazasini oshishiga olib keluvchi ijobji omillar sifatida e’tirof etiladi: mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlar; foizlar; dividendlar; mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlar; jismoniy shaxslarga xususiy mulk huquqi asosida tegishli bo‘lgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan olingan daromadlar; sanoat mulki obektlariga, seleksiya yutug‘iga berilgan patent (litsenziya) egasi bo‘lgan jismoniy shaxsning patentdan boshqa shaxs foydasiga voz kechganda yoki litsenziya shartnomasi tuzganda olgan daromadi; roylari; soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar to‘laganidan keyin xususiy korxona mulkdori, oilaviy korxona ishtirokchisi hamda fermer xo‘jaligi boshlig‘i ixtiyorida qoladigan foyda summasi.moddiy naf tarzidagi daromadlar; boshqa daromadlar.

Soliq solinadigan baza realizatsiya qilinayotgan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qiymati asosida, unga qo‘shilgan qiymat solig‘ini kiritmagan holda belgilanadi.

Tovarlar (ishlar, xizmatlar) tannarxidan yoki tovarlar olingan narxdan (tovarni olish bilan bog‘liq xarajatlar hisobga olingan holda) past narxlarda realizatsiya qilingan taqdirda, soliq to‘lovchiga o‘z ehtiyojlari uchun tovarlar berilganda (ishlar bajarilganda, xizmatlar ko‘rsatilganda), shuningdek tovarlar (ishlar, xizmatlar) bepul berilganda soliq solish maqsadlari uchun soliq solinadigan baza tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) tannarxidan yoki tovarlar olingan narxdan (tovarni olish bilan bog‘liq xarajatlar hisobga olingan holda) kelib chiqib belgilanadi.

O‘zi ishlab chiqargan tovarlarni jahon bozorida haqiqiy vujudga kelgan narxlar bo‘yicha, shu jumladan tannarxidan past narxlar bo‘yicha eksport qilish masalalarini ko‘rib chiquvchi maxsus vakolatli organning qarorlari asosida ushbu tovarlarning tannarxidan past narxlar bo‘yicha xorijiy valyutaga eksport qilinganda, soliq solinadigan baza soliq solish maqsadida tovarlarni realizatsiya qilishning haqiqiy narxidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Tovarlar qayta ishlashga berilgan xom ashyo va materiallardan tayyorlangan taqdirda, soliq solinadigan baza qo‘shilgan qiymat solig‘ini kiritmagan holda ularni qayta ishlash xizmatlarining qiymati asosida, aksiz to‘lanadigan tovarlar bo‘yicha esa, ularni qayta ishlash xizmatlari qiymati asosida hisoblab chiqarilgan aksiz solig‘ini hisobga olgan holda belgilanadi.

Qurilish, qurilish-montaj va ta’mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy ishlar, xizmatlar bo‘yicha, shuningdek obektlarni foydalanishga tayyor holda qurishda shartnomaviy narxlardan kelib chiqqan holda hisob-kitob hujjatlari haq to‘lash uchun taqdim etilgan, bajarilgan va buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan ishlarining, xizmatlarning qo‘shilgan qiymat solig‘i kiritilmagan qiymati soliq solinadigan bazadir. Agar shartnomaga binoan bu ishlarni materiallar bilan ta‘minlash majburiyati buyurtmachining zimmasida bo‘lsa, ushbu materialarga bo‘lgan mulk huquqi buyurtmachining o‘zida saqlanib qolgan taqdirda, bajarilgan hamda

tasdiqlangan ishlarning buyurtmachi materiallarining qiymati kiritilmagan holdagi qiymati soliq solinadigan bazadir.

Import qilingan tovarlar realizatsiya qilinganda, soliq solinadigan baza realizatsiya qilinayotgan tovarlarning qo'shilgan qiymat solig'i kiritilmagan qiymatidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Bunda soliq solinadigan baza mazkur tovar import qilinganda qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish uchun qabul qilingan qiymatdan past bo'lishi mumkin emas.

Aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha soliq solinadigan bazaga aksiz solig'inining summasi kiritiladi.

Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar realizatsiya qilingan taqdirda, soliq solinadigan baza qo'shilgan qiymat solig'i summasini ham o'z ichiga oladigan, ularning realizatsiya qilish narxi bilan qoldiq qiymati o'rtasidagi ijobiy farq sifatida belgilanadi.

Mol-mulk moliyaviy ijaraga, shu jumladan lizingga berilganda, soliq solinadigan baza qo'shilgan qiymat solig'i summasini o'z ichiga oladigan, chiqib ketayotgan aktiv qiymati bilan uning balans (qoldiq) qiymati o'rtasidagi ijobiy farq sifatida belgilanadi, soliq to'lovchi tomonidan ishlab chiqarilgan tovarlar moliyaviy ijaraga (lizingga) berilganda esa, qo'shilgan qiymat solig'ini o'z ichiga oladigan, chiqib ketayotgan aktivning qiymati soliq solinadigan bazadir. Bunda chiqib ketayotgan aktivning qiymati buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq aniqlanadigan, moliyaviy ijara ijaraga beruvchining buxgalteriya hisobida aktiv sifatida e'tirof etiladigan summa tarzida belgilanadi.

Qurilishi tugallanmagan obekt realizatsiya qilingan taqdirda, soliq solinadigan baza qo'shilgan qiymat solig'i summasini ham o'z ichiga oladigan, qurilishi tugallanmagan obektni realizatsiya qilish narxi bilan balans qiymati o'rtasidagi ijobiy farq sifatida belgilanadi.

Kredit tashkiloti tomonidan garov bilan ta'minlangan majburiyatni qoplash hisobiga olingan mol-mulk realizatsiya qilingan taqdirda, soliq solinadigan baza qo'shilgan qiymat solig'i summasini o'z ichiga oladigan, realizatsiya qilish narxi bilan qarzni qoplash hisobiga mazkur garov mol-mulki olingan qarz summasi o'rtasidagi ijobiy farq sifatida aniqlanadi.

Baholari (tariflari) davlat tomonidan tartibga solinishi nazarda tutilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiya qilinganda, soliq solinadigan baza belgilangan baholardan (tariflardan) kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha hisobga olish nazarda tutilmagan mol-mulk realizatsiya qilingan taqdirda (mazkur mol-mulk qo'shilgan qiymat solig'i bilan olinganligi yoki olinmaganligidan qat'i nazar), soliq solinadigan baza qo'shilgan qiymat solig'i summasini o'z ichiga oladigan, uni realizatsiya qilish (chiqib ketish) qiymati bilan balans qiymati o'rtasidagi ijobiy farq sifatida aniqlanadi.

Transport ekspeditsiyasi shartnomasi bo'yicha xizmatlar ko'rsatilgan taqdirda, ekspeditorning soliq solinadigan bazasi qo'shilgan qiymat solig'i summasini ham o'z ichiga oladigan, ko'rsatilgan xizmatlar uchun haq tariqasida olinishi lozim bo'lган summadan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Vositachilik shartnomasi, topshiriq yoki vositachilik xizmatlari ko'rsatish bo'yicha boshqa shartnoma asosida o'zga shaxsning manfaatlarini ko'zlab xizmatlar ko'rsatilgan taqdirda, qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha soliq solinadigan baza qo'shilgan qiymat solig'i summasini ham o'z ichiga oladigan, ko'rsatilgan xizmatlar uchun haq (foiz) tariqasida olinishi lozim bo'lган summadan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Vositachilik, topshiriq shartnomasiga binoan komitent yoki topshiriq beruvchi O'zbekiston Respublikasining norezidenti bo'lган taqdirda, soliq solinadigan baza realizatsiya qilinayotgan tovarlarning qo'shilgan qiymat solig'i kiritilmagan qiymatidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Bunda soliq solinadigan baza mazkur tovar import qilinganida qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish uchun qabul qilingan qiymatdan past bo'lishi mumkin emas.

Garovga qo'yuvchi garov mol-mulkini garov bilan ta'minlangan majburiyatni bajarish hisobiga topshirgan taqdirda, garovga qo'yuvchining soliq solinadigan oboroti miqdori garovga oluvchi tomonidan realizatsiya qilingan mol-mulk qiymatidan kelib chiqqan, biroq qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda mazkur garovga qo'yilgan mol-mulkka olingan zayom mablag'lari summasidan kam bo'lмаган miqdorda belgilanadi. Garovga topshirilgan asosiy

vositalar, nomoddiy aktivlar va qurilishi tugallanmagan obektlar bo'yicha garovga qo'yuvchining soliq solinadigan bazasi qo'shilgan qiymat solig'ini ham o'z ichiga oladigan, ularning realizatsiya qilish narxi bilan balans (qoldiq) qiymati o'rtasidagi ijobiy farqdan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Qaytariladigan tara soliq solinadigan oborotga kiritilgan taqdirda, tara belgilangan muddatda qaytarilmasa, soliq solinadigan baza mazkur taraning qo'shilgan qiymat solig'i summasini ham o'z ichiga oladigan garov qiymati asosida belgilanadi.

Keyinchalik realizatsiya qilish uchun yuridik shaxslar tomonidan davlat rezervidan olingan, narxlari davlat tomonidan tartibga solinishi belgilangan tovarlar bo'yicha soliq solinadigan baza realizatsiya qilish narxi va davlat rezervidan olingan narx o'rtasidagi ijobiy farq sifatida aniqlanadi.

Benzin, dizel yoqilg'isi va gaz realizatsiya qilinganda soliq solinadigan baza ularni realizatsiya qilish qiymati asosida, unga qo'shilgan qiymat solig'i hamda benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq kiritilmagan holda aniqlanadi.

Aksiz solig'inining stavkalari mutlaq summada (qat'iy) belgilangan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha soliq solinadigan baza aksiz to'lanadigan tovarlarning naturada ifodalangan hajmi asosida aniqlanadi.

Aksiz solig'inining stavkalari foizlarda (advalor) belgilangan ishlab chiqarilayotgan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha, realizatsiya qilingan aksiz to'lanadigan tovarlarning aksiz solig'i hamda qo'shilgan qiymat solig'i kiritilmagan qiymati soliq solinadigan bazadir.

Ish haqi hisobiga, hisoblab chiqarilgan dividendlar hisobiga, bepul yoki boshqa tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) ayirboshlash uchun beriladigan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha, shuningdek tovarlar tannarxidan past narxlarda realizatsiya qilingan taqdirda soliq to'lovchi tovarlarni topshirish paytida uning haqiqiy tannarxidan kam bo'limgan darajada belgilaydigan narx asosida hisoblangan qiymat soliq solinadigan bazadir.

Qayta ishslashga berilgan xom ashyo va materiallardan ishlab chiqarilgan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha soliq solinadigan baza aksiz to'lanadigan tovarlarni ishlab chiqarishga doir ishlar qiymatini hamda qayta ishslashga berilgan xom ashyo va materiallar qiymatini o'z ichiga oladi.

Aksiz solig'inining stavkalari foizlarda (advalor) belgilangan import qilinayotgan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha soliq solinadigan baza bojxona to'g'risidagi qonun hujjalriga muvofiq aniqlanadigan bojxona qiymati asosida belgilanadi.

3. Soliq solish bilan bog'liq obektlar bo'yicha ma'lumotlar bazasiga kiritishda ichki va tashqi manbalar.

3. Soliq solish obektlari va soliq solish bilan bog'liq obektlar to'g'risidagi ma'lumotlar bazasi obekt joylashgan joydagи hududiy davlat soliq xizmati organlarida ichki va tashqi axborot manbalari asosida elektron ko'rinishda shakllantiriladi.

Ichki manbalar quyidagilardan iborat:

a) soliq to'lovchilar tomonidan davlat soliq xizmati organlariga taqdim etiladigan choraklik, yillik moliyaviy hisobotlar, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha hisob-kitoblar, aniqlashtirilgan soliq hisobotlari, tushuntirish xatlari, ma'lumotlar va ma'lumotnomalar to'g'risidagi;

b) quyidagilarning summasi ko'rsatilgan soliq to'lovchilarining shaxsiy kartochkalari to'g'risidagi: hisoblangan, to'langan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar; qaytarilgan, kamaytirilgan hamda ortiqcha to'langan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar; soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha qarzdorlik va hisoblangan penyalar;

v) qo'shimcha yoki kamaytirishga hisoblangan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'g'risidagi soliq tekshiruvlari dalolatnomalari, shuningdek soliq tekshiruvlari materiallari bo'yicha sud qarorlari asosida yoki ixtiyoriy ravishda to'langan (undirilgan) jarimalar summalarini to'g'risidagi;

g) soliq qonunchiligi sohasida yo'l qo'yilgan huquqbazarlik uchun ma'muriy jarima qo'llanilgan shaxslar va qo'llanilgan jarima summasi to'g'risidagi;

d) jismoniy va yuridik shaxslarni ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlarini o'z ichiga oluvchi davlat soliq xizmati organlarida hisobga qo'yilgan soliq to'lovchilar to'g'risidagi;

ye) soliq to‘lovchilarning mol-mulk, yer soliqlari hamda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo‘yicha solish obektlarini hisobga qo‘yish to‘g‘risidagi;

j) chakana savdo va xizmat ko‘rsatish sohasida bank kassalariga naqd pul tushumi kelib tushishi bo‘yicha o‘tkazilgan xronometrajlar natijalari to‘g‘risidagi axborotlar.

5. Tashqi manbalar quyidagilardan iborat:

a) davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organlarning tadbirkorlik subektlari to‘g‘risidagi;

b) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 84-moddasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 30 oktabrdagi PQ-1843-sonli «O‘zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati idoralari axborot-kommunikatsiya tizimi faoliyati samaradorligini yanada oshirish choratadbirlari to‘g‘risida»gi qaroriga 2-ilovada nazarda tutilgan tegishli organlar va tashkilotlar tomonidan davlat soliq xizmati organlariga taqdim etiladigan soliq to‘lovchilarning majburiyatlarini yuzaga kelganligi (tugatilishi) to‘g‘risidagi;

v) O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining yozma so‘roviga asosan tegishli axborot taqdim etuvchi boshqa organlar va tashkilotlarning soliq to‘lovchilarning majburiyatlarini yuzaga kelganligi (tugatilishi) to‘g‘risidagi axborotlari.

Soliq solish bilan bog‘liq obektlar bo‘yicha ma’lumotlar bazasiga kiritishda ichki manba bo‘lib soliq to‘lovchilar tomonidan taqdim qilinuvchi hisobotlar, hisob-kitoblar, soliq tekshiruvi natijalari xizmat qiladi.

Tashqi manba sifatida yuridik shaxslarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organlardan, litsenziya va (yoki) boshqa ruxsat etuvchi hujjatlar beradigan organlardan, banklardan, ichki ishlar idoralaridan, ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organlardan, foydalanishga berilgan yer qa‘ri uchastkalarining davlat hisobi yuritilishini amalga oshiruvchi va (yoki) yer qa‘ri uchastkalaridan foydalanish huquqlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organlardan va boshqa idoralardan olingan ma’lumotlar hisoblanadi.

Yuridik shaxslarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organlar, ro‘yxatdan o‘tkazilgan joydagi davlat soliq xizmati organiga ushbu yuridik shaxslar davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan kundan e’tiboran o‘n kundan kechiktirmay tegishli yuridik shaxslarning davlat reyestridan ko‘chirma topshirishi shart. Mazkur organlar davlat soliq xizmati organiga tegishli yuridik shaxslarga taalluqli davlat reyestriga kiritilgan har qanday o‘zgartishlar to‘g‘risida ham bunday o‘zgartishlar kiritilgan kundan e’tiboran o‘n kundan kechiktirmay ma’lum qilishi shart.

Litsenziya va (yoki) boshqa ruxsat etuvchi hujjatlar beradigan organlar bunday hujjatlar berilgan shaxslar joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organlariga shunday hujjatlar berilganligi hollari haqida ma’lum qilishi, shuningdek mazkur hujjatlar bekor qilinganligi, ularning amal qilishi to‘xtatib turilganligi yoki tugatilganligi to‘g‘risida ma’lumot berishi shart.

Ichki ishlar organlari pasportlar berilganligi, shu jumladan yo‘qotilgan yoki amal qilish muddati o‘tgan pasportlar o‘rniga pasportlar berilganligi faktlari haqida, bekor qilingan pasportlar to‘g‘risida o‘zлari joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organlariga har oyda, shuningdek turar joyni ijaraga berish shartnomasi, tekin foydalanishga berish shartnomasi mavjud emasligining yoki turar joyni ijaraga berish shartnomasini, tekin foydalanishga berish shartnomasini majburiy notarial tasdiqlanishiga rioya etilmaganligining aniqlangan faktlari haqida o‘zлari joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organlariga yoki O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq, valyutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamentiga uch ish kuni ichida ma’lum qilishi shart.

Qurilishi tugallangan obektlarda tovarlar ishlab chiqarishni va xizmatlar ko‘rsatishni tashkil etish bo‘yicha olingan majburiyatlar tadbirkorlik subektlari tomonidan bajarilmagan hollar mustasno, O‘zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasining Davlat arxitektura-qurilish nazorati hududiy inspeksiyalari yer uchastkasi joylashgan joydagi davlat soliq xizmati organlariga bu haqda uch kalendar kun ichida xabar berishi shart.

Ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organlar har yili 1 fevralgacha o‘zлari joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organlariga tegishli hududda joylashgan yer uchastkasi va boshqa ko‘chmas mulk, uning mulkdorlari (egalari) to‘g‘risida 1 yanvar holatiga ko‘ra ma’lumot berishi, shuningdek yer uchastkasi va boshqa ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlar

yil davomida yuzaga kelganda — mazkur ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlar davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan kundan e’tiboran o’n kun ichida ma’lum qilishi shart.

Suv resurslarini hisobga oluvchi organlar suvdan foydalanish yoki suv iste’moli joyidagi davlat soliq xizmati organlariga 1 fevraldan kechiktirmasdan o’tgan yil yakunlari bo‘yicha o‘lchov asboblarisiz foydalanilgan suv hajmlari to‘g‘risida xabar qilishi shart.

Davlat notarial idoralari tegishincha ko‘chmas mulk oldi-sotdi shartnomalari, mol-mulk ijarasi shartnomalari tasdiqlanganligi va ijara haqi miqdori, shuningdek meros qilib olish yoki hadya tarzida fuqarolarning mulkiga o‘tayotgan mol-mulk qiymati to‘g‘risida ko‘rsatilgan notarial harakatlar amalga oshirilgan kundan e’tiboran o’n kundan kechiktirmay o‘zları joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organlariga ma’lum qilishi shart.

Yer resurslarini hisobga oluvchi va (yoki) baholovchi organlar yer uchastkasiga nisbatan huquqi yuzaga kelgan (tugatilgan) shaxslarni ko‘rsatgan holda yer uchastkasiga nisbatan huquq berilganligi (tugatilanligi) hamda qishloq xo‘jaligi yerlarining normativ qiymati to‘g‘risida yer uchastkasi joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organlariga ma’lum qilishi shart.

Foydalanishga berilgan yer qa’ri uchastkalarining davlat hisobi yuritilishini amalga oshiruvchi va (yoki) yer qa’ri uchastkalaridan foydalanish huquqlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organlar o‘zları joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organlariga yer qa’ri uchastkasi joylashgan yer hamda mazkur yer qa’ri uchastkasidan foydalanish huquqi berilgan shaxs to‘g‘risidagi axborotni yer qa’ri uchastkasidan foydalanish huquqi ro‘yxatdan o‘tkazilgan (hisobga olingan) kundan e’tiboran o’n kun ichida ma’lum qilishi shart.

Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysi har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmasdan O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasiga o‘zi va investitsiya vositachilari tomonidan ro‘yxatga olingan aksiyalarga doir bitimlar to‘g‘risidagi axborotni taqdim etishi shart.

Banklar yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga faqat ular davlat soliq xizmatining tegishli organida hisobga qo‘yilganligini tasdiqlovchi hujjatni ko‘rsatgan taqdirda bank hisobvaraqlari ochishi mumkin va hisobvaraqlar ochilganligi to‘g‘risida o‘sha organga keyingi kundan kechiktirmay ma’lum qilishi shart. Qonunda nazarda tutilgan hollarda banklar davlat soliq xizmati organlariga boshqa ma’lumotlarni ham taqdim etadi.

Bojxona organlari har oyda eksport-import operatsiyalari, shuningdek tovarlarni olib o‘tish, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali elektron tijorat shaklida amalga oshirilgan tovarlarni olib o‘tish haqidagi ma’lumotni davlat soliq xizmati organlariga ma’lum qilishi shart.

Internet jahon axborot tarmog‘i milliy segmentining domen nomlari tizimini belgilovchi organ tegishli ma’lumotlar bazasiga ularish dasturiy vositalarni taqdim etish orqali davlat soliq xizmati organlariga domen nomlari administratorlari to‘g‘risidagi axborotdan foydalanish imkoniyatini beradi.

Soliq to‘lovchilarning majburiyatlari yuzaga kelganligi to‘g‘risida axborot taqdim etish tartibi ushbu moddada nazarda tutilgan organlar bilan kelishilgan holda O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan belgilanadi.

AQSH mamlakatida soliq to‘lovchiga hamda soliq solish bazasiga oid ma’lumotlar ichki va tashqi manbalar asosida shakllantirish amaliyoti keng tarqalgan. Ichki ma’lumotlar sifatida soliq to‘lovchilarning hisobotlari soliq hisob –kitoblari xizmat qiladi³.

4. Soliq solish obekti bo‘yicha ro‘yxatga olish ishlarini davlat soliq idoralarida tashkillashtirish tartibi.

Soliq to‘lovchilarni hisobga qo‘yish va soliq to‘lovchilarni obektlar bo‘yicha hisobga qo‘yish O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 80 va 81-moddalarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

³ Federal taxation: practice and procedure. Robert E., Richard J. Chicago, 2017.987p. (801p.)

Soliq to‘lovchilar — jismoniy shaxslarni hisobga qo‘yish tuman (shahar) davlat soliq inspeksiyalarining jismoniy shaxslar soliq ma‘muriyatichiligi bo‘limlari (tuzilmalari) tomonidan amalga oshiriladi.

Bunda, jismoniy shaxsning pasport ma‘lumotlari asosida Soliq to‘lovchi — jismoniy shaxsni ro‘yxatga olish varaqasi to‘ldiriladi hamda tuman (shahar) davlat soliq inspeksiyasining jismoniy shaxslar soliq ma‘muriyatichiligi bo‘limi (tuzilmasi) mas’ul xodimi tomonidan ushbu davlat soliq inspeksiyasining tahlil va prognozlash bo‘limi (tuzilmasi) mas’ul xodimiga taqdim etiladi. O‘z navbatida, ushbu mas’ul xodim tomonidan soliq to‘lovchi to‘g‘risidagi barcha ma‘lumotlar O‘zbekiston Respublikasi soliq to‘lovchilarining yagona reyestriga kiritiladi.

Ma‘lumotlar O‘zbekiston Respublikasi soliq to‘lovchilarining yagona reyestrda ishlovdan o‘tkazilgach, tuman (shahar) davlat soliq inspeksiyasini tomonidan jismoniy shaxsga Soliq to‘lovchining O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasida ro‘yxatga olinganligi va unga identifikatsiya raqami berilganligi to‘g‘risida guvohnoma beriladi.

Soliq to‘lovchi — jismoniy shaxsni ro‘yxatga olish varaqasidagi ma‘lumotlar o‘zgarganda, jismoniy shaxs tomonidan Soliq to‘lovchi — jismoniy shaxsning ro‘yxat ma‘lumotlaridagi o‘zgarishlar varaqasi to‘ldiriladi.

Jismoniy shaxsning mol-mulk solig‘i, yer solig‘i hamda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo‘yicha soliq solish obektlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlari asosida tuman (shahar) davlat soliq inspeksiyasining jismoniy shaxslar soliq ma‘muriyatichiligi bo‘limi (tuzilmasi) mas’ul xodimi tomonidan Soliq to‘lovchi — jismoniy shaxsning soliqlarini hisobga qo‘yish varaqasi to‘ldiriladi hamda ushbu davlat soliq inspeksiyasining tahlil va prognozlash bo‘limi (tuzilmasi) mas’ul xodimiga taqdim etiladi va mazkur ma‘lumotlar Jismoniy shaxslarning soliq majburiyatlarini hisobga olish dasturiy majmuasiga kiritiladi.

Tadbirkorlik subektlariga «yagona darcha» tamoyili bo‘yicha davlat xizmatlari ko‘rsatish yagona markazlarida ro‘yxatdan o‘tkazilmaydigan soliq to‘lovchi — yuridik shaxslarni tuman (shahar) davlat soliq inspeksiyasida soliq to‘lovchi sifatida hisobga qo‘yish uchun soliq to‘lovchi — yuridik shaxslarning mansabdar shaxslari tomonidan Soliq to‘lovchi — yuridik shaxsni ro‘yxatga olish varaqasi to‘ldiriladi hamda ushbu davlat soliq inspeksiyasining yuridik shaxslar soliq ma‘muriyatichiligi va kameral nazorat bo‘limi (tuzilmasi) mas’ul xodimi tomonidan qabul qilib olinadi.

Soliq to‘lovchi — yuridik shaxsning mansabdar shaxsi tomonidan belgilangan tartibda Soliq to‘lovchi — yuridik shaxsni ro‘yxatga olish varaqasi to‘ldirilgandan keyin tuman (shahar) davlat soliq inspeksiyasining yuridik shaxslar soliq ma‘muriyatichiligi va kameral nazorat bo‘limi (tuzilmasi) mas’ul xodimi uni ushbu davlat soliq inspeksiyasining tahlil va prognozlash bo‘limi (tuzilmasi) mas’ul xodimiga taqdim etadi. O‘z navbatida, ushbu mas’ul xodim tomonidan soliq to‘lovchi to‘g‘risidagi barcha ma‘lumotlar O‘zbekiston Respublikasi soliq to‘lovchilarining yagona reyestriga kiritiladi.

Ma‘lumotlar O‘zbekiston Respublikasi soliq to‘lovchilarining yagona reyestrda ishlovdan o‘tkazilgach, tuman (shahar) davlat soliq inspeksiyasini tomonidan soliq to‘lovchi — yuridik shaxsga Soliq to‘lovchining O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasida ro‘yxatga olinganligi va unga identifikatsiya raqami berilganligi to‘g‘risida guvohnoma beriladi, soliq to‘lovchi — yuridik shaxsning alohida bo‘linmasiga esa Soliq to‘lovchi — yuridik shaxsning alohida bo‘linmasi O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasida ro‘yxatga olinganligi va unga identifikatsiya raqami berilganligi to‘g‘risida guvohnoma beriladi.

Soliq to‘lovchi — yuridik shaxsni ro‘yxatga olish varaqasidagi ma‘lumotlar o‘zgarganda, soliq to‘lovchi — yuridik shaxsning mansabdar shaxsi tomonidan bunday o‘zgarishlar yuzaga kelgan kundan e’tiboran o‘n kunlik muddatda Soliq to‘lovchi — yuridik shaxsning ro‘yxat ma‘lumotlaridagi o‘zgarishlar varaqasi to‘ldiriladi.

Soliq to‘lovchi — yuridik shaxs to‘g‘risida qo‘srimcha ma‘lumotlar yuzaga kelganda soliq to‘lovchi — yuridik shaxsning mansabdar shaxsi tomonidan Soliq to‘lovchi — yuridik shaxs to‘g‘risida qo‘srimcha ma‘lumotlar varaqasi to‘ldiriladi.

Soliq to‘lovchilarini O‘zbekiston Respublikasi soliq to‘lovchilarining yagona reyestridan chiqarish O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 83-moddasiga ko‘ra, quyidagi tartibda amalga oshiriladi: soliq to‘lovchi — jismoniy shaxslar — O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari — ular vafot etgandan keyin, basharti soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash majburiyatları ularning merosxo‘rlari tomonidan to‘liq uzilgan yoki soliq qarzi belgilangan tartibda hisobdan chiqarilgan bo‘lsa; soliq to‘lovchi — yuridik shaxslar — O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari — ular tugatilganidan keyin, basharti soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash majburiyati to‘liq uzilgan yoki soliq qarzi belgilangan tartibda hisobdan chiqarilgan bo‘lsa; O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari — ularning O‘zbekiston Respublikasi soliq to‘lovchilarining yagona reyestriga kiritilishini belgilagan holatlar bekor bo‘lgan, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash majburiyati to‘liq uzilgan taqdirda.

3. MAVZU. “SOLIQ SOLISH OBEKTLARI HAMDA SOLIQ SOLISH BILAN BOG‘LIQ OBEKTLAR BO‘YICHA MA’LUMOTLAR BAZASINI SHAKLLANTIRISH VA YURITISH TARTIBI” ЙОЗАСИДАН КЕЙСЛАР ТҮПЛАМИ, АМАЛИЙ ТОПШИРИҚЛАР, ИШЛАНМАЛАР

Reja:

1. Soliq obekti va unga ta’sir qiluvchi omillar
2. Soliqqa tortiladigan baza va uga ta’sir qiluvchi omillar
3. Soliq solish bilan bogliq obektlar bo‘yicha ma’lumotlar bazasiga kiritishda ichki va tashqi manbalar
4. Soliq solish obekti bo‘yicha ro‘yxatga olish ishlarini davlat soliq idoralarida tashkillashtirish tartibi.

Talabalarga beriladigan savollar ro‘yxati:

1. Soliq elementlari nimani xarakterlaydi?
2. Soliq obektlarining miqdoriga qanday omillar ta’sir qiladi?
3. Soliq solish bazasi nima va unga qanday omillar ta’sir qiladi?
4. Soliq solish bilan bogliq obektlar bo‘yicha ma’lumotlar bazasining qanday ichki manbalari mavjud va ular qanday ma’lumotlar taqdim qiladi?
5. Soliq solish bilan bogliq obektlar bo‘yicha ma’lumotlar bazasining qanday tashqi manbalari mavjud va ular qanday ma’lumotlar taqdim qiladi?
6. Soliq solish obekti bo‘yicha ro‘yxatga olish ishlarini davlat soliq idoralarida qanday tashkil qilingan?
7. Kakoye vliyaniye okazqvayet elementq nalogov na rezultat prognoza nalogovqx postupleniy?



Auditoriyani faollashtirish uchun beriluvchi savollar

1. Soliq davri haqida nima bilasiz?
2. Soliq elementlari bilan bog‘liq, soliqni prognozlashtirishning qanday muammolari mavjud?
3. Soliqlarni hisoblash tartibi haqida so‘zlab bering.

1-topshiriq.

**1-KEYS-STADI
Kirish**

Tavsiya etilgan keysni yechish quyidagi natijalarga erishishga imkon yaratadi:

- o‘zlashtirilgan mavzu bo‘yicha bilimlarni mustahkamlash;
- mantiqiy fikrlashni rivojlantirish;
- soliq solish obektlari hamda soliq solish bilan bog‘liq obektlar bo‘yicha ma’lumotlar bazasini shakllantirish va yuritish tartibi borasida mustaqil ravishda qaror qabul qilish ko‘nikmalarini egallash;
- soliq solish obektlari hamda soliq solish bilan bog‘liq obektlar bo‘yicha ma’lumotlar bazasini shakllantirish va yuritish uslubiyatini qo‘llash qobiliyatini tekshirish.

VAZIYAT

“Ramiz bobo” fermer xo‘jaligi qishloq xo‘jaligi korxonasi – yagona yer solig‘i to‘lovchisi sifatida Toshkent viloyati Zangiota tumani Davlat soliq inspeksiyasida ro‘yxatdan o‘tgan. Uning foydalanishida 120 ga yer maydoni bo‘lib, 90 ga yer maydoniga paxta, 30 ga yer maydoniga g‘alla ekiladi. Fermer xo‘jalingining bosh buxgalteri 2018 yilning 25 aprelida yagona yer solig‘i bo‘yicha hisobg‘kitobni Toshkent viloyatiningzangiota tumani Davlat soliq inspeksiyasiga topshirgan. Soliq hisobg‘kitobini topshirgandan keyin 2 oydan keyin fermer xo‘jaligiga qo‘srimcha ravishda 30 ga yer uchastkasi ajratildi.

2018 yilning 15 yanvarida soliq inspektori «Ramiz bobo» fermer xo‘jaligi tomonidan yagona yer solig‘i bo‘yicha aniqlashtirilgan soliq hisob –kitobini topshirmaganligini aniqladi.


Nima deb o‘ylaysiz, soliq inspetori mazkur soliq obektini hisobga qo‘yilishini taminlash hamda ma’lumotlar bazasini shakllantirish uchun qanday choralar qo‘llashi lozim?

SAVOLLAR VA TOPSHIRIQLAR:

4. “Siz soliq inspektori hamda soliq to‘lovchi sifatida, soliq inspeksiyasida davlat ro‘yxatidan o‘tish uchun nima qilgan bo‘lar dingiz?
5. Davlat ro‘yxatidan o‘tish uchun qanday hujjatlar tayyorlardingiz?
6. Soliq inspektori sifatida mazkur fuqarolarni soliq to‘lovchi sifatida qanday ro‘yxatga qo‘yan bo‘lar edingiz?

2g‘topshiriq

Soliq solish bilan bogliq obektlar bo‘yicha ma’lumotlar bazasiga kiritishda tashqi manbalarni klaster grafik organizayzeri usulida tushuntirib bering.



Foydalilanadigan adabiyotlar royxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiysi to‘g‘risida. 2018 yil 29 iyun. Elektron- huquqiy baza.

2. Mirziyoyev Sh.M.Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak. – Toshkent: “O’zbekiston” NMIU, 2017. – 104 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: “O’zbekiston” NMIU, 2017. – 48 b.
4. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Soliq ma’muriyatichilagini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to’lovlarining yig‘iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. 2017 yil 18 iyul, pf-5116сон. Elektron-huquqiy baza.
5. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy erkinligini oshirish, mahalliy byudjetlarga tushumlarning to‘liqligini ta’minlash bo‘yicha soliq va moliya organlari javobgarligini kuchaytirishga oid qo’shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida. 2017 yil 13 dekabr, PF-5283-сон. Elektron-huquqiy baza.
6. Распоряжение Президента Республики Узбекистан. Об организации критического изучения деятельности финансовых, налоговых и таможенных органов. 16 января 2018 г. № р-5182. Электронно-правовая база.
7. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini huquqiy tartibga solishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida. 2017 yil 28 avgust, 677-сон. LEX.UZ. Elektron-huquqiy baza.
8. Абдуганиева Г.К., Бабабекова Н.Б. Прогнозирование налогов. Учебное пособие. – Т.: “Тафакур-Бўстони”, 2012. - 224 с.
9. Doschanova N.P. Soliq statistikasi va prognozi. O‘quv qo’llanma. – Т.: “Ren-Poligraf” bosmaxonasi, 2009. – 216 b.
10. Vahobov A.V,Jo‘rayev A.S Soliqlar va soliqqa tortish.Darslik.T: “Sharq”, 2009. -448 b.
11. O’zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. “Norma” huquqiy bazasi.
12. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 iyuldagi “Soliq ma’muriyatichilagini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to’lovlarining yig‘iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”ги PF-5116-сонли Farmoni. Xalq so‘zi» gazetasi. 2017 yil 19 iyuldagi 141 (6835)-сон.
13. Haydarov N.H. Soliqlar va soliqqa tortish masalalari. O‘quv qo’llanma. AkademiY. - Т.: 2007. - 214 b.;
14. Гадоев Э. и др. Упрощённая система налогообложения. Учебно практическое пособие. - Т.: Норма, 2011.- 324 стр.
15. Gadoev E. va b. Bilvosita soliqlar. O‘quv-amaliy qo’llanma. - Т.: Norma, 2011.- 328 –b.
16. Gadoev E. va b. Foyda solig‘i. O‘quv-amaliy qo’llanma. - Т.: Norma, 2011.- 408-b.
17. Yax’oyev Q. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. Darslik. Toshkent. 2003. 246 bet.
18. Zavalishina I.A. Soliqlar: nazariya va amalyot. “Iqtisodiyot va huquq dunyosi” nashriyot uyi, 2005. 544 bet.
19. Gadoev E, Kuzieva N. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish. Darslik. – Т.: “O’zbekiston”, 2012. - 336 b
20. Jo‘rayev A, S. Shirinov. Soliq statistikasi va prognozi: O‘quv qo’llanma, Т.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2015.-392b.
21. Eshboyev T.T. Yuridik shaxslarni soliqqa tortish. Darslik. T: “Cho‘lon” 2013, 296 bet
22. Перов А. Налоги и налогообложение. Учебное пособие. – М.: “Юрайт”, 2012 г. – 899 стр.
23. O’rmonov J. Kichik biznes subektlarini soliqqa tortishni takomillashtirishning dolzarb masalalari. –T.: El-Press. 2011. – 132b.
24. Musagaliyev A. Yuridik shaxslarni soliqqa tortishni takomillashtirishning dolzarb masalalari. Soliq akademiyasi. Monografiya, Toshkent: 2010, 116 bet.
25. Tagayev A., Xoshimoto F., Ro‘ziyev G., Xotamov K. Soliq nazorati.- Т.:O‘quv qo’llanma, “Yangi asr avlod”, 2010.

26. A.Xomma, A.Tangirqulov, Sh.Toshmatov, I.Norqo‘ziyev va N.Roziqovlar. Soliq qarzi va uni undirish. O‘quv qo‘llanma. - T.: O‘quv qo‘llanma, “Yangi asr avlod”, 2011.
27. I.Xabibullayev, G.Mansurova, Soliq statistikasining nazariy asoslari. O‘quv qo‘llanma - T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi», 2005.
28. Forecasting Scottish taxes. The National Archives, Kew, London TW9 4DU. Crown copyright 2017. 25p/(20p.).
29. Federal taxation: practice and procedure. Robert E., Richard J. Chicago, 2017.987p. (252p.).
30. Tax analysis and revenue forecasting. Issues and Techniques. By Glenn P. Jenkins Chun-Yan Kuo Gangadhar P. Shukla. Harvard Institute for International Development Harvard University . 2017. 187 p.(2p.).
31. An Analysis of Tax Revenue Forecast Errors. Martin Keene and Peter Thomson. New Zealand treasury working paper 07/02. 2017.41p.(2p.).
32. Tax policy, Revenue forecasting and economic analysis force. Joshua Goldstain, assistant director. Office of management and budget. The City of New York. 2017. 308p.(39p.)


Internet saytlari:

33. www. <http://el.tfi.uz/> - Toshkent moliya instituti elektron kutubxonasi;
34. www. <http://soliq.uz>;
35. www. <http://edu.uz>;
36. www. <http://mf.uz>;
37. www. <http://oxs.uz>;
38. www. <http://norma.uz>;
39. www. <http://lex.uz>;
40. www. <http://my.gov.uz>;
41. www. <http://alleng.ru>;

4.1. “DAVLAT SOLIQ XIZMATI ORGANLARIDA SOLIQ TO‘LOVCHILARNING SHAXSIY KARTOCHKALARINI YURITISH TARTIBI” O‘QUV MODULI YUZASIDAN MA’RUZA MATNI

IV.O'QUV MATN (MODUL)

MODUL: DAVLAT SOLIQ XIZMATI ORGANLARIDA SOLIQ TO'LOVCHILARNING SHAXSIY KARTOCHKALARINI YURITISH TARTIBI



Reja:

1.Soliq to'lovchi yuridik shaxslarning shaxsiy kartochkalarini yuritish tartibi

2.Soliq to'lovchi jismoniy shaxslarning shaxsiy kartochkalarini yuritish tartibi

Tayanch so‘z va iboralar: shaxsiy kartochka, birlamchi hujjatlar, aniqlashtirilgan soliq hisobotlari, to‘lov hujjatlari, bank ko‘chirmalari, hujjatlar reyestri, solishtirma dalolatnoma, qo‘srimcha hisoblangan soliq summasi.

Barcha davlatlarda soliq to‘lovchilar haqidagi ma’lumotlar, soliq solish obyekti haqidagi ma’lumotlar hisobi yuritiladi. Hindiston davlatida soliq to‘lovchilar to‘g‘risidagi ma’lumotlar ularning kartotekasiga yoziladi. Kartotekaga yozuvlar soliq to‘lovchi ro‘yxatdan o‘tgan sanadan ochiladi. Xizmat ko‘rsatuvchi soliq to‘lovchilar o‘ttiz kun ichida ro‘yxatdan o‘tish to‘g‘riisda ariza berishi lozim⁴.

Davlat soliq xizmati organlarida soliq to‘lovchilarning shaxsiy kartochkalarini yuritish Tartibi Respublikasining Soliq kodeksiga, Mehnat kodeksiga, Fuqarolik kodeksiga hamda O‘zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to‘g‘risida»gi, «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi, «Byudjet tizimi to‘g‘risida»gi va boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlar asosida ishlab chiqilgan.

Unda davlat soliq xizmati organlarida soliq to‘lovchilarning shaxsiy kartochkalarida byudjetga, byudjetdan tashqari davlat maqsadli jamg‘armalariga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarining, shuningdek fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan majburiy pensiya badallari, O‘zbekiston yoshlarining «Kamolot» ijtimoiy harakatini rivojlantirish jamg‘armasiga hamda Davlat soliq qo‘mitasining moddiy yordam, ijtimoiy himoyalash, soliq organlarini rivojlantirish va kutilmagan xarajatlar maxsus jamg‘armasiga to‘lovlarining tezkor hisobini yuritish, soliq organlarining funksional bo‘lmalmali o‘rtasida o‘zaro axborot almashinuvi tartibini belgilaydi.

Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar tushumini hisobga olish byudjet klassifikatsiyasiga muvofiq yuritiladi.

Davlat soliq xizmati organlarida soliq to‘lovchining soliq majburiyatlarini bajarilishiga doir ayrim ma’lumotlar (mazkur tartibning 10-bandidagi va qonun hujjatlariga asosan boshqa ma’lumotlar) soliq to‘lovchining shaxsiy kartochkalarida yuritiladi.

9. Shaxsiy kartochkalarda quyidagi summalar aks ettiriladi:

- a) soliq to‘lovchining soliq hisobotiga, shu jumladan aniqlashtirilgan soliq hisobotiga va tekshirishlar natijasida qo‘srimcha yoki kamaytirishga hisoblangan summalar;
- b) to‘langan (undirilgan) summalar;
- v) qaytarilgan yoki amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarining bir turidan boshqa turdagisi soliq qarzi uchun hisobga olingan summalar;
- g) to‘lash muddati kechiktirilgan (bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkonii berilgan) to‘lovlar;
- d) hisobdan chiqarilgan va alohida hisobi yuritiladigan summalar;

⁴ Executive programme tax laws and practice. Study material. Module paper 4. Laser Typesetting by AArushi Graphics, Prashant Vihar, New Delhi, and Printed at M P Printers/5000/March 2017. 717 p.

ye) hisoblangan penya va boshqa moliyaviy sanksiyalar.

10. Shaxsiy kartochkani yuritish dasturiy mahsulida ma'lumotlar bazasiga tartibda belgilangan tarzda ma'lumotlar kiritiladi va to'liqligicha saqlanishi ta'minlanib, noqonuniy foydalanishdan himoyalananadi.

11. Shaxsiy kartochkaga ma'lumotlar asosan birlamchi hujjatlar yoki maxsus elektron raqamli imzo bilan yuborilgan elektron hisobotlar (aniqlashtirilgan hisobotlar) asosidakiritiladi.

12. Shaxsiy kartochkaga barcha yozuvlar ketma-ket tartibda sanalari va kiritilayotgan yozuvlarning haqqoniyligini tasdiqlovchi hujjatlar (soliq hisobotlari, aniqlashtirilgan soliq hisobotlari, to'lov hujjatlari, bank ko'chirmalari, tekshirish natijasida rasmiylashtirilgan 10-shakl ma'lumotlari, ariza va vakolatli organlar hujjatlari, xo'jalik va fuqarolik sudsari qarorlari, ajrimlari va boshqa qonun bilan belgilangan hujjatlar) ko'rsatilgan holda tegishli ustunlarda aks ettiriladi.

16. Shaxsiy kartochkalarga ma'lumotlarni kiritish va ularni o'zgartirish huquqi berilgan xodimlarga ma'lumotlar bazasi adminstratori tomonidan alohida «parol» yoki elektron raqamli imzo (keyingi matnda «parol» deb yuritiladi) berilib, ushbu «parol» asosida ma'lumotlar bazasiga kirib ishslashga ruxsat beriladi.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlardan bo'yicha hisobga olish hujjatlari quyidagi ish yuritish jildlarida saqlanadi:

a) soliqlar va boshqa majburiy to'lovlardan bo'yicha soliq to'lovchining solishtirma dalolatnomasi hamda SHKsidan ko'chirma;

b) moliya idorasi, bank muassasasi va boshqa vakolatli tashkilotlardan olingan, byudjet klassifikatsiyasi bo'yicha amalga oshirilgan bank operatsiyalarining to'lov hujjatlari va bank ko'chirmalari, to'lov reyestrlari;

v) ortiqcha to'langan summalar ni hisobga olinganligi yoki qaytarilganligi bo'yicha hujjatlar;

g) Shaxsiy kartochkalarni boshqa tuman (shahar) soliq organiga jo'natish va qabul qilish yuzasidan hujjatlari;

d) soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni majburiy undirish bo'yicha hujjatlar;

ye) soliqlar va boshqa majburiy to'lovlardan bo'yicha soliq majburiyatlarini bajarishda to'lash muddatlarini o'zgartirilishi yuzasidan hujjatlari;

j) soliq to'lovchilarning soliq majburiyatlarini to'xtatilganligi to'g'risida hujjatlar;

z) tugatilgan soliq to'lovchilarning soliq majburiyatlarini ijrosi to'g'risidagi hujjatlar;

i) qayta tashkil bo'lgan soliq to'lovchilarning soliq majburiyatlarini ijrosi bo'yicha hujjatlar;

k) Davlat byudjetining kelgusi yildagi asosiy parametrlarini tasdiqlash to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari, shuningdek byudjet klassifikatsiyalariga o'zgartirish kiritish to'g'risidagi Moliya vazirligining buyruqlari;

l) ish yuzasidan boshqa zaruriy hujjatlari.

Soliq to'lovchi- yuridik shaxslar haqida shaxsiy kartochkada quyidagi ma'lumotlar aks ettiriladi:

a) soliq to'lovchining identifikatsion raqami (keyingi matnda STIR deb yuritiladi);

b) soliq to'lovchining to'liq nomi;

v) soliq to'lovchining yuridik manzili;

g) soliq yoki majburiy to'lov turi nomi;

d) byudjet klassifikatsiyasi asosida byudjet va byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalarga o'tkaziladigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlardan hisob raqami;

ye) soliq to'lovchining mulkchilik shakli;

j) soliq to'lovchining yuqori tashkiloti;

z) soliq to'lovchining faoliyat turi;

i) soliq to'lovchiga xizmat ko'rsatuvchi bank nomi, bank kodi va bankdagi asosiy (birlamchi) hisob raqami;

k) soliq to'lovchi yuridik shaxsning rahbari va bosh hisobchisining ismi, sharifi (F.I.SH) hamda telefon raqamlari.

Shaxsiy kartochka amaldagi soliq qonunchiligiga asosan soliq to‘lovchining majburiyatlaridan kelib chiqib, har bir soliq va boshqa majburiy to‘lovlar turi bo‘yicha alohida ochiladi.

Davlat soliq xizmati organlarida byudjetga va byudjetdan tashqari davlat maqsadli jamg‘armalariga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar, shuningdek fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan majburiy pensiya badallari, O‘zbekiston yoshlarining «Kamolot» ijtimoiy harakatini rivojlantirish jamg‘armasiga, Davlat soliq qo‘mitasining moddiy yordam, ijtimoiy himoyalash, soliq organlarini rivojlantirish va kutilmagan xarajatlar maxsus jamg‘armasiga to‘lovlar bo‘yicha shaxsiy kartochka yuritiladi.

Soliq to‘lovchi yuridik shaxslar davlat soliq xizmati organlarida hisobga qo‘yilishi (davlat ro‘yxatidan o‘tgan joydan tashqari soliq to‘lovchining obektlari bo‘yicha hisobga olingan yoki «Fuqarolarning Davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 15-moddasida belgilangan pensiya to‘lovi majburiyati paydo bo‘lgan soliq to‘lovchilar bundan mustasno) bilan bir vaqtda quyidagi to‘lov turlari bo‘yicha topshirilgan hisobotga asosan shaxsiy kartochkalar ochiladi:

- a) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;
- b) yagona ijtimoiy to‘lov;
- v) fuqarolarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga sug‘urta badallari;
- g) fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya badallari.

Ma’lumotlar bazasidagi barcha soliq to‘lovchilarning o‘tgan hisobot yili oxiridagi qoldiq summalarini joriy yilga ko‘chirib o‘tkazish jarayonida dasturiy mahsul orqali joriy yil uchun shaxsiy kartochkalar avtomatik tarzda ochiladi.

Soliq to‘lovchiga shaxsiy kartochka ochish uchunasos bo‘lib soliq to‘lovchi tomonidan DSiga soliq majburiyatlari bo‘yicha taqdim etilgan soliq hisobotlari, tekshirish natijalarida soliq va boshqa majburiy to‘lov turlari bo‘yicha qo‘shimcha (kamaytirishga) hisoblangan soliq summalarini to‘g‘risidagi ma’lumotlar yoki soliq to‘lovchi tomonidan to‘langan to‘lov topshiriqnomalari hisoblanadi.

«Fuqarolarning Davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 15-moddasida belgilangan pensiya to‘lovi majburiyati paydo bo‘lgan soliq to‘lovchilarga tuman (shahar) Ijtimoiy ta’minot bo‘limidan ma’lumot kelib tushgan kundan so‘ng,³ ish kunidan oshmagan muddatda shaxsiy kartochkalar ochiladi.

Yuridik manzili o‘zgarganligisababli, boshqa tuman (shahar)dan kelgan soliq to‘lovchilarga ma’lumot kelib tushgan kundan so‘ng,¹ ish kunidan oshmagan muddatda Kameral nazorat bo‘limi tomonidan Soliqlar va majburiy to‘lovlar tushumlarini hisobga olish, tahlil qilish, ma’lumotlar bazasiga xizmat ko‘rsatish bo‘limiga DSI boshlig‘ining munosabat belgisi bilan bildirgi berilgandan so‘ng, bir ish kunida ma’lumotlar bazasi administratori elektron fayllarni ma’lumotlar bazasiga qabul qilib tegishli shaxsiy kartochka larni ochadi.

Ma’lum bir tuman (shahar) soliq organida hisobga olingan soliq to‘lovchi boshqa tuman (shahar) hududida soliq solish obekti va soliq solish bilan bog‘liq obektga ega bo‘lgan taqdirda, soliq solish obektidan kelib chiqib belgilangan tartibda tegishli soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar turlari bo‘yicha shaxsiy kartochkalar ochiladi.

Shaxsiy kartochkalardagi mavjud barcha soliq va majburiy to‘lovurlari bo‘yicha hisobot yilining yil oxiriga qoldiq (joriy va alohida hisobi yuritilgan vato‘lash muddati uzaytirilgan soliq qarzi va penysi, penya hisoblanmaydigan soliq qarzi, ortiqcha to‘langan summasi, shu jumladan QQS bo‘yicha manfiy qoldig‘i, qo‘llanilgan moliyaviy jarimaning undirilmasdan qolgan qismi) summalarini keyingi yilning yil boshiga qoldiq summasi sifatida soliq to‘lovchining shu soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar turlari bo‘yicha ochilgan yangi shaxsiy kartochkalariga dasturiy mahsul orqali avtomatik ravishda o‘tkaziladi.

Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarining shaxsiy kartochkadagi o‘tgan yil oxiriga qoldiq summasi hisobot yili boshiga shaxsiy kartochkaning tegishli «qoldiq» (saldo) qatorining «soliqqarzi», «penya», «ortiqcha to‘langan summa», «shu jumladan QQS bo‘yicha manfiy

qoldiq»hamda «penya hisoblanmaydigan soliqqarzi miqdori» (CHSNNKNNP) ustunlarida aks ettiriladi.

Ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organdan soliq to‘lovchining pochta manzili o‘zgarganligi to‘g‘risidagi xabarnoma va yangi ro‘yxatdan o‘tgan DSIning so‘rovnomasini DSiga kelib tushgandan so‘ng,3 ish kuni davomida kuzatuv xati orqali yangi hisobga olinayotgan DSiga ko‘chayotgan soliq to‘lovchi bo‘yicha quyidagi hujjatlar yuboriladi:

a) yuridik ish jildi va undagi mavjud hujjatlar reyestri;

b) barcha shaxsiy kartochkalaridan hisobot yiliga ko‘chirmalar;

v) hisobot davriga soliq organi bilan soliq to‘lovchi o‘rtasida rasmiylashtirilgan solishtirma dalolatnomasi;

g) soliq qarzi summasi mavjud bo‘lganda majburiy undiruv yuzasidan soliq to‘lovchiga berilgan ijrodagi ogohlantirish talabnomasi asl nusxasi;

d) soliq qarzi summasini majburiy undirish bo‘yicha soliq organiga kelib tushgan va sud ijrochilar Departamenti tuman (shahar) bo‘limiga yuborishga ulgirilmagan sud buyruqlari;

ye) yuridik manzil o‘zgarganligi sababli, soliq qarzini majburiy undirish yuzasidan soliq to‘lovchi hisob raqamiga qo‘yilgan inkasso topshirinomalarini ijrosiz qaytarib olish to‘g‘risida bankka yozilgan xat (DSI boshlig‘i tomonidan imzolangan, muhrlangan va ro‘yxatga olingan holda);

j) muddati o‘tkazib yuborilgan debtorlik va kreditorlik qarzlarini qisqartirish va byudjetga to‘lovlar intizomini mustahkamlash bo‘yicha Respublika komissiyasining (keyingi o‘rinlarda Respublika komissiyasi) bayonlariga asosan to‘lash muddati kechiktirilgan soliq qarzi summalarini bo‘yicha tegishli hujjatlar qo‘srimcha ravishda ish jildiga ilova qilinadi.

Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni hisoblangan, undirilgan, to‘langan, qaytarilgan (hisobga olingan), kamaytirilganhamda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa holatlar bo‘yicha operatsiyalar, tekshiruv natijasida aniqlangan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar hamda qo‘llanilgan moliyaviy sanksiyalar bo‘yicha shaxsiy kartochkalarni yuritishda quyidagi ma’lumotlar kiritiladi:

a) soliq to‘lovchilarning soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha taqdim etgan soliqhisobotlari asosidagi ma’lumotlar;

b) soliq to‘lovchilarning soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha taqdim etgan aniqlashtirilgan soliq hisobotlari asosidagi ma’lumotlar;

v) qonun hujjatlari hamda vakolatli organlar qarorlari asosida ayrim soliq to‘lovchilarning soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha qarzdorlik summalarini to‘lash muddatini uzaytirish, bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkonini berish, hisobdan chiqarish, penya hisoblanishini to‘xtatish to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

g) byudjet va byudjetdan tashqari maqsadli jamg‘armalarga to‘langan (undirilgan) soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha ma’lumotlar;

d) soliq tekshiruvlari natijasida qo‘srimcha (kamaytirishga) hisoblangan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar hamda qo‘llanilgan moliyaviy sanksiyalar to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

ye) soliq qarzini soliq to‘lovchining mol-mulki sotuvidan Sud ijrochilari departamenti tomonidan tushirilgan tushumning 10 foizi (sudlar va adliya organlarini rivojlantirish jamg‘armasining hisob raqamiga o‘tkazilgan);

j) qonunchilikda ko‘zda tutilgan boshqa holatlar.

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 2005 yil 29 iyulda 1500-sodan bilan ro‘yxatga olingan «Davlat soliq hizmati organlari tadbirkorlik subektlaridan moliyaviy hisobot, soliqlar, majburiy to‘lovlar va daromadlar to‘g‘risidagi deklaratsiyalar bo‘yicha hisob-kitoblar, yozma arizalar va bildirishnomalarni qabul qilib olish hamda ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risida»gi Nizom talablaridan kelib chiqib, Kameral nazorat bo‘limining mas’ul xodimi soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha qabul qilingan soliq hisobotlariga, soliq hisobotiniqabul qilingan sana, hisobot davri, soliq to‘lovchining identifikatsion raqami (STIR), nomi, soliq yoki to‘lov turiva shaxsiy kartochkaga kiritilishi lozim bo‘lgan hisoblangan (yoki kamaytirilgan) soliqsummasini ko‘rsatgan holdahisoblashga qabul qilingan soliq hisobotlarireyestri (3-ilova)1 ish kunidan oshmagan

muddatda Soliqlar va majburiy to‘lovlar tushumlarini hisobga olish, tahlil qilish, ma’lumotlar bazasiga xizmat ko‘rsatish bo‘limiga shaxsiy kartochkaga kiritish uchun taqdim etadi.

Reyestr 2 nusxada tuziladi, topshirgan va qabul qilgan mas’ul xodimlar tomonidan imzolanib, uning 1-nusxasi Soliqlar va majburiy to‘lovlar tushumlarini hisobga olish, tahlil qilish, ma’lumotlar bazasiga xizmat ko‘rsatish bo‘limida, 2-nusxasi Kameral nazorat bo‘limida saqlanadi.

Kameral nazorat bo‘limi mas’ul xodimi soliq to‘lovchi tomonidan taqdim etilgan hisobotlarni (elektron tarzda yuborilgan soliq hisobotlaridan tashqari) har tomonlama ko‘rib (tekshirib) chiqib, uning pastki qismiga SHKga kiritilishi lozim bo‘lgan summani ko‘rsatgan holda hisobotni qabul qilgan kun bilan imzolaydi (provodkaga beradi).

Soliqlar va majburiy to‘lovlar tushumlarini hisobga olish, tahlil qilish, ma’lumotlar bazasiga xizmat ko‘rsatish bo‘limining mas’ul xodimi esa ushbu ko‘rsatilgan summani SHKga o‘tkazadi va kiritilgan soliq summasi va sanasini ko‘rsatib imzo bilan tasdiqlaydi.

Soliqlar va majburiy to‘lovlar tushumlarini hisobga olish, tahlil qilish, ma’lumotlar bazasiga xizmat ko‘rsatish bo‘limining mas’ul xodimi tomonidan soliq to‘lovchining shaxsiy kartochkasiga yuqorida belgilangan tartibda ma’lumotlar kiritilgandan so‘ng, imzo bilan tasdiqlangan soliq hisobotlari bilan birga reyestrning 2-nusxasi 1 ish kunidan oshmagan muddatda Kameral nazorat bo‘limining mas’ul xodimiga qaytarib beriladi.

Elektron tarzda taqdim qilingan soliq hisobotlari bo‘yicha SHKlarga ma’lumotlar kiritish uchun asos bo‘lib, elektron imzo bilan tasdiqlangan soliq hisobotlari Kameral nazorat bo‘limining mas’ul xodimi tomonidan Nizom talablari asosida tekshirib ko‘rilib, xato va kamchilik aniqlanmagan taqdirda (xato va kamchilik aniqlangan taqdirda, ushbu topshirilgan elektron ko‘rinishdagi hisobot qabul qilinmasdan soliq to‘lovchiga qaytariladi), hisobotni shaxsiy kartochkalarga kiritish uchun 1 ish kunidan oshmagan muddatda «soliq hisobotlari qabul qilindi» belgisini qo‘ygandan so‘ng, Soliqlar va majburiy to‘lovlar tushumlarini hisobga olish, tahlil qilish, ma’lumotlar bazasiga xizmat ko‘rsatish bo‘limiga o‘tkazadi (provodka beradi), ushbu bo‘limining mas’ul xodimi tomonidan esa 1 ish kunidan oshmagan muddatda dasturiy mahsul yordamida elektron hisobotlar yana bir bor qayta ko‘rib chiqilib, tegishli shaxsiy kartochkalarga o‘tkaziladi (provodka beriladi).

Soliqlar va majburiy to‘lovlar tushumlarini hisobga olish, tahlil qilish, ma’lumotlar bazasiga xizmat ko‘rsatish bo‘limining mas’ul xodimi tomonidan hisobotlarda kamchilik aniqlangan taqdirda, bunday hisobotlar shaxsiy kartochkalarga o‘tkazilmasdan reyestrlarga izoh keltirilgan holda 1 ish kuni ichida Kameral nazorati bo‘limiga qaytariladi.

Soliq to‘lovchi tomonidan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha amaldagi soliq qonunchiligidan kelib chiqib, soliq majburiyatlarini bajarish yuzasidan taqdim qilingan soliq hisobotlari bo‘yicha hisoblangan, kamaytirishga hisoblangan summalar – shaxsiy kartochkaning «Hisoblangan» yoki «Kamaytirishga hisoblangan» ustunlarida aks ettiriladi.

Soliq tekshiruvi natijasi bo‘yicha hujjatlarni yuritishga biriktirilgan mas’ul xodim soliq tekshiruvi natijasi bo‘yicha DSIning qarori nusxasini soliq to‘lovchiga topshirgan kundan e’tiboran 1 ish kuni ichida soliq tekshiruvi natijasi bo‘yicha byudjet va byudjetdan tashqari maqsadli jamg‘armalardan qo‘srimcha (kamaytirishga) hisoblangan to‘lovlar, qo‘llanilgan moliyaviy jarimalar va penyalar to‘g‘risida Soliq tekshiruvlari natijalarini qayd etish varaqasini (5-ilova) ikki nusxada to‘ldirib shaxsiy kartochkaga o‘tkazish uchun Soliqlar va majburiy to‘lovlar tushumlarini hisobga olish, tahlil qilish, ma’lumotlar bazasiga xizmat ko‘rsatish bo‘limiga taqdim etadi.

Soliqlar va majburiy to‘lovlar tushumlarini hisobga olish, tahlil qilish, ma’lumotlar bazasiga xizmat ko‘rsatish bo‘limi mas’ul xodimi taqdim etilgan soliq tekshiruvlari natijalarini qayd etish varaqasining

1-nusxasiga shaxsiy kartochkaga kiritish uchun qabul qilganlik to‘g‘risida imzo qo‘yib qaytarib beradi va 1 ish kuni ichida tegishli shaxsiy kartochkalarga o‘tkazib, 2-nusxasiga shaxsiy kartochkaga kiritilganligi to‘g‘risida imzo qo‘yib, bo‘limda alohida ish jildida saqlaydi.

Soliq tekshiruvlari natijalarini qayd etish varaqasidagi qo‘srimcha hisoblangan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar hamda penya summalarini to‘lash muddati qilib soliq tekshiruvi natijasi bo‘yicha davlat soliq xizmati organi qarorigabul qilingan kundan e’tiboran (qarorning nusxasi soliq

to‘lovchiga berilgan kundan)soliq to‘lovchining murojaatiga asosandavlat soliq xizmati organi qarori asosida o‘ttiz kun qilib yoki 6 oy davomida teng ulushlarga bo‘lib to‘lash imkoniyati belgilangan holda shaxsiy kartochkaga kiritiladi. Bunda, agar soliq to‘lovchi tekshiruv natijasida aniqlangan summalarini to‘lash muddatidan oldin amalga oshirgan taqdirda, shaxsiy kartochkada yuzaga keladigan sun‘iy ortiqcha to‘langan summalarini bartaraf etish uchun shaxsiy kartochkadagi tekshiruv natijalari bo‘yichato‘lash muddatlarini to‘g‘rilashga ruxsat beriladi.

Soliq qarzini to‘lashni kechiktirish va (yoki) bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkonini berish, hisobdan chiqarish va penya hisoblashni to‘xtatish vakolatli organlar qarori (sud qarori, Respublika komissiyasining yig‘ilish bayonnomasi) asosida yuqori soliq organining yozma ko‘rsatmasi bo‘yicha amalga oshiriladi.

Vakolatli organning yig‘ilish bayoni (qarori) asosida tegishli soliq qarzini to‘lashni kechiktirish va (yoki) bo‘lib-bo‘lib to‘lash, hisobdan chiqarish hamda penya hisoblashni to‘xtatish to‘g‘risida Soliqlar va majburiy to‘lovlar tushumlarini hisobga olish, tahlil qilish, ma’lumotlar bazasiga xizmat ko‘rsatish bo‘limining mas‘ul xodimi soliq to‘lovchi bilan 3nusxada solishtirma dalolatnama tuzib, 1-nusxasini DSBga yuborish, 2-nusxasini soliq to‘lovchiga berish va 3-nusxasini DSIda saqlash uchun Soliq bo‘yicha qarzlarni majburiy undirish bo‘limi mas‘ul xodimiga beradi.

Yuqorida tuzilgan solishtirma dalolatnomadan kelib chiqib, Soliq bo‘yicha qarzlarni majburiy undirish bo‘limi mas‘ul xodimi tomonidan tegishli soliq qarzlarini to‘lashni kechiktirishva (yoki) bo‘lib-bo‘lib to‘lash, hisobdan chiqarish hamda penya hisoblashni to‘xtatish dalolatnomasiga vakolatli organning bayoni(qarori) talablari, mavjud soliq qarzi summalarini (agar yig‘ilish bayoni (qarori)da aniq summa belgilangan bo‘lsa, ijroga qaratilgan sanada ortiqcha to‘langan summahosil bo‘lishiga yo‘l qo‘yilmagan holda tegishli summa olinadi) hamda soliq qarzini tiklanish muddati, shuningdek hisobdan chiqarilayotgan soliq qarzi summalariko‘rsatiladi. Dalolatnomaga asosan soliq to‘lovchining shaxsiy kartochkalariga tegishli yozuvlar kiritiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 68-moddasiga asosan soliq to‘lovchi jismoniy shaxslarning shaxsiy kartochkalarini ochish uchun asos bo‘lib, vakolatli organlar tomonidan soliq obekti (mol-mulki, yer maydoni, ishlatilgan suv hajmi) ro‘yxatga olinganligi to‘g‘risidagi, yuridik shaxs tashkil qilmasdan yakkatartibdagi tadbirkorlik (keyingi matnlarda YATT deb yuritiladi) faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxs sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tganligi to‘g‘risidagi hujjatlar, shuningdek, Soliq kodeksining 189-moddasida belgilangan ro‘yxat bo‘yicha daromad olgan jismoniy shaxslar to‘g‘risida olingan ma’lumotlar hisoblanadi.

Quyidagi soliq to‘lovchi jismoniy shaxslarning byudjet va byudjetdan tashqari maqsadli jamg‘armalarga soliq va boshqa majburiy to‘lovlar, penya va jarimalar bo‘yicha soliq majburiyatlarini bajarilishi hisobini yuritish uchun soliq organlarida SHKlar ochiladi:

YATT faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslarga;

dehqon xo‘jaliklari (yuridik shaxs tashkil etmagan holda tashkil topgan dehqon xo‘jaliklari)ga;

turar va noturar uy-joylarga, yer uchastkalarigayoki boshqa soliqqa tortiladigan mol-mulkka egalik qiluvchi fuqarolarga;

asosiy bo‘limgan ish joyidan daromad olgan jismoniy shaxslarga.

Soliq to‘lovchi jismoniy shaxs va YATT shaxsiy kartochkalari O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 69-moddasiga asosan byudjet klassifikatsiyasiga muvofiq har bir soliq to‘lovchi uchun alohida soliq majburiyatlaridan kelib chiqqan holda quyidagi soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yichao chiladi:

a) yer solig‘i; b) mol-mulk solig‘i; v) YATTgaqt‘iy belgilangan soliq; g) byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga sug‘urta badali; d) yer qa‘ridan foydalanuvchilar uchun soliq; ye) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq; j) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i; z) boshqa to‘lovlar; i) soliq organlarini rivojlantirish jamg‘armasiga to‘lovlar; k) Oddiy shirkat shartnomasiga asosan yuridik shaxslar tomonidan to‘lanadigan yagona soliq to‘lovi hamda aksiz solig‘i (aksiz solig‘i to‘lanadigan tovar ishlab chiqarsa).

4. MAVZU. “DAVLAT SOLIQ XIZMATI ORGANLARIDA SOLIQ TO‘LOVCHILARNING SHAXSIY KARTOCHKALARINI YURITISH TARTIBI” ЮЗАСИДАН КЕЙСЛАР ТҮПЛАМИ, АМАЛИЙ ТОПШИРИҚЛАР, ИШЛАНМАЛАР

Reja:

1. Soliq to‘lovchi yuridik shaxslarning shaxsiy kartochkalarini yuritish tartibi
2. Soliq to‘lovchi jismoniy shaxslarning shaxsiy kartochkalarini yuritish tartibi

Talabalarga beriladigan savollar ro‘yxati:

- Shaxsiy kartochkalar nima?
- Shaxsiy kartochkalar qanday hujjat asosida yuritiladi?
 - Yuridik shaxslar uchun shaxsiy kartochkalarni yuritishning o‘ziga xos xususiyatlari nimadan iborat?
 - Jismoniy shaxslar uchun shaxsiy kartochkalarni yuritishning qanday xususiyatlari mavjud?
 - Shaxsiy kanday tartiblarda ochiladi?
 - Hisoblangan soliqlarni. To‘langan soliqlarni, boqimanda qarzlarini, tekshiruv natijalarini qanday tartibda shaxsiy kartochkaga kiritiladi?
 - Soliq to‘lovchining shaxsiy kartochkasini yuritishda qanday dasturiy mahsullardan foydalaniladi?



Auditoriyani faollashtirish uchun beriluvchi savollar:

1. Soliq to‘lovchining shaxsiy kartochlarini soliq tushularini hisobini yuritishda qanday ahmiyat kasb etadi?
2. Soliq to‘lovchining shaxsiy kartochlarini soliq tushumlarini prognozlashtirishda qanday ahmiyat kasb etadi?

1-topshiriq.

1-KEYS-STADI Kirish

Tavsiya etilgan keysni yechish quyidagi natijalarga erishishga imkon yaratadi:

- o‘zlashtirilgan mavzu bo‘yicha bilimlarni mustahkamlash;
- mantiqiy fikrlashni rivojlantirish;
- davlat soliq xizmati organlarida soliq to‘lovchilarning shaxsiy kartochkalarini yuritish borasida mustaqil ravishda qaror qabul qilish ko‘nikmalarini egallash;
- davlat soliq xizmati organlarida soliq to‘lovchilarning shaxsiy kartochkalarini yuritish uslubiyatini qo‘llash qobiliyatini tekshirish.

VAZIYAT

“Kafolat” MCHJ 2017 yilning 18 dekabriga qadar Toshkent shahar Yunusobod tumani Gulzor ko‘chasi 15 uy yuridik manzilda joylashgan. 2017 yilning 18 dekayuridan Mirobod tumani Salar ko‘chasi 27 uyga o‘z yuridik manzilini o‘zgartirgan.

2018 yilning 16 may kuni “Kafolat” MCHJning soliq to‘g‘risidagi qonun hujjalariга rioxalishi ustidan rejali soliq tekshiruv Yuunusobod tumani davlat soliq inspeksiysi xodimlari tomonidan, 2018 yilning 10 mayidan 16 mayiga qadar davom etgan.

Mazkur soliq tekshiruvini amalga oshirish amalga oshirishda quyidagi hujjalarni asos bo‘lib xizmat qilgan:

tekshiruvlarni amalga oshirishning muvofiqlashtirish rejasidan olingen, nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi maxsus vakolatli organning hududiy bo‘linmasi tomonidan berilgan ko‘chirma;

davlat soliq xizmati organining buyrug‘i.

Soliq inspektorlari tomonidan soliq tekshiruvi natijalari bo‘yicha soliq tekshiruvi dalolatnomasi tuzilgan. Soliq to‘lovchi soliq tekshiruvi dalolatnomasini olishdan bosh tortgan.

Soliq tekshiruvi materiallarini ko‘rib chiqish bayonnomasi soliq tekshiruvi materiallarini ko‘rib chiqqan mansabdar shaxs, shuningdek ularni ko‘rib chiqishda ishtirot etgan boshqa shaxslar tomonidan imzolangan.

Soliq tekshiruvi materiallari ko‘rib chiqilayotganda soliq to‘lovchi takroriy xabarnomaga qaramasdan soliq tekshiruvi materiallarini ko‘rib chiqishga kelmagan.

Soliq tekshiruvi materiallari asosida Yunusobod tumani Davlat soliq inspeksiyasi rahbarining tekshiruv natijalari bo‘yicha qarori qabul qilgan.

Davlat soliq xizmati organining soliq tekshiruvi materiallarini ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha qarorida quyidagilar ko‘rsatiladi:

g‘Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i bo‘yicha 10.5 mln.so‘m qo‘srimcha soliq, 1.5 mln.so‘m peniya;

g‘qo‘silgan qiymat solig‘i bo‘yicha 30.0 mln.so‘mqo‘srimcha soliq, 3.0mln.so‘m peniya;

g‘molg‘mulk solig‘i bo‘yicha 2.3mln.so‘mliq qo‘srimcha soliq, 0.56 mln.so‘m peniyalarini undirish to‘g‘risida qaror qabul qilingan.

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlardan foydalanib quyidagilarni bajarish talab qilinadi.

SAVOLLAR VA TOPSHIRIQLAR:

1.Soliq to‘lovchining yuridik manzilini o‘zgarishi munosabati bilan uning shaxsiy kartochkasiga tegishli o‘zgartirish kiritish qanday amalga oshiriladi(qaysi muddatda, qaysi hujjatlar asosida)

2.Soliq tekshiruvi natijalari soliq to‘lovchining shaxsiy kartochkasida qanday amalga oshiriladi(shaxsiy kartochkaga ma’lumotlarni kiritish muddatlari va asos bo‘lib xizmat qiluvchi hujjatlar)

3.Agar soliq to‘lovchi soliqqa oid huquqbazarliklarni sodir etganlikdagi aybini tan olgan holda, soliq tekshiruvi natijalari soliq to‘lovchining shaxsiy kartochkasida kirdizishning qanday o‘ziga xos bo‘lgan jihatlari mavjud?


2-topshiriq.

“Venn diagrammasi” grafik organizayzeridan foydalangan holda yuridik va jismoniy shaxslarning shaxsmiy kartochkalarini yuritish tartibini tahlil qiling.

Ko‘rsatma:

Grafik organizayzer talabalarda mavzuga nisbatan tahliliy yondashuv, ayrim qismlar negizida mavzuning umumiyligi mohiyatini o‘zlashtirish (sintezlash) ko‘nikmalarini hosil qilishga yo‘naltiriladi. U kichik guruhlarni shakllantirish asosida aniq sxema bo‘yicha amalga oshiriladi.

Yozuv taxtasi o‘zaro teng to‘rt bo‘lakka ajratiladi va har bir bo‘lakka quyidagi sxema chiziladi:



Grafik organizayzer talabalar tomonidan o‘zlashtirilgan o‘zaro yaqin nazariy bilim, ma’lumot yoki dalillarni qiyosiy tahlil etishga yordam beradi.

Foydalaniladigan adabiyotlar royxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiysi to‘g‘risida. 2018 yil 29 iyun. Elektron- huquqiy baza.
2. Mirziyoyev Sh.M.Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 104 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 56 b.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Soliq ma’muriyatchilagini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarining yig‘iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. 2017 yil 18 iyul, pf-5116-son. Elektron-huquqiy baza.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy erkinligini oshirish, mahalliy byudjetlarga tushumlarning to‘liqligini ta‘minlash bo‘yicha soliq va moliya organlari javobgarligini kuchaytirishga oid qo‘sishmcha chora-tadbirlar to‘g‘risida. 2017 yil 13 dekabr, PF-5283-son. Elektron-huquqiy baza.
6. Распоряжение Президента Республики Узбекистан. Об организации критического изучения деятельности финансовых, налоговых и таможенных органов. 16 января 2018 г. № р-5182. Электронно-правовая база.
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini huquqiy tartibga solishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida. 2017 yil 28 avgust, 677-son. LEX.UZ. Elektron-huquqiy baza.
8. Абдуганиева Г.К., Бабабекова Н.Б. Прогнозирование налогов. Учебное пособие. – Т.: “Тафаккур-Бўстони”, 2012. - 224 с.
9. Doschanova N.P. Soliq statistikasi va prognozi. O‘quv qo‘llanma. – Т.: “Ren-Poligraf” bosmaxonasi, 2009. – 216 b.
10. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. “Norma” huquqiy bazasi.
11. O‘zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi. “Norma” huquqiy bazasi.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 iyuldagи “Soliq ma’muriyatchilagini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarining yig‘iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5116-sonli Farmoni. Xalq so‘zi» gazetasi. 2017 yil 19 iyuldagи 141 (6835)-son.
13. Malikov T.S., Jalilov P.T. Byudjet-soliq siyosati. O‘quv qo‘llanma. – Т.: “Akademnashr”, 2011. - 472 b.
14. Haydarov N.H. Soliqlar va soliqqa tortish masalalari. O‘quv qo‘llanma. AkademiY. - Т.: 2007. - 214 b.;
15. Gadoyev E. va b. Bilvosita soliqlar. O‘quv-amaliy qo‘llanma. - Т.: Norma, 2011.- 328 –b.
16. Gadoyev E. va b. Foya solig‘i. O‘quv-amaliy qo‘llanma. - Т.: Norma, 2011.- 408-b.
17. Yax’yoyev Q. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. Darslik. Toshkent. 2003. 246 bet.
18. Zavalishina I.A. Soliqlar: nazariya va amalyot. “Iqtisodiyot va huquq dunyosi” nashriyot uyi, 2005. 544 bet.
19. Gadoev E, Kuzieva N. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish. Darslik. – Т.: “O‘zbekiston”, 2012. - 336 b
20. Jo’rayev A, S. Shirinov. Soliq statistikasi va prognozi: O‘quv qo‘llanma, Т.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2015.-392b.
21. Eshboyev T.T. Yuridik shaxslarni soliqqa tortish. Darslik. Т: “Cho‘lon” 2013, 296 bet
22. Перов А. Налоги и налогообложение. Учебное пособие. – М.: “Юрайт”, 2012 г. – 899 стр.
23. O‘rmonov J. Kichik biznes subektlarini soliqqa tortishni takomillashtirishning dolzarb masalalari. –Т.: El-Press. 2011. – 132b.

24. Tagayev A., Xoshimoto F., Ro‘ziyev G‘., Xotamov K. Soliq nazorati.- T.:O‘quv qo‘llanma, “Yangi asr avlodi”, 2010.
25. I.Xabibullayev, G.Mansurova, Soliq statistikasining nazariy asoslari. O‘quv qo‘llanma - T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi», 2005.
26. Forecasting Scottish taxes. The National Archives, Kew, London TW9 4DU. Crown copyright 2017. 25p/(20p.).
27. Federal taxation: practice and procedure. Robert E., Richard J. Chicago, 2017.987p. (252p.).
28. Tax analysis and revenue forecasting. Issues and Techniques. By Glenn P. Jenkins Chun-Yan Kuo Gangadhar P. Shukla. Harvard Institute for International Development Harvard University . 2017. 187 p.(2p.).
29. An Analysis of Tax Revenue Forecast Errors. Martin Keene and Peter Thomson. New Zealand treasury working paper 07/02. 2017.41p.(2p.).
30. Tax policy, Revenue forecasting and economic analysis force. Joshua Goldstain, assistant director. Office of management and budget. The City of New York. 2017. 308p.(39p.)


Internet saytlari:

31. www. <http://el.tfi.uz/> - Toshkent moliya instituti elektron kutubxonasi;
32. www. <http://soliq.uz>;
33. www. <http://edu.uz>;
34. www. <http://mf.uz>;
35. www. <http://oxs.uz>;
36. www. <http://norma.uz>;
37. www. <http://lex.uz>;
38. www. <http://my.gov.uz>;
39. www. <http://alleng.ru>;

5.1. “DAVLAT SOLIQ XIZMATI IDORALARIDA TO’LANGAN SOLIQLAR VA MAJBURIY TO’LOVLAR BO‘YICHA YIGILADIGAN JAMLANMA HISOBOTLAR VA ULARNI SHAKLLANTIRISH TARTIBI” O‘QUV MODULI YUZASIDAN MA’RUZA MATNI

V. O‘QUV MATN (MODUL)

MODUL: DAVLAT SOLIQ XIZMATI IDORALARIDA TO’LANGAN SOLIQLAR VA MAJBURIY TO’LOVLAR BO‘YICHA YIGILADIGAN JAMLANMA HISOBOTLAR VA ULARNI SHAKLLANTIRISH TARTIBI



Reja:

1.Davlat byudjetining soliqli daromadlari va ularning hisobi
2.Pensiya va yo‘l jamg‘armalarining daromadlari va ularning hisobi
3.1-N dasturiy mahsuli, 1N-B,1N-PF,1N-YF,1N-MF jamlanma hisobotlarni shakllantirish, solishtirma dalolatnomalarini tuzish va byudjet tushumlarini nazorat qiluvchi idoralar urtasida tasdiqlanishi.

Tayanch so‘z va iboralar: byudjet tasnifi, davlat byudjeti, yagona g‘azna hisobvarag‘i, shaxsiy g‘azna hisobvaraq, tartibga soluvchi daromadlar, pensiya va yo‘l jamg‘armalarining daromadlari, davlat byudjeti daromadlari.

1.Davlat byudjetining soliqli daromadlari va ularning hisobi. Byudjet tasnifi byudjet tizimi byudjetlarining daromadlari va xarajatlari, shuningdek Davlat byudjeti taqchilligini qoplash manbalarini guruhashdan iborat bo‘lib, byudjet tizimi byudjetlarini shakllantirish, tuzish va ijro etishni tizimlashtirish uchun foydalaniadi.

Byudjet tasnifi xalqaro tasnif tizimlariga muvofiq ishlab chiqiladi va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

Byudjet tasnifi:

byudjet tizimi byudjetlari daromadlarining tasnifini;

byudjet tizimi byudjetlari xarajatlarining tasnifini;

Davlat byudjeti taqchilligini qoplash manbalarini tasnifini o‘z ichiga oladi.

Byudjet tizimi byudjetlari daromadlarining tasnifi daromadlarni ularning turlari va manbalarini bo‘yicha kodlashdan iborat bo‘ladi.

Byudjet tizimi byudjetlari daromadlarining tasnifi tuzilmasi quyidagilardan iborat:

byudjet tizimi byudjetlari mablag‘larining manbalarini va darajalari tasnifi;

daromadlarning turlari;

tashkiliy tasnif;

hududiy tasnif.

Byudjet tizimi byudjetlari mablag‘larining manbalarini va darajalari tasnifi kelib tushayotgan daromadlarning tegishli mablag‘lar manbalariga va ushbu byudjetlar darajalariga mansubligini aniqlash uchun qo‘llaniladi.

Daromadlarning turi bo‘lim, paragraf va daromad tipidan iboratdir.

Daromadlar bo‘limi daromadlarni ularni olish manbalarini bo‘yicha kodlashdan iborat bo‘ladi.

Daromadlar paragrafi soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni, shuningdek soliq bo‘limgan to‘lovlarni ularni undirish bazasi bo‘yicha kodlashdan iborat bo‘ladi.

Daromad tipi byudjet tizimi byudjetlari daromadining aniq turidan iborat bo‘ladi.

Tashkiliy tasnif kelib tushayotgan daromadlarning ana shu daromadlarni ma'muriy jihatdan idora qiluvchi tegishli organga mansubligini identifikatsiyalash maqsadida qo'llaniladi.

Hududiy tasnif kelib tushayotgan daromadlarning ushbu daromadlar shakllantirilayotgan yoxud o'tkazib berilayotgan tegishli ma'muriy-hududiy birlikka mansubligini identifikatsiyalash maqsadida qo'llaniladi.

Davlat byudjeti quyidagi darajadagi byudjetlardan iborat:

O'zbekiston Respublikasining respublika byudjeti;

Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari.

Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti tuzilmasiga Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi tumanlari va shaharlarining byudjetlari kiradi.

Viloyatlar mahalliy byudjetlari tuzilmasiga viloyat byudjeti, tegishli viloyatlar tumanlari va shaharlarining byudjetlari kiradi.

Toshkent shahar mahalliy byudjeti tuzilmasiga shahar byudjeti va shahar tarkibiga kiruvchi tumanlarning byudjetlari kiradi.

O'zbekiston Respublikasining konsolidatsiyalashgan byudjeti tarkibiga quyidagilar kiradi:

Davlat byudjeti;

davlat maqsadli jamg'armalarining byudjetlari;

O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari.

Davlat byudjeti daromadlari:

soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar;

davlat aktivlarini joylashtirish, foydalanishga berish va sotishdan olingan daromadlar;

meros, hadya huquqi bo'yicha davlat mulkiga o'tgan pul mablag'lari;

yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek chet davlatlardan tushadigan qaytarilmaydigan pul tushumlari;

rezident-yuridik shaxslarga berilgan byudjet ssudalarini va chet davlatlarga ajratilgan kreditlarni to'lash hisobidan to'lovlar;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa daromadlar hisobidan shakllantiriladi.

O'zbekiston Respublikasining respublika byudjeti daromadlari:

1) umumdavlat soliqlari, shu jumladan:

yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i;

yagona soliq to'ovi;

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;

qo'shilgan qiymat solig'i;

aksiz solig'i;

yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq;

2) bojxona bojlari;

3) qo'shimcha foyda solig'i;

4) mahsulot taqsimotiga oid bitimlar bo'yicha foyda keltiradigan mahsulotdagi davlat ulushi;

5) boshqa daromadlar hisobidan shakllantiriladi. Boshqa daromadlarga imzoli bonus va tijoratbop topilma bonusi to'lanishidan tushgan tushumlar, qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetiga yo'naltiriladigan davlat bojlari, yig'imlar, tovon pullari, kompensatsiya to'lovleri va jarima sanksiyalari, davlat aktivlarini joylashtirish, foydalanishga berish va sotishdan belgilangan normativlar bo'yicha olingan daromadlar, meros, hadya huquqi bo'yicha davlat mulkiga o'tkazilgan pul mablag'lari, yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek chet davlatlardan tushgan qaytarilmaydigan pul tushumlari, rezident-yuridik shaxslarga berilgan byudjet ssudalarini, chet davlatlarga berilgan kreditlarni to'lash hisobidan to'lovlar, aksiyalarning davlat ulushi (payi) bo'yicha dividendlar (daromadlar), mobil aloqa xizmatlari ko'rsatuvchi yuridik shaxslar (uyali aloqa kompaniyalari) tomonidan abonent raqamidan foydalanganlik uchun to'lov, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining foydasi va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa daromadlar kiradi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetining, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining daromadlari:

- 1) belgilangan normativlarga muvofiq umumdavlat soliqlari, shu jumladan:
 yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i;
 yagona soliq to‘lovi;
 jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;
 tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo‘yicha qat’iy belgilangan soliq;
 qo‘silgan qiymat solig‘i;
 aksiz solig‘i;
 yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;
 suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
 - 2) mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar, shu jumladan:
 obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i;
 transport vositalariga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq;
 mol-mulk solig‘i;
 yer solig‘i;
 yagona yer solig‘i;
 - ayrim turdag‘i tovarlar bilan chakana savdo qilish huquqi va ayrim turdag‘i xizmatlarni ko‘rsatish uchun yig‘im;
 - 3) yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek chet davlatlardan tushgan qaytarilmaydigan pul tushumlari;
 - 4) bozorlardan tushadigan daromadlar;
 - 5) boshqa daromadlar hisobidan shakllantiriladi. Boshqa daromadlarga davlat daromadiga o‘tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar, davlat aktivlarini joylashtirishdan, foydalanishga berishdan va sotishdan belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar, qonun hujjatlariga muvofiq Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetiga, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlariga yo‘naltiriladigan davlat bojlari, yig‘imlar, tovon pullari va jarima sanksiyalari, egasiz mol-mulkni, meros huquqi bo‘yicha davlat ixtiyoriga o‘tgan mol-mulkni, huquq bo‘yicha davlat daromadiga o‘tkazilishi lozim bo‘lgan xazinalarni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa daromadlar kiradi.
- O‘zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan ajratiladigan subvensiyalar, o‘tkazib beriladigan daromadlar va dotatsiyalar Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika byudjetining, viloyatlar viloyat byudjetlarining va Toshkent shahri shahar byudjetining daromadlari hisoblanadi.
- Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo‘yicha qat’iy belgilangan soliq, O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan pivo va o‘simlik yog‘i uchun aksiz solig‘i Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari daromadlariga o‘tkazib beriladi.
- Byudjetning balansliligini ta’minalash uchun, uning nafaqat xarajat qismini, balkim daromad qismini bajarilishi ustidan moliya vazirliklari tomonidan doimiy monitoringini olib borish zarur⁵.
- Yagona g‘azna hisobvarag‘i O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan boshqariladigan maxsus bank hisobvarag‘i bo‘lib, unga byudjet tizimi byudjetlarining daromadlari va boshqa tushumlari kiritiladi hamda undan mazkur byudjetlarning xarajatlari to‘lanadi. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankida va boshqa banklarda o‘zga bank hisobvaraqlari ochish huquqiga ega.
- Yagona g‘azna hisobvarag‘i O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankida ochiladi.
- O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining bank hisobvaraqlaridan mablag‘larning so‘zsiz tartibda hisobdan chiqarilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.
- O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining bank hisobvaraqlariga xizmat ko‘rsatilganligi uchun haq olinmaydi.
- Shaxsiy g‘azna hisobvaraqlari quyidagi turlar bo‘yicha ochiladi:
 byudjet tizimi byudjetlarining darajalari bo‘yicha shaxsiy g‘azna hisobvaraqlari;

⁵ Tax analysis and revenue forecasting. Issues and Techniques. By Glenn P. Jenkins Chun-Yan Kuo Gangadhar P. Shukla. Harvard Institute for International Development Harvard University . 2017. 187 p.(2p.)

Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg‘armalarining daromadlari bo‘yicha shaxsiy g‘azna hisobvaraqlari;

byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilarning shaxsiy g‘azna hisobvaraqlari.

Shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarini yuritish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadi.

Byudjet tizimi byudjetlarining darajalari bo‘yicha shaxsiy g‘azna hisobvaraqlari:

O‘zbekiston Respublikasining respublika byudjeti bo‘yicha — O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan;

Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika byudjeti, viloyatlarning viloyat byudjetlari va Toshkent shahrining shahar byudjeti bo‘yicha — Qoraqalpog‘iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalari tomonidan;

tumanlar va shaharlar byudjetlari bo‘yicha — tumanlar va shaharlar hokimliklarining moliya bo‘limlari tomonidan;

davlat maqsadli jamg‘armalarining byudjetlari bo‘yicha — davlat maqsadli jamg‘armalarini taqsimlovchi organlar tomonidan ochiladi.

Byudjet tizimi byudjetlari daromad qismining ijrosi:

tushumlarni Yagona g‘azna hisobvarag‘iga va boshqa bank hisobvaraqlariga kiritishni;

tushumlarni byudjet tiziminining byudjetlari o‘rtasida taqsimlashni;

ortiqcha yoki noto‘g‘ri to‘langan tushum summalarini qaytarishni yoxud ularni qarzni to‘lash evaziga hisobga olishni;

hisob va hisobotni nazarda tutadi.

Davlat byudjetiga va davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlariga daromadlarni yig‘ishga vakolatli bo‘lgan organlar va tashkilotlar, davlat soliq xizmati organlari va bojxona organlari bundan mustasno, daromadlarning to‘g‘ri hisoblab chiqilishi, to‘liq va o‘z vaqtida to‘lanishi ustidan nazoratni amalga oshirishi, shuningdek, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, davlat soliq xizmati organiga hisobot taqdim etishi shart.

Tartibga soluvchi daromadlardan tushgan tushumlar byudjet tizimi byudjetlari o‘rtasida taqsimlanadi.

Byudjet tizimi byudjetlari o‘rtasidagi tartibga soluvchi daromadlardan ajratmalarining normativlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki u vakolat bergen organ tomonidan belgilanadi.

Tartibga soluvchi daromadlardan Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika byudjetiga, viloyatlarning viloyat byudjetlariga, Toshkent shahrining shahar byudjetiga hamda tumanlar va shaharlar byudjetlariga ajratmalarining normativlari tegishinchcha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari tomonidan tasdiqlanadi.

Tartibga soluvchi daromadlarni byudjet tiziminining byudjetlari o‘rtasida taqsimlash O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

Qaysi daromadlar bo‘yicha tartibga soluvchi daromadlardan ajratmalarining normativlari belgilanmagan bo‘lsa, o‘sha daromadlar O‘zbekiston Respublikasining respublika byudjetiga to‘liq hajmda kiritilishi lozim.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari tegishli moliya organlarining taklifiga ko‘ra mahalliy soliqlar to‘liq hajmda kiritiladigan byudjet darajasini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Yagona g‘azna hisobvarag‘idagi mablag‘larni boshqarishni Davlat byudjeti daromadlari tushumlari va xarajatlarining qisqa muddatli prognozlarini tuzish yo‘li bilan amalga oshiradi.

Qabul qilingan moliyaviy majburiylarni bajarish uchun Yagona g‘azna hisobvarag‘ida mablag‘lar yetishmagan taqdirda, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Davlat byudjeti xarajatlarining cheklangan hajmini belgilaydi hamda uning asosida byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilarga xarajatlarni to‘lash uchun ruxsatnomalar beradi.

2.Pensiya va yo‘l jamg‘armalarining daromadlari va ularning hisobi

Davlat maqsadli jamg‘armalari quyidagilardir:

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi;

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika yo‘l jamg‘armasi;

Davlat mulkini xususiyashtirishdan tushgan mablag‘lar jamg‘armasi;

O‘zbekiston Respublikasining Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi;

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Umumta’lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta’mirlash va jihozlash jamg‘armasi;

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg‘armasi;

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Oliy o‘quv yurtlarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg‘armasi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti, ijtimoiy nafaqalar to‘lash, kompensatsiya to‘lovlar va boshqa to‘lovlar bo‘yicha xarajatlarni moliyalashtirishga yo‘naltiriladigan majburiy to‘lovlar, badallar, shuningdek boshqa manbalardan tushadigan mablag‘larni jamlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining yuqori boshqaruv organi Jamg‘armaning Kuzatuv kengashidir.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining daromadlari:

yagona ijtimoiy to‘loving belgilangan miqdordagi tushumlari;

fuqarolarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga sug‘urta badallari;

byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga majburiy ajratmalar;

boshqa daromadlar hisobidan shakllantiriladi. Boshqa daromadlarga mehnatda mayib bo‘lganlik yoki kasb kasalligiga chalinganlik tufayli tayinlangan nogironlik pensiyalarini to‘lash xarajatlarining o‘rnini qoplash uchun taqdim etiladigan regress talablar (da‘volar) bo‘yicha ish beruvchilar va fuqarolar tomonidan o‘rnii qoplanadigan mablag‘lar tushumining bir qismi, O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasining muddatidan oldin tayinlangan yoshga doir pensiyalarini to‘lash xarajatlarini qoplash hisobidan kiritiladigan mablag‘lari, yuridik shaxslarning imtiyozli pensiyalarini to‘lash xarajatlarini qoplash hisobidan kiritiladigan mablag‘lari, fuqarolarning ixtiyoriy tartibda to‘lanadigan sug‘urta badallari, majburiy to‘lovlar, badallar o‘z vaqtida to‘lanmaganligi uchun hisoblangan jarimlar va penyalar summasining bir qismi, mehnat vazifalarini bajarish bilan bog‘liq holda mayib bo‘lgan, kasb kasalligiga chalingan yoxud sog‘lig‘iga boshqacha shikast yetkazilgan xodimga yuridik shaxs tugatilganda, qishloq xo‘jaligi kooperativi (shirkat xo‘jaligi), fermer va dehqon xo‘jaligi qayta tashkil etilganda yoki tugatilganda zararning o‘rnini qoplash uchun to‘lanadigan nazarda tutilgan mablag‘lar, vaqtinchalik bo‘sh turgan mablag‘larni joylashtirishdan olingan daromadlar va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa manbalar kiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika yo‘l jamg‘armasining daromadlari:

Respublika yo‘l jamg‘armasiga majburiy ajratmalar;

Respublika yo‘l jamg‘armasiga yig‘imlar;

vaqtinchalik bo‘sh turgan mablag‘larni joylashtirishdan olingan daromadlar;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa manbalar hisobidan shakllantiriladi.

O‘zbekiston Respublikasining Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi bandlik va aholini ijtimoiy muhofaza qilish sohasidagi xarajatlar moliyalashtirishini ta’minalash uchun yagona ijtimoiy to‘lovdan ajratmalar va boshqa manbalardan tushadigan mablag‘larni jamlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasining daromadlari:

belgilangan miqdordagi yagona ijtimoiy to‘lov tushumlari;

vaqtinchalik bo‘sh turgan mablag‘larni joylashtirishdan olingan daromadlar;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa manbalar hisobidan shakllantiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Umumta’lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta’mirlash va jihozlash jamg‘armasi umumta’lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar hamda tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish va mukammal ta’mirlash, jihozlashga (to‘liq jihozlashga) yo‘naltiriladigan, majburiy to‘lovlar va boshqa manbalardan tushadigan mablag‘larni jamlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Umumta’lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta’mirlash va jihozlash jamg‘armasining yuqori boshqaruv organi Jamg‘armani boshqarish kengashidir.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Umumta’lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta’mirlash va jihozlash jamg‘armasining daromadlari:

Umumta’lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta’mirlash va jihozlash jamg‘armasiga majburiy ajratmalar;

vaqtincha bo‘sh turgan mablag‘larni joylashtirishdan olingan daromadlar;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa manbalar hisobidan shakllantiriladi.

3.1-N dasturiy mahsuli, 1N-B,1N-PF,1N-YF,1N-MF jamlanma hisobotlarni shakllantirish, solishtirma dalolatnomalarini tuzish va byudjet tushumlarini nazorat qiluvchi idoralar urtasida tasdiqlanishi.

Tuman (shahar) davlat soliq inspeksiyalari tomonidan hisobot davri uchun ularda mavjud ma’lumotlar hamda belgilangan tartibda tuzilgan va kelishilgan solishtirish dalolatnomalari asosida:

Davlat byudjetiga va davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlariga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning hisoblanishi to‘g‘risidagi hisobotlar tayyorlanib, har chorakda choraklik hisobotlarni topshirishning oxirgi muddatidan keyingi oyning o‘ninchisi ish kuniga (yil yakuni bo‘yicha yillik hisobotlarni topshirishning oxirgi muddatidan keyingi oyning o‘ninchisi ish kuniga) qadar qog‘oz shaklda;

Davlat byudjetiga va davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlariga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning tushumlari to‘g‘risidagi hisobotlar tayyorlanib, har oyda hisobot oyidan keyingi oyning o‘ninchisi ish kuniga qadar tegishli tuman (shahar) hokimliklarining moliya bo‘limlariga elektron shaklda (har chorakda hisobot choragidan keyingi oyning o‘ninchisi ish kuniga qadar qog‘oz shaklda) taqdim etiladi.

Tuman (shahar) davlat soliq inspeksiyalari tomonidan tayyorlangan hisobotlarning elektron shakli tuman (shahar) hokimliklarining moliya bo‘limlariga taqdim etish belgilangan muddatlarda, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining (bundan buyon matnda Pensiya jamg‘armasi deb yuritiladi) tegishli tuman (shahar) bo‘linmalariga taqdim qilinadi.

Davlat soliq boshqarmasi hisobot davri uchun ularda mavjud ma’lumotlar hamda belgilangan tartibda tuzilgan va kelishilgan solishtirish dalolatnomalari asosida:

Davlat byudjetiga va davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlariga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning hisoblanishi to‘g‘risidagi hisobotlar tayyorlanib, har chorakda choraklik hisobotlarni topshirishning oxirgi muddatidan keyingi oyning o‘ninchisi ish kuniga (yil yakuni bo‘yicha yillik hisobotlarni topshirishning oxirgi muddatidan keyingi oyning o‘ninchisi ish kuniga) qadar qog‘oz shaklda;

Davlat byudjetiga va davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlariga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning tushumi to‘g‘risidagi hisobotlar tayyorlanib, har oyda hisobot oyidan keyingi oyning o‘n beshinchi ish kuniga qadar Qoraqalpog‘iston Respublikasining Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalariga elektron shaklda (har chorakda hisobot choragidan keyingi oyning o‘n beshinchi ish kuniga qadar qog‘oz shaklda) taqdim etiladi.

Davlat soliq boshqarmalari tomonidan tayyorlangan hisobotlarning elektron shakli va nusxalari Qoraqalpog‘iston Respublikasining Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar

hokimliklarining moliya boshqarmalariga taqdim etish belgilangan muddatlarda Pensiya jamg‘armasining tegishli boshqarmalariga taqdim qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan, davlat soliq xizmati organlarida mavjud ma’lumotlar, ularning hisobotlari hamda belgilangan tartibda tuzilgan va kelishilgan solishtirish dalolatnomalari asosida:

Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg‘armalar byudjetiga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning hisoblanishi to‘g‘risidagi hisobotlar tayyorlanib, har chorakda choraklik hisobotlarni topshirishning oxirgi muddatidan keyingi oyning o‘ninchisi ish kuniga (yil yakuni bo‘yicha yillik hisobotlarni topshirishning oxirgi muddatidan keyingi oyning o‘ninchisi ish kuniga) qadar qog‘oz shaklda;

Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg‘armalar byudjetiga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning tushumlari to‘g‘risidagi hisobotlar tayyorlanib, har oyda hisobot oyidan keyingi oyning o‘n yettinchi ish kuniga qadar (operativ hisobotlardan tashqari), mos ravishda, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga, Pensiya jamg‘armasi, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika yo‘l jamg‘armasi (bundan buyon matnda Respublika yo‘l jamg‘armasi deb yuritiladi) va Umumta’lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta’mirlash va jihozlash jamg‘armasiga elektron shaklda (har chorakda hisobot choragidan keyingi oyning o‘n yettinchi ish kuniga qadar qog‘oz shaklda) taqdim etiladi.

Tuman (shahar) davlat soliq inspeksiyalari tomonidan hisobot oyidan keyingi oyning uchinchi ish kuniga qadar: Davlat byudjetiga 23402 — «Respublika byudjetining mablag‘lari» balans hisobvarag‘i orqali tushgan tushumlar bo‘yicha; Pensiya jamg‘armasiga tushumlar bo‘yicha; Respublika yo‘l jamg‘armasiga tushumlar bo‘yicha; O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Umumta’lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta’mirlash va jihozlash jamg‘armasiga tushumlar bo‘yicha solishtirish dalolatnomalari tuziladi.

Solishtirish dalolatnomalari xizmat ko‘rsatuvchi bank ko‘chirmalarida ko‘rsatilgan ma’lumotlar asosida tayyorlanib, tegishli davlat soliq inspeksiyasi rahbari tomonidan imzolangandan keyin kelishish uchun xizmat ko‘rsatuvchi bankka (jumladan, elektron shaklda) taqdim etiladi.

Xizmat ko‘rsatuvchi banklar tuman (shahar) davlat soliq inspeksiyalari tomonidan taqdim etilgan solishtirish dalolatnomalarini hisobot oyidan keyingi oyning to‘rtinchisi ish kunigacha ko‘rib chiqadi.

Solishtirish dalolatnomalarida ko‘rsatilgan ma’lumotlar o‘rtasida farqlar mavjud bo‘lmagan taqdirda, solishtirish dalolatnomalari tegishli bank rahbari tomonidan imzolanadi va kelishish uchun tegishli tuman (shahar) bo‘yicha G‘aznachilik bo‘linmalariga (jumladan, elektron shaklda) taqdim etiladi.

Solishtirish dalolatnomalarida ko‘rsatilgan ma’lumotlar o‘rtasida farqlar mavjud bo‘lgan taqdirda, ushbu ma’lumotlarga bank tomonidan aniqlik kiritiladi.

Tuman (shahar) bo‘yicha G‘aznachilik bo‘linmalarini xizmat ko‘rsatuvchi banklar tomonidan taqdim etilgan solishtirish dalolatnomalarini hisobot oyidan keyingi oyning beshinchisi ish kunigacha ko‘rib chiqadi.

Solishtirish dalolatnomalarida ko‘rsatilgan ma’lumotlar bilan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining axborot tizimidagi ma’lumotlar o‘rtasida farqlar mavjud bo‘lmagan taqdirda, solishtirish dalolatnomalari tegishli tuman (shahar) bo‘yicha G‘aznachilik bo‘linmalarini rahbarlari tomonidan imzolanadi.

Bunda:

solishtirish dalolatnomalari kelishish uchun tegishli tuman (shahar) hokimliklarining moliya bo‘limlariga, solishtirish dalolatnomasini esa, Pensiya jamg‘armasining tegishli tuman (shahar) bo‘linmasiga kelishish uchun taqdim etiladi.

Solishtirish dalolatnomalarida ko'rsatilgan ma'lumotlar o'rtasida farqlar mavjud bo'lgan taqdirda, ushbu ma'lumotlarga tuman (shahar) bo'yicha G'aznachilik bo'linmalari tomonidan aniqlik kiritiladi.

Tuman (shahar) hokimliklarining moliya bo'limlari hamda Pensiya jamg'armasining tuman (shahar) bo'linmalari G'aznachilik bo'linmalari tomonidan taqdim etilgan solishtirish dalolatnomalarini hisobot oyidan keyingi oyning oltinchi ish kunigacha ko'rib chiqadi.

Solishtirish dalolatnomalarida ko'rsatilgan ma'lumotlar o'rtasida farqlar mavjud bo'limgan taqdirda, solishtirish dalolatnomalari tegishli tuman (shahar) hokimliklarining moliya bo'limlari yoki Pensiya jamg'armasining bo'linmalari rahbarlari tomonidan imzolanadi.

Tuman (shahar) hokimliklarining moliya bo'limlari hamda Pensiya jamg'armasining bo'linmalari imzolangan solishtirish dalolatnomalari nuxxalarini tegishli davlat soliq inspeksiyasi, xizmat ko'rsatuvchi bank va G'aznachilik bo'linmasiga keyingi ish kunidan kechiktirmasdan yuboradi.

Imzolangan solishtirish dalolatnomalarining bir nusxasi hisobot oyidan keyingi oyning yettinchi ish kuniga qadar:

 tuman (shahar) davlat soliq inspeksiyalari tomonidan tegishli davlat soliq boshqarmasiga;

 tuman (shahar) davlat soliq inspeksiyasiga xizmat ko'rsatuvchi banklar tomonidan Markaziy bankning tegishli Bosh boshqarmasiga;

 tuman (shahar) G'aznachilik bo'linmalari tomonidan tegishlichcha Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo'yicha G'aznachilik boshqarmasiga;

 tuman (shahar) hokimliklarining moliya bo'limlari tomonidan tegishlichcha Qoraqalpog'iston Respublikasining Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmasiga;

Pensiya jamg'armasining tuman (shahar) bo'linmalari tomonidan Pensiya jamg'armasining tegishli boshqarmasiga taqdim etiladi.

Davlat soliq boshqarmalari taqdim etilgan solishtirish dalolatnomalari asosida (Markaziy bankning hududiy Bosh boshqarmasi Hisob-kitob kassa markazida ochilgan 23402 — «Respublika byudjetining mablag'lari» balans hisobvarag'i orqali tushadigan tushumlarni ham hisobga olgan holda) hisobot oyidan keyingi oyning to'qqizinchi ish kunigacha: Davlat byudjetining 23402 — «Respublika byudjetining mablag'lari» balans hisobvarag'i orqali tushadigan tushumlar bo'yicha; Pensiya jamg'armasi daromadlari bo'yicha; Respublika yo'l jamg'armasi daromadlari bo'yicha; O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasi daromadlari bo'yicha solishtirish dalolatnomalarini tuzadi.

Solishtirish dalolatnomalari tegishli hududiy davlat soliq boshqarmasi rahbari tomonidan imzolangandan keyin kelishish uchun Markaziy bankning hududiy Bosh boshqarmasiga (jumladan, elektron shaklda) taqdim etadi.

23403 — «Bojaxona to'lovleri bo'yicha Respublika byudjetining daromadlari» balans hisobvarag'inining tegishli Shartli hisobvaraqlari ochilgan xizmat ko'rsatuvchi banklar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Davlat bojaxona qo'mitasining tegishli hududiy boshqarmalari va ularga tenglashtirilgan tarkibiy tuzilmalariga va Markaziy bankning tegishli Bosh boshqarmasiga 23403 — «Bojaxona to'lovleri bo'yicha Respublika byudjetining daromadlari» balans hisobvarag'inining tegishli Shartli hisobvaraqlari bo'yicha bank ko'chirmalari va ilovalari elektron va qog'oz shaklda kunlik taqdim etib boriladi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat bojaxona qo'mitasining hududiy boshqarmalari va ularga tenglashtirilgan tarkibiy tuzilmalari tomonidan solishtirish dalolatnomalari tuziladi. Mazkur solishtirish dalolatnomalari Markaziy bankning hududiy Bosh boshqarmasi Hisob-kitob kassa markazining ko'chirmalari va boshqa xizmat ko'rsatuvchi banklar ko'chirmalarida ko'rsatilgan ma'lumotlar asosida tayyorlanib, Davlat bojaxona qo'mitasining hududiy boshqarmasi va ularga tenglashtirilgan tarkibiy tuzilmasi rahbari tomonidan imzolangandan keyin kelishish uchun

Markaziy bankning hududiy Bosh boshqarmasiga hisobot oyidan keyingi oyning yettinchi ish kunigacha (jumladan, elektron shaklda) taqdim etiladi.

Markaziy bankning hududiy Bosh boshqarmasi hududiy davlat soliq boshqarmasi va davlat bojxona boshqarmasi va unga tenglashtirilgan tarkibiy tuzilmasi tomonidan taqdim etilgan solishtirish dalolatnomalarini hisobot oyidan keyingi oyning o'ninchisi ish kunigacha ko'rib chiqadi.

Solishtirish dalolatnomalarida ko'rsatilgan ma'lumotlar bilan banklar tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar o'rtasida farqlar mavjud bo'limgan taqdirda, solishtirish dalolatnomalari Markaziy bankning hududiy Bosh boshqarmasi rahbari tomonidan imzolanadi va kelishish uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo'yicha tegishli G'aznachilik boshqarmalariga (jumladan, elektron shaklda) taqdim etiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo'yicha tegishli G'aznachilik boshqarmasi taqdim etilgan solishtirish dalolatnomalarini hisobot oyidan keyingi oyning o'n birinchi ish kunigacha ko'rib chiqadi. Solishtirish dalolatnomalarida ko'rsatilgan ma'lumotlar bilan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining axborot tizimidagi ma'lumotlar o'rtasida farqlar mavjud bo'limgan taqdirda, solishtirish dalolatnomalari tegishli G'aznachilik boshqarmasi rahbari tomonidan imzolanadi.

Bunda:

solishtirish dalolatnomalari kelishish uchun Qoraqalpog'iston Respublikasining Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalariga solishtirish dalolatnomasini esa, Pensiya jamg'armasining tegishli boshqarmalariga taqdim etiladi.

Solishtirish dalolatnomalarida ko'rsatilgan ma'lumotlar o'rtasida farqlar mavjud bo'ligan taqdirda, ushbu ma'lumotlarga tegishli G'aznachilik boshqarmasi tomonidan aniqlik kiritiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasining Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalari hamda Pensiya jamg'armasining boshqarmalari taqdim etilgan solishtirish dalolatnomalarini hisobot oyidan keyingi oyning o'n ikkinchi ish kunigacha ko'rib chiqadi.

Solishtirish dalolatnomalarida ko'rsatilgan ma'lumotlar o'rtasida farqlar mavjud bo'limgan taqdirda, solishtirish dalolatnomalari ularning rahbarlari tomonidan imzolanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasining Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalari va Pensiya jamg'armasining hududiy boshqarmalari imzolangan solishtirish dalolatnomalari nuxxalarini tegishli davlat soliq, bojxona boshqarmasi va unga tenglashtirilgan tarkibiy tuzilmasi, Markaziy bankning hududiy Bosh boshqarmasi hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo'yicha G'aznachilik boshqarmalariga keyingi kunidan kechiktirmsandan taqdim qiladi.

Imzolangan solishtirish dalolatnomalari hisobot oyidan keyingi oyning o'n uchinchi ish kunigacha: davlat soliq boshqarmalari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasiga; Markaziy bankning hududiy Bosh boshqarmalari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga; Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo'yicha G'aznachilik boshqarmalari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiliga; Pensiya jamg'armasining hududiy boshqarmalari tomonidan Pensiya jamg'armasining Ijro etuvchi direksiyasiga; Davlat bojxona qo'mitasining hududiy boshqarmalari va ularga tenglashtirilgan tarkibiy tuzilmasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasiga taqdim etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'miasi, Markaziy banki, Moliya vazirligi G'aznachiligi, Pensiya jamg'armasining Ijro etuvchi direksiyasi hamda Davlat bojxona qo'mitasiga quyi turuvchi organlar tomonidan taqdim qilingan solishtirish dalolatnomalarni ko'rib chiqadi. Solishtirish dalolatnomalarida ko'rsatilgan ma'lumotlar o'rtasida farqlar mavjud bo'limgan taqdirda, solishtirish dalolatnomalari O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasiga, Markaziy banki, Moliya vazirligi G'aznachiligi, Pensiya jamg'armasining Ijro etuvchi direksiyasi hamda Davlat bojxona qo'mitasiga rahbarlari tomonidan imzolanadi.

Bunda:

solishtirish dalolatnomalari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Hududlar moliyasi bosh boshqarmasiga;

solishtirish dalolatnomalarini Respublika yo‘l jamg‘armasi Ijro etuvchi direksiyasiga; solishtirish dalolatnomalarini Umumta’lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta’mirlash va jihozlash jamg‘armasi Ijro etuvchi direksiyasiga hisobot oyidan keyingi oyning o‘n beshinchi ish kuniga qadar taqdim etiladi.

Solishtirish dalolatnomalarning belgilangan muddatlarda tuzilishi, tasdiqlanishi va yuqori tashkilotlarga taqdim qilinishi bo‘yicha javobgarlik Davlat soliq boshqarmalari, Qoraqalpog‘iston Respublikasining moliya vaziri, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo‘yicha G‘aznachilik boshqarmalari, Pensiya jamg‘armasining hududiy boshqarmalari va Markaziy bankning hududiy Bosh boshqarmalari rahbarlari zimmasiga yuklatiladi.

5. MAVZU. “DAVLAT SOLIQ XIZMATI IDORALARIDA TO‘LANGAN SOLIQLAR VA MAJBURIY TO‘LOVLAR BO‘YICHA YIGILADIGAN JAMLANMA HISOBOTLAR VA ULARNI SHAKLLANTIRISH TARTIBI” ЎЗАСИДАН КЕЙСЛАР ТҮПЛАМИ, АМАЛИЙ ТОПШИРИҚЛАР, ИШЛАНМАЛАР

Reja:

- 1.Davlat byudjetining soliqli daromadlari va ularning hisobi
- 2.Pensiya va yo‘l jamg‘armalarining daromadlari va ularning hisobi

3.1g‘N dasturiy mahsuli, 1N-B,1N-PF,1N-YF,1N-MF jamlanma hisobotlarni shakllantirish, solishtirma dalolatnomalarini tuzish va byudjet tushumlarini nazorat qiluvchi idoralar urtasida tasdiqlanishi.

Talabalarga beriladigan savollar ro‘yxati:

1. Soliq idoralarida tuziluvchi soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar to‘g‘risidagi jamlama hisobot nima?
2. 1-N jamlama hisobotining mazmun mohiyati nimadan iborat?
3. 1N-B jamlama hisobotining mazmun mohiyati nimadan iborat?
4. 1N-PF jamlama hisobotining mazmun mohiyati nimadan iborat?
5. 1N-YF jamlama hisobotining mazmun mohiyati nimadan iborat?
6. 1N-MF jamlama hisobotining mazmun mohiyati nimadan iborat?
7. Hisoblangan va to‘langan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar to‘g‘risidagi solishtirma dalolatnoma nima va ular qanday tuziladi?
- 8.Byudjet daromadlari qanday klassifikatsiya qilinadi va ular nima uchun kerak?
- 9.Davlat byudjetining daromad qismi qanday shakllantiriladi?
- 10.Davlatning maqsadli jamg‘armalarining daromad qismi qanday shallantiriladi?



Auditoriyani faollashtirish uchun beriluvchi savollar:

- 1.Soliq tushumlarini hisobini yuritishda jamlama hisobotlarning ahamiyati nimadan iborat?
2. Soliq tushumlarini prognozlashda jamlama hisobotlarning ahamiyati nimadan iborat?

1-topshiriq.

1-KEYS-STADI Kirish

Tavsiya etilgan keysni yechish quyidagi natijalarga erishishga imkon yaratadi:

- o‘zlashtirilgan mavzu bo‘yicha bilimlarni mustahkamlash;
- mantiqiy fikrlashni rivojlantirish;
- davlat soliq xizmati idoralarida to‘langan soliqlar va majburiy to‘lovlardan bo‘yicha yigiladigan jamlanma hisobotlar va ularni shakllantirish borasida mustaqil ravishda qaror qabul qilish ko‘nikmalarini egallash;
- davlat soliq xizmati idoralarida to‘langan soliqlar va majburiy to‘lovlardan bo‘yicha yigiladigan jamlanma hisobotlar va ularni shakllantirish uslubiyatini qo‘llash qobiliyatini tekshirish.

VAZIYAT

Soliq inspeksiyasi mamuriyat bo‘lmiga oliy talim muassasini bitirgan yosh mutaxasisni ishga oldi. Soliq inspeksiyasining rahbari unga soliq idoralarida tuziluvchi soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlardan to‘g‘risidagi jamlama hisobotlarni tuzishni hamda tegishli davlat idoralariga o‘z vaqtida taqdim qilishni buyurdi.

Yangi xodim 1N-B,1N-PF,1N-YF,1N-MF jamlama hisobotlarni sifatsiz. Xatolar bilan to‘ldirdi. Soliq inspeksiyasining rahbari yangi xodimning jamlama hisobotlarni to‘ldirish borasida yetarli tajribaga ega emasligini tushundi.


Sizningcha, yangi ishchi jamlama hisobotlarni sifatli to‘ldirish uchun unga qanday darajadagi bilim zarur. Quyidagi savollarga o‘zingiz yozma ravishda to‘g‘ri javob berishga harakat qiling.

SAVOLLAR VA TOPSHIRIQLAR:

1. 1N-B,1N-PF,1N-YF,1N-MF jamlama hisobotlari nima asosida to‘ldiriladi?
2. 1g‘N, 1g‘Ng‘N, 2g‘N hisobotlar nima va ular birg‘biridan qanday farqlanadi?
3. Moliya idoralariga taqdim qilinuvchi 1N-B,1N-PF,1N-YF,1N-MF jamlama hisobotlari birg‘biridan nimasi bilan farq qiladi?
4. 1N-B,1N-PF,1N-YF,1N-MF jamlama hisobotlari qanday muddatlarda taqdim qilinadi?
3. Jamlama hisobotlar soliq tushumlarini hisobini yuritishda hamda prognozlashda qanday ahamiyatga ega?
4. Hisobotlarni to‘ldirishda qanday toifadagi dasturiy mahsullardan foydalilanildi?

2-topshiriq.

“Klaster” grafik organizayzeridan foydalangan holda byudjet daromadlarini klassifikatsiyasini tuzing.



Foydalanimadigan adabiyotlar royxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiysi to‘g‘risida. 2018 yil 29 iyun. Elektron- huquqiy baza.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 56 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minalash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 48 b.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Soliq ma’muriyatichilagini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning yig‘iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. 2017 yil 18 iyul, pf-5116-son. Elektron-huquqiy baza.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy erkinligini oshirish, mahalliy byudjetlarga tushumlarning to‘liqligini ta’minalash bo‘yicha soliq va moliya organlari javobgarligini kuchaytirishga oid qo‘sishicha chora-tadbirlar to‘g‘risida. 2017 yil 13 dekabr, PF-5283-son. Elektron-huquqiy baza.
6. Распоряжение Президента Республики Узбекистан. Об организации критического изучения деятельности финансовых, налоговых и таможенных органов. 16 января 2018 г. № р-5182. Электронно-правовая база.
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini huquqiy tartibga solishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida. 2017 yil 28 avgust, 677-son. LEX.UZ. Elektron-huquqiy baza.
8. Абдуганиева Г.К., Бабабекова Н.Б. Прогнозирование налогов. Учебное пособие. – Т.: “Тафаккур-Бўстони”, 2012. - 224 с.
9. Doschanova N.P. Soliq statistikasi va prognozi. O‘quv qo‘llanma. – Т.: “Ren-Poligraf” bosmaxonasi, 2009. – 216 b.
10. Vahobov A.V, Jo‘rayev A.S Soliqlar va soliqqa tortish.Darslik.T: “Sharq”, 2009. -448 b.
11. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. “Norma” huquqiy bazasi.
12. O‘zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi. “Norma” huquqiy bazasi.
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 iyuldaggi “Soliq ma’muriyatichilagini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning yig‘iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5116-sonli Farmoni. Xalq so‘zi» gazetasi. 2017 yil 19 iyuldaggi 141 (6835)-son.
14. Malikov T.S., Jalilov P.T. Byudjet-soliq siyosati. O‘quv qo‘llanma. – Т.: “Akademnashr”, 2011. - 472 b.
15. Haydarov N.H. Soliqlar va soliqqa tortish masalalari. O‘quv qo‘llanma. AkademiY. - Т.: 2007. - 214 b.;
16. Gadoev E, Kuzieva N. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish. Darslik. – Т.: “O‘zbekiston”, 2012. - 336 b
17. Jo‘rayev A, S. Shirinov. Soliq statistikasi va prognozi: O‘quv qo‘llanma, Т.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2015.-392b.
18. Eshboyev T.T. Yuridik shaxslarni soliqqa tortish. Darslik. T: “Cho‘lon” 2013, 296 bet
19. Musagaliyev A. Yuridik shaxslarni soliqqa tortishni takomillashtirishning dolzarb masalalari. Soliq akademiyasi. Monografiya, Toshkent: 2010, 116 bet.
20. I.Xabibullayev, G.Mansurova, Soliq statistikasining nazariy asoslari. O‘quv qo‘llanma - Т.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi», 2005.
21. Forecasting Scottish taxes. The National Archives, Kew, London TW9 4DU. Crown copyright 2017. 25p/(20p.).
22. Federal taxation: practice and procedure. Robert E., Richard J. Chicago, 2017.987p. (252p.).

23. Tax analysis and revenue forecasting. Issues and Techniques. By Glenn P. Jenkins Chun-Yan Kuo Gangadhar P. Shukla. Harvard Institute for International Development Harvard University . 2017. 187 p.(2p.).
24. An Analysis of Tax Revenue Forecast Errors. Martin Keene and Peter Thomson. New Zealand treasury working paper 07/02. 2017.41p.(2p.).
25. Tax policy, Revenue forecasting and economic analysis force. Joshua Goldstain, assistant director. Office of management and budget. The City of New York. 2017. 308p.(39p.)

Internet saytlari:

26. www. <http://el.tfi.uz/> - Toshkent moliya instituti elektron kutubxonasi;
27. www. <http://soliq.uz>;
28. www. <http://edu.uz>;
29. www. <http://mf.uz>;
30. www. <http://oxs.uz>;
31. www. <http://norma.uz>;
32. www. <http://lex.uz>;
33. www. <http://my.gov.uz>;
34. www. <http://alleng.ru>;

6.1. “SOLIQ TO‘LOVCHILAR TOMONIDAN SOLIQ MAJBURIYATINI BAJARISH TARTIBI VA SOLIQ QARZINI UNDIRISHNI TASHKIL ETISH” O‘QUV MODULI YUZASIDAN MA’RUZA MATNI

VI.O‘QUV MATN (MODUL)

MODUL: SOLIQ TO‘LOVCHILAR TOMONIDAN SOLIQ MAJBURIYATINI BAJARISH TARTIBI VA SOLIQ QARZINI UNDIRISHNI TASHKIL ETISH



Reja:

- 1.Soliq majburiyati va uni bajarish
2. Soliq hisoboti tushunchasi va u bilan bog‘liq soliq majburiyatlar
- 3.Soliq qarzi va uni undirish tartibi.

Tayanch so‘z va iboralar: soliq majburiyati, o‘zaro aloqador yuridik shaxslar, alohida-alohida hisob, alohida-alohida hisobning mutanosib usuli, alohida-alohida hisobning to‘g‘ridan-to‘g‘ri hisobga olish usuli, soliq hisoboti, soliq qarzi.

Soliq to‘lovchining soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq yuzaga keladigan majburiyati soliq majburiyati deb e’tirof etiladi.

Soliq majburiyatini bajarish uchun soliq to‘lovchi:

soliq solish obektlari va soliq solish bilan bog‘liq obektlarni aniqlashi hamda ularning hisobini yuritishi;

moliyaviy va soliq hisobotini tuzishi hamda uni davlat soliq xizmati organlariga taqdim etishi; soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni o‘z vaqtida hamda to‘liq miqdorda to‘lashi shart.

Soliq majburiyatini bajarish bevosita soliq to‘lovchi tomonidan amalga oshiriladi, qonunlarga muvofiq soliq majburiyatini bajarish boshqa shaxsga yuklatiladigan hollar bundan mustasno.

Yuridik shaxsning alohida bo‘linmalar bo‘yicha soliq majburiyati mazkur alohida bo‘linmalar tomonidan, agar ularga alohida mol-mulk ajratilgan bo‘lsa va ular mustaqil balansga ega bo‘lsa, mustaqil ravishda bajariladi.

Mol-mulk ishonchli boshqaruvga topshirilganda boshqaruv muassisi bo‘lgan soliq to‘lovchining soliq majburiyati, agar bu majburiyat unga boshqaruv muassisi tomonidan yuklatilgan bo‘lsa, ishonchli boshqaruvchi tomonidan bajarilishi mumkin.

Soliq majburiyati bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan taqdirda, soliq to‘lovchiga nisbatan Kodeksda nazarda tutilgan tartibda uning bajarilishini ta‘minlash choralar qo‘llaniladi.

Soliq majburiyati belgilangan muddatlarda soliq to‘lovchi tomonidan bajarilishi kerak.

Soliq to‘lovchi soliq majburiyatini muddatidan ilgari bajarishga haqli.

Soliq majburiyatini bajarish muddatlari kalendar sana yoki vaqt davri (yil, yil choragi, oy, o‘n kunlik va kun) o‘tishi bilan belgilanadi.

Muddatning o‘tishi kalendar sanadan yoki muddatning boshlanishi belgilab qo‘yilgan voqeal yuz bergenidan keyingi kundan boshlanadi. Soliq majburiyati bu majburiyatni bajarish muddatining so‘nggi kuni soat yigirma to‘rtga qadar bajarilishi kerak.

Agar soliq majburiyatini bajarish muddatining so‘nggi kuni dam olish (ishlanmaydigan) kuniga to‘g‘ri kelib qolsa, shundan keyingi birinchi ish kuni muddatning tugash kuni hisoblanadi.

Jismoniy shaxsning soliq majburiyati quyidagi hollarda tugatiladi:

uning vafot etishi bilan;

uni vafot etgan deb e'lon qilish to‘g‘risidagi sud qarori qonuniy kuchga kirishi bilan.

Yuridik shaxsning soliq majburiyati quyidagi hollarda tugatiladi:

u tugatilganidan keyin;

u qo‘sib olish (qo‘sib olingen yuridik shaxsga nisbatan), qo‘sib yuborish, bo‘lish va o‘zgartirish orqali qayta tashkil etilganidan keyin.

Davlat soliq xizmati organi soliq davri tugaganidan keyin besh yil ichida soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni hisoblashi yoki ularning hisoblangan summasini qayta ko‘rib chiqishi mumkin.

Soliq to‘lovchi soliq davri tugaganidan keyin besh yil ichida soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning ortiqcha to‘langan summalarini hisobga olishni yoki qaytarishni talab qilishga haqli.

Soliq majburiyati bo‘yicha da’vo qilish muddatining o‘tishi fuqarolik qonun hujjatlariga muvofiq to‘xtatib turiladi, uziladi va tiklanadi.

Soliq va boshqa majburiy to‘loving har bir turi bo‘yicha soliq solish obekti hamda soliq solish bilan bog‘liq obektlar Kodeksning Maxsus qismiga muvofiq belgilanadi.

Soliq to‘lovchilarning daromadlari hamda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni hisoblab chiqarish uchun ular bo‘yicha tegishli chegirmalar to‘lov to‘langan vaqt va pul kelib tushgan sanadan qat‘i nazar, ular taalluqli bo‘lgan hisobot davrida aks ettiriladi (hisoblab yozish usuli).

Mol-mulkni hisobga olish buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Soliq to‘lovchi tomonidan hisob hujjatlari yo‘qotilgan yoki yo‘q qilingan taqdirda, davlat soliq xizmati organlari byudjetga va davlat maqsadli jamg‘armalariga to‘lanishi kerak bo‘lgan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar summasini soliq to‘lovchi to‘g‘risida, shuningdek shunga o‘xhash boshqa soliq to‘lovchilar to‘g‘risida o‘zlarida mavjud bo‘lgan ma’lumotlar asosida O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadigan tartibda hisob-kitob qilish orqali aniqlashi mumkin.

Agar o‘zaro aloqador yuridik shaxslar o‘z tijorat va moliyaviy munosabatlarida o‘zaro aloqador bo‘lmagan yuridik shaxslar o‘rtasida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan narxlardan farq qiladigan narxlarni qo‘llasa, soliq solinadigan baza tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish narxlari asosida hisoblab chiqariladigan soliq solish obektini aniqlashda davlat soliq xizmati organlari o‘zaro aloqador bo‘lmagan yuridik shaxslar o‘rtasida qo‘llaniladigan narxlardan foydalanadi.

O‘zaro aloqador yuridik shaxslar quyidagilardir:

O‘zbekiston Respublikasida ro‘yxatdan o‘tkazilgan yuridik shaxslar va ularning chet davlatlar yuridik shaxslari bo‘lgan muassisleri (ishtirokchilari, a’zolari);

chet davlatlarning yuridik shaxslari va ularning O‘zbekiston Respublikasida ro‘yxatdan o‘tkazilgan yuridik shaxslar bo‘lgan muassisleri (ishtirokchilari, a’zolari);

muassisleri (ishtirokchilari, a’zolari) ayni bir yuridik yoki jismoniy shaxslar bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasida ro‘yxatdan o‘tkazilgan yuridik shaxslar va chet davlatlarning yuridik shaxslari.

Hisob hujjatlari soliq solish obektlari va soliq solish bilan bog‘liq obektlarni aniqlash, shuningdek soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni hisoblab chiqarish uchun asos bo‘lgan birlamchi hujjatlar, buxgalteriya hisobi registrlari hamda boshqa hujjatlardan iboratdir.

Hisob hujjatlari qog‘ozda va (yoki) elektron shaklda tuziladi hamda belgilangan soliq majburiyati bo‘yicha da’vo qilish muddati tugaguniga qadar saqlanadi.

Yuridik shaxs qayta tashkil etilganda qayta tashkil etilgan yuridik shaxsning hisob hujjatlarini saqlash majburiylari uning huquqiy vorisi zimmasiga yuklatiladi.

Yuridik shaxs tugatilganda hisob hujjatlari tegishli davlat arxiviga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda topshiriladi.

Soliq solishning turli tartibi nazardautilgan faoliyat turlarini amalga oshirayotgan soliq to‘lovchilar soliq solish obektlari va soliq solish bilan bog‘liq obektlarning alohida-alohida hisobini yuritishlari shart.

Soliq solish obektlari va soliq solish bilan bog‘liq obektlarning alohida-alohida hisobi soliq to‘lovchilar tomonidan buxgalteriya hisobi ma’lumotlari asosida yuritiladi.

Faoliyatning muayyan turiga taalluqli barcha daromadlar va xarajatlar tegishli hisob hujjatlari bilan tasdiqlanishi kerak.

Soliq solish obektlari va soliq solish bilan bog‘liq obektlarning alohida-alohida hisobi mutanosib usul yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri hisobga olish usuli orqali yuritilishi mumkin.

Soliq solish obektlari va soliq solish bilan bog‘liq obektlarning alohida-alohida hisobini yuritish usuli yuridik shaxsning butun kalendar yilga mo‘ljallangan hisob siyosati bilan belgilanadi hamda yil mobaynida o‘zgartirilishi mumkin emas.

Hisobga olishning mutanosib usulida daromadlar, xarajatlar va soliq solishning boshqa obektlari yoki soliq solish bilan bog‘liq obektlar realizatsiya qilishdan olingan sof tushumning umumiyligi summasidagi faoliyatning muayyan turlari bo‘yicha realizatsiya qilishdan olingan sof tushum ulushiga mutanosib tarzda shu muayyan faoliyat turiga kiritiladi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri hisobga olish usuli qo‘llanilganda daromadlar, xarajatlar va soliq solishning boshqa obektlari yoki soliq solish bilan bog‘liq obektlar faoliyatning qaysi turi amalga oshirilishi bilan bog‘liq bo‘lsa, shu turga kiritiladi. Bunda faoliyatning biron turiga kiritish mumkin bo‘limgan daromadlar, xarajatlar va soliq solishning boshqa obektlari yoki soliq solish bilan bog‘liq obektlar hisobga olishning mutanosib usuli orqali faoliyatning muayyan turiga kiritiladi.

2. Soliq hisoboti tushunchasi va u bilan bog‘liq soliq majburiyatlar. Soliq hisoboti soliq to‘lovchining soliq va boshqa majburiy to‘loving har bir turi bo‘yicha yoki to‘langan daromadlar bo‘yicha hisob-kitoblar hamda soliq deklaratsiyalarini, shuningdek hisob-kitoblarga va soliq deklaratsiyalariga doir ilovalarni o‘z ichiga oladigan hujjati bo‘lib, u O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan shaklda tuziladi.

Soliq hisoboti qog‘ozda va (yoki) elektron hujjatga doir talablarga rioya etilgan holda elektron hujjat tarzida tuziladi.

Soliq hisoboti soliq to‘lovchi tomonidan imzolanishi kerak, shuningdek agar u kichik tadbirkorlik subekti bo‘limgan yuridik shaxs bo‘lsa, uning muhri bilan tasdiqlanadi. Elektron hujjat tarzida taqdim etilgan soliq hisoboti soliq to‘lovchining elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlanadi.

Yuridik shaxs — soliq to‘lovchi qayta tashkil etilayotganda yoki tugatilayotganda, har bir qayta tashkil etilayotgan yoki tugatilayotgan soliq to‘lovchiga soliq davri boshlanganidan e’tiboran qayta tashkil etish yoki tugatish tugallangan kunga qadar bo‘lgan davr yuzasidan tegishincha topshirish dalolatnomasi, taqsimlash balansi yoxud tugatish balansi asosida alohida-alohida soliq hisoboti tuziladi. Mazkur hisobot topshirish dalolatnomasi, taqsimlash balansi yoki tugatish balansi tasdiqlangan kundan e’tiboran uch ish kuni ichida taqdim etiladi. Ushbu qismning qoidalari o‘zgartirish, shuningdek boshqa yuridik shaxsni qo‘shib olish orqali qayta tashkil etilayotgan yuridik shaxslarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Tadbirkorlik subekti — yuridik shaxs ixtiyoriy tugatilgan taqdirda, unga soliq davri boshlanganidan to yuridik shaxslarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organ tugatish tartib-taomili boshlanganligi haqida xabardor qilingan sanagacha bo‘lgan muddat uchun alohida soliq hisoboti tuziladi.

Soliq hisobotida ko‘rsatilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligi uchun javobgarlik soliq to‘lovchining zimmasiga yuklatiladi.

Soliq hisoboti soliq to‘lovchi tomonidan ushbu Kodeksda belgilangan muddatlarda taqdim etiladi.

Soliq hisoboti soliq to‘lovchi hisobga qo‘yilgan joydagi davlat soliq xizmati organiga taqdim etiladi. Ayrim turdagи soliqlar bo‘yicha soliq hisoboti ham nazarda tutilgan hollarda obektlar bo‘yicha hisobga qo‘yilgan joy bo‘yicha soliq to‘lovchi tomonidan taqdim etiladi.

Yirik soliq to‘lovchilar soliq hisobotini soliq to‘lovchi hisobga qo‘yilgan joydagi Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalariga taqdim etadi.

Jismoniy shaxslar soliq deklaratsiyasini yashash joyidagi davlat soliq xizmati organiga taqdim etadilar.

Soliq to‘lovchilar, agar ushbu moddaning beshinchi qismida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, soliq hisobotini o‘z xohishlariga ko‘ra quyidagicha taqdim etishga haqli:
shaxsan olib borib berish tartibida;
pochta orqali buyurtma xat bilan;
telekommunikatsiya kanallari orqali elektron hujjat tarzida.

Tadbirkorlik subektlari soliq hisobotini telekommunikatsiya kanallari orqali elektron hujjat tarzida taqdim etadi.

Soliq hisobotini davlat soliq xizmati organiga taqdim etish sanasi quyidagilardir:

soliq hisoboti shaxsan olib borib berish tartibida taqdim etilganda — soliq hisoboti davlat soliq xizmati organi tomonidan qabul qilib olingan sana;

soliq hisoboti pochta orqali buyurtma xat bilan taqdim etilganda — aloqa tashkilotining tamg‘asida ko‘rsatilgan, pochta jo‘natmasi jo‘natilgan sana;

soliq hisoboti elektron hujjat tarzida taqdim etilganda — elektron hujjat davlat soliq xizmati organi tomonidan olingan sana.

Davlat soliq xizmati organi shaxsan olib borib berish tartibida taqdim etiladigan soliq hisobotini qabul qilib olishni rad etishga haqli emas hamda soliq to‘lovchining talabiga binoan soliq hisobotining nusxasiga hisobot qabul qilib olingan sana to‘g‘risida belgi qo‘yishi shart.

Soliq hisoboti telekommunikatsiya aloqa kanallari orqali elektron hujjat tarzida qabul qilib olinganda davlat soliq xizmati organi soliq to‘lovchiga elektron tarzidagi hisobot qabul qilib olinganligi to‘g‘risida tasdiqnomalarini yuborishi shart.

Soliq hisoboti dastlabki tarzda kameral nazorat qilinmasdan va uning mazmuni muhokama etilmasdan qabul qilinadi.

Soliq hisoboti quyidagi hollarda davlat soliq xizmati organiga taqdim etilmagan deb hisoblanadi, agar unda:

soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami ko‘rsatilmagan yoki noto‘g‘ri ko‘rsatilgan bo‘lsa;

soliq davri yoki soliq yoki boshqa majburiy to‘lov summasi ko‘rsatilmagan bo‘lsa;

soliq hisobotini tuzishga doir belgilangan talablar buzilgan bo‘lsa.

Belgilangan shakldagi soliq hisoboti taqdim etilganda davlat soliq xizmati organi hisobot olingan kundan e’tiboran uch kun ichida bu haqda soliq to‘lovchiga yozma bildirish yuboradi va aniq fikr-mulohazalarni ko‘rsatgan holda uni maromiga yetkazish uchun qaytaradi.

Kamchiliklari tuzatilgan soliq hisoboti uni taqdim etishning belgilangan muddati tugaguniga qadar taqdim etilgan taqdirda, soliq to‘lovchiga nisbatan javobgarlik choralar qo‘llanilmaydi.

Soliq hisoboti davlat soliq xizmati organlarida va soliq to‘lovchida soliq majburiyati bo‘yicha da’vo qilish muddati mobaynida saqlanadi.

3.Soliq qarzi va uni undirish tartibi. Soliq to‘lovchining muayyan soliq yoki boshqa majburiy to‘lovnini to‘lash, mavjud soliq qarzini uzish majburiyati soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash majburiyati deb hisoblanadi.

Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash majburiyati soliq to‘lovchining hisobvarag‘ida yetarlicha pul mablag‘lari bo‘lgan taqdirda, tegishli soliq yoki boshqa majburiy to‘lovnini to‘lash uchun bankka to‘lov topshiriqnomasi taqdim etilgan paytdan e’tiboran, soliq yoki boshqa majburiy to‘lov naqd pul mablag‘lari bilan to‘langanda esa pul summasi bankka yoki vakolatlari organ kassasiga topshirilgan paytdan e’tiboran bajarilgan deb hisoblanadi. Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash majburiyati qo‘srimcha hisoblangan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni summasi tegishli huquqni muhofaza qiluvchi organlarning depozit hisobvaraqlariga o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi to‘lov hujjatlarining ko‘chirma nusxalari soliq to‘lovchi tomonidan davlat soliq xizmati organlariga taqdim etilgan taqdirda ham bajarilgan deb hisoblanadi.

Soliq yoki boshqa majburiy to‘lov summasini o‘tkazish uchun to‘lov topshiriqnomasi soliq to‘lovchi tomonidan chaqirib olingan yoki bank tomonidan soliq to‘lovchiga qaytarilgan taqdirda, shuningdek agar soliq to‘lovchi bankka to‘lov topshiriqnomasini taqdim etgan paytda bu soliq to‘lovchining hisobvarag‘iga qo‘yilgan, qonun hujjatlariga muvofiq birinchi navbatda bajarilishi lozim bo‘lgan, bajarilmagan talablar mavjud bo‘lsa hamda soliq to‘lovchi barcha talablarni

qanoatlantirish uchun hisobvaraqda yetarlicha pul mablag‘lariga ega bo‘lmasa, soliq yoki boshqa majburiy to‘lov to‘langan deb hisoblanmaydi.

Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash majburiyati belgilangan tartibda hisobga olish orqali ham bajarilishi mumkin.

Soliq agentining ushlab qolning summalarini byudjetga yoki davlat maqsadli jamg‘armalariga o‘tkazishga doir majburiyati bajarilgan deb hisoblanadi.

Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash milliy valyutada, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda esa chet el valyutasida amalga oshiriladi.

Soliq yoki boshqa majburiy to‘lov summasi soliq to‘lovchi tomonidan belgilangan muddatlarda to‘lanadi. Soliq to‘lovchiga soliq va (yoki) boshqa majburiy to‘lovn, shuningdek penyani to‘lashni kechiktirish va (yoki) bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyati berilishi mumkin.

Soliq majburiyatining soliq to‘lovchi tomonidan bajarilmaganligi yoki belgilangan tartib buzilgan holda bajarilganligi unga nisbatan soliq majburiyatining bajarilishini ta‘minlash choralarini qo‘llash uchun asos bo‘ladi.

Soliq solinadigan bazani hisoblab chiqarish davlat soliq xizmati organlari tomonidan belgilangan tartibga muvofiq amalga oshirilgan hollarda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash majburiyati davlat soliq organining yozma talabnomasi olingan sanadan e’tiboran yuzaga keladi.

Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlari, shuningdek moliyaviy sanksiyalar byudjetga va davlat maqsadli jamg‘armalariga quyidagi tartibda o‘tkaziladi:

asosiy summa;

hisoblangan penya;

jarimalar.

Yuridik shaxsni tugatish to‘g‘risida qaror qabul qilingan taqdirda, ixtiyoriy tugatish hollari bundan mustasno, tugatuvchi besh kunlik muddat ichida bu haqda davlat soliq xizmati organiga yozma shaklda ma’lum qiladi. Yuridik shaxsni ixtiyoriy tugatish to‘g‘risida qaror qabul qilingan taqdirda, yuridik shaxslarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organ bu haqda davlat soliq xizmati organini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda xabardor etadi.

Yuridik shaxs davlat soliq xizmati organiga tugatish balansini taqdim etish bilan bir vaqtida hisobotlarni hamda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlari bo‘yicha hisob-kitoblarni taqdim etishi shart.

Yuridik shaxs tugatilgan taqdirda, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash bo‘yicha soliq majburiyati ushbu yuridik shaxsning pul mablag‘lari, shu jumladan uning mol-mulkini realizatsiya qilishdan olingan pul mablag‘lari hisobidan qonun hujjatlarida belgilangan navbat tartibida tugatuvchi tomonidan bajariladi.

Yuridik shaxsni tugatish davrida yuzaga keladigan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni, shuningdek penya va jarimalarni to‘lash bo‘yicha soliq majburiyati yuzaga kelishiga qarab, belgilangan muddatlarda hamda tartibda bajariladi.

Tugatilayotgan yuridik shaxsning uzilmagan soliq qarzi umidsiz deb e’tirof etiladi.

Agar tugatilayotgan yuridik shaxsda ortiqcha to‘langan soliqlar yoki boshqa majburiy to‘lovlari summasi bo‘lsa, mazkur summalar belgilangan tartibda hisobga olinishi yoki qaytarilishi lozim.

Yuridik shaxs iqtisodiy sud tomonidan bankrot deb topilgan taqdirda, tugatishga doir ish yuritishning butun davrida mol-mulk solig‘i, yer solig‘i, shuningdek avval hisoblangan va undirilmagan soliqlar hamda boshqa majburiy to‘lovlari bo‘yicha penya va jarimalar hisoblashni to‘xtatish turiladi.

Iqtisodiy sudning yuridik shaxsni bankrot deb topish to‘g‘risidagi qarori mol-mulk solig‘i, yer solig‘i, shuningdek avval hisoblangan va undirilmagan soliqlar hamda boshqa majburiy to‘lovlari bo‘yicha penya va jarimalar hisoblashni to‘xtatish uchun asos bo‘ladi.

Yuridik shaxs bankrotligi to‘g‘risidagi ishni yuritish tugatilgan va uning to‘lov qobiliyati tiklangan taqdirda, iqtisodiy sudning bankrotlik to‘g‘risidagi ishni yuritishni tugatish haqidagi

qarori qabul qilingan sanadan e'tiboran, ushbu moddaning yettinchi qismida nazarda tutilgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblash amalga oshiriladi.

Qayta tashkil etilgan yuridik shaxsning soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash bo'yicha soliq majburiyati belgilangan tartibda uning huquqiy vorisi (huquqiy vorislari) tomonidan bajariladi.

Qayta tashkil etilgan yuridik shaxsning soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash bo'yicha soliq majburiyatini bajarish, qayta tashkil etish tugallanganiga qadar huquqiy vorisga (huquqiy vorislarga) qayta tashkil etilayotgan yuridik shaxs soliq majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi faktlari va (yoki) holatlari ma'lum bo'lganligi yoxud ma'lum bo'lmaganligidan qat'i nazar, uning huquqiy vorisi (huquqiy vorislari) zimmasiga yuklatiladi.

Yuridik shaxsning qayta tashkil etilishi uning soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash bo'yicha soliq majburiyatlarining bajarilishi muddatlarini shu yuridik shaxsning huquqiy vorisi (huquqiy vorislari) uchun o'zgartirmaydi.

Huquqiy vorisni (huquqiy vorislarni), shuningdek huquqiy vorislarning yuridik shaxsning soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash bo'yicha soliq majburiyatlarini bajarishdagi ishtiroki ulushini belgilash qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Yuridik shaxs qayta tashkil etilguniga qadar u ortiqcha to'lagan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning summalarini shu yuridik shaxs huquqiy vorisining (huquqiy vorislarning) shaxsiy kartochkasiga yuridik shaxsni qayta tashkil etish tugallangan kundan e'tiboran bir oydan kechiktirmay o'tkazilishi kerak.

Yuridik shaxsning soliq qarzi yoki u qayta tashkil etilguniga qadar ortiqcha to'langan soliq yoki majburiy to'lov summalarini qayta tashkil etilgan yuridik shaxsning huquqiy vorislari o'rtasida taqsimlash har bir huquqiy vorisning ulushiga muvofiq amalga oshiriladi.

Vafot etgan jismoniy shaxsning soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyati uning meros qilingan mol-mulkini qabul qilgan merosxo'ri (merosxo'rlari) tomonidan, meros qilingan mol-mulkning qiymati doirasida va merosdagi ulushga mutanosib ravishda, meros qabul qilib olingan kundan e'tiboran bir yildan kechiktirmsandan bajariladi. Vafot etgan jismoniy shaxs to'lashi lozim bo'lgan penya va (yoki) jarimalarni to'lash majburiyati merosxo'rga (merosxo'rlarga) nisbatan tatbiq etilmaydi.

Vafot etgan jismoniy shaxsning soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash bo'yicha soliq majburiyati summasi meros qilingan mol-mulk qiymatidan ortiq bo'lgan taqdirda, vafot etgan jismoniy shaxsning soliq yoki boshqa majburiy to'lovni to'lash bo'yicha qarzining qolgan summasi umidsiz qarz deb e'tirof etiladi.

Merosxo'r bo'lmagan taqdirda, vafot etgan jismoniy shaxsning soliq qarzi umidsiz qarz hisoblanadi.

Soliq qarziga ega bo'lgan jismoniy shaxs vafot etgan taqdirda, jismoniy shaxs hisobga qo'yilgan va (yoki) uning mol-mulki turgan joydagi davlat soliq xizmati organi vafot etgan shaxsning merosxo'ri (merosxo'rlari) to'g'risida axborot olingan paytdan e'tiboran o'ttiz kun ichida unga (ularga) soliq qarzi borligini ma'lum qilishi shart.

Sud tomonidan bedarak yo'qolgan deb topilgan jismoniy shaxsning soliq qarzi qonun hujjatlariga muvofiq bedarak yo'qolgan shaxsning mol-mulkini boshqarish huquqiga ega bo'lgan shaxs tomonidan bedarak yo'qolgan shaxsning mol-mulki hisobidan bajariladi.

Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan jismoniy shaxsning soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyati uning vasiysi tomonidan muomalaga layoqatsiz shaxsning mol-mulki hisobidan bajariladi.

Beglangan tartibda bedarak yo'qolgan yoki muomalaga layoqatsiz deb topilgan jismoniy shaxsning mol-mulki yetarli bo'lmagan (yo'q bo'lgan) taqdirda, uning soliq qarzining ko'rsatilgan mol-mulk qiymatidan ortiq qismi umidsiz qarz deb e'tirof etiladi.

Jismoniy shaxsning bedarak yo'qolgan yoki muomalaga layoqatsiz deb topilganligini bekor qilish to'g'risida belgilangan tartibda qaror qabul qilingan yoki jismoniy shaxsni muomalaga layoqatli deb topish to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda, ilgari hisobdan chiqarilgan soliq qarzining amal qilishi, da'vo qilish muddatidan qat'i nazar, qayta tiklanadi.

Vafot etgan jismoniy shaxsning jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini, qat’iy belgilangan soliqni va fuqarolarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga sug‘urta badallarini to‘lash bo‘yicha qarzi umidsiz qarz deb e’tirof etiladi.

Banklar soliq to‘lovchining soliqni va (yoki) boshqa majburiy to‘lovnin o‘tkazishga doir to‘lov topshiriqnomalarini, shuningdek tegishli vakolatlari organning soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni qonun hujjatlarida belgilangan navbat tartibida undirish to‘g‘risidagi inkasso topshiriqnomalarini belgilangan tartibda bajarishi shart.

Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni summalarini tegishli byudjet yoki davlat maqsadli jamg‘armasining hisobvarag‘iga kiritish soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni o‘tkazish deb e’tirof etiladi.

Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni o‘tkazishga doir to‘lov topshiriqnomasi yoki ularni tegishli byudjet yoxud davlat maqsadli jamg‘armasiga undirish to‘g‘risidagi tegishli vakolatlari organning inkasso topshiriqnomasi, to‘lov topshiriqnomasi yoki inkasso topshiriqnomasi olinganidan keyingi operatsiya kunidan kechiktirmay ushbu moddaning to‘rtinchini va beshinchi qismlari qoidalari bank tomonidan inobatga olingan holda bajariladi. Inkasso topshiriqnomasiga doir bunday operatsiyalar bo‘yicha xizmat ko‘rsatganlik uchun haq olinmaydi.

Soliq to‘lovchining hisobvarag‘ida pul mablag‘lari bo‘lgan taqdirda, banklar soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni o‘tkazish to‘lov topshiriqnomalarini yoki tegishli vakolatlari organning ularni tegishli byudjetga yoki davlat maqsadli jamg‘armasiga undirish to‘g‘risidagi inkasso topshiriqnomalarini bajarishni kechiktirishga haqli emas.

Soliq to‘lovchining hisobvaraqlarida pul mablag‘lari bo‘lmagan yoki ular soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni summasini o‘tkazish to‘lov topshiriqnomasini yoki tegishli vakolatlari organning ularni tegishli byudjetga yoki davlat maqsadli jamg‘armasiga undirish to‘g‘risidagi inkasso topshiriqnomasini bajarish uchun yetarli bo‘lmagan taqdirda, bunday topshiriqnomalar mazkur hisobvaraqlarga pul mablag‘lari kelib tushishiga qarab, har bir shunday kelib tushishdan keyingi operatsiya kunidan kechiktirmay qonun hujjatlarida belgilangan navbat tartibida bajariladi.

Bankning aybi bilan soliq to‘lovchining soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni summasini o‘tkazish topshiriqnomasi, tegishli vakolatlari organning ularni undirish to‘g‘risidagi inkasso topshiriqnomasi bajarilmagan (bajarilishi kechiktirilgan) taqdirda, bankdan har bir kechiktirilgan kun uchun soliqlar va boshqa majburiy to‘lovchining o‘tkazilmagan summasini 0,5 foizi miqdorida belgilangan tartibda penya undiriladi.

Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashni kechiktirish va (yoki) bo‘lib-bo‘lib to‘lash:

soliq majburiyatlarini bajarish muddatlarini o‘zgartirish hisobidan soliq ta’tillari tarzida beriladi va bunda soliq to‘lovchiga to‘lashi kerak bo‘lgan tegishli soliq to‘lovlarni ma’lum bir muddat davomida kamaytirish va keyinchalik to‘lash imkoniyati taqdim etiladi;

soliq qarzini bir yo‘la yoki bosqichma-bosqich to‘lagan holda to‘lash muddatini keyinroq muddatga ko‘chirish tarzida beriladi.

Soliq ta’tillari:

vaqtinchalik moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelgan insofli soliq to‘lovchilarga — soliq ta’tili berish to‘g‘risida tegishli qaror qabul qilingan kundan e’tiboran yigirma to‘rt oygacha bo‘lgan muddatga beriladi. Insofli soliq to‘lovchilarga oxirgi ikki yil ichida soliq majburiyatlarini o‘z vaqtida va to‘liq bajarib kelgan soliq to‘lovchilar kiradi;

yagona soliq to‘lovini to‘lovchilarga yagona soliq to‘lovini to‘lash bo‘yicha davlat ro‘yxatidan o‘tgan paytdan e’tiboran bir yilgacha bo‘lgan muddatga beriladi.

Soliq qarzini to‘lashni kechiktirish va (yoki) bo‘lib-bo‘lib to‘lash bir oydan yigirma to‘rt oygacha bo‘lgan muddatga beriladi. Bunda soliq qarzini to‘lashni kechiktirish va (yoki) bo‘lib-bo‘lib to‘lash soliq qarzining jamiga yoki bir qismiga nisbatan amalga oshirilishi mumkin.

Insofli soliq to‘lovchilarga soliq ta’tillari, shuningdek soliq qarzini to‘lashni kechiktirish va (yoki) bo‘lib-bo‘lib to‘lash O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi yoki u vakolat bergen organ tomonidan beriladi.

Yagona soliq to'lovini to'lovchilarga soliq ta'tillari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan tartibda davlat soliq xizmati organlari tomonidan beriladi.

Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar davlat soliq xizmati organiga yozma bildirish, shu jumladan soliq to'lovchining shaxsiy kabineti orqali bildirish yuborib, tekshiruvlar natijalari bo'yicha qo'shimcha hisoblangan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni, shuningdek moliyaviy sanksiyalar summalarini to'lashni ularning undirilishi to'g'risida qaror qabul qilingan kundan e'tiboran olti oy ichida teng ulushlarda to'lashga haqli.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni bo'yicha penya hisoblash tegishli soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni bo'yicha qarzni to'lashni kechiktirish va (yoki) bo'lib-bo'lib to'lashning amal qilish davri boshlanganidan e'tiboran to'xtatib turiladi.

Bojxona to'lovlarni va davlat bojini to'lashga nisbatan tatbiq etilmaydi. Bojxona to'lovlarni va davlat bojini to'lashni kechiktirish va (yoki) bo'lib-bo'lib to'lash bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarida hamda boshqa qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va asoslarda amalgga oshiriladi.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lashni kechiktirish va (yoki) bo'lib-bo'lib to'lashning amal qilishi u berilgan muddat o'tganidan keyin tugaydi.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni kechiktirish va (yoki) bo'lib-bo'lib to'lashning amal qilishi soliq to'lovchi kechiktirilgan va (yoki) bo'lib-bo'lib to'lanadigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning jami summasini kechiktirish va (yoki) bo'lib-bo'lib to'lash muddati o'tguniga qadar to'lagan yoki soliq to'lovchi kechiktirish va (yoki) bo'lib-bo'lib to'lash shartlarini buzgan hollarda muddatidan ilgari tugatiladi.

Soliqning byudjetga to'langan hamda to'lash uchun hisoblangan summasi o'rtasidagi ijobiy farq soliqning ortiqcha to'langan summasi deb e'tirof etiladi.

Ortiqcha to'langan summa soliq qarzini quyidagi ketma-ketlikda uzish hisobga olinishi kerak:

- 1) soliqning mazkur turi bo'yicha penya va jarimalarni uzish hisobiga;
- 2) boshqa turdag'i soliqlar bo'yicha qarzni uzish hisobiga;
- 3) boshqa turdag'i soliqlar bo'yicha penya va jarimalarni uzish hisobiga;
- 4) mazkur soliq bo'yicha kelgusi to'lovlarni uzish hisobiga;
- 5) boshqa turdag'i soliqlar bo'yicha kelgusi to'lovlarni uzish hisobiga.

Ortiqcha to'langan soliq summasini mazkur soliq turi bo'yicha penya va jarimalarni uzish hisobga olinishi olish davlat soliq xizmati organi tomonidan mustaqil ravishda soliq to'lovchining arizasisiz amalgga oshiriladi, soliq to'lovchi bu haqda hisobga olinishi oshirilgan kundan e'tiboran uch ish kuni ichida yozma shaklda, shu jumladan soliq to'lovchining shaxsiy kabineti orqali xabardor etiladi.

Ortiqcha to'langan soliqni hisobga olinishi soliq to'lovchining yozma arizasi, shu jumladan soliq to'lovchining shaxsiy kabineti orqali yuboriladigan arizasi asosida davlat soliq xizmati organi tomonidan hisobga olinishi amalgga oshirish to'g'risida xulosa taqdim etilgan taqdirda tegishli moliya organlari tomonidan amalgga oshiriladi. Davlat soliq xizmati organi soliq to'lovchi tomonidan yozma ariza, shu jumladan soliq to'lovchining shaxsiy kabineti orqali yuboriladigan ariza berilgan sanadan e'tiboran uch ish kuni ichida moliya organlariga hisobga olinishi amalgga oshirish to'g'risida xulosa taqdim etishi shart.

Soliq to'lovchi soliq hisoboti taqdim etilgan sanadan e'tiboran o'n kun ichida yozma ariza, shu jumladan soliq to'lovchining shaxsiy kabineti orqali yuborilgan ariza bermagan taqdirda, davlat soliq xizmati organi tegishli moliya organlariga ushbu modda ikkinchi qismining 2 va 3-bandlarida nazarda tutilgan hisobga olinishi amalgga oshirish to'g'risida mustaqil ravishda xulosa taqdim etishi mumkin.

Ortiqcha to'langan soliq summasini hisobga olinishi bu xususda xulosa berilgan sanadan e'tiboran o'n ish kuni ichida amalgga oshiriladi.

Ortiqcha to'langan soliq summasi boshqa soliq to'lovchining soliq qarzini uzish hisobga olinishi mumkin emas.

Nazarda tutilgan tartibda hisobga olish amalga oshirilganidan keyin ortiqcha to‘langan soliqlarning qolgan summasi soliq to‘lovchining bankdagi hisobvarag‘iga pul mablag‘larini o‘tkazish orqali qaytarilishi kerak.

Ortiqcha to‘langan soliq summalarini qaytarish davlat soliq xizmati organi qaytarish uchun soliq to‘lovchining yozma arizasi, shu jumladan soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti orqali yuborilgan arizasi asosida xulosa taqdim etgan taqdirda, qaytarish to‘g‘risidagi ariza topshirilgan sanadan e’tiboran o‘n besh ish kuni ichida tegishli moliya organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Boshqa majburiy to‘lovlarning to‘langan va to‘lash uchun hisoblangan summasi o‘rtasidagi ijobjiy farq boshqa majburiy to‘lovlarning ortiqcha to‘langan summasi deb e’tirof etiladi.

Boshqa majburiy to‘lovlarni hisobga olish hamda qaytarish normativ-huquqiy hujjalarda belgilangan tartibda tegishli vakolatli organlar tomonidan amalga oshiriladi.

Bojxona to‘lovlarning ortiqcha to‘langan summalarini hisobga olish va qaytarish bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjalarda belgilangan tartibda bojxona organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Ortiqcha to‘langan boshqa majburiy to‘lovlar summalarini qaytarish ortiqcha to‘langan summa qaysi byudjetga yoki davlat maqsadli jamg‘armasiga o‘tkazilgan bo‘lsa, o‘sha byudjet yoki davlat maqsadli jamg‘armasi mablag‘laridan soliq to‘lovchining yozma arizasi, shu jumladan soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti orqali yuborilgan arizasi asosida, zimmasiga majburiy to‘lovlarni undirib olish majburiyati yuklatilgan organlarga tegishli ariza berilgan sanadan e’tiboran o‘n besh ish kuni ichida amalga oshiriladi.

Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash bo‘yicha bajarilmagan majburiyatları bo‘lgan soliq to‘lovchi o‘zining bank hisobvarag‘ida pul mablag‘lari mavjud bo‘lishidan qat’i nazar, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni belgilangan to‘lash muddatidan kechiktirmay ularni xizmat ko‘rsatayotgan bankka to‘lash uchun to‘lov topshiriqnomasini taqdim etishi shart.

Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash majburiyatları bajarilishini ta’minalash choralarini jumlasiga quyidagilar kiradi:

yuridik shaxslar, shuningdek tadbirkorlik faoliyatiga doir qism bo‘yicha yakka tartibdagagi tadbirkorlar uchun — soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash muddati tugaganidan keyin uch ish kunidan kechiktirmasdan davlat soliq xizmati organi tomonidan ularga yuboriladigan soliq qarzini to‘lash to‘g‘risidagi talabnama;

jismoniy shaxslar uchun, bundan tadbirkorlik faoliyatiga doir qism bo‘yicha yakka tartibdagagi tadbirkorlar mustasno, — soliq majburiyatlarini bajarish muddatlari tugaganidan keyin davlat soliq xizmati organining jismoniy shaxsdan soliq qarzini undirish to‘g‘risidagi ariza bilan sudga murojaat qilishi, bundan soliq qarzining summasi undiruvni mol-mulkka qaratish uchun qonun hujjalarda belgilangan eng kam miqdordan oz bo‘lgan hollar mustasno. Bunda soliq qarzining summasi undiruvni mol-mulkka qaratish uchun qonun hujjalarda belgilangan eng kam miqdordan oz bo‘lgan, biroq to‘lash muddati tugaganidan keyin bir yil ichida to‘lanmagan taqdirda ham soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash majburiyatlarining bajarilishini ta’minalash choralarini qo‘llaniladi.

Soliq qarzini uzish to‘g‘risidagi talabnama yozma shaklda, shu jumladan elektron shaklda rasmiylashtiriladi va unda quyidagilar ko‘rsatilishi kerak:

1) soliq to‘lovchining familiyasi, ismi, otasining ismi yoki to‘liq nomi;

2) soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami;

3) talabnomani tuzilgan sana;

4) talabnomani yuborish vaqtida hisoblangan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlari, penya, jarimalar bo‘yicha qarz summasi;

5) talabnomani olinganidan so‘ng soliq majburiyati bajarilmagan taqdirda qo‘llaniladigan majburiy undirish choralarini va muddatlari;

6) debtorlar bilan o‘zaro hisob-kitoblar solishtirma dalolatnomasini taqdim etish to‘g‘risidagi ko‘rsatma.

Soliq qarzini uzish to‘g‘risidagi talabnomani soliq to‘lovchiga yoki uning vakiliga bu talabnomani soliq to‘lovchi olganligini va talabnomani olingan sanani tasdiqlovchi usulda topshirilishi lozim. Soliq to‘lovchida soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti mayjud bo‘lgan taqdirda,

soliq qarzini uzish to‘g‘risidagi talabnama unga soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti orqali yuborilishi mumkin.

Soliq qarzini uzish to‘g‘risidagi talabnama pochta orqali buyurtma xat bilan yuborilgan taqdirda, u buyurtma xat pochta jo‘natmasi topshirilganligi to‘g‘risidagi bildirish blankasida ko‘rsatilgan sanada olingan deb hisoblanadi.

Soliq qarzini uzish to‘g‘risidagi talabnomaning shakli O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan tasdiqlanadi.

Soliq qarzini uzish to‘g‘risidagi talabnama yuridik shaxs, shuningdek tadbirkorlik faoliyatiga doir qism bo‘yicha yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan olingan kundan e’tiboran o‘n kun ichida yuridik shaxs, shuningdek tadbirkorlik faoliyatiga doir qism bo‘yicha yakka tartibdagi tadbirkor soliq qarzini uzmagan taqdirda va nazarda tutilgan choralar ni qo‘llash natijasida soliq qarzi uzilmay qolaversa, davlat soliq xizmati organlari undiruvni belgilangan tartibda soliq to‘lovchiga uning debitorlari o‘tkazishi lozim bo‘lgan summalarga qaratadi.

Yuridik shaxs, shuningdek tadbirkorlik faoliyatiga doir qism bo‘yicha yakka tartibdagi tadbirkor soliq qarzini uzish to‘g‘risidagi talabnomani olgan kundan e’tiboran o‘ttiz kun ichida soliq qarzini uzmagan taqdirda va agar ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan choralar ni qo‘llash natijasida mol-mulkka qaratish uchun qonun hujjatlarida belgilangan eng kam miqdordan ko‘p bo‘lgan summadagi soliq qarzi uzilmay qolsa, davlat soliq xizmati organlari undiruvni belgilangan tartibda soliq to‘lovchining mol-mulkiga qaratadi.

Barcha davlatlarda soliqlarni to‘lash bo‘yicha soliq to‘lovchining majburiyatlarini bajarilishini ta‘minlash o‘ziga xos bo‘lgan usullarda amalga oshiriladi. Har qanday holatlarda soliq to‘lovlar amalga oshirilgandan keyin shakllangan ortiqcha to‘lov summalarini soliq to‘lovchiga qaytarib beriladi. Masalan AQSH davlatida ortiqcha to‘langan soliq summasi 30 kun ichida qaytarib beriladi⁶.

Soliq qarzining summasi undiruvni mol-mulkka qaratish uchun qonun hujjatlarida belgilangan eng kam miqdordan oz bo‘lgan, biroq to‘lash muddati tugaganidan keyin bir yil ichida to‘lamagan hollarda ham ushbu moddaning ikkinchi qismida belgilangan undiruvni soliq to‘lovchining mol-mulkiga qaratish choralar ni qo‘llaniladi.

Soliq qarzini majburiy undirish choralariga quyidagilar kiradi:

soliq qarzini soliq to‘lovchining bankdagi hisobvaraqlaridan so‘zsiz undirish;

undiruvni soliq to‘lovchiga uning debitorlari o‘tkazishi lozim bo‘lgan summalarga qaratish;

undiruvni soliq to‘lovchining mol-mulkiga qaratish.

Yuridik shaxs, shuningdek tadbirkorlik faoliyatiga doir qism bo‘yicha yakka tartibdagi tadbirkor yoki yakka tartibdagi tadbirkor maqomini yo‘qotgan jismoniy shaxs soliq qarzini ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan barcha choralar ko‘rilganidan keyin uzmagan taqdirda, davlat soliq xizmati organi uni bankrot deb topish to‘g‘risidagi ariza bilan sudga murojaat etadi.

Soliq qarzini majburiy undirish choralar ni jismoniy shaxslarga nisbatan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sud hujjatlari asosida sud ijrochilar tomonidan qo‘llaniladi, bundan tadbirkorlik faoliyatiga doir qism bo‘yicha yakka tartibdagi tadbirkorlar mustasno.

Soliq tekshirushi natijalari bo‘yicha qo‘srimcha hisoblangan soliq qarzi summalarini majburiy undirish choralar ni soliq to‘lovchi tomonidan uning natijalari bo‘yicha berilgan shikoyat davriga to‘xtatib turiladi.

Soliq to‘lovchining bankdagi hisobvaraqlaridan soliq qarzini so‘zsiz undirish, soliq to‘lovchining talab qilib olinguncha saqlanadigan depozit hisobvarag‘iga xizmat ko‘rsatayotgan bankka davlat soliq xizmati organining soliq qarzi summasini tegishli byudjetga yoki davlat maqsadli jamg‘armasiga o‘tkazish to‘g‘risidagi inkasso topshiriqnomasini taqdim etish orqali amalga oshiriladi.

Soliq qarzi summasini o‘tkazish to‘g‘risidagi inkasso topshiriqnomalari soliq va boshqa majburiy to‘lovlar ni to‘lash muddati tugaganidan keyin uch ish kunidan kechiktirmay davlat soliq xizmati organlari tomonidan taqdim etiladi;

⁶ Federal taxation: practice and procedure. Robert E., Richard J. Chicago, 2017.987p. (510p.)

Soliq to‘lovchining hisobvarag‘ida pul mablag‘lari bo‘limganligi yoki yetarli bo‘limganligi tufayli davlat soliq xizmati organining inkasso topshiriqnomasi to‘liq yoki qisman bajarilmagan taqdirda, inkasso topshiriqnomasi olingan kundan e’tiboran uch kunlik muddatda uning nusxasi bankning belgisi qo‘yilib, davlat soliq xizmati organiga va soliq to‘lovchiga yuboriladi. Agar inkasso topshiriqnomasini taqdim etish paytida soliq to‘lovchi soliq qarzining summasini o‘tkazish uchun to‘lov topshiriqnomasini bankka topshirgan bo‘lsa, bank taqdim etilgan inkasso topshiriqnomasini soliq to‘lovchining to‘lov topshiriqnomasi nusxasini ilova qilgan holda davlat soliq xizmati organiga qaytaradi.

Soliq qarzi summasini undirish soliq to‘lovchining barcha bank hisobvaraqlarida turgan pul mablag‘laridan amalga oshiriladi, qonun hujjatlariga muvofiq undiruv qaratish mumkin bo‘limgan hisobvaraqlar bundan mustasno.

Ko‘rsatilgan muddat ichida soliq qarzini umzagan yuridik shaxslar soliq qarzini uzish to‘g‘risidagi talabnomani olgan kundan e’tiboran o‘n kun ichida davlat soliq xizmati organlariga debtorlar bilan o‘zaro hisob-kitoblarning solishtirma dalolatnomalarini yoxud to‘lov muddati o‘tgan debtorlik qarzi mavjud emasligi to‘g‘risida yozma bildirish, shu jumladan soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti orqali yuboriladigan bildirish taqdim etishi shart.

Davlat soliq xizmati organlari debtorlar bilan o‘zaro hisob-kitoblarning solishtirma dalolatnomalarini olgan kundan e’tiboran uch ish kunidan kechiktirmay undiruvni soliq to‘lovchiga uning debtorlaridan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan summaga qaratadi.

Debitorlar o‘zaro hisob-kitoblarning solishtirma dalolatnomalariga imzo qo‘yishni asossiz rad etgan taqdirda, soliq to‘lovchi bir tomonlama imzolangan solishtirma dalolatnomalarni debtorlik qarzi mavjudligini tasdiqlovchi hujatlarni ilova qilgan holda davlat soliq xizmati organlariga taqdim etish huquqiga ega.

Soliq to‘lovchi bir tomonlama imzolangan o‘zaro hisob-kitoblarning solishtirma dalolatnomasini taqdim etgan taqdirda, davlat soliq xizmati organi soliq to‘lovchining debitoriga uning kreditorlik qarzi borligi haqida imzolash uchun soliq to‘lovchi tomonidan taqdim etilgan solishtirma dalolatnomani va kreditorlik qarzi mavjudligini tasdiqlovchi hujatlarning ko‘chirma nusxalarini ilova qilgan holda yozma bildirish, shu jumladan soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti orqali bildirish yuboradi.

Soliq to‘lovchining debitori yozma bildirish, shu jumladan soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti orqali bildirish olingan kundan e’tiboran uch ish kuni ichida o‘zaro hisob-kitoblarning solishtirma dalolatnomasini imzolash yoki solishtirma dalolatnomada ko‘rsatilgan qarzning mavjud emasligini asoslagan holda rad javobini taqdim etishi shart. Agar soliq to‘lovchining debitori tomonidan tan olingan qarz summasi solishtirma dalolatnomada ko‘rsatilganidan farq qilsa, debitor xuddi shu muddatda davlat soliq xizmati organiga o‘zi tan olgan summani ko‘rsatgan holda solishtirma dalolatnomani taqdim etishi shart.

Soliq to‘lovchining debitori tomonidan imzolangan o‘zaro hisob-kitoblarning solishtirma dalolatnomasi kreditorning imzosi mavjud bo‘lishidan qat‘i nazar, uning kreditori soliq qarzini undiruvni unga qaratishi uchun asos bo‘ladi. Ushbu moddaning beshinchi qismida belgilangan majburiyat soliq to‘lovchining debitori tomonidan bajarilmagan taqdirda, undiruv soliq to‘lovchi taqdim etgan solishtirma dalolatnomasi asosida amalga oshiriladi.

Soliq to‘lovchi bilan uning debitori o‘rtasidagi o‘zaro hisob-kitoblarning solishtirma dalolatnomasida quyidagi ma’lumotlar ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak:

soliq to‘lovchi va uning debitorining nomi, ularning identifikatsiya raqami;

soliq to‘lovchi va uning debitori soliq hisobida turgan joydagi davlat soliq xizmati organining nomi;

soliq to‘lovchi va uning debitorining bankdagi hisobvaraqlari rekvizitlari;

debitorning soliq to‘lovchi oldidagi qarz summasi;

soliq to‘lovchi va uning debitorining taraflar muhri bilan (muhr mavjud bo‘lgan taqdirda) tasdiqlangan imzolari;

soliq to‘lovchi va uning debitori o‘rtasida o‘zaro hisob-kitoblarning solishtirma dalolatnomasi tuzilgan sana.

Soliq to'lovchi va uning debitori o'rtasidagi o'zaro hisob-kitoblarning solishtirma dalolatnomasi soliq qarzini uzish to'g'risidagi talabnama davlat soliq xizmati organi tomonidan yuborilgan sanadan keyin keladigan sanada tuzilgan bo'lishi lozim.

Davlat soliq xizmati organi o'zaro hisob-kitoblarning solishtirma dalolatnomasi asosida debtorlarning bank hisobvaraqlariga soliq to'lovchining soliq qarzi summasini soliq to'lovchi oldidagi qarzidan oshmaydigan miqdorda undirish to'g'risidagi inkasso topshiriqnomasini taqdim etadi.

Davlat soliq xizmati organining ushbu moddaga muvofiq taqdim etilgan inkasso topshiriqnomasini bajarish belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Undiruvni soliq to'lovchining mol-mulkiga qaratish davlat soliq xizmati organining da'vo arizasi asosida sud tartibida amalga oshiriladi.

Undiruvni soliq to'lovchining mol-mulkiga qaratish to'g'risidagi da'vo arizasi yozma shaklda, shu jumladan elektron shaklda rasmiylashtiriladi unda soliq qarzdorligi hosil bo'lgan soliq davri ko'rsatiladi va soliq to'lovchi soliq hisobiga qo'yilgan joydagi davlat soliq xizmati organining rahbari yoki rahbar o'rinnbosari tomonidan imzolanadi. Da'vo arizasiga quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

soliq qarzi borligi to'g'risida soliq to'lovchining mavjud shaxsiy kartochkalaridan ko'chirma; to'lov topshiriqnomalari, to'lov talabnomalari va inkasso topshiriqnomalari mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotnoma.

Undiruvni sud hujjatlari asosida soliq to'lovchining mol-mulkiga qaratish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sud ijrochilar tomonidan amalga oshiriladi.

Soliq qarzini undirish uchun sud ijrochilar tomonidan inkasso topshiriqnomalari qo'yilayotganda davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliq qarzining shunga o'xshash summasiga qo'yilgan inkasso topshiriqnomalarining ijrosi bekor qilinadi.

6. MAVZU. "SOLIQ TO'LOVCHILAR TOMONIDAN SOLIQ MAJBURIYATINI BAJARISH TARTIBI VA SOLIQ QARZINI UNDIRISHNI TASHKIL ETISH" ЮЗАСИДАН КЕЙСЛАР ТҮПЛАМИ, АМАЛИЙ ТОПШИРИҚЛАР, ИШЛАНМАЛАР

Reja:

1. Soliq majburiyati va uni bajarish
2. Soliq hisoboti tushunchasi va u bilan bog'liq soliq majburiyatlar
3. Soliq qarzi va uni undirish tartibi.

Talabalarga beriladigan savollar ro'yxati:

1. Soliq majburiyati nima?
2. Soliq majburiyati qanday tartibda bajariladi?
3. Qachon soliq majburiyati tugagan deb hisoblanadi?
4. Soliq majburiyatini bajarish muddatlari qanday belgilanadi?
5. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lashni ma'lum mudatga kechiktirib to'lashga yoki bo'libg'bo'lib to'lashga ruhsat qanday tartibda beriladi?
6. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning ortiqcha to'langan summalarini hisobga olish hamda qaytarib berish qanday tartibda amalga oshiriladi?
7. Soliq qarzini uzish to'g'risidagi talabnama nima va u qanday rasmiylashiriladi?
8. Qanday soliq qarzini majburiy undirish choralarini bilasiz?



- Undiruvni soliq to‘lovchiga uning debitorlaridan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan summalarga qaratish qanday tartibda amalga oshiriladi?
- Undiruvni soliq to‘lovchining molg‘mulkiga qaratish qanday tartibda amalga oshiriladi?

Auditoriyani faollashtirish uchun beriluvchi savollar:

- Soliq majburiyati va soliq tushumlari hisobi o‘rtasida qanday bog‘lanish mavjud?
- Soliq majburiyatining soliq tushumlarini prognozlashda qanday ahamiyatga ega?

1-topshiriq.

1-KEYS-STADI Kirish

Tavsiya etilgan keysni yechish quyidagi natijalarga erishishga imkon yaratadi:

- o‘zlashtirilgan mavzu bo‘yicha bilimlarni mustahkamlash;
- mantiqiy fikrlashni rivojlantirish;
- soliq to‘lovchilar tomonidan soliq majburiyatini bajarish tartibi va soliq qarzini undirishni tashkil etish borasida mustaqil ravishda qaror qabul qilish ko‘nikmalarini egallash;
- soliq to‘lovchilar tomonidan soliq majburiyatini bajarish tartibi va soliq qarzini undirishni tashkil etish uslubiyatini qo‘llash qobiliyatini tekshirish.

VAZIYAT

“Kvant” MCHJ 2014 yilda tashkil topgan va u Toshkent shahrining Chilonzor tumanida ro‘yxatdan o‘tgan. Korxona trikotash tovarlar ilab chiqarish bilan shug‘illanadi. 2017 yilda biznesni noto‘g‘ri rejalashtirish natijasida “Kvant” MCHJ o‘zining moliyaviy xo‘jalik faoliyatida bir qancha qiyinchiliklarga duch keldi. Buning natijasida 2017 yil moliyaviy davrda soliqlar bo‘yicha korxonaning debitorlik va kreditorlik qarzlari shakllandi:

soliqlar	Debitorlik qarzi	Kreditorlik qarzi
Qo‘shilgan qiymat solig‘i		12,0
Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	17,0	
Obodonlashtirish va ijtimoiy infratizilmani rivojlantirish solig‘i		2,3
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	5,0	
Molg‘mulk solig‘i	7,0	
Yer solig‘i	12,0	
Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq		3,3

Korxona bugungi kunga qadar soliq to‘lovleri bo‘yicha byudjet oldidagi majburiyatini uzmagan. Buning natijasida yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i bo‘yicha -3,2 mln.so‘m, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bo‘yicha -1,5 mln.so‘m, molg‘mulk solig‘i bo‘yichag‘4,0 mln.so‘m, yer solig‘i bo‘yicha -5,4 mln.so‘m peniya shakllangan.

SAVOLLAR VA TOPSHIRIQLAR:

- korxona tomonidan o‘z soliq majburiyatini bajarish holatiga qanday baho berigan bo‘lar edingiz?
- Nima deb o‘ylaysiz, nimaga korxonada soliq to‘lovleri bo‘yicha soliq majburiyati yuzaga keldi?
- Korxonaning soliq to‘lovleri bo‘yicha soliq majburiyati qanday tartibda bajarilishi kerak? Nima taklif qilasiz?
- Bugungi kunda korxonalar tomonidan soliq majburiyatini samarali bajarilishini taminlashda qanday muammolar mavjud?

2-topshiriq.

“Aqliy hujum” strategiyasidan foydalangan holda soliq majburiyatini samarali bajarish muammolarini aniqlang va ularni yechimi yuzasidan tavsiyalash ishlab chiqing.

“Aqliy hujum” strategiyasini qo’llash bo‘yicha tavsiyalar

Strategiya talabalarni mavzu xususida keng va har tomonlama fikr yuritish, o‘z tasavvurlari, g‘oyalardan ijobiy foydalanishga doir ko‘nikma, malakalarni hosil qilishga rag‘batlantiradi. U yordamida tashkil etilgan mashg‘ulotlarda ixtiyoriy muammolar yuzasidan bir necha orginal (o‘ziga xos) yechimlarni topish imkoniyati tug‘iladi. Strategiya mavzu doirasida ma’lum qarashlarni aniqlash, ularga muqobil g‘oyalarni tanlash uchun sharoit yaratadi.

Mashg‘ulotda strategiyani qo’llashda quyidagilarga e’tibor qaratish lozim:

Talabalarni muammo doirasida keng fikr yuritishga
undash, ular tomonidan mantiqiy fikrlarning bildirilishiga erishish

Har bir talaba tomonidan bildirilayotgan fikrlar
rag‘batlantirilib boriladi, bildirilgan fikrlar orasidan
eng maqbullari tanlab olinadi; fikrlarning
rag‘batlantrilishi navbatdagi yangi fikrlarning
tug‘ilishiga olib keladi

Har bir talaba o‘zining shaxsiy fikrlariga asoslanishi
va ularni o‘zgartirishi mumkin; avval bildirilgan
fikrlarni umumlashtirish, turkumlashtirish yoki ularni
o‘zgartirish ilmiy asoslangan fikrlarning
shakllanishiga zamin hozirlaydi

Mashg‘ulotda talabalar faoliyatini standart talablar asosida nazorat qilish, ular tomonidan bildiriladigan fikrlarni
baholashga yo‘l qo‘yilmaydi (zero, fikrlar baholanib borilsa,
talabalar diqqatlarini shaxsiy fikrlarni himoya qilishga qaratadi, oqibatda yangi fikrlar
ilgari surilmaydi; metodni qo‘llashdan ko‘zlangan asosiy maqsad talabalarni muammo
bo‘yicha keng fikr yuritishga undash ekanligini yodda tutib, ularni baholab borishdan voz kechishdir)

Foydalilanildigan adabiyotlar royxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiysi to‘g‘risida. 2018 yil 29 iyun. Elektron- huquqiy baza.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 488 b.
3. Mirziyoyev Sh.M.Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 104 b.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Soliq ma’muriatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarining yig‘iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. 2017 yil 18 iyul, pf-5116-son. Elektron-huquqiy baza.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy erkinligini oshirish, mahalliy byudjetlarga tushumlarning to‘liqligini ta’minlash bo‘yicha soliq va moliya organlari javobgarligini kuchaytirishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida. 2017 yil 13 dekabr, PF-5283-son. Elektron-huquqiy baza.
6. Распоряжение Президента Республики Узбекистан. Об организации критического изучения деятельности финансовых, налоговых и таможенных органов. 16 января 2018 г. № р-5182. Электронно-правовая база.
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini huquqiy tartibga solishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida. 2017 yil 28 avgust, 677-son. LEX.UZ. Elektron-huquqiy baza.
8. Абдуганиева Г.К., Бабабекова Н.Б. Прогнозирование налогов. Учебное пособие. – Т.: “Тафаккур-Бўстони”, 2012. - 224 с.

9. Doschanova N.P. Soliq statistikasi va prognozi. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Ren-Poligraf” bosmaxonasi, 2009. – 216 b.
10. Vahobov A.V,Jo‘rayev A.S Soliqlar va soliqqa tortish.Darslik.T: “Sharq”, 2009. -448 b.
11. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. “Norma” huquqiy bazasi.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 iyuldagи “Soliq ma’muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to’lovlarining yig‘iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5116-sonli Farmoni. Xalq so‘zi» gazetasi. 2017 yil 19 iyuldagи 141 (6835)-son.
13. Malikov T.S., Jalilov P.T. Byudjet-soliq siyosati. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Akademnashr”, 2011. - 472 b.
14. Haydarov N.H. Soliqlar va soliqqa tortish masalalari. O‘quv qo‘llanma. AkademiY. - T.: 2007. - 214 b.;
15. Yax’yoyev Q. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. Darslik. Toshkent. 2003. 246 bet.
16. Zavalishina I.A. Soliqlar: nazariya va amalyot. “Iqtisodiyot va huquq dunyosi” nashriyot uyi, 2005. 544 bet.
17. Jo‘rayev A, S. Shirinov. Soliq statistikasi va prognozi: O‘quv qo‘llanma, T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2015.-392b.
18. Eshboyev T.T. Yuridik shaxslarni soliqqa tortish. Darslik. T: “Cho‘lon” 2013, 296 bet
19. O‘rmonov J. Kichik biznes subektlarini soliqqa tortishni takomillashtirishning dolzarb masalalari. –T.: El-Press. 2011. – 132b.
20. Musagaliyev A. Yuridik shaxslarni soliqqa tortishni takomillashtirishning dolzarb masalalari. Soliq akademiyasi. Monografiya, Toshkent: 2010, 116 bet.
21. Tagayev A., Xoshimoto F., Ro‘ziyev G‘., Xotamov K. Soliq nazorati.- T.:O‘quv qo‘llanma, “Yangi asr avlodi”, 2010.
22. A.Xomma, A.Tangirqulov, Sh.Toshmatov, I.Norqo‘ziyev va N.Roziqovlar. Soliq qarzi va uni undirish. O‘quv qo‘llanma. - T.: O‘quv qo‘llanma, “Yangi asr avlodi”, 2011.
23. I.Xabibullayev, G.Mansurova, Soliq statistikasining nazariy asoslari. O‘quv qo‘llanma - T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi», 2005.
24. Forecasting Scottish taxes. The National Archives, Kew, London TW9 4DU. Crown copyright 2017. 25p/(20p.).
25. Federal taxation: practice and procedure. Robert E., Richard J. Chicago, 2017.987p. (252p.).
26. Tax analysis and revenue forecasting. Issues and Techniques. By Glenn P. Jenkins Chun-Yan Kuo Gangadhar P. Shukla. Harvard Institute for International Development Harvard University . 2017. 187 p.(2p.).
27. An Analysis of Tax Revenue Forecast Errors. Martin Keene and Peter Thomson. New Zealand treasury working paper 07/02. 2017.41p.(2p.).
28. Tax policy, Revenue forecasting and economic analysis force. Joshua Goldstain, assistant director. Office of management and budget. The City of New York. 2017. 308p.(39p.)


Internet saytlari:

29. www. <http://el.tfi.uz/> - Toshkent moliya instituti elektron kutubxonasi;
30. www. <http://soliq.uz>;
31. www. <http://edu.uz>;
32. www. <http://mf.uz>;
33. www. <http://oxs.uz>;
34. www. <http://norma.uz>;
35. www. <http://lex.uz>;
36. www. <http://my.gov.uz>;
37. www. <http://alleng.ru>;

7.1. “O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BYUDJET TIZIMI, BYUDJET JARAYONI HAMDA BYUDJET PROGNOZINI ISHLAB CHIQISH ASOSLARI” O‘QUV MODULI YUZASIDAN MA’RUZA MATNI

VII. O‘QUV MATN (MODUL)

MODUL: O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BYUDJET TIZIMI, BYUDJET JARAÈNI HAMDA BYUDJET PROGNOZINI ISHLAB CHIQISH ASOSLARI



Reja:

- 1.Davlat byudjeti va uni shakllantirish manbalari
- 2.Davlat byudjetini prognozlashtirish
- 3.Davlat byudjeti loyihasini tuzish va tasdiqlash

Tayanch so‘z va iboralar: byudjet tizimi byudjetlari, byudjet ssudasi, byudjetlararo transfertlar, Davlat byudjeti profitsiti, Davlat byudjeti taqchilligi, dotatsiya, subvensiya, subsidiya, davlat byudjetini prognozlash, Davlat byudjeti loyihasini tuzish.

1.Davlat byudjeti va uni shakllantirish manbalari. O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti (Davlat byudjeti) — davlatning davlat vazifalari va funksiyalarini moliyaviy jihatdan ta’minlash uchun mo‘ljallangan markazlashtirilgan pul jamg‘armasi.

Byudjet tizimi barcha darajadagi byudjetlar, davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlari va byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg‘armalari, byudjet tizimi byudjetlarini tuzish va tashkil etish prinsiplari, ular o‘rtasida byudjet jarayoni mobaynida yuzaga keladigan o‘zaro munosabatlar yig‘indisini o‘zida ifodalaydi. Moliya yili uchun byudjet tizimi byudjetlarini shakllantirish, tuzish, ko‘rib chiqish, qabul qilish, tasdiqlash va ijro etish O‘zbekiston Respublikasining milliy valyutasi — so‘mda amalga oshiriladi.

Byudjet tizimi byudjetlari — O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti, davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlari va byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg‘armalari.

Byudjetdan ajratiladigan mablag‘lar — O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjetidan va davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlaridan byudjet tashkilotlari hamda byudjet mablag‘lari oluvchilar uchun nazarda tutiladigan pul mablag‘lari.

Byudjet jarayoni — byudjet tizimi byudjetlarini shakllantirish, tuzish, ko‘rib chiqish, qabul qilish, tasdiqlash va ijro etish, ularning ijrosini nazorat qilish, byudjet tizimi byudjetlarining ijrosi to‘g‘risidagi hisobotlarni tayyorlash va tasdiqlash, shuningdek ular o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar jarayoni.

Byudjet ssudasi — qaytarish sharti bilan yuqori turuvchi byudjetdan quyi turuvchi byudjetga, shuningdek davlat maqsadli jamg‘armalariga, rezident-yuridik shaxsga ajratiladigan pul mablag‘lari.

Byudjetlararo transfertlar — O‘zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetiga, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlariga, davlat maqsadli jamg‘armalariga hamda buning aksicha o‘tkaziladigan, shuningdek Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika byudjetidan, viloyatlarning viloyat byudjetlaridan va Toshkent shahrining shahar byudjetidan tumanlar va shaharlar byudjetlariga hamda buning aksicha o‘tkaziladigan mablag‘lar.

Davlat byudjeti profitsiti — muayyan davrda O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti daromadlarining uning xarajatlaridan oshib ketishi.

Davlat byudjeti taqchilligi — muayyan davrda O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti xarajatlarining uning daromadlaridan oshib ketishi.

Dotatsiya — byudjet tizimi byudjetlariga ularning o‘z daromadlari yetishmagan taqdirda daromadlar bilan xarajatlar o‘rtasidagi farqni qoplash uchun qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag‘lari.

Subvensiya — muayyan maqsadlarga sarflash sharti bilan yuqori turuvchi byudjetdan quyi turuvchi byudjetga qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag‘lari.

Subsidiya — tovarlar ishlab chiqarish, ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish va ularni realizatsiya qilishni moliyalashtirish yoki birgalikda moliyalashtirish yoxud maqsadli xarajatlarning o‘rnini qisman qoplash uchun byudjet tizimi byudjetlari hisobidan yuridik va jismoniy shaxslarga beriladigan pul mablag‘lari.

Davlat byudjeti quyidagi darajadagi byudjetlardan iborat:

O‘zbekiston Respublikasining respublika byudjeti;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti tuzilmasiga Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika byudjeti, Qoraqalpog‘iston Respublikasi tumanlari va shaharlarining byudjetlari kiradi.

Viloyatlar mahalliy byudjetlari tuzilmasiga viloyat byudjeti, tegishli viloyatlar tumanlari va shaharlarining byudjetlari kiradi.

Toshkent shahar mahalliy byudjeti tuzilmasiga shahar byudjeti va shahar tarkibiga kiruvchi tumanlarning byudjetlari kiradi.

Davlat maqsadli jamg‘armalari quyidagilardir:

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi;

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika yo‘l jamg‘armasi;

Davlat mulkini xususiylashtirishdan tushgan mablag‘lar jamg‘armasi;

O‘zbekiston Respublikasining Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi;

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Umumta’lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta’mirlash va jihozlash jamg‘armasi;

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug‘oriladigan yerlearning meliorativ holatini yaxshilash jamg‘armasi;

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Oliy o‘quv yurtlarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg‘armasi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti, ijtimoiy nafaqalar to‘lash, kompensatsiya to‘lovlar va boshqa to‘lovlar bo‘yicha xarajatlarni moliyalashtirishga yo‘naltiriladigan majburiy to‘lovlar, badallar, shuningdek boshqa manbalardan tushadigan mablag‘larni jamlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika yo‘l jamg‘armasi majburiy to‘lovlardan va boshqa manbalardan tushadigan mablag‘larni jamlaydi.

O‘zbekiston Respublikasining Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi bandlik va aholini ijtimoiy muhofaza qilish sohasidagi xarajatlar moliyalashtirishini ta’minalash uchun yagona ijtimoiy to‘lovdan ajratmalar va boshqa manbalardan tushadigan mablag‘larni jamlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Umumta’lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta’mirlash va jihozlash jamg‘armasi umumta’lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar hamda tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish va mukammal ta’mirlash, jihozlashga (to‘liq jihozlashga) yo‘naltiriladigan, nazarda tutilgan majburiy to‘lovlar va boshqa manbalardan tushadigan mablag‘larni jamlaydi.

Davlat byudjeti daromadlari:

soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar;

davlat aktivlarini joylashtirish, foydalanishga berish va sotishdan olingan daromadlar; meros, hadya huquqi bo'yicha davlat mulkiga o'tgan pul mablag'lari; yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek chet davlatlardan tushadigan qaytarilmaydigan pul tushumlari;

rezident-yuridik shaxslarga berilgan byudjet ssudalarini va chet davlatlarga ajratilgan kreditlarni to'lash hisobidan to'lovlar;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa daromadlar hisobidan shakllantiriladi.

O'zbekiston Respublikasining respublika byudjeti daromadlari:

1) umumdavlat soliqlari, shu jumladan:

yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i;

yagona soliq to'lovi;

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;

qo'shilgan qiymat solig'i;

aksiz solig'i;

yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq;

2) bojxona bojlari;

3) qo'shimcha foyda solig'i;

4) mahsulot taqsimotiga oid bitimlar bo'yicha foyda keltiradigan mahsulotdagi davlat ulushi;

5) boshqa daromadlar hisobidan shakllantiriladi. Boshqa daromadlarga imzoli bonus va tijoratbop topilma bonusi to'lanishidan tushgan tushumlar, qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetiga yo'naltiriladigan davlat bojlari, yig'imlar, tovon pullari, kompensatsiya to'lovlar va jarima sanksiyalari, davlat aktivlarini joylashtirish, foydalanishga berish va sotishdan belgilangan normativlar bo'yicha olingan daromadlar, meros, hadya huquqi bo'yicha davlat mulkiga o'tkazilgan pul mablag'lari, yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek chet davlatlardan tushgan qaytarilmaydigan pul tushumlari, rezident-yuridik shaxslarga berilgan byudjet ssudalarini, chet davlatlarga berilgan kreditlarni to'lash hisobidan to'lovlar, aksiyalarning davlat ulushi (payi) bo'yicha dividendlar (daromadlar), mobil aloqa xizmatlari ko'rsatuvchi yuridik shaxslar (uyali aloqa kompaniyalari) tomonidan abonent raqamidan foydalanganlik uchun to'lov, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining foydasi va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa daromadlar kiradi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetining, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining daromadlari:

1) belgilangan normativlarga muvofiq umumdavlat soliqlari, shu jumladan:

yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i;

yagona soliq to'lovi;

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;

tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq;

qo'shilgan qiymat solig'i;

aksiz solig'i;

yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

2) mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar, shu jumladan:

obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i;

transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq;

mol-mulk solig'i;

yer solig'i;

yagona yer solig'i;

ayrim turdag'i tovarlar bilan chakana savdo qilish huquqi va ayrim turdag'i xizmatlarni ko'rsatish uchun yig'im;

3) yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek chet davlatlardan tushgan qaytarilmaydigan pul tushumlari;

4) bozorlardan tushadigan daromadlar;

5) boshqa daromadlar hisobidan shakllantiriladi. Boshqa daromadlarga davlat daromadiga o'tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar, davlat aktivlarini joylashtirishdan, foydalanishga berishdan va sotishdan belgilangan normativlar bo'yicha olingan daromadlar, qonun hujjatlariga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetiga, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlariga yo'naltiriladigan davlat bojlari, yig'imlar, tovon pullari va jarima sanksiyalari, egasiz mol-mulkni, meros huquqi bo'yicha davlat ixtiyoriga o'tgan mol-mulkni, huquq bo'yicha davlat daromadiga o'tkazilishi lozim bo'lgan xazinalarni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa daromadlar kiradi.

O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan ajratiladigan subvensiyalar, o'tkazib beriladigan daromadlar va dotatsiyalar Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjetining, viloyatlar viloyat byudjetlarining va Toshkent shahri shahar byudjetining daromadlari hisoblanadi.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq, O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan pivo va o'simlik yog'i uchun aksiz solig'i Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari daromadlariga o'tkazib beriladi.

2.Davlat byudjetini prognozlashtirish. Davlat dasturlarida belgilangan chora-tadbirlar uchun zarur bo'lgan sarf-xarajatlar byudjet xarajatlari tarkibida rejalashtiriladi. Davlat byudjetining barcha xarajatlarini moliyalashtirish manbaalari faqat soliq tushumlarini samarali prognozlash orqali ta'minlanadi.

Prognozlash jamiyatning barcha ijtimoiy-iqtisodiy sohalarida qo'llaniladi.

Prognozlash qo'llanilish sohasiga ko'ra quyidagi

- ijtimoiy prognozlash;
- iqtisodiy prognozlash;
- ilmiy texnikaviy prognozlashlarga ajratiladi.

Boshqaruvin darajasiga ko'ra prognozlash – xalq xo'jaligini prognozlash, tarmoqni prognozlash, regional prognozlash hamda birlashma, korxonalarining moliyaviy-xo'jalik faoliyatini prognozlash toifalariga ajratiladi.

Prognozlashtirish ekspert baholarini hisobga olgan holda o'tmishni kelajakka ekstrapolyatsiyalash assosida oshirilishi mumkin. Ushbu o'zgarishlar tasodifan yuz berishi mumkin.

Soliqlar va majburiy to'lovlarini prognoz qilishni tashkil qilish O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimi, shuningdek soliq, bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Byudjet tizimi byudjetlari daromadlarini prognoz qilish va xarajatlarini rejalashtirish printsipi davlat byudjeti parametralarini belgilashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu printsipga asosan byudjet tizimi byudjetlarini tuzishda byudjet tasnifiga muvofiq, daromadlar ularning aniq manbalari boyicha prognoz qilinadi, xarajatlar esa yo'nalishlar boyicha rejalashtiriladi.

Mamlakatni, shuningdek hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning o'tgan yilgi asosiy yakunlari va mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning joriy yilgi yakunlarining prognoz bahosi, kelgusi yilga mo'ljallangan Davlat byudjeti loyihasini tuzishda asos bo'lgan kelgusi yilning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari tahliliy o'rghaniladi. Bunda o'tgan, joriy va prognozlashtiriluvchi yillarga ta'luqli bo'lgan quyidagi makro-iqtisodiy ko'rsatkichlar tahliliy o'rghaniladi:

- 1.Yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'ati;
- 2.Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'ati;
- 3.Qishloq xo'jligi mahsulotlari hajmining o'sish sur'ati;
- 4.Pudrat qurilish ishlari hajmining o'sish sur'ati;
- 5.Chakana tovar aylanmasi hajmining o'sish sur'ati;
- 6.Inflyatsiya sur'atlari;
- 7.Davlat byudjeti yalpi ichki mahsulotga nisbatan profitsit yoki difitsit miqdori;
8. Ijtimoiy sohani rivojlantirishg xarajatlari;
- 9.Byudjet tashkilotlari xodimlari ish haqi, pensiyalar, nafaqalar va stipendiyalar miqdori;
10. Investitsiyalar hajmi;

- 11.Eksport hajmining o'sish sur'ati;
- 12.Yalpi ichki mahsulotda kichik biznes ulushi;
- 13.Xizmatlar sohasini o'sish su`ati;
- 14.Aholi bandligi dasturlarini amalga oshirish;
- 15.Yangi ish o'rnlari tashkil etiish;
- 16.Hududlarni kompleks rivojlantirish, ya`ni: sanoatni rivojlantirish, birinchi navbatda qishloq xo'jaligi mahsulotlari va mineral xom ashyoni chuqur qayta ishlash, qishloq joylarda zamonaviy xizmatlar va servis sohasini tashkil etish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish hisobiga kompleks rivojlantirishni ta`minlash imkoniyatlari.
- 17.Soliq to'lovchilar va ular to'lagan soliqlar boyicha hisob axborotlari;
18. Amaldagi va kelajakdagi soliq stavkalari;
- 19.Amaldagi va kelajakdagi soliqlar boyicha soliq to'lovchilarga berilgan imtiyozlar.
- 20.Boshqa ma'lumotlar.

Yangi Zelandiya mamlakatida ham Davlat byudjeti daromadlarini prognozlash uning loyihasini qabul qilishdan oldin amalga oshiriladi. Prognozlashda 20 ga yaqin soliq tushumlari prognozlashtiriladi. Unda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish prognoz ko'rsatkichlarini inobatga oladi⁷.

Soliq to'lovchilar va ular to'lagan soliqlar boyicha hisob axborotlari , soliq stavkalari, soliqlar boyicha soliq to'lovchilarga berilgan imtiyozlar soliq idoralaridagi mavjud hisobot ma'lumotlaridan foydalaniladi.

Soliqlar tushumini prognozlashtirishda “to'g'ri hisob-kitob”, va “o'tgan davr ko'rsatkichlarini statistik qayta ishlash” usullaridan foydalanish mumkin.

“To'g'ri hisob-kitob” usulidan foydalanishda tegishli davlat idoralaridan haqiqiy va kutilayotgan mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarish hajmi, yalpi foya, daromad, tannarx, ish haqi va boshqa prognoz hisob-kitob uchun zarur ko'rsatkichlar to'g'risida ma'lumotnomha yig'iladi. Aniq hisob-kitobi ko'rsatilgan soliq to'lovlar bazasi (masalan, foya solig'i, er, daromad, Aksiz solig` va h.k.) asosida prognozlashtirish uchun prognoz ko'rstatkichlari aniqlanadi.

O'tgan davr ko'rsatkichlarini statistik qayta ishlash usulidan foydalanishda avvalgi yillardagi soliq tushumlarini yig`ish borasida erishilgan natijalar to'g`risidagi ma'lumotlar yig'iladi. Yig'ilgan ma'lumotlarga statistik funktsiyalar- «Mikrosoft Excel» dasturi va shu kabi dasturlari yordamida qayta ishlov beriladi.

Soliqlar tushumini prognozlashtirishda o'tgan hisobot davri uchun haqiqiy va prognozlashtiriluvchi davr uchun kutilayotgan ko'rsatkichlar birgalikda aniq to'lov turi uchun joriy etilgan hisob-kitob shakllari orqali amalga oshiriladi.

Ilmiy tadqiqot muayyan usullar asosida amalga oshirilganidek, soliq tushumlarini prognoz qilish ham aniq usullarga tayanadi. Hozirgi kunda soliq tushumlarini prognoz qilishning bir- nechta usullari mavjud(ma'lumot manbaasiga qarab). Ularga quyidagilar kiradi:

- haqiqiy erishilgan darajadan kelib chiqib prognoz qilish usuli;
- mikroiqtisodiy ko'rsatkichlar (korxona ma'lumotlari) asosida prognoz qilish usuli;
- makroiqtisodiy ko'rsatkichlar asosida prognoz qilish usuli;
- ko'p omilli tahlil asosida prognoz qilish usuli.

Haqiqiy erishilgan darajadan kelib chiqib prognoz qilish usuli oldingi hisobot davrlaridagi haqiqatdagi tushumlar to'g'riidagi ma'lumotlarni tahlil qilishga asoslanadi. Mazkur usulni qo'llashda prognoz qilinayotgan davr uchun kutilayotgan tushumlar summasi o'tgan hisobot davrlaridagi haqiqatdagi tushumlarga nisbatan koeffitsient qo'llash orqali hisoblab chiqiladi. Koeffitsientni aniqlashda turli xil matematik hisob- kitoblardan foydalanish mumkin (masalan, ekstrapolyatsiya usuli).

Kutilayotgan soliq tushumlarining hisob- kitobida soliq to'lovchilar tomonidan taqdim etilgan soliq hisobotlari ma'lumotlaridan ham foydalanish mumkin.

⁷ An Analysis of Tax Revenue Forecast Errors. Martin Keene and Peter Thomson. New Zealand treasury working paper 07/02. 2017.41p.(2p.)

Tumanlar miqyosida hisoblangan soliqlar boyicha tushumlarning prognoz summalarini esa viloyat soliq boshqarmalarida jamlanib Davlat soliq qo'mitasiga uzatiladi.

Xuddi shu tariqa respublika miqyosida soliqlar boyicha tushumlarning prognoz summalarini ham barcha hududiy davlat soliq boshqarmalaridagi kutilayotgan tushumlarni jamlash orqali hisoblab chiqiladi.

Mikroiqtisodiy ko'rsatkichlar (korxona ma'lumotlari) asosida prognoz qilish usulida soliqlar boyicha kutilayotgan tushumlar hisob kitobi soliq to'lovchilarning soliq organlariga taqdim etadigan moliyaviy va buxgalteriya hisobotlari (balans, moliyaviy natijalar to'g'risdagi hisobot va b.) ma'lumotlari asosida amalga oshiriladi.

Mazkur usulda katta hajmdagi moliyaviy va buxgalteriya hisobotlari ma'lumotlarini yuritish zarur bo'lganligi va bu juda ko'p vaqt talab qilganligi bois, soliq organlarida ushbu hisobotlarning ma'lumotlari kiritib boriladigan dasturiy mahsulot ishlab chiqilgan va kerakli ma'lumotlar avtomatlashgan tarzda prognoz ishiga jaib qilinadi.

Mikroiqtisodiy ko'rsatkichlar asosida prognoz qilish usulida ham soliqlar boyicha kutilayotgan tushumlar hisob kitobi uchchala darajada, ya`ni tuman, hudud va respublika miqyosida amalga oshiriladi.

Davlat budjeti daromadlarini makroiqtisodiy ko'rsatkichlar asosida ham prognoz qilinishi mumkin. Ushbu usulidan faqat hudud va respublika miqyosida soliq tushumlarini prognoz qilishda qo'l keladi. Prognoz hisob-kitoblarida yalpi ichki mahsulot yoki yalpi hududiy mahsulot, uning tarkibiy elementlari, yalpi ish haqi fondi, eksport, import hajmi kabi makroiqtisodiy ko'rsatkichlar qatnashadi.

Ko'p omilli tahlil asosida prognoz qilish usulidan foydalanishda korxonalarining mahsulot ishlab chiqarish hajmi, qiymat ko'rsatkichlari, valyuta kursi, soliq to'lovchilar soni, imtiyozga ega bo'lganlar soni, soliq stavkalari va boshqa shu kabi omillar tahlil qilinadi.

Ko'p omilli tahlil asosida prognoz qilish usuli ham uch toifaga bo'linadi:

- byudjetga tushumlarni iqtisodiyot tarmoqlari boyicha prognoz qilish usuli. Bu iqtisodiy faoliyat turlariga qarab (OKONX) soliqlarni turkumlagan holda tahlil qilishga asoslangan prognozdir. Bunday ajratish iqtisodiy jarayonlar, makroiqtisodiy omillar, narx kon'yunkturasi o'rtasidagi o'zarlo aloqadorlik va ularning soliqlarga ta'sirini aniqlash va kuzatish imkonini beradi.

- yig`ma moliyaviy va tarmoqlararo balans usuli. Bu usul ishlab chiqarish, muomala, iste'mol va jamg`arish o'rtasidagi, daromadlar, xarajatlar va yakuniy talab hamda soliq tushumlari o'rtasidagi bog'liqlikni kompleks ravishda o'rganish uchun qo'llaniladi. -byudjetga tushumlarni soliqlarning yalpi ichki mahsulotga nisbatan elastikligini baholash asosida prognoz qilish usuli.

Davlat soliq xizmati organlarida soliq va majburiy to'lovlarini prognoz ko'rsatkichlari uchta variantda: yirik soliq manbalari; haqiqatda tushgan soliq va to'lovlar tushumini tahlili asosida; korxona va tashkilotlarning moliyaviy xo'jalik faoliyatini to'g'risidagi ma'lumotlarga ko'ra tuziladi.

Yirik soliq manbalari boyicha prognoz qilishda asosiy 8 ta soliq turi, ya`ni QQS, foyda solig`i, daromad solig`i, aktsiz solig`i, er solig`i, mol mulk solig`i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, er qa`ridan foydalanganlik uchun soliqlar boyicha tahlil amalga oshiriladi, chunki jami soliq tushumlari ichida ushbu soliq turlaridan tushgan tushum qariyb 90 % ni tashkil qiladi.

Oxirgi variant boyicha prognoz qilishda Makroiqtisodiyot va statistika vazirligi, kuyi statistika idoralari tomonidan tayerlangan korxonalarining moliyaviy natijalari hisobotlari; ishlab chiqarish hajmi; mexnat va mexnatga haq to'lash haqidagi hisobotlar; mahsulot tannarxi; tayyor mahsulot realizatsiyasi to'g'risidagi hisobotlar; korxonalarining debitorlik va kreditorlik qarzlarini to'g'risidagi malumotlar; amaldagi soliq stavkalari; soliq turlari boyicha berilgan imtiyozlar va boshqa malumotlardan foydalaniлади.

3.Davlat byudjeti loyihasini tuzish va tasdiqlash. Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg`armalari byudjetlarining loyihasi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'naliishlari va moliya yili uchun mo'ljallangan makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi asosida tuziladi.

Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg`armalari byudjetlarining loyihasini tuzish:

byudjet so'rovini tuzish tartibini yuborishni;

byudjet so‘rovlarni hamda asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar prognozlarini tayyorlash va taqdim etishni;

byudjet so‘rovlarni ko‘rib chiqish va jamlashni;

byudjetnomani ishlab chiqishni nazarda tutadi.

Davlat byudjeti loyihasini tuzish uchun mas‘ul organlar quyidagilardir:

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi;

vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralar, mahalliy davlat hokimiyyati organlari, byudjetlar loyihamalarini tuzish, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan so‘ralgan axborot va ma’lumotlarni taqdim etishga taalluqli qismi bo‘yicha.

Davlat maqsadli jamg‘armalarini taqsimlovchi organlar davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlarining loyihamalarini tuzish uchun mas‘ul organlardir.

Byudjet so‘rovi:

byudjet tashkilotining, byudjet mablag‘lari oluvchining va byudjet mablag‘larini taqsimlovchining byudjet tizimi byudjetlari mablag‘laridan foydalanish bilan bog‘liq faoliyatining miqdor va sifat ko‘rsatkichlarini o‘z ichiga oluvchi, o‘tgan yilda erishilgan natijalar va joriy yilda kutilayotgan natijalar to‘g‘risidagi tahliliy hisobotni;

xarajat majburiyatlarining ularni kiritish (ijro etish) uchun asos bo‘ladigan hamda moliyalashtirish manbalari va amal qilish muddatlarini belgilaydigan normativ-huquqiy hujjatlar, shartnomalar va (yoki) ularning alohida qoidalari ko‘rsatilgan reyestagini;

byudjet mablag‘larini taqsimlovchining rivojlantirish dasturini;

byudjet mablag‘larini taqsimlovchining rivojlantirish dasturi bilan uzviy bog‘liq holda tuzilgan kelgusi davr uchun byudjet buyurtmasini o‘z ichiga oladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, davlat maqsadli jamg‘armalarini taqsimlovchi organlar byudjet so‘rovi bilan bir vaqtida tegishli byudjetlar va davlat maqsadli jamg‘armalari daromadlarining kelgusi davr uchun prognozlarini taqdim etadi.

Byudjet so‘rovini tuzish tartibi:

Davlat byudjeti bo‘yicha — O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan;

davlat maqsadli jamg‘armalari bo‘yicha — ularning taqsimlovchi organlari tomonidan belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi har yili 15 aprelga qadar kelgusi davr uchun byudjet so‘rovini tuzish tartibini:

O‘zbekiston Respublikasining respublika byudjeti loyihasini tayyorlash uchun — byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari loyihamalarini tayyorlash uchun — Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlariga;

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi belgilangan muddatlarda O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi va boshqa vazirliklar, davlat qo‘mitalari hamda idoralardan Davlat byudjeti loyihasining daromad qismi bo‘yicha takliflar so‘raydi.

Byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari, davlat maqsadli jamg‘armalarini taqsimlovchi organlar kelgusi davr uchun byudjet so‘rovini tuzish tartibini olgandan so‘ng uch ish kuni ichida tegishli byudjet so‘rovlarni tuzish to‘g‘risida va ularni tayyorlash muddatlarini belgilash haqida qarorlar qabul qiladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalari ushbu moddaning uchinchi qismida ko‘rsatilgan qarorlar qabul qilinganidan so‘ng uch ish kuni ichida kelgusi davr uchun byudjet so‘rovini tuzish tartibini:

tegishli byudjetlar loyihamalarini tayyorlash uchun — tuman va shahar hokimlariga;

byudjet so‘rovlari tuzish uchun — Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika byudjetidan, viloyatlarning viloyat byudjetlaridan va Toshkent shahrining shahar byudjetidan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlari hamda byudjet mablag‘lari oluvchilarga yuboradi.

Tuman va shahar hokimlari kelgusi davr uchun byudjet so‘rovini tuzish tartibini olgandan so‘ng uch ish kuni ichida tegishli byudjetlar loyihalarini tuzish to‘g‘risida va ularni tayyorlash muddatlarini belgilash haqida qarorlar qabul qiladi.

Tumanlar va shaharlar hokimliklarining moliya bo‘limlari ushbu moddaning beshinchi qismida ko‘rsatilgan qarorlar qabul qilinganidan so‘ng uch ish kuni ichida kelgusi davr uchun byudjet so‘rovini tuzish tartibini tumanlar va shaharlar byudjetidan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlariga va byudjet mablag‘lari oluvchilarga byudjet so‘rovlari tuzish uchun yuboradi.

Byudjet so‘rovlari ko‘rib chiqish:

tumanlar va shaharlar byudjetidan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilar bo‘yicha — tumanlar va shaharlar hokimliklarining moliya bo‘limlari tomonidan;

Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika byudjetidan, viloyatlarning viloyat byudjetlaridan va Toshkent shahrining shahar byudjetidan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilar bo‘yicha, shuningdek tumanlar va shaharlar byudjetlari loyihalari bo‘yicha — Qoraqalpog‘iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalari tomonidan;

O‘zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan tasarrufdag‘i byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilar bo‘yicha — byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar tomonidan.

byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar, Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari loyihalari, shuningdek davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlari loyihalari bo‘yicha — O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi va boshqa vazirliklar, davlat qo‘mitalari hamda idoralarning Davlat byudjeti loyihasining daromad qismi bo‘yicha takliflarini ko‘rib chiqish O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

Byudjet so‘rovlari ko‘rib chiqilayotganda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga byudjet so‘rovlari olinganidan keyin o‘n ish kuni ichida quyidagilarga yozma bildirishlar yuborish huquqi beriladi:

byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga va davlat maqsadli jamg‘armalarini taqsimlovchi organlarga — amalga oshirish uchun asoslar mavjud bo‘lmagan, ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi past bo‘lgan, byudjet daromadlarining tegishli o‘sishi bilan ta’minlanmagan xarajatlarni kamaytirish to‘g‘risida, shuningdek byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilar faoliyatining samaradorlik ko‘rsatkichlari pasaygan hollarda xarajatlarni maqbullahtirish haqida;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, Toshkent shahar hokimliklari va davlat maqsadli jamg‘armalarini taqsimlovchi organlarga — tegishli byudjetlar va davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlari daromadlari hamda xarajatlarining prognozları asossiz ravishda pasaytirilgan yoki oshirilgan hollarda, mazkur prognozlarga tuzatish kiritish to‘g‘risida.

Byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, Toshkent shahar hokimliklari va davlat maqsadli jamg‘armalarini taqsimlovchi organlar O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining yozma bildirishlarini olgandan keyin uch ish kuni ichida mazkur yozma bildirishlarda ko‘rsatilgan fikr-mulohazalarni hisobga olgan holda yangilangan byudjet so‘rovlari taqdim etishi shart.

Kelgusi davr uchun byudjet so‘rovlari:

Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika byudjetidan, viloyatlarning viloyat byudjetlaridan va Toshkent shahrining shahar byudjetidan, tumanlar va shaharlar byudjetlaridan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilar tomonidan tegishli moliya organlariga, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan

moliyalashtiriladigan tasarrufdagи byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilar tomonidan byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga — joriy yilning 1 iyunigacha;

byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga — joriy yilning 1 iyuligacha;

davlat maqsadli jamg‘armalarini taqsimlovchi organlar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga — joriy yilning 1 iyuligacha taqdim etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi va boshqa vazirliklar, davlat qo‘mitalari hamda idoralar Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg‘armalari daromadlarining prognozi bo‘yicha takliflarni O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga va davlat maqsadli jamg‘armalarini taqsimlovchi organlarga — joriy yilning 15 iyunigacha taqdim etadi.

Kelgusi moliya yili uchun Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetining, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining hamda davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlarining loyihalari:

tumanlar va shaharlar hokimliklarining moliya bo‘limlari tomonidan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Moliya vazirligiga, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalariga Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan belgilangan muddatlarda, biroq joriy yilning 25 iyunidan kechiktirmay;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalari, davlat maqsadli jamg‘armalarini taqsimlovchi organlar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga joriy yilning 1 iyulidan kechiktirmay taqdim etiladi.

Davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlarining loyihalarini tayyorlash tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Tumanlar va shaharlar byudjetlarining loyihalari tumanlar va shaharlar hokimliklarining moliya bo‘limlari tomonidan:

daromadlar bo‘yicha — Davlat byudjetiga kiritiladigan daromadlar prognoziga doir takliflar hamda davlat soliq inspeksiyalari, hokimliklarning bo‘limlari va davlat boshqaruvi organlarining boshqa tuman hamda shahar bo‘linmalari tomonidan ma‘muriy-hududiy birlik iqtisodiyotini rivojlantirishning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognoziga muvofiq taqdim etiladigan boshqa axborot asosida;

xarajatlar bo‘yicha — tumanlar va shaharlar byudjetlaridan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilarning byudjet so‘rovleri asosida ishlab chiqiladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining loyihalari Qoraqalpog‘iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalari tomonidan:

daromadlar bo‘yicha — Davlat byudjetiga kiritiladigan daromadlar prognoziga doir takliflar hamda davlat soliq boshqarmalari va hokimliklarning boshqarmalari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat boshqaruvi organlarining bo‘linmalari tomonidan ma‘muriy-hududiy birlik iqtisodiyotini rivojlantirishning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognoziga muvofiq taqdim etiladigan boshqa axborot asosida;

xarajatlar bo‘yicha — Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika byudjetidan, viloyatlarning viloyat byudjetlaridan, Toshkent shahrining shahar byudjetidan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilarning byudjet so‘rovleri hamda tegishli tumanlar va shaharlar byudjetlarining loyihalari, shuningdek Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika byudjetidan, viloyatlarning viloyat byudjetlaridan va Toshkent shahrining shahar byudjetidan moliyalashtiriladigan ayrim tadbirlar uchun xarajatlarning prognoz qilinayotgan hajmi asosida ishlab chiqiladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari loyihalarini taqchillik bilan ishlab chiqishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Byudjetnoma — erishilgan natijalar hisobga olingan holda mamlakatni kelgusi davr uchun ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlarini nazarda tutadigan hujjat bo‘lib, ushbu

yo‘nalishlar asosida Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlarining loyihalari shakllantiriladi.

Byudjetnoma:

mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning o‘tgan yilgi asosiy yakunlari va mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning joriy yilgi yakunlarining prognoz bahosini;

Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlarining loyihasini ishlab chiqishda foydalanilgan asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar prognozini;

Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlari joriy yildagi ijrosining prognoz bahosini;

soliq va byudjet siyosatining asosiy yo‘nalishlari loyihasini;

Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlarining loyihasini;

davlat qarzining holati to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni;

soliq va byudjet siyosatining asosiy yo‘nalishlari, O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlarining loyihasiga doir tushuntirish xatini o‘z ichiga oladi.

Byudjetnoma:

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga — joriy yilning 15 sentabriga qadar kiritiladi;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasiga xulosa taqdim etishi uchun — joriy yilning 20 sentabriga qadar kiritiladi. O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlari, shuningdek soliq va byudjet siyosatining asosiy yo‘nalishlari loyihalari bo‘yicha ikki haftalik muddatda xulosa taqdim etadi;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalariga — O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasining xulosasi bilan joriy yilning 15 oktabridan kechiktirmay kiritiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan taqdim etilgan byudjetnoma O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tomonidan ko‘rib chiqiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari navbatdagi yil uchun Davlat byudjetini, davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlarini hamda soliq va byudjet siyosatining asosiy yo‘nalishlarini qabul qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining navbatdagi yil uchun Davlat byudjeti to‘g‘risidagi qarorlarini ijro etish uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori qabul qilinadi, unda:

asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar prognozi;

Davlat byudjeti daromadlari va xarajatlarining asosiy parametrlari;

Davlat byudjeti taqchilligining eng yuqori miqdori va uni qoplash manbalari;

davlat maqsadli jamg‘armalarining asosiy parametrlari;

soliqlar va boshqa majburiy to‘lov larning stavkalari miqdorlari;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetining, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining daromadlari va xarajatlari hajmlari, O‘zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan subvensiyalar, o‘tkazib beriladigan daromadlar va dotatsiyalarning cheklangan miqdorlari;

umum davlat soliqlari tushumlaridan Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetiga, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlariga ajratmalarining normativlari;

O‘zbekiston Respublikasining respublika byudjeti, Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari aylanma kassa mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdorlari;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi zaxira jamg‘armasining, Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika byudjetining, viloyatlar viloyat byudjetlarining va Toshkent shahri shahar byudjetining zaxira jamg‘armalari miqdorlari tasdiqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar prognози va Davlat byudjetining asosiy parametrlarini tasdiqlashga doir qaroriga muvofiq, qaror qabul qilingandan so‘ng bir haftalik muddatda tegishincha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari tomonidan Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari daromadlari hamda xarajatlarning hajmlari qabul qilinadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari qabul qilgan qarorlarga muvofiq Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari o‘n ish kuni ichida:

Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetining, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining, tumanlar va shaharlar byudjetlarining daromadlari va xarajatlari hajmlarini, Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika byudjetidan, viloyatlarning viloyat byudjetlaridan va Toshkent shahrining shahar byudjetidan subvensiyalar, o‘tkazib beriladigan daromadlar va dotatsiyalarning cheklangan miqdorlarini;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari tarkibiga kiradigan tumanlar va shaharlar byudjetlariga umum davlat soliq tushumlaridan ajratmalarining normativlarini. Umum davlat soliqlaridan Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari tarkibiga kiruvchi tumanlar va shaharlar byudjetlariga ajratmalarining normativlari ayni shu soliqlardan Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetiga, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlariga ajratmalarining O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan belgilangan normativlaridan ortiq bo‘lmagan miqdorlarda belgilanadi;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika byudjetining, viloyatlar viloyat byudjetlarining va Toshkent shahri shahar byudjetining zaxira jamg‘armalari miqdorlarini;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari tarkibiga kiradigan tumanlar va shaharlar byudjetlari aylanma kassa mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdorlarini tasdiqlash bo‘yicha qarorlar qabul qiladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining tegishincha Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetini, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarini tasdiqlash to‘g‘risidagi qarorlariga muvofiq xalq deputatlari tumanlar va shaharlar Kengashlari tomonidan tumanlar va shaharlar byudjetlarining daromadlari hamda xarajatlari hajmlari uch ish kuni ichida qabul qilinadi.

Xalq deputatlari tumanlar va shaharlar Kengashlarining qarorlariga muvofiq tumanlar va shaharlar hokimlari tumanlar va shaharlar byudjetlarining daromadlari hamda xarajatlari hajmlarini tasdiqlash bo‘yicha uch ish kuni ichida qarorlar qabul qiladi.

7. MAVZU. “O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BYUDJET TIZIMI, BYUDJET JARAYONI HAMDA BYUDJET PROGNOZINI ISHLAB CHIQISH ASOSLARI” ЙОЗАСИДАН КЕЙСЛАР ТҮПЛАМИ, АМАЛИЙ ТОПШИРИҚЛАР, ИШЛАНМАЛАР

Reja:

- 1.Davlat byudjeti va uni shakllantirish manbalari
- 2.Davlat byudjetini prognozlashtirish
- 3.Davlat byudjeti loyihasini tuzish va tasdiqlash

Talabalarga beriladigan savollar ro‘yxati:

1. Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlarining loyihasini tuzish



nimalarni o‘z ichiga oladi?

2. Byudjet so‘rovi nima va u o‘z tarkibiga nimalarni kiritadi?

3. Byudjet so‘rovi qanday tartibda tuziladi?

4. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi va boshqa vazirliklar, davlat qo‘mitalari hamda idoralarning Davlat byudjeti loyihasining daromad qismi bo‘yicha takliflari qanday tuziladi va ko‘rib chiqiladi?

5. Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlarining loyihasini tuzish jarayoni timalarni o‘z ichiga oladi?

6. «Byudjetnom» nima va u o‘z tarkibina nimalarni oladi?

7. «Byudjetnom» qanday tartibda va ko‘rib chiqiladi hamda tasdiqlanadi?

Auditoriyani faollashtirish uchun beriluvchi savollar:

1. Davlat byujetining loyihasini tuzish bilan prognozlash o‘rtasida qanaday aloqa mavjud?

2. Davlat byujetining loyihasini tuzish bilan soliq tushumlari hisobi o‘rtasida qanaday aloqa mavjud?

1-topshiriq.

1-KEYS-STADI Kirish

Tavsiya etilgan keysni yechish quyidagi natijalarga erishishga imkon yaratadi:

- o‘zlashtirilgan mavzu bo‘yicha bilimlarni mustahkamlash;
- mantiqiy fikrlashni rivojlantirish;

- o‘zbekiston respublikasi byudjet tizimi, byudjet jaraèni hamda byudjet prognozini ishlab chiqish borasida mustaqil ravishda qaror qabul qilish ko‘nikmalarini egallash;

- o‘zbekiston respublikasi byudjet tizimi, byudjet jaraèni hamda byudjet prognozini ishlab chiqish uslubiyatini qo‘llash qobiliyatini tekshirish.

VAZIYAT

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi 2018 yilning 10 aprelida kelgusi davr uchun byudjet so‘rovini tuzish tartibini O‘zbekiston Respublikasining respublika byudjeti loyihasini tayyorlash uchun — byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga yubordi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi va boshqa vazirliklar, davlat qo‘mitalari hamda idoralardan Davlat byudjeti loyihasining daromad qismi bo‘yicha takliflar so‘raydi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi va boshqa vazirliklar, davlat qo‘mitalari hamda idoralar Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg‘armalari daromadlarining proqnozi bo‘yicha takliflarni O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga va davlat maqsadli jamg‘armalarini taqsimlovchi organlarga — 2018 yilning 15 iyunigacha taqdim etdilar.

Quyida keltirilgan jadvalda, 2018 moliyaviy yilda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha kutilayotgan tushumlar haqidagi ma’lumotlar keltirilgan(ma’lumotlar shartli).

Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar	2018 yilda yig‘ilishi kutilayotgan soliq tushumlari miqdori, mld. so‘mda	2019 yil uchun prognoz ko‘rsatkichi sifatida taklif qilinayotgan, soliq tushumlari miqdori, mld. so‘mda
yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i;	20,0	
jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;	25,0	
qo‘shilgan qiymat solig‘i;	50,0	
aksiz solig‘i;	38,0	
yer qa’ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to‘lovlar;	20,0	
suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;	15,0	
molg‘mulk solig‘i;	12,0	

yer solig'i;	18,0	
benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq.	17	
davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy to'lovlar:	22	
davlat boji;	7	
bojxona to'lovlar;	30	
ayrim turdag'i tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdag'i xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'im.	8	
soliq solishning soddalashtirilgan tartibida to'lanadigan soliqlar	13	
Jami	275	

Soliq idorasida soliq tushumlarini prognoz hisobga kitoblari uchun mas'ul xodim sifatida qanday takliflarni O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga bergan bo'lar edingiz? Kutilayotgan soliq tuumlarini hajmini aniqlashda qanday omillarni inobatga olasiz?

SAVOLLAR VA TOPSHIRIQLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining so'roviga asosan taqdim qilinadigan taklifni qanday tuzadi?

2. Soliq tushumlarining kutilayotgan hajmiga qanday makroiqtisodiy omillar ta'sir ko'rsatadi?

3. Byudjetning daromad qismini prognozlashda nima uslubiy asos bo'lib xizmat qiladi?

4. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining so'roviga asosan taqdim qilinadigan taklifnini ishlab chiqishda qanday mikroiqtisodiy ko'rsatkichlar nazarda tutilishi kerak?

2-topshiriq.


Talabalar tomonidan Davlat byudjeti va uni shakllantirish manbalari, Davlat byudjetini prognozlashtirish, Davlat byudjeti loyihasini tuzish va tasdiqlash savollarini o'zlashtirish darajasini tahlil qilish maqsadida "Bilaman. bilishni xohlayman. bilib oldim" (BBB) grafik organizayzeridan foydalaniladi va quyidagi jadvalni to'ldirish topshirig'i beriladi.

O'quv faoliyati bevosita yozuv taxtasi yoki ish qog'ozida o'z aksini topgan quyidagi sxema asosida tashkil etiladi:

Mavzu savollari	Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim
Davlat byudjeti va uni shakllantirish manbalari,			
Davlat byudjetini prognozlashtirish,			
Davlat byudjeti loyihasini tuzish va tasdiqlash			

"Bilaman. bilishni xohlayman. bilib oldim" (BBB) grafik organizayzeri talabalarga muayyan mavzular bo'yicha bilimlari darajasini baholay olish imkonini beradi. Uni qo'llashda talabalar guruh yoki jamoada ishlashlari mumkin. Guruhda ishlashda mashg'ulot yakunida guruhlar tomonidan bajarilgan ishlar tahlil qilinadi.

Guruhsiz faoliyati quyidagi ko'rinishda tashkil etilishi mumkin:



Foydalaniladigan adabiyotlar royxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiysi to‘g‘risida. 2018 yil 29 iyun. Elektron- huquqiy baza.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 488 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 56 b.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Soliq ma’muriyatichilagini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning yig‘iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. 2017 yil 18 iyul, pf-5116-son. Elektron-huquqiy baza.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy erkinligini oshirish, mahalliy byudjetlarga tushumlarning to‘liqligini ta‘minlash bo‘yicha soliq va moliya organlari javobgarligini kuchaytirishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida. 2017 yil 13 dekabr, PF-5283-son. Elektron-huquqiy baza.
6. Распоряжение Президента Республики Узбекистан. Об организации критического изучения деятельности финансовых, налоговых и таможенных органов. 16 января 2018 г. № р-5182. Электронно-правовая база.
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini huquqiy tartibga solishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida. 2017 yil 28 avgust, 677-son. LEX.UZ. Elektron-huquqiy baza.
8. Абдуганиева Г.К., Бабабекова Н.Б. Прогнозирование налогов. Учебное пособие. – Т.: “Тафаккур-Бўстони”, 2012. - 224 с.
9. Doschanova N.P. Soliq statistikasi va prognozi. O‘quv qo‘llanma. – Т.: “Ren-Poligraf” bosmaxonasi, 2009. – 216 b.
10. Vahobov A.V, Jo‘rayev A.S Soliqlar va soliqqa tortish.Darslik.T: “Sharq”, 2009. -448 b.
11. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. “Norma” huquqiy bazasi.
12. O‘zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi. “Norma” huquqiy bazasi.
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 iyuldagи “Soliq ma’muriyatichilagini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning yig‘iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5116-sonli Farmoni. Xalq so‘zi» gazetasi. 2017 yil 19 iyuldagи 141 (6835)-son.
14. Malikov T.S., Jalilov P.T. Byudjet-soliq siyosati. O‘quv qo‘llanma. – Т.: “Akademnashr”, 2011. - 472 b.
15. Haydarov N.H. Soliqlar va soliqqa tortish masalalari. O‘quv qo‘llanma. AkademiY. - Т.: 2007. - 214 b.;
16. Gadoev E, Kuzieva N. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish. Darslik. – Т.: “O,,zbekiston”, 2012. - 336 b
17. Jo‘rayev A, S. Shirinov. Soliq statistikasi va prognozi: O‘quv qo‘llanma, Т.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2015.-392b.
18. Eshboyev T.T. Yuridik shaxslarni soliqqa tortish. Darslik. T: “Cho‘lpon” 2013, 296 bet
19. Tagayev A., Xoshimoto F., Ro‘ziyev G‘., Xotamov K. Soliq nazorati.- Т.:O‘quv qo‘llanma, “Yangi asr avlodи”, 2010.
20. I.Xabibullayev, G.Mansurova, Soliq statistikasining nazariy asoslari. O‘quv qo‘llanma - Т.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi», 2005.
21. Forecasting Scottish taxes. The National Archives, Kew, London TW9 4DU. Crown copyright 2017. 25p/(20p.).

22. Federal taxation: practice and procedure. Robert E., Richard J. Chicago, 2017.987p. (252p.).
23. Tax analysis and revenue forecasting. Issues and Techniques. By Glenn P. Jenkins Chun-Yan Kuo Gangadhar P. Shukla. Harvard Institute for International Development Harvard University . 2017. 187 p.(2p.).
24. An Analysis of Tax Revenue Forecast Errors. Martin Keene and Peter Thomson. New Zealand treasury working paper 07/02. 2017.41p.(2p.).
25. Tax policy, Revenue forecasting and economic analysis force. Joshua Goldstain, assistant director. Office of management and budget. The City of New York. 2017. 308p.(39p.)

Internet saytlari:

26. www. <http://el.tfi.uz/> - Toshkent moliya instituti elektron kutubxonasi;
27. www. <http://soliq.uz>;
28. www. <http://edu.uz>;
29. www. <http://mf.uz>;
30. www. <http://oxs.uz>;
31. www. <http://norma.uz>;
32. www. <http://lex.uz>;
33. www. <http://my.gov.uz>;
34. www. <http://alleng.ru>;

8.1. “BYUDJET VA BYUDJETDAN TASHQARI MAQSADLI JAMGARMALARGA TUSHUMLARNI TAHLIL QILISH VA PROGNOZLASHTIRISH TARTIBI ” O’QUV MODULI YUZASIDAN MA’RUZA MATNI

VIII. O’QUV MATN (MODUL)

MODUL: BYUDJET VA BYUDJETDAN TASHQARI MAQSADLI JAMGARMALARGA TUSHUMLARNI TAHLIL QILISH VA PROGNOZLASHTIRISH TARTIBI



Reja:

1. Byudjet va byudjetdan tashqari jamgarmalarga tushumlarni tahlili
2. Byudjet va byudjetdan tashqari jamgarmalarga tushumlarni prognozlash

Tayanch so‘z va iboralar: yagona ijtimoiy to‘lov, byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi, respublika yo‘l jamg‘armasiga yig‘imlar, vaqtinchalik bo‘sh turgan mablag‘lar, davlat boji, kredit va sug‘urta tashkilotlari.

Davlat byudjetining daromadlarining yetarliligi va soliqli daromadlarining barqaror kelib tushishini ta’minlash mamlakat soliq siyosatini samarali olib borilishini kafolatlovchi ko‘rsatkichlar hisoblanadi⁸.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining daromadlari:

yagona ijtimoiy to‘loving belgilangan miqdordagi tushumlari;
fuqarolarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga sug‘urta badallari;
byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga majburiy ajratmalar;

boshqa daromadlar hisobidan shakkantiriladi. Boshqa daromadlarga mehnatda mayib bo‘lganlik yoki kasb kasalligiga chalinganlik tufayli tayinlangan nogironlik pensiyalarini to‘lash xarajatlarining o‘rnini qoplash uchun taqdim etiladigan regress talablar (da‘volar) bo‘yicha ish beruvchilar va fuqarolar tomonidan o‘rni qoplanadigan mablag‘lar tushumining bir qismi, O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasining muddatidan oldin tayinlangan yoshga doir pensiyalarini to‘lash xarajatlarini qoplash hisobidan kiritiladigan mablag‘lari, yuridik shaxslarning imtiyozli pensiyalarini to‘lash xarajatlarini qoplash hisobidan kiritiladigan mablag‘lari, fuqarolarning ixtiyoriy tartibda to‘lanadigan sug‘urta badallari, majburiy to‘lovlar, badallar o‘z vaqtida to‘lanmaganligi uchun hisoblangan jarimalar va penyalar summasining bir qismi, mehnat vazifalarini bajarish bilan bog‘liq holda mayib bo‘lgan, kasb kasalligiga chalingan yoxud sog‘lig‘iga boshqacha shikast yetkazilgan xodimga yuridik shaxs tugatilganda, qishloq xo‘jaligi kooperativi (shirkat xo‘jaligi), fermer va dehqon xo‘jaligi qayta tashkil etilganda yoki tugatilganda zararning o‘rnini qoplash uchun to‘lanadigan nazarda tutilgan mablag‘lar, vaqtinchalik bo‘sh turgan mablag‘larni joylashtirishdan olingan daromadlar va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa manbalar kiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika yo‘l jamg‘armasining daromadlari:

Respublika yo‘l jamg‘armasiga majburiy ajratmalar;

⁸ Tax analysis and revenue forecasting. Issues and Techniques. By Glenn P. Jenkins Chun-Yan Kuo Gangadhar P. Shukla. Harvard Institute for International Development Harvard University . 2017. 187 p.(5 p.)

Respublika yo‘l jamg‘armasiga yig‘imlar;
 vaqtinchalik bo‘sh turgan mablag‘larni joylashtirishdan olingen daromadlar;
 qonun hujjatlariga muvofiq boshqa manbalar hisobidan shakllantiriladi.
 Davlat mulkini xususiylashtirishdan tushgan mablag‘lar jamg‘armasining daromadlari:
 davlat mulki bo‘lgan korxonalarni, xo‘jalik jamiyatlarining ustav jamg‘armalaridagi
 aksiyalarni (ulushlarni), yer uchastkalari va boshqa mol-mulkni realizatsiya qilish;
 ustav jamg‘armalarida davlat ulushi bo‘lgan xo‘jalik jamiyatlarini tugatishdan tushgan
 tushumlar;
 qonun hujjatlariga muvofiq boshqa manbalar hisobidan shakllantiriladi.
 O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasining daromadlari:
 belgilangan miqdordagi yagona ijtimoiy to‘lov tushumlari;
 vaqtincha bo‘sh turgan mablag‘larni joylashtirishdan olingen daromadlar;
 qonun hujjatlariga muvofiq boshqa manbalar hisobidan shakllantiriladi.
 O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Umumta’lim
 maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya
 qilish, mukammal ta’mirlash va jihozlash jamg‘armasining daromadlari:
 Umumta’lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini
 rekonstruksiya qilish, mukammal ta’mirlash va jihozlash jamg‘armasiga majburiy ajratmalar;
 vaqtincha bo‘sh turgan mablag‘larni joylashtirishdan olingen daromadlar;
 qonun hujjatlariga muvofiq boshqa manbalar hisobidan shakllantiriladi.
 O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug‘oriladigan yerlarning meliorativ
 holatini yaxshilash jamg‘armasi daromadlari:
 har yili tasdiqlanadigan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug‘oriladigan
 yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg‘armasining asosiy parametrlari doirasida qishloq
 xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari tomonidan to‘lanadigan yagona yer solig‘i bo‘yicha
 tushumlarga muvofiq byudjetdan ajratiladigan mablag‘lar;
 byudjetdan ajratiladigan maqsadli mablag‘lar;
 qonun hujjatlariga muvofiq boshqa manbalar hisobidan shakllantiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Oliy o‘quv yurtlarining moddiy-texnika
 bazasini rivojlanadigan jamg‘armasi daromadlari:

O‘zbekiston Respublikasining respublika byudjeti mablag‘lari;
 vaqtincha bo‘sh turgan mablag‘larni joylashtirishdan olingen daromadlar;
 qonun hujjatlariga muvofiq boshqa manbalar hisobidan shakllantiriladi.

Lg O’t = Lg Ao + Lg A1 bunda, A1 , Ao lar regression to‘g‘ri chizziqli funktsiyaning
 parametrlari hisoblanadi. Ushbu parametrlarni aniqlash talab qilinadi. A1, Ao parametrlarning
 qimatini topish uchun quyidagi to‘g‘ri chizziqli regression tenglamani echish talab qilinadi.

$$\begin{cases} nLgAo + LgA1\sum t = Lgy \\ LgAo \sum t + LgA1 \sum t^2 = \sum tLgy \end{cases}$$

$\sum t = 0$ ni inobatga olgan holda

$$LgAo = \frac{\sum Lgy}{n} \quad LgA1 = \frac{\sum tLgy}{\sum t^2} \quad \text{tengligi topiladi.}$$

Davlat byudjetining soliqsiz daromadlariga mahalliy yig‘mlar, maqsadli jamg‘armalar
 daromadlari kiradi. Tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish va ayrim turdag'i xizmatlar
 ko‘rsatish huquqi uchun yig‘im, bozorlar tomonidan olinuvchi patta to‘lovlar mahalliy yig‘mlar
 tarkibini tashkil qiladi. Ular mahalliy byudjet daromad qismini shakllantirishda muhim ahamiyat
 kasb etadi. Tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish va ayrim turdag'i xizmatlar
 ko‘rsatish huquqi uchun yig‘im tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish va ayrim
 turdag'i xizmatlar ko‘rsatish huquqi uchun yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirdorlardan
 undiriladi. Tovarlar va xizmatlarning qonun hujjatlarida belgilanadigan royxati tovarlarning ayrim

turlari bilan chakana savdo qilish va ayrim turdag'i xizmatlar ko'rsatish uchun yig'im ob'ektidir. Yig'im yig'im stavkalarining oylik miqdori doirasida hisoblab chiqariladi.

Nº	yig'im turlari(2017 yil)	Stavka chegarasi
1	Ayrim tovarlar bilan savdo qilish huquqi uchun yig'im:	
	Alkagol mahsulotlar realizatsiyasi uchun, jumladan umumiyligi ovqatlanish korxonalarida alkagol mahsulotlarini realizatsiyasi uchun	1 oy uchun 5 minimal ish haqi miqdorida
	Qimmatbaho metal va toshlardan yasalgan buyumlar savdosi uchun	1 oy uchun, 3,5 minimal ish haqi miqdorida
2	Transport vositalarini vaqtinchalik saqlash xizmatini ko'rsatish huquqi uchun yig'im	Har -bir oy uchun 8 minimal ish haqi miqdorida

1-rasm.Yig'im turlari va ular uchun belgilangan soliq stavkalari(2017 yil)

Tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish va ayrim turdag'i xizmatlar ko'rsatish huquqi uchun yig'imning aniq stavkasi mahalliy davlat hokimiyatining vakillik organlari tomonidan belgilanadi. Belgilangan stavkalar mahalliy davlat hokimiyatining vakillik organlari tomonidan belgilanadigan stavkalar qonun hujjalarda belgilangan eng yuqori stavkalardan ortiq bo'lishi mumkin emas.

Mahalliy yig'mlarni prognozlashda minimal ish haqi miqdori, yig'im to'lovchilar soni, tadbirkorlarning tadbirkorlik faoliyati turlarida yuz beruvchi o'zgarishlar o'z ta'sirini ko'rsatadi. 1-rasmga qarang.

Mahalliy yig'mlarning to'lash muddati prognozlashtirilgan tushumlarning yilning qaysi davrida yig'sh ehtimoli oshishini belgilab beradi.

Tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish va ayrim turdag'i xizmatlar ko'rsatish huquqi uchun yig'im boyicha hisob-kitob taqdim qilish tartibi quydagicha belgilangan:

-yil davomida tegishli ruxsat guvohnomasini (mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organining qarorini) olgan soliq to'lovchilar tomonidan — ruxsat guvohnomasi (mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organining qarori) berilgan kundan e'tiboran o'n kundan kechiktirmasdan taqdim qilinadi.

-faoliyat yuritayotgan soliq to'lovchilar tomonidan — har yili hisobot yilining 15 yanvarigacha taqdim etiladi.

Patta to'lovini bozorlarda tovarlar, buyumlar va qishloq xo'jaligi mahsulotlari sotishni amalga oshirayotgan jismoniy shaxslar to'laydi. Patta to'lovi miqdorlari mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan tasdiqlanadi. Patta to'lovi har bir to'lovchidan naqd pulli yoki naqd pulsiz shaklda, bir vaqtning o'zida fiskal xotirali nazorat-kassa mashinasining chekini yoki terminal chekini berish orqali undiriladi.

Bozorlar daromadlarining umumiyligi summasidan, bozorlar daromadidan to'lanadigan davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy ajratmalar chegirib tashlangandan keyin qolgan mablag'larning 50 foizi bozorlar joylashgan joydagi tegishli mahalliy byudjetlarga belgilangan tartibda yo'naltiriladi.

Davlat boji yuridik ahamiyatga molik harakatlarni amalga oshirganlik va (yoki) bunday harakatlar uchun vakolatli muassasalar va (yoki) mansabdor shaxslar tomonidan hujjalalar bergenlik uchun olinadigan majburiy to'lovdir.

O'zbekiston Respublikasi konsullik muassasalarini tomonidan konsullik harakatlarini amalga oshirganlik uchun davlat boji konsullik yig'imi tariqasida undiriladi. Yuridik ahamiyatga molik harakatlar amalga oshirilishi va (yoki) hujjalalar berilishi xususida vakolatli muassasalar va (yoki)

mansabdor shaxslarga murojaat qilayotgan yuridik va jismoniy shaxslar davlat bojini to'lovchilardir.

Davlat bojining undirish ob'ektlariga quyidagilar kiradi:

1) sudsiga beriladigan da'vo arizalaridan, organlarning va ular mansabdor shaxslarining harakatlari (qarorlari) ustidan berilgan shikoyatlardan, alohida tartibda yuritiladigan ishlarga doir arizalardan, sudsiga qarorlari ustidan beriladigan apellyatsiya, kassatsiya shikoyatlaridan va arizalaridan, nazorat tartibida protest keltirish to'g'risidagi shikoyatlar va arizalardan, hakamlik sudining hal qiluv qarorlarini bekor qilish to'g'risidagi arizalardan, hakamlik sudining qarorlarini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi arizalardan, shuningdek sudsiga tomonidan hujjatlarning nusxalarini berganlik uchun;

2) da'vo arizalaridan, tashkilotlarni va fuqarolarni bankrot deb topish to'g'risidagi arizalardan, nizo predmetiga nisbatan mustaqil talablarni bildirgan uchinchi shaxs sifatida ishga kirishish to'g'risidagi arizalardan, yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni aniqlash to'g'risidagi arizalardan, xo'jalik sudining qarorlari, ish yuritishni tugatish to'g'risidagi ajrimi ustidan berilgan, da'voni ko'rmasdan qoldirish to'g'risidagi, sud jarimalarini solish to'g'risidagi apellyatsiya va kassatsiya shikoyatlaridan, hakamlik sudining qarorlarini bekor qilish to'g'risidagi, hakamlik sudining qarorlarini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi arizalardan, xo'jalik sudining hakamlik sudi qarorlarini bekor qilish to'g'risidagi, shuningdek hakamlik sudining hal qiluv qarorlarini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasini berish to'g'risidagi va ijro varaqasini berishni rad etish to'g'risidagi ishlar boyicha ajrimlari ustidan berilgan apellyatsiya va kassatsiya shikoyatlaridan;

3) notariuslar va O'zbekiston Respublikasining konsullari tomonidan notarial harakatlarni amalga oshirganlik uchun;

4) fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etganlik uchun, shuningdek fuqarolarga fuqarolik holati dalolatnomalari qayd etilganligi to'g'risida takroriy guvohnoma bergenlik uchun hamda fuqarolik holati dalolatnomalari yozuviga o'zgartishlar, qo'shimchalar, tuzatishlar kiritilishi va uning qayta tiklanishi munosabati bilan guvohnoma bergenlik uchun;

5) chet eldan O'zbekiston Respublikasiga kelish huquqini beruvchi hujjatlarni, O'zbekiston Respublikasiga taklif qilish to'g'risida hujjatlarni bergenlik uchun; yashash guvohnomasini bergenlik yoki uning muddatini uzaytirganlik uchun; respublika hududiga kelish va respublika hududidan chet elga chiqish huquqini beradigan chet el pasportiga yoki uning o'rnini bosuvchi hujjatga viza bergenlik uchun, shuningdek O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilish va O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqish to'g'risida beriladigan arizalardan;

6) O'zbekiston Respublikasining fuqarosi pasportini yoki uning o'rnini bosuvchi hujjatlarni, O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga chet elga chiqish huquqi uchun hujjatlar bergenlik uchun;

7) O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini turar joyga qayd etganlik va royxatdan chiqorganlik, turgan joyi boyicha hisobga olganlik uchun, shuningdek chet davlatlar fuqarolarini hamda fuqaroligi bo'limgan shaxslarni turar joyga qayd etganlik va royxatdan chiqorganlik uchun.

8) yuridik shaxslarni va yakka tartibdagi tadbirkorlarni davlat royxatidan o'tkazganlik uchun;

9) faoliyatning ayrim turlarini amalga oshirishga litsenziya bergenlik uchun;

10) ov qilish huquqiga ega ekanligi to'g'risida ruxsatnoma bergenlik uchun.

Davlat byudjetining jami daromadi tarkibida maqsadli jamg'armalarning daromadi salmoqli ulushga ega. Maqsadli jamg'armalarning daromadlariga O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi; ta'lif maktablarini, professional kollejlarni, akademik litseylarni, tibbiyot muassalarini kapital ta'mirlash, rekonstruktsiya qilish va jihozlash fondi; Oliy ta'lif muassalarini moddiy texnik bazasini rivojlantirish; Sug'oriladigan erlarni melerativ holatini yaxshilash fondi; Bandlikka ko'maklashuv fondi; Davlat mulkini xususiylashtirish fondi, O'zbekiston Respublikasining rekonstruktsiya va rivojlantirish fondi daromadlari kiradi.

1-jadval**2017 yilda, Davlat byudjetining jami daromadi tarkibida maqsadli jamg'armalarning ulushi**

Ko'rsatkichlar	Soliqlarning salmog'i, %da
Davlat byudjetining maqsadli jamg'armalarisiz jami daromadlari	60,47
O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi; ta'lif maktablarini, professional kollejlarni, akademik litseylarni, tibbiyot muassalarini kapital ta'mirlash, rekonstruktsiya qilish va jihozlash fondi; Oliy ta'lif muassalarini moddiy texnik bazasini rivojlantirish; Sug'oriladigan erlarni melerativ holatini yaxshilash fondi; Bandlikka ko'maklashuv fondi; Davlat mulkini xususiylashtirish fondi	35,75
O'zbekiston Respublikasining rekonstruktsiya va rivojlantirish fondi	3,78
Jami daromad	100,00

1-jadvalda 2017 yilda, Davlat byudjetining jami daromadi tarkibida maqsadli jamg'armalarning ulushi tahlil qilingan. 2017 yilda Davlat byudjetining maqsadli jamg'armalarisiz jami daromadlari 60.47%ni tashkil qilgan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi; ta'lif maktablarini, professional kollejlarni, akademik litseylarni, tibbiyot muassalarini kapital ta'mirlash, rekonstruktsiya qilish va jihozlash fondi; Oliy ta'lif muassalarini moddiy texnik bazasini rivojlantirish; Sug'oriladigan erlarni melerativ holatini yaxshilash fondi; Bandlikka ko'maklashuv fondi; Davlat mulkini xususiylashtirish fondlari 35.75%ni, O'zbekiston Respublikasining rekonstruktsiya va rivojlantirish fondi 3,78%ni tashkil qilgan.

2-jadval**2017 yilda, O'zbekiston Respublikasi pensiya jamg'armasining daromadi tarkibi**

Nº	Ko'rsatkichlar(2015y.)	Ulushi, %da
	Barcha daromadi	100,00
1	2015 yilning boshida kutilayotgan qoldiq	15,66
2	Daromadlar	84,34
	Jumladan:	
2.1	Yagona ijtimoiy to'lovdan ajratma	59,61
2.2	Fuqarolarning majburiy sug'urta badallari	17,64
2.3	Mahsulot(ish va xizmatlar) realizatsiya hajmidan amalga oshiriluvchi majburiy ajratmalar	14,78
2.4	Boshqa daromadlar	7,97

2-jadvalda 2017 yilda, O'zbekiston Respublikasi pensiya jamg'armasining daromadi tarkibi keltirilgan. Jamg'armaning barcha daromadlarini 59,61% Yagona ijtimoiy to'lovdan ajratma, 17,64% Fuqarolarning majburiy sug'urta badallari, 14,78 % Mahsulot(ish va xizmatlar) realizatsiya hajmidan amalga oshiriluvchi majburiy ajratmalar va 7,97 boshqa daromadlar hisobidan shakllantirilgan.

3-jadvalda 2017 yilda, O'zbekiston Respublikasi Yo'l fondining daromadi tarkibi bayon qilingan. Uning daromadlarini 60.53%i tovarlar(ish va xizmatlar) realizatsiyasi hajmidan Respublika yo'l jamg'armasiga amalga oshiriluvchi majburiy ajratmalar hisobidan shakllantirilgan. Qolgan 16.12% Avtotransport vositalarini olganlik va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun, O'zbekiston Respublikasi IIV idoralarida royxatdan o'tkazishda transport vositasi egasi(foydalanuvchisi) tomonidan to'lanuvchi yig'im hisobidan, 1.94% chet davlatlar avtotransport vositalarining O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranzit tarzida o'tganligi uchun yig'im hisobidan, 21.01% Xalqaro Moliyaviy institatlarning qarzlarini hisobidan, 0.4% boshqa daromadlar hisobidan shakllantirilgan.

3-jadval

Nº	Ko'rsatkichlar	ulushi, %da
1	Daromadlar	100,00
	Jumladan:	
1.1	Tovarlar(ish va xizmatlar) realizatsiyasi hajmidan Respublika yo'l jamg'armasiga amalga oshiriluvchi majburiy ajratmalar	60,53
1.2	Avtotransport vositalarini olganlik va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun, O'zbekiston Respublikasi IIV idoralarida royxatdan o'tkazishda transport vositasi egasi(foydalanuvchisi) tomonidan to'lanuvchi yig'im	16,12
1.3	chet davlatlar avtotransport vositalarining O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranzit tarzida o'tganligi uchun yig'im	1,94
1.4	Xalqaro Moliyaviy institutlarning qarzlari	21,01
1.5	Boshqa tushumlar	0,40

4-jadvalda 2017 yilda, O'zbekiston Respublikasi Byudjetdan tashqari Umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasi daromadi tarkibi keltirilgan. Mazkur jamg'arma daromadining 60,83% Jamg'armaga majburiy ajratmalar, 37,64% Sog'liqni saqlash xarajatlari hisobidan, alohida satr ajratilgan holda, O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetidan ajratiladigan mablag', 1,06% Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining mablag'lari hisobidan ajratiladigan mablag'lar hisobidan shakllantiriladi.

4-jadval

2015 yilda, O'zbekiston Respublikasi Byudjetdan tashqari Umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasi daromadi tarkibi

№	Ko'rsatkichlar(2017y.)	№
I.	Barcha daromadi	100,00
1	2017 yilning boshida kutilayotgan qoldiq	0,47
2	Jamg'armaga majburiy ajratmalar	60,83
3	Sog'liqni saqlash xarajatlari hisobidan, alohida satr ajratilgan holda, O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetidan ajratiladigan mablag'	37,64
4	Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining mablag'lari hisobidan ajratiladigan mablag'lar	1,06

5-jadvalda 2017yilda, O'zbekiston Respublikasi Byudjetdan tashqari Oliy ta'limga muassalarining moddiy-texnik bazasini rivojlantirish jamg'armasining daromadlari tarkibi keltirilgan. Mazkur jamg'armaning daromadini 97,12% Ta'limga xarajatlari hisobidan, alohida satr ajratilgan holda, O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetidan ajratiladigan mablag'i, 2,88% Sponsorlik va xayriya mablag'lari hisobidan yig'ladi.

5-jadval

**2017 yilda, O'zbekiston Respublikasi Byudjetdan tashqari Oliy ta'lif muassalarining
moddiy-texnik bazasini rivojlantirish jamg'armasi**

Nº	Ko'rsatkichlar	Ulushi,%da
	Barcha daromadi	100,00
1	Ta'lif xarajatlari hisobidan, alohida satr ajratilgan holda, O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetidan ajratiladigan mablag'	97,12
2	Sponsorlik va xayriya mablag'lari	2,88

6-jadvalda 2015 yilda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi qoshidagi "Sug'oriladigan erlarni meliorativ holatini yaxshilash" jamg'armasi daromadlari tarkibi tahlil qilingan. "Sug'oriladigan erlarni meliorativ holatini yaxshilash" jamg'armasi daromadlarini 51,37% yagona yer solig'idan tushumidan, 43,95% Maqsadli byudjet assignovaniyasi hisobidan shakllantirilgan.

Ijtimoiy jamg'armalarga majburiy to'lovlar tarkibiga yagona ijtimoiy to'lovlar, fuqarolarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari va byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar kiradi.

Yagona ijtimoiy to'lovni to'lovchilar hisoblangan shaxslar O'zbekiston Respublikasining soliq kodeksini 305-moddasida bayon qilingan. Mazkur moddaga asosan yagona ijtimoiy to'lovni to'lovchilarga quyidagi shaxslar kiradi:

-yuridik shaxslar - O'zbekiston Respublikasi rezidentlari;

-O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa, chet elliq yuridik shaxslarning vakolatxonalarini va filiallari orqali amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasi nerezidentlari.

6-jadval

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi qoshidagi "Sug'oriladigan erlarni meliorativ holatini yaxshilash" jamg'armasi, 2017 yilga

Nº	Ko'rsatkichlar	ulushi, %da
	Barcha daromad	100,00
1	Yagona er solig'idan tushum	51,37
2	Maqsadli byudjet assignovaniya	43,95
3	"O'zmeliomashlizing" Davlat lizing komaniyasiga berilgan qarz mablag'ini qaytarilishi	4,68

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, shuningdek O'zbekiston Respublikasida doimiy ravishda yashab turgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'limgan shaxslar fuqarolarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallarini to'lovchilari hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi soliq kodeksining 172-moddasiga asosan, ko'rsatilgan ish haqi ko'rinishidagi daromadlar yagona ijtimoiy to'loving va sug'urta badallarining soliq solish ob'ekti deb e'tirof etiladi.

Yagona ijtimoiy to'lovni va sug'urta badallarini soliq solinadigan bazasi mehnatga haq to'lash tarzdagi daromadrai asosida aniqlanadi. Ish beruvchi bilan tuzilgan mehnat shartnomasiga muvofiq ishlarni bajarayotgan jismoniy shaxslarga hisoblanadigan va to'lanadigan barcha to'lovlar mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar deb e'tirof etiladi:

O'zbekiston Respublikasi soliq kodeksining 308-moddasida yagona ijtimoiy to'lov va sug'urta badallariga oid soliq imtiyozlari tarkibi bayon qilingan. Xususan, yagona ijtimoiy to'lov va sug'urta badallari quyidagi to'lov larga nisbatan hisoblanmaydi:

- kompensatsiya to'lovlar;
- xodimga hisoblanadigan va uning roziligi bilan tegishli byudjet yoki hayriya jamg'armalarga (shanbaliklar, yakshanbaliklar va shu kabilar uchun) o'tkaziladigan ish haqi tarzidagi daromadlar;
- xodimning muhim sanasi, uzoq yillik xizmati, jamoat faoliyatida erishgan yutuqlari munosabati bilan unga beriladigan rag'batlantirish tarzidagi to'lovlar;
- xodimga tabiiy ofat, boshqa favqulodda holatlar munosabati bilan to'lanadigan to'lovlar;
- yosh mutaxassislarga oliv o'quv yurtini tamomlaganlaridan so'ng ta'til vaqt uchun yuridik shaxslar hisobidan to'lanadigan nafaqalar;
- O'zbekiston Respublikasi Mudofaa, Ichki ishlar, Favqulodda vaziyatlar vazirliklarining, O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchilariga, ichki ishlar organlarining hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining oddiy, serjant va ofitser tarkiblarida xizmatni o'tashi (xizmat majburiyatlarini bajarishi) munosabati bilan to'lanadigan pul ta'minoti, pul mukofotlari va boshqa to'lovlar;
- davlatlar, davlatlarning hukumatlari, xalqaro va chet el hukumatga qarashli tashkilotlar tomonidan berilgan grant mablag'lari;
- O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan belgilanadigan royxatga kiritilgan xalqaro va chet el nohukumat tashkilotlari tomonidan berilgan grant mablag'lari;
- O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari doirasida berilgan grant mablag'lari.

Yagona ijtimoiy to'lov va sug'urta badallari har oyda soliq solinadigan baza va belgilangan stavkalar asosida hisoblab chiqariladi.

Yagona ijtimoiy to'lov ish beruvchining mablag'lari hisobidan to'lanadi, sug'urta badallari esa xodimlarning ish haqidan ushlab qolinib, to'lanadi.

t/r	Xo'jalik tarmog'i turi	Sof tushumni aniqlashning o'ziga xos xususiyatlari
1	Kommunal xo'jalik tizimining issiqlik, suv va gaz ta'minoti korxonalari uchun	Mahsulotlarning (ishlarning, xizmatlarning) qo'shilgan qiymat solig'i va tegishinchcha issiqlik ta'minoti korxonalari uchun issiqlik quvvatining, suv ta'minoti korxonalari uchun suvning, gaz ta'minoti korxonalari uchun tabiiy gazning xarid qiymati chegirib tashlangan holda realizatsiya qilingan hajmi
2	Qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari	O'z kuchlari bilan bajarilgan qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot ishlarining qo'shilgan qiymat solig'i chegirib tashlangan holdagi qiymati.
3	Vositachilik xizmatlari ko'rsatuvchi yuridik shaxslar	Ko'rsatilgan xizmatlar uchun qo'shilgan qiymat solig'i chegirib tashlangan holdagi haq summasi
4	Savdo faoliyatini amalga oshiradigan yuridik shaxslar	Tovar oboroti
5	Kredit tashkilotlari va sug'urta tashkilotlari	Daromad
6	Asosiy faoliyati mol-mulkni lizingga berishdan iborat bo'lgan yuridik shaxslar	Moliyaviy ijara (lizing) boyicha foizli daromad summasi

2-rasm.Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarini hisoblash uchun zarur bo'lgan soliq solish bazasini aniqlashning o'ziga xos xususiyatlari

Yakka tartibdagi tadbirkorlar sug'urta badallarini majburiy tartibda oyiga eng kam ish haqidan kam bo'lмаган miqdorda to'laydi.

Yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklarining a'zolari sug'urta badallarini ixtiyoriylik asosida to'laydilar. Yillik sug'urta badalining minimal miqdori eng kam ish haqining to'rt yarim baravaridan kam bo'lmasligi lozim.

Yoshga doir pensiya olish huquqiga ega bo'lgan, shuningdek I va II guruh nogironlari bo'lgan yakka tartibdagi tadbirkorlar hamda yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklarining a'zolari uchun sug'urta badallari belgilangan meyorning kamida 50 foizini tashkil etadi.

Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar soliq to'lovchilar tmonidan ularning sof tushumlaridan to'lanadi. Mazkur majburiy ajratma to'lovchilariga quyidagilar kiradi:

- yuridik shaxslar - O'zbekiston Respublikasining rezidentlari;
- oddiy shirkat ishlarini yuritish zimmasiga yuklatilgan (ishonchli shaxs) sherik (ishtirokchi) - yuridik shaxs.

Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarini hisoblash uchun zarur bo'lgan soliq solish bazasini aniqlashning o'ziga xos xususiyatlari 2-rasmida keltirilgan.

Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar har oyda soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkalar asosida hisoblanadi.

Ma'lumki, boshqa soliq va majburiy to'lovlar kabi, ijtimoiy jamg'armalarga majburiy to'lovlar to'lovchilarining sonini o'zgarishi majburiy to'lov tushumlarining prognoz ko'rsatkichiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu sababli, respubikmizda faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlarning sonini hamda ularda ishlovchi ishchilar sonining ortishi majburiy to'lov prognози ko'rsatkichlarini oshishiga olib keladi.

Ijtimoiy jamg'armalarga majburiy to'lovlarni prognоз qilishda turli xil usullardan foydalaniladi. Masalan, statistik ma'lumotlar asosida, haqiqatda byudjetga tushgan tushumlar tahlili asosida va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning buxgalteriya ma'lumotlari asosida prognozlash usullari. Statistik ma'lumotlar asosida, haqiqatda byudjetga tushgan tushumlar tahlili asosida prognozlash ekstropolyatsiya usuli ham deb ataladi.

7-jadval

Yagona ijtimoiy to'lov stavkaları, 2017 yil uchun

Nº	To'lovchilar	Stavkalar, mehnatga haq to'lash jamg'armasiga nisbatan foyizada
1	Mikrofirma va kichik korxonalar hamda fermer xo'jaliklari	15
2	Boshqa to'lovchilar	25

Ijtimoiy jamg'armalarga majburiy to'lovlarni prognоз qilishda qanday usuldan foydalanishdan qatiy nazar, prognоз tadiqqoti uchun kerakli, ob'ektiv ma'lumotlar yig'ish talab qilinadi. Prognоз hisob-kitobi uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar soliq to'lovchilarining soliq idoralariga taqdim qilingan moliyaviy hisobotlari va ijtimoiy jamg'armalarga majburiy to'lovlar bilan bog'liq soliq hisob-kitoblaridan yig'iladi.

t/r	Ko'rsatkichlar
1	Mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar
2	Yagona ijtimoiy to'lov va fuqarolarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari hisoblanmaydigan to'lov turlari
3	Soliq solinadigan baza
4	Yagona ijtimoiy to'lov stavkasi, %
5	Hisoblangan yagona ijtimoiy to'lov summasi
6	Avvalgi hisob-kitob boyicha yagona ijtimoiy to'lovning hisoblangan summasi

3-rasm.Yagona ijtimoiy to'lovni prognozlashda o'rganiluvchi asosiy ko'rsatkichlar

Quyida ijtimoiy jamg'armalarga majburiy to'lovlarni proqnoz qilishda birlamchi ma'lumot manbai bo'lib xizmat qiluvchi asosiy ko'rsatkichlar keltirilgan.

3-rasmda yagona ijtimoiy to'lov proqnozlashda o'rganiluvchi asosiy ko'rsatkichlar keltirilgan. Ushbu ko'rsatkichlar mikrofirmalar va kichik korxonalar toifasiga kirmagan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan taqdim qilinadi.

8-jadval

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga to'lanuvchi fuqarolarning majburiy sug'urta badallarini stavkasi, 2017 yil uchun

Nº	Majburiy to'lov turi	Fuqarolarning majburiy sug'urta badallari stavkasi, % da
1	O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga to'lanuvchi fuqarolarning majburiy sug'urta badallari	8,0

Proqnozlash jarayoni uchun zarur bo'lgan, Mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar, Yagona ijtimoiy to'lov va fuqarolarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari hisoblanmaydigan to'lov turlari, Yagona ijtimoiy to'lov va fuqarolarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari hisoblanmaydigan to'lov turlari, Soliq solinadigan baza, Hisoblangan yagona ijtimoiy to'lov summasi to'g'risidagi ma'lumotlarning yillik miqdorlari yig'iladi.

4-rasmda fuqarolarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari hisob-kitobining asosiy ko'rsatkichlari keltirilgan.

t/r	Ko'rsatkichlar
1	Mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar
2	Fuqarolarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari hisoblanmaydigan to'lov turlari
3	Soliq solinadigan baza
4	Fuqarolarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari stavkasi, %
5	Fuqarolarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga hisoblangan sug'urta badallari summasi
6	Avvalgi hisob-kitob boyicha fuqarolarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga hisoblangan sug'urta badallari summasi

4-rasm.Fuqarolarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari proqnoz natijalariga ta'sir qiluvchi asosiy ko'rsatkichlar

Fuqarolarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari hisob-kitobining asosiy ko'rsatkichlaridan proqnoz hisob-kitobi uchun kerakli bo'lgan, fuqarolarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari hisoblanmaydigan to'lov turlari, fuqarolarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga hisoblangan sug'urta badallari summasi, soliq solinadigan baza kabi ma'lumotlar yig'iladi.

5-rasmda yagona ijtimoiy to'lov va fuqarolarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari hisoblanmaydigan to'lov turlari haqidagi ma'lumotlar aks etgan.

Yagona ijtimoiy to'lov va fuqarolarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari hisoblanmaydigan to'lov turlari haqidagi ma'lumotlar asosida hisoblangan prognoz ko'rsatkichining miqdori ko'paytililadi yoki kamaytiriladi.

5-rasmda byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar hisob-kitobining asosiy ko'rsatkichlari keltirilgan. Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar hisob-kitobining asosiy ko'rsatkichlari asosida mazkur ajratma boyicha prognoz ko'rsatkichining hisob-kitobi amalga oshiriladi.

t/r	To'lov turlari
1	Yagona ijtimoiy to'lov va fuqarolarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari hisoblanmaydigan to'lov turlari, jami
2	doimiy ishi yo'lida kechadigan, harakatlanish va (yoki) ko'chib yurish xususiyatiga ega bo'lgan xodimlarning, shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda ishlar vaxta usulida bajarilgan taqdirda, ish haqiga ustamalar;
3	qonun hujjatlarida belgilangan normalardan ortiqcha dala ta'minoti
4	xizmat safarlari vaqtida qonun hujjatlarida belgilangan normalardan ortiqcha kundalik xarajatlar uchun haq (sutkalik pullar)
5	xizmat ishlari uchun xodimning shaxsiy avtomobilidan yoki xizmat maqsadlari uchun uning boshqa mol-mulkidan qonun hujjatlarida belgilangan normalardan ortiqcha foydalanganlik uchun to'lovlar
6	mehnatda mayib bo'lganlik yoki sog'liqqa boshqacha shikast etkanlik bilan bog'liq zararning o'rnnini qoplash uchun qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlardan ortiqcha olingan summalar
7	xodimga hisoblanadigan va uning roziligi bilan tegishli byudjet yoki xayriya jamg'armalarga (shanbaliklar, yakshanbaliklar va shu kabilar uchun) o'tkaziladigan ish haqi tarzidagi daromadlar
8	xodimning muhim sanasi, uzoq yillik xizmati, jamoat faoliyatida erishgan yutuqlari munosabati bilan unga beriladigan rag'batlantirish tarzidagi to'lovlar
9	tabiiy ofat, boshqa favqulodda holatlar munosabati bilan to'lanadigan to'lovlar
10	yosh mutaxassislarga oliv o'quv yurtini tamomlaganlaridan so'ng ta'til vaqtini uchun yuridik shaxslar hisobidan to'lanadigan nafaqlar.
11	shuningdek boshqa to'lov turlari

5-rasm.Yagona ijtimoiy to'lov va fuqarolarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari hisoblanmaydigan to'lov turlari

Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy to'lovlar tarkibi o'z ichiga respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar va yig'imlarni oladi.

Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar yuridik shaxslar hisoblangan O'zbekiston Respublikasining rezidentlari va oddiy shirkat ishlarini yuritish zimmasiga yuklatilgan (ishonchli shaxs) sherik (ishtirokchi) - yuridik shaxslar tomonidan o'zlarining sof tushumlaridan amalga oshiriladilar.

Shu sababli, soliq to'lovchining hisobot davrida olgan sof tushumi Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar hisoblashning soliq bazasi hisoblandi. Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalarni hisoblash uchun zarur bo'lgan soliq solish bazasini aniqlashning o'ziga xos xususiyatlari 6-rasmda keltirilgan.

Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalarning soliq solish ob'ekti va soliq solinadigan bazasini aniqlash tartibi bir-muncha Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarni hisoblash uchun zarur bo'lgan soliq solish bazasini aniqlash tartibiga o'xshaydi.

Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar soliq solinadigan bazadan va tasdiqlangan stavka asosida har oyda hisoblab chiqariladi.

Respublika yo'l jamg'armasi yig'imlari boyicha tushum quyidagi to'lov turlaridan shakllanadi:

-avtotransport vositalarini olganlik va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig'im;

-chet davlatlar avtotransport vositalarining O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranzit tarzida o'tganligi uchun yig'im.

To'lovchilar va soliq solish ob'ekti	Soliq solinadigan baza	Stavka, %
Vositachilik, topshiriq shartnomalari va vositachilik xizmatlarini ko'rsatishga doir boshqa shartnomalar boyicha vositachilik xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxslar - QQS chegirilgan holda, vositachilik haqi summasi		
Tayyorlov, ta'minot-sotish tashkilotlari - QQS chegirilgan holda tovar oboroti hajmi		
Qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari - QQS chegirilgan holda, o'z kuchlari bilan bajarilgan ishlar hajmi		
Kredit va sug'urta tashkilotlari - daromad		
Kommunal xo'jalik tizimining issiqlik, suv va gaz ta'minoti korxonalari uchun - mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ning realizatsiya qilingan hajmi, QQS va tegishinchasi issiqlik ta'minoti korxonalari uchun issiqlik quvvatining, suv ta'minoti korxonalari uchun suvning, gaz ta'minoti korxonalari uchun tabiiy gazning xarid qiymatini chegirgan holda		
Ulgurji savdo korxonalari uyushmasi tizimiga kiradigan respublika ixtisoslashtirilgan ulgurji baza-kontoralari va ularning hududiy bazalari - yalpi daromad		
"O'zdonmahsulot" AK korxonalari (g'alla qabul qilish korxonalari va don qabul qilish faoliyatiga ega bo'lgan donni qayta ishlaydigan korxonalar) - QQS chegirilgan holda ta'minot-sotish ustamasi va siylovi (skidka)		
Asosiy faoliyati mol-mulkni lizingga berishdan iborat bo'lgan yuridik shaxslar - foiz ko'rinishidagi daromad summasi		
Iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari korxonalari - QQS va aktsiz solig'i chegirilgan holda, mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ni sotish hajmi		
Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga jami hisoblangan majburiy ajratmalar		
O'tgan davr uchun hisob-kitob boyicha byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga hisoblangan majburiy ajratmalar summasi		

6-rasm.Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarni prognozlashda o'r ganiluvchi asosiy ko'rsatkichlar

Yo'l jamg'armasi yig'imlarining soliq to'lovchilari bo'lib, quyidagilar hisoblanadi:

- avtotransport vositalarini oluvchi va O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirishni amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasi rezidentlari va norezidentlari;

- O'zbekiston Respublikasi hududiga kiruvchi va uning hududi orqali tranzit tarzida o'tuvchi chet davlatlar avtotransport vositalarining egalari yoki foydalanuvchilari.

Respublika yo'l jamg'armasi yig'imlarini hisoblash soliq bazasi quyidagicha aniqlanadi:

- olingan va O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kiriladigan avtotransport vositalari dvigatelining ot kuchidagi quvvati yoki avtotransport vositalarining qiymati;

- O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganida yoki uning hududi orqali tranzit tarzida o'tganida chet davlatlarning avtotransport vositalari.

Yo'l jamg'armasi yig'imlarini to'lash boyicha soliq qonunchiligidagi bir-qancha imtiyozlar belgilangan. Ularga quyidagilar kiradi:

- ishlab chiqaruvchi korxona tomonidan qo'l bilan boshqarishga moslashtirilgan engil avtomobilni va (yoki) motoaravachani oluvchi barcha guruhlardagi nogironlar;

- ixtisoslashtirilgan savdo tarmog'idan O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan yangi avtomobil oluvchi fuqarolar, shuningdek yaqin qarindoshlaridan hadya shartnomasi yoki meros asosida avtomobillar va motoaravachalarni oluvchi fuqarolar;

- umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini saqlash, ta'mirlash, rekonstruktsiya qilish va qurishni amalga oshiruvchi ixtisoslashtirilgan yo'l xo'jalik boshqaruvi organi tuzilmasiga kiradigan;

- faoliyatining asosiy turi yo'lovchilar tashish bo'lgan, yo'lovchilar tashish uchun belgilangan namunadagi litsenziyaga ega bo'lgan avtotransport korxonalari;

- yuridik shaxslar - qirq tonnadan ortiq yuk ko'taradigan, olingen kon avtosamosvallari boyicha;

t/r	Xo'jalik tarmog'i turi	Sof tushumni aniqlashning o'ziga xos xususiyatlari
1	Kommunal xo'jalik tizimining issiqlik, suv va gaz ta'minoti korxonalarini uchun	Mahsulotlarning (ishlarning, xizmatlarning) qo'shilgan qiymat solig'i va tegishinchaligi issiqlik ta'minoti korxonalarini uchun issiqlik quvvatining, suv ta'minoti korxonalarini uchun suvning, gaz ta'minoti korxonalarini uchun tabiiy gazning xarid qiymati chegirib tashlangan holda realizatsiya qilingan hajmi
2	Qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari	O'z kuchlari bilan bajarilgan qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot ishlarning qo'shilgan qiymat solig'i chegirib tashlangan holdagi qiymati.
3	Vositachilik xizmatlari ko'rsatuvchi yuridik shaxslar	Ko'rsatilgan xizmatlar uchun qo'shilgan qiymat solig'i chegirib tashlangan holdagi haq summasi
4	Savdo faoliyatini amalga oshiradigan yuridik shaxslar	Tovar oboroti
5	Kredit tashkilotlari va sug'urta tashkilotlari	Daromad
6	Asosiy faoliyati mol-mulkni lizingga berishdan iborat bo'lgan yuridik shaxslar	Moliyaviy ijara (lizing) boyicha foizli daromad summasi

6-rasm.Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalarni prognozlashda o'rganoluvchi asosiy ko'rsatkichlar

- homiylik (beg'araz) yordami sifatida avtomobilarni olgan (sotib olgan) bolalar uylari, ixtisoslashtirilgan maktab-internatlar, nogiron bolalar uchun markazlar, qariyalar va kichik yoshdagи nogironlar uchun internat-uylar, shuningdek byudjet hisobidan moliyalashtiriladigan tibbiyot muassasalari;

To'lovchilar va soliq solish ob'ekti	Soliq solinadiga n baza	Stavka, %
Vositachilik, topshiriq shartnomalari va vositachilik xizmatlarini ko'rsatishga doir boshqa shartnomalar boyicha vositachilik xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxslar - QQS chegirilgan holda, vositachilik haqi summasi		
Tayyorlov, ta'minot-sotish tashkilotlari - QQS chegirilgan holda tovar oboroti hajmi		
Kredit va sug'urta tashkilotlari - daromad		
Ulgurji savdo korxonalarini uyushmasi tizimiga kiradigan respublika ixtisoslashtirilgan ulgurji baza-kontoralari va ularning hududiy bazalari - yalpi daromad		
Asosiy faoliyati mol-mulkni lizingga berishdan iborat bo'lgan yuridik shaxslar - foiz ko'rinishidagi daromad summasi		
Avtotransport korxonalarini - QQS chegirilgan holda mahsulotlar (ishlar,xizmatlar) realizatsiya qilingan hajmi		
Iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari korxonalarini - QQS va aktsiz solig'i chegirilgan holda, mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ni realizatsiya qilingan hajmi		
Respublika yo'l jamg'armasiga jami hisoblangan majburiy ajratmalar		
O'tgan davr uchun hisob-kitob boyicha Respublika yo'l jamg'armasiga hisoblangan majburiy ajratmalar summasi		

6-rasm.Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar prognozining yalpi soliq bazasini tashkil qiluvchi asosiy ko'rsatkichlar

- yuridik shaxslar - avtotransport vositalarini bitta tizim (davlat va xo'jalik boshqaruvi organi) ichida balansdan balansga bepul o'tkazishda;
-qayta tashkil etish natijasida avtotransport vositasini olgan huquqiy voris;

- avtotransport vositalarini yuridik shaxslarga lizingga berish uchun oluvchi lizing beruvchilar.

Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalarning kelgusi yildagi kutilayotgan miqdorini prognoz qilish uchun oldingi hisobot yillarida erishilgan natijalar haqidagi ma'lumotlar yig'iladi. Bunday ma'lumotlarning olish manbailari turli xil bo'lishi mumkin. Ammo, har qanday holatda, ma'lumotlarning birlamchi manbai - soliq to'lovchilarning buxgalteriya hisobi asosida tuziluvchi moliyaviy hisobotlari va majburiy ajratma boyicha soliq hisob kitoblari hisoblanadi. 6-rasmda Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar hisob-kitobining asosiy ko'rsatkichlari keltirilgan.

To'lovchilar va soliq solish ob'ekti	Soliq solish bazasi	Stavka, %
Vositachilik, topshiriq shartnomalari va vositachilik xizmatlarini ko'rsatishga doir boshqa shartnomalar boyicha vositachilik xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxslar - QQS chegirilgan holda, vositachilik haqi summasi		
Tayyorlov, ta'minot-sotish tashkilotlari - QQS chegirilgan holda tovar oboroti hajmi		
Qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari - QQS chegirgan holda o'z kuchlari bilan bajarilgan ishlar hajmi		
Kredit va sug'urta tashkilotlari - daromad		
Kommunal xo'jalik tizimining issiqlik, suv va gaz ta'minoti korxonalari uchun - mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ning realizatsiya qilingan hajmi, QQS va tegishinchada issiqlik ta'minoti korxonalari uchun issiqlik quvvatining, suv ta'minoti korxonalari uchun suvning, gaz ta'minoti korxonalari uchun tabiiy gazning xarid qiymatini chegirgan holda		
Ulgurji savdo korxonalari uyushmasi tizimiga kiradigan respublika ixtisoslashtirilgan ulgurji baza-kontoralari va ularning hududiy bazalari - yalpi daromad		
"O'zdonmahsulot" AK korxonalari (g'alla qabul qilish korxonalari va don qabul qilish faoliyatiga ega bo'lган donni qayta ishlaydigan korxonalar) - QQS chegirilgan holda ta'minot-sotish ustamasi va siylovi (skidka)		
Asosiy faoliyati mol-mulkni lizingga berishdan iborat bo'lган yuridik shaxslar - foiz ko'rinishidagi daromad summasi		
Iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari korxonalari - QQS va aktsiz solig'i chegirilgan holda, mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ni sotish hajmi		
Maktab ta'limini rivojlantirishga jami hisoblangan majburiy ajratmalar		
O'tgan davr uchun hisob-kitob boyicha maktab ta'limini rivojlantirishga hisoblangan majburiy ajratmalar summasi		

7-rasm.Ta'lim muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalar prognozining yalpi soliq bazasini tashkil qiluvchi asosiy ko'rsatkichlar

Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar hisob-kitobi shaklidan prognoz jarayoni uchun zarur bo'lган, soliq ob'ekti, soliq solish bazasi, soliq stavkalari to'g'risidagi ma'lumotlar tarmoqlar boyicha yig'iladi.

Ta'lim muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalar to'lovchilari bo'lib yagona soliq to'lovini to'laydigan yuridik shaxslardan tashqari, tashkiliy-huquqiy shakllaridan qat'i nazar, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar hisoblanadi.

Ta'lim muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalar hisoblash ob'ekti bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- Ulgurji savdo korxonalari uyushmasi tizimiga kiruvchi respublika maxsuslashtirilgan ulgurji baza-kontoralari va ularning hududiy (viloyat, voloyatlararo va tumanlararo) bazalari uchun - yalpi daromad;

- vositachilik, topshiriq shartnomalari va boshqa shartnomalar boyicha vositachilik xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxslar uchun - QQS chegirilgan holda komission taqdirlash summasi;

- qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari uchun - QQSni chegirgan holda, o'z kuchlari bilan bajarilgan ishlar hajmi;

- kredit va sug'urta tashkilotlari uchun - daromad;

- moliyaviy ijara (lizing) xizmatlari ko'rsatadigan korxonalar uchun - foizli daromad;

- tayyorlov, ta'minot-sotish tashkilotlari uchun - QQS chegirilgan holda tovar aylanmasi hajmi;

- kommunal xo'jaligi tizimining issiqlik, suv va gaz ta'minoti korxonalari uchun - QQS va tegishinchcha, issiqlik ta'minoti korxonalari uchun - issiqlik energiyasi, suv ta'minoti korxonalari uchun - suv, gaz ta'minoti korxonalari uchun - tabiiy gazning xarid qiymatini chegirgan holda mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni sotish hajmi;

9-jadval

Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmaning savkalari, 2017 yil uchun

Nº	Jamg'armalar	Ajratma stavkalari, belgilangan soliq soldiq solish ob'ektiga nisbatan foyizda
1	Pensiya jamg'armasi	1,6
2	Umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasi	0,5
Nº	Jamg'armalar	Ajratma stavkalari, belgilangan soliq soldiq solish ob'ektiga nisbatan foyizda

- "O'zdonmahsulot" AK korxonalari (g'alla qabul qilish korxonalari va don qabul qilish faoliyatini amalga oshiruvchi donni qayta ishslash korxonalari) uchun - QQS chegirilgan holda ta'minot-sotish ustamasi va chegirmasi;

- iqtisodiyotning qolgan tarmoqlari uchun - QQS va aktsiz solig'ini chegirgan holda, mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ni sotish hajmi.

Ta'lim muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalar stavkasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Jamg'armaga to'lanishi lozim bo'lgan majburiy ajratmalar summasi belgilangan majburiy ajratmalarga tortish ob'ekti va stavkasidan kelib chiqqan holda ajratma to'lovchilar tomonidan aniqlanadi.

Kelgusi yilda ta'lim muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga tushishi kutilayotgan majburiy ajratmalar miqdorini hisoblash uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar soliq idoralariga taqdim qilinuvchi majburiy ajratmalar hisob-kitobi shaklidan olinadi. 6-rasmga qarang.

Ta'lim muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalar hisob-kitobi shaklidan maktab ta'limini rivojlantirishga jami

hisoblangan majburiy ajratmalarining yillik miqdori hisoblanadi. Oldingi besh hisobot yilida jami yig'ilgan ta'lim muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalar summalaridan dinamik qator qator tuziladi. Dinamik qatorlar o'rtaсидаги о'згариш тенденсиyalari о'рганилиб прогноз ко'rsatkichi aniqlanadi.

8. MAVZU. “BYUDJET VA BYUDJETDAN TASHQARI MAQSADLI JAMGARMALARGA TUSHUMLARNI TAHLIL QILISH VA PROGNOZLASHTIRISH TARTIBI ” ЮЗАСИДАН КЕЙСЛАР ТҮПЛАМИ, АМАЛИЙ ТОПШИРИҚЛАР, ИШЛАНМАЛАР

Reja:

- 1.Byudjet va byudjetdan tashqari jamgarmalarga tushumlarni tahlili
2. Byudjet va byudjetdan tashqari jamgarmalarga tushumlarni prognozlash

Talabalarga beriladigan savollar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Davlat byujeti daromadi qanday manbalardan shakllanadi va u qanday tahlil qilinadi?

2.O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining daromadi qanday manbalardan shakllanadi va u qanday tahlil qilinadi?

3.O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika yo'l jamg'armasining daromadlari qanday manbalardan shakllanadi va u qanday tahlil qilinadi?

4.O'zbekiston Respublikasi Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasining daromadlari qanday manbalardan shakllanadi va u qanday tahlil qilinadi?

5.O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Umumta'lim maktablari, kasbg'hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasining daromadlari qanday manbalardan shakllanadi va u qanday tahlil qilinadi?

6. Davlat byujetining daromadlarini prognozlashtirishda qanday omillar inobatga olinadi?

7.Byudjet daromadlarini prognozlashtirishda qanday usullardan foydalaniladi?

8.Byudjet daromadlarini prognozlashtirish mamlakat ijtimoiyg' iqtisodiy rivojlantirishda qanday ahamiyat kasb etadi?

9. Byudjet daromadlarini prognozlashtirish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar qanday manbalardan yig'iladi?



Auditoriyani faollashtirish uchun beriluvchi savollar:

1.Byudjet daromadlari kim tomonidan tahlil qilinadi va tahlil natijalaridan kimlar foydalanadi?

2.Byudjet daromadlarini sifatlari tahlil qilishning qanday muammolari mayjud?

1-topshiriq.

1-KEYS-STADI Kirish

Tavsiya etilgan keysni yechish quyidagi natijalarga erishishga imkon yaratadi:

- o‘zlashtirilgan mavzu bo‘yicha bilimlarni mustahkamlash;
- mantiqiy fikrlashni rivojlantirish;
- byudjet va byudjetdan tashqari maqsadli jamgarmalarga tushumlarni tahlil qilish va prognozlashtirish borasida mustaqil ravishda qaror qabul qilish ko‘nikmalarini egallah;
- byudjet va byudjetdan tashqari maqsadli jamgarmalarga tushumlarni tahlil qilish va prognozlashtirish uslubiyatini qo‘llash qobiliyatini tekshirish.

VAZIYAT

Soliq tushumlarining tezkorg‘buxgalteriya hisobi ma’lumotlari asosida soliq tushumlari bo‘yicha prognoz ko‘rsatkichlarni bajarish holati orqada qolayotganligi ma’lum bo‘ldi.

Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar	2018 yilning ikkinchi choragini bajarilishi	
	2018 yil ikkinchi choragiad haqiqatda tushgan tushum, mlrd. so‘mda	2018 yil ikkinchi choragi uchun prognoz ko‘rsatkichi, mlrd. so‘mda
yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i;	10,0	13,0
jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;	14,0	15,0
qo‘shilgan qiymat solig‘i;	27,0	20,6
aksiz solig‘i;	19,0	21,0
yer qa’ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to‘lovlar;	11,0	10,5
suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;	7,0	8,1
molg‘mulk solig‘i;	4,0	3,2
yer solig‘i;	5,0	3,4
benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq.	6,4	6,8
davlat maqsadli jamg‘armalariga majburiy to‘lovlar:	8,2	8,0
davlat boji;	3,0	3,1
bojxona to‘lovlar;	9,6	9,0
ayrim turdag'i tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdag'i xizmatlarni ko‘rsatish huquqi uchun yig‘im.	2,5	2,0
soliq solishning soddalashtirilgan tartibida to‘lanadigan soliqlar	4,3	5,0
Jami	121	128,7

Davlat byudjetini daromad qismini tahlil qilishning tezkor-retrospektiv hamda perspektiv usullari mavjud.

Tezkong‘retrospektiv tahlilning asosiy vazifalaridan biri – yuzaga kelgan iqtisodiy vaziyatni tadqiq qilib, boshqaruv qarори таъсирини тадқиқлаштиришади.

Tezkong‘retrospektiv tahlillar byudjetning soliqli va soliqsiz tushumlarini prognoz ko‘rsatkichlarini bajarilishini ta’minlash borasidagi kunlik, dekadalik, oylik va choraklik topshiriqlarni bajarish holati o‘rganiladi;

Tezkong‘retrospektiv tahlillar byudjet tushularini haqiqatdagi holati ular bo‘yicha belgilangan prognoz ko‘rsatkichlardan farqlanish mavjud bo‘lganda o‘tkaziladi.

Byudjet daromadlarini tezkong‘retrospektiv tahlili uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlar

statistik hisobotlardan hamda soliq tumularining tezkor buxgalteriya ma'lumotlaridan foydalaniladi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan foydalangan holda quyidagilarni tahlil qiling.

SAVOLLAR VA TOPSHIRIQLAR:

- 1.Davlat byudjetining soliqli daromadlarini hamda boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha tushum hajmini gorizontal va vertikal tahlil qiling.
- 2.Prognoz ko'rsatkichlaridan farq qiluvchi miqdorni aniqlang.
- 3.Farqli miqdorni yuzaga keltirgan ichki va tashqi sabablarini aniqlang.
- 4.Yuzaga kelgan holatga davlat byudjetining daromad qismi bo'yicha prognoz ko'rsatkichlarini bajarilishini ta'minlash tuqtai nazaridan baho bering.
- 5.Prognoz ko'rsatkichlarining farqlanish miqdoriga qarab boshqaruv qarorlari variantlarini tayyorlang.

2-topshiriq.

"Aqliy hujum" strategiyasidan foydalangan holda davlat byudjetining daromad qismi prognoz ko'rsatkichlarini bajarilmasligiga sabab bo'lgan omillarni aniqlangan va ularning yechimi yuzasidan, byudjet daromadlarini oshishiga olib keluvchi eng yaxshi boshqaruv qarorini tayyorlang.

"Aqliy hujum" strategiyasini qo'llash bo'yicha tavsiyalar

Strategiya talabalarni mavzu xususida keng va har tomonlama fikr yuritish, o'z tasavvurlari, g'oyalaridan ijobiy foydalinishga doir ko'nikma, malakalarni hosil qilishga rag'batlantridi. U yordamida tashkil etilgan mashg'ulotlarda ixtiyoriy muammolar yuzasidan bir necha orginal (o'ziga xos) yechimlarni topish imkoniyati tug'iladi. Strategiya mavzu doirasida ma'lum qarashlarni aniqlash, ularga muqobil g'oyalarni tanlash uchun sharoit yaratadi.

Mashg'ulotda strategiyani qo'llashda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

Talabalarni muammo doirasida keng fikr yuritishga
undash, ular tomonidan mantiqiy fikrlarning bildirilishiga erishish

Har bir talaba tomonidan bildirilayotgan fikrlar
rag'batlantrilibr boriladi, bildirilgan fikrlar
orasidan
eng maqbullari tanlab olinadi; fikrlarning
rag'batlantrilishi navbatdagi yangi fikrlarning
tug'ilishiga olib keladi

Har bir talaba o'zining shaxsiy fikrlariga
asoslanishi va ularni o'zgartirishi mumkin; avval
bildirilgan fikrlarni umumlashtirish,
turkumlashtirish yoki ularni o'zgartirish ilmiy
asoslangan fikrlarning shakllanishiga zamin
hozirlaydi

Mashg'ulotda talabalar faoliyatini standart talablar asosida nazorat qilish, ular tomonidan bildiriladigan fikrlarni
baholashga yo'l qo'yilmaydi (zero, fikrlar baholanib borilsa,
talabalar diqqatlarini shaxsiy fikrlarni himoya qilishga qaratadi, oqibatda yangi fikrlar
ilgari surilmaydi; metodni qo'llashdan ko'zlangan asosiy maqsad talabalarni muammo
bo'yicha keng fikr yuritishga undash ekanligini yodda tutib, ularni baholab borishdan voz kechishdir)

Foydalaniladigan adabiyotlar royxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiysi to'g'risida. 2018 yil 29 iyun. Elektron- huquqiy baza.

2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birqalikda barpo etamiz. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017. – 56 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017. – 48 b.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Soliq ma'muriyatichilagini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida. 2017 yil 18 iyul, pf-5116-son. Elektron-huquqiy baza.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy erkinligini oshirish, mahalliy byudjetlarga tushumlarning to'liqligini ta'minlash bo'yicha soliq va moliya organlari javobgarligini kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. 2017 yil 13 dekabr, PF-5283-son. Elektron-huquqiy baza.
6. Распоряжение Президента Республики Узбекистан. Об организации критического изучения деятельности финансовых, налоговых и таможенных органов. 16 января 2018 г. № р-5182. Электронно-правовая база.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini huquqiy tartibga solishni yanada takomillashtirish to'g'risida. 2017 yil 28 avgust, 677-son. LEX.UZ. Elektron-huquqiy baza.
8. Абдуганиева Г.К., Бабабекова Н.Б. Прогнозирование налогов. Учебное пособие. – Т.: “Тафаккур-Бўстони”, 2012. - 224 с.
9. Doschanova N.P. Soliq statistikasi va prognozi. O'quv qo'llanma. – Т.: “Ren-Poligraf” bosmaxonasi, 2009. – 216 b.
10. Vahobov A.V, Jo'rayev A.S Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. T: “Sharq”, 2009. -448 b.
11. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. “Norma” huquqiy bazasi.
12. O'zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi. “Norma” huquqiy bazasi.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 iyuldag'i “Soliq ma'muriyatichilagini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5116-sonli Farmoni. Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 19 iyuldag'i 141 (6835)-son.
14. Malikov T.S., Jalilov P.T. Byudjet-soliq siyosati. O'quv qo'llanma. – Т.: “Akademnashr”, 2011. - 472 b.
15. Haydarov N.H. Soliqlar va soliqqa tortish masalalari. O'quv qo'llanma. AkademiY. - Т.: 2007. - 214 b.;
16. Yax'oyev Q. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. Darslik. Toshkent. 2003. 246 bet.
17. Zavalishina I.A. Soliqlar: nazariya va amalyot. “Iqtisodiyot va huquq dunyosi” nashriyot uyi, 2005. 544 bet.
18. Gadoev E, Kuzieva N. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish. Darslik. – Т.: “O'zbekiston”, 2012. - 336 b
19. Jo'rayev A, S. Shirinov. Soliq statistikasi va prognozi: O'quv qo'llanma, T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2015.-392b.
20. Eshboyev T.T. Yuridik shaxslarni soliqqa tortish. Darslik. T: “Cho'lpon” 2013, 296 bet
21. O'rmonov J. Kichik biznes subektlarini soliqqa tortishni takomillashtirishning dolzarb masalalari. –Т.: El-Press. 2011. – 132b.
22. Musagaliyev A. Yuridik shaxslarni soliqqa tortishni takomillashtirishning dolzarb masalalari. Soliq akademiyasi. Monografiya, Toshkent: 2010, 116 bet.
23. Tagayev A., Xoshimoto F., Ro'ziyev G., Xotamov K. Soliq nazorati.- Т.:O'quv qo'llanma, “Yangi asr avlodi”, 2010.
24. A.Xomma, A.Tangirqulov, Sh.Toshmatov, I.Norqo'ziyev va N.Roziqovlar. Soliq qarzi va uni undirish. O'quv qo'llanma. - Т.: O'quv qo'llanma, “Yangi asr avlodi”, 2011.
25. I.Xabibullayev, G.Mansurova, Soliq statistikasining nazariy asoslari. O'quv qo'llanma - Т.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi», 2005.

26. Forecasting Scottish taxes. The National Archives, Kew, London TW9 4DU. Crown copyright 2017. 25p/(20p.).
27. Federal taxation: practice and procedure. Robert E., Richard J. Chicago, 2017.987p. (252p.).
28. Tax analysis and revenue forecasting. Issues and Techniques. By Glenn P. Jenkins Chun-Yan Kuo Gangadhar P. Shukla. Harvard Institute for International Development Harvard University . 2017. 187 p.(2p.).
29. An Analysis of Tax Revenue Forecast Errors. Martin Keene and Peter Thomson. New Zealand treasury working paper 07/02. 2017.41p.(2p.).
30. Tax policy, Revenue forecasting and economic analysis force. Joshua Goldstain, assistant director. Office of management and budget. The City of New York. 2017. 308p.(39p.)


Internet saytlari:

31. www. <http://el.tfi.uz/> - Toshkent moliya instituti elektron kutubxonasi;
32. www. <http://soliq.uz>;
33. www. <http://edu.uz>;
34. www. <http://mf.uz>;
35. www. <http://oxs.uz>;
36. www. <http://norma.uz>;
37. www. <http://lex.uz>;
38. www. <http://my.gov.uz>;
39. www. <http://alleng.ru>;

9.1. “TO‘G‘RI SOLIQLARNI PROGNOZLASH VA TUSHUMLARGA TA’SIR QILUVCHI OMILLAR ” O‘QUV MODULI YUZASIDAN MA’RUZA MATNI

IX.O‘QUV MATN (MODUL)

MODUL: TO‘G‘RI SOLIQLARNI PROGNOZLASH VA TUSHUMLARGA TA’SIR QILUVCHI OMILLAR



Reja:

1. Juridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ini prognozlashni o‘ziga xos jihatlari
2. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i va uni prognozlashni o‘ziga xos jihatlari

Tayanch so‘z va iboralar: foyda solig‘ini prognoz qilish, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini prognoz qilish, foyda solig‘ini yig‘iluvchanlik darajasi, to‘g‘ri soliqlarni prognozlash jarayoni, prognozlash usullari.

Xo‘jalik faoliyatning moliyaviy natijasining umumiyligi ko‘rsatkichi bo‘lgan foyda – iqtisodiy kategoriya hisoblanadi. Foydani xo‘jalik faoliyati natijasida olgan tushum bilan sarf qilingan xarajatlar o‘rtasidagi farq sifatida tavsiflash mumkin.

Korxonalar tomonidan olinuvchi foyda miqdorining ko‘payishi ularning faoliyatini samaradorligini oshishiga olib keladi. Foyda korxonaning yakuniy natijasini baholovchi asosiy ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi.

Soliq tizimi o‘ziga qoyilgan vazifani juridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i orqali bajaradi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida juridik shaxslar tomonidan olinadigan daromadni taqsimlash korxonalar tomonidan mustaqil bajariladi. Davlat esa korxonalarning olgan daromadlarini taqsimlashga to‘g‘ridan-to‘g‘ri aralashmaydi, balkim bilvosita tartibga soluvchi dastaklar yordamida daromadni taqsimlash jarayoniga ta’sir qilishi mumkin. Shunday dastaklardan biri soliqqa tortish tizimidir. Aynan juridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i vositasida davlat byudjetining daromad qismini shakllantirish va korxonalarning daromadlarini qayta taqsimlash borasida Davlat va juridik shaxslar o‘rtasida iqtisodiy munosabatlari yuzaga keladi.

Shu sababli, foyda solig‘i milliy iqtisodiyotda investitsiya jarayonini barqarorlashtiruvchi va kapital o‘suvini ta’milaochchi asosiy dastaklardan biridir.

Mahsulotni ishlab chiqarish va sotish uchun sarflangan xarajatlarni ob’ektiv aniqlash jarayoni korxonaning moliyaviy natijasiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatadi. Mahsulot tannarxini oshirish – korxona ixtiyorida qoluvchi foyda miqdorini kamayishiga olib keladi. Aksincha, tannarx miqdorini kamaytirish nafaqat korxona ixtiyorida qoluvchi foyda miqdorini, balkim byudjetga to‘lanuvchi foyda solig‘i summasini oshishiga olib keladi.

Foyda solig‘iga tortishning samarali tizimida korxonalarga qator soliq imtiyozlari taqdim qilinadi. Juridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i boyicha beriluvchi soliq imtiyozlari ichiki bozorda mahsulot ishlab chiqarishni manfaatdor qiladi, korxona va tashkilotlarning moliyaviy holatini yaxshilashga imkon beradi.

Foyda solig‘i boyicha beriluvchi imtiyozlar, yoki foyda solig‘i stavkasining qisqartirilishi korxona va tashkilotlar ixtiyorida qoluvchi foyda miqdorining ko‘payishiga olib keladi. Natijada, korxonalarning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini rivojlanishiga olib keladi. Bu esa o‘z navbatida kelajakda nafaqat foyda solig‘i boyicha, balkim boshqa soliq turlari boyicha ham soliq tushumlarini o‘sishiga olib keladi.

Davlatlar iqtisodiyotining daromaddan, foydadan olinuvchi soliqqa bog'liqlik darajasi har-xil baholanadi va bu bog'lik darajasi doimiy o'zgarishda bo'ladi. Ammo, oxirgi yillarda, rivojlangan davlatlarning soliq tushumlari strukturasida foya solig'ining ulushi sezilarli miqdorda oshmoqda. Ushbu tendentsiya O'zbekiston Respublikasining byudjet daromadlari tarkibida ham kuzatilmogda.

Bozor iqtisodiyoti tamoyillariga asoslangan iqtisodiyotda foydaning ko'p qirrali ahmiyati yanada ortdi. Hissadorlik jamiyatlari, xususiy korxonalar va boshqa mulkchilik shakllariga asoslangan xo'jalik yurituvchi sub'eklar o'zlariga tegishli foydani qaysi maqsadda ishlatish masalasini mustaqil hal qilish huquqiga ega.

Mamlakatimizning bozor iqtisodi tamoyillariga asoslangan iqtisodiy tizimga o'tishi korxonalardan olinadigan foya solig'i turini joriy qilishni taqozo qildi.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rniib turibdiki, yuridik shaxslardan olinadigan foya solig'ining byudjet daromadlaridagi salmog'i 2012 yilda 4.92%ni tashkil qilgan. 2014 yilda foya solig'ining Davlat byudjetini soliqli daromadlari tarkibidagi ulushi 3.41% bo'lishi kutilmoqda. Bu esa 2012 yilga nisbtan 1.51%ga kam miqdorni tashkil qiladi. 2012-2017 yillarda ushbu ko'rsatkich 4-5%lar o'rtasida tebranib turganligini kuzatishimiz mumkin. Oldingi yillarda foya solig'ining Davlat byudjetining maqsadli jamarmalar daromadlarisiz jami daromadidagi ulushi quyidagi ko'rinishga ega bo'lган: 2008 yilda jami daromadlarga nisbatan salmog'i 5.1 foizni, 2009 yilda mos ravishda 5.2 foizni tashkil etgan.

1-jadval.

2012-2017 yillarida yuridik shaxslardan olinadigan foya solig'ining davlat byudjeti daromadlaridagi salmog'i⁹

t/r	Ko'rsatkichlar	2012	2013	2014	2015	2016	2017
1	Davlat byudjetining maqsadli jamg'armalarisiz jami daromadlari	100,00	100,00	100,00	100,00	100,00	100
2	To'g'ri soliqlar	26,08	26,20	25,21	26,22	20,41	23.64
3	Yuridik shaxslardan undirluvchi foya solig'i	4,92	5,10	4,45	4,94	3,41	3.55

Bu holat yuridik shaxslardan olinadigan foya solig'i stavkalarini yildan-yilga pasayib borayotganligi bilan izohlanadi. Daromadning ko'p qismi korxonalar ixtiyorida qolishi ularning investitsion faolligini oshiradi, yangi ishchi o'rinalar ochish, raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarish hamda ish va xizmatlar ko'rsatish uchun yanada keng moliyaviy imkoniyat yaratadi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, yuridik shaxslardan olinadigan foya solig'iga soliq tizimida Davlat byudjeti daromadlarini ta'minlovchi asosiy manbalardan biri sifatida o'rın berilganidan tashqari, bozor iqtisodiyoti davrida ushbu soliq korxonalarining ishlab chiqarishning rivojlantirishga rag'batlantiruvchi eng muhim omillardan biri sifatida o'rın berilgan.

Yuqoridagi muloxazalarimizdan ko'rniib turibdiki, foydadan olinadigan soliq mamlakatimiz soliq tizimida budjet manfaatlari nukta nazaridan olib karalganda markaziy o'rnlardan birini egallaydi. Bundan bu soliq davlatning soliq siyosatini amalga oshirishda muhim qurol ekanligi yaqqol ko'rniib albatta, bu soliqning soliq tizimida tutgan o'rni va ahamiyati to'g'risida fikr bildirilayotgan paytda fakat uni byudjet manfaatlari nuqtai nazaridan karashning o'zi etarli emasdир. Buning boisi shundaki, bu soliqning iqtisodiyotda tutgan o'rni va ahamiyatini to'liq ko'rsatish

⁹ O'zbekiston Respublikasining 2012-2017 yillaridagi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrлari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari asosida tayyorlangan.

uchun uni xo'jalik yurituvchi sub'ektlar bilan byudjet o'rtasidagi munosabatlardagi rolini xam aks ettirish lozimdir.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini prognoz qilishda soliq to'lovchilarni va ularning sonini to'g'ri belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, soliq to'lovchi hisolangan yuridik shaxslar soni qancha ko'p va ularning tadbirkorlik faoliyatni qancha rivojlangan bo'lsa, yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i boyicha prognoz ko'rsatkichi yuqori bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi soliq kodeksining 126-moddasida yuridik shaxslardan olinuvchi foyda solig'i to'lovchilariga quyidagicha tavsif berilgan:

-O'zbekiston Respublikasining rezidentlari;

-O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan yoki hosil bo'lish manbai O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan daromadlarni oladigan O'zbekiston Respublikasi norezidentlari.

Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan notijorat tashkilotlari yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i to'lovchilar hisoblanmaydi. Bundan tashqari, soliq solishning soddallashtirilgan tartibi soliq to'lovchi yuridik shaxslar ham foyda solig'i o'rniغا yagona soliq to'lovi, yagona er solig'i, qat'iy belgilangan soliqini to'laydilar.

Foydaga solig'ini prognoz qilishda soliq to'lovchilarni iqtisodiyotning tarmoqlari boyicha gruhash maqsadga muvofiq. Masalan, sanoat, qurilish, transport, kommunal xo'jaligi va boshqalar kiradi.

Foya solig'ini prognoz qilishda quyidagi talablarga javob beruvchi yuridik shaxslarni inobatga olish zarur:

-biror ruxsat etilgan faoliyatdan foyda olishi;

-o'zining mulkiga ega bo'lishi;

-mustaqil tugallangan buxgalteriya balansiga ega bo'lishi;

-bankda hisob raqamiga ega bo'lishi;

-identifikatsion raqamga ega bo'lishi.

-Hokimiyatdan royxatdan o'tgan bo'lishi shart.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining to'lovchilari mulkchilik shakllariga qarab Davlat mulki shaklidagi, jamoa mulki shaklidagi, xususiy mulki shakllaridagi korxonalarga bo'linadi.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini prognoz qilishda soliq ob'ektini to'liq va to'g'ri hisoblash uchun jami daromad tarkibini mukammal o'rghanish zarur bo'ladi. 1-rasmga qarang.

t/r	Yuridik shaxslarning jami daromadi tarkibi
1	Mahsulot (ish, xizmat) sotishdan tushgan tushum
2	Boshqa daromadlar

1-rasm. Yuridik shaxslarning jami daromadi tarkibi

Jami daromad tarkibiga yuridik shaxs tomonidan olinishi lozim bo'lgan (olingan) ortilgan tovar, bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmat haqlari sifatidagi pul va boshqa mablag'lar yoki qaytarmaslik sharti bilan olingan mablag'lar kiradi.

Jami daromadga quyidagilar kiradi:

1.Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan, shu jumladan yordamchi xizmatlar tomonidan realizatsiya qilishdan qo'shilgan qiymat solig'i va aktsiz solig'i chegirib tashlangan holda olingan tushum tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olinadigan daromaddir.

Vositachilik faoliyatidan olingan daromadlarni hisoblashda yuridik shaxslarning ko'rsatilgan xizmatlar uchun olinishi lozim bo'lgan haq inobatga olinadi.

Qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy ishlarni boyicha daromad miqdorini aniqlashda bajarilgan ishlarning shartnomaviy baholardan qo'shilgan qiymat solig'i ayirilib tashlanadi.

2.Yuridik shaxslarning boshqa daromadlariga quyidagilar kiradi:

- soliq to'lovchining asosiy vositalari va boshqa mol-mulki chiqib ketishidan olinadigan daromadlari;
- mol-mulkni operativ ijaraga berishdan olinadigan daromadlari;
- asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni moliyaviy ijaraga berishdan olinadigan daromadlari;
- tekin olingen mol-mulk, mulkiy huquqlar, shuningdek ishlar va xizmatlar;
- inventarizatsiya natijasida aniqlangan ortiqcha tovar-moddiy zaxiralar hamda boshqa mol-mulk qiymati tariqasidagi daromadlari;
- hisobot yilda aniqlangan o'tgan yillardagi daromadlari;
- majburiyatlarni hisobdan chiqarishdan olinadigan daromadlari;
- o'zganing foydasiga voz kechish shartnomasi boyicha olingen daromadlari;
- ilgari chegirib tashlangan xarajatlarning yoki zararlarning o'rmini qoplash tarzidagi daromadlari;
- xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklardan olinadigan daromadlar;
- birgalikdagi faoliyatda ishtirok etishdan olinadigan daromadlari;
- undirib olingen yoki qarzdor tomonidan tan olingen jarimalar va penya, shuningdek qonuniy kuchga kirgan sud hujjati asosida qarzdor tomonidan to'lanishi lozim bo'lган jarimalar va penya;
- kursdagi ijobiy farq;
- dividendlar va foizlar;
- royalti;
- tovarlarini (ishlarni, xizmatlarni) ishlab chiqarish va realizatsiya qilish bilan bevosita bog'liq bo'lmas operatsiyalardan olinadigan boshqa daromadlar.

Qo'shilgan qiymat solig'i solinadigan boshqa daromadlar qo'shilgan qiymat solig'i summasi chegirilgan holda aniqlanadi.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini prognoz qilishda o'rganilishi talab qilinadigan asosiy ko'rsatkichlardan biri - xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini amalga oshirishda qilgan xarajatlari va ularning tarkibidir. 2-rasmga qarang.

t/r	Yuridik shaxslarning xarajatlari tarkibi
1	Moddiy xarajatlar
2	Mehnatga haq to'lash xarajatlari
3	Amortizatsiya xarajatlari
4	Boshqa xarajatlar
5	Hisobot davrining soliq solinadigan foydadan kelgusida chegiriladigan xarajatlari
6	Chegirilmaydigan xarajatlar

2-rasm. Yuridik shaxslarning xarajatlari tarkibi

O'zbekiston Respublikasi soliq kodeksining 141-moddasida yuridik shaxslar xarajatlarni guruhashning umumiy qoidasi bayon qilingan. Soliq to'lovchining xarajatlari chegirib tashlanadigan va chegirib tashlanmaydigan xarajatlarga bo'linadi.

Chegirib tashlanadigan xarajatlar tarikibi O'zbekiston Respublikasi soliq kodeksining 142, 143, 144, 145- moddalarida belgilangan va ularga quyidagilar kiradi:

- chegiriluvchi moddiy xarajatlar;
- chegiriluvchi mehnatga haq to'lash xarajatlari;
- chegiriluvchi amortizatsiya xarajatlari;
- chegiriluvchi boshqa xarajatlar.

Aksariyat hollarda, ishlab chiqarilgan mahsulot, sotilgan tovar, ko'rsatilgan xizmat va bajarilagn ishning ishlab chiqarish tannarxi bilan bog'liq xarajatlar chegiriluvchi xarajatlar hisoblanadi.

Soliq to'lovchining xarajatlari haqiqatda qaysi soliq davrida amalga oshirilgan bo'lsa, o'sha davrda chegirib tashlanadi.

Dastlab moddiy xarajatlarning tarkibini ko'rib chiqamiz.

O'zbekiston Respublikasi soliq kodeksining 142-moddasiga asosan moddiy xarajatlar tarkibiga quyidagilar kiradi:

-xom ashyo, materiallar, butlovchi buyumlar va yarim tayyor mahsulotlar;

-ishlab chiqarilgan va (yoki) realizatsiya qilinadigan tovarlarni o'rash va boshqacha tayyorlash uchun, shu jumladan sotuv oldidan tayyorlash uchun, boshqa ishlab chiqarish va xo'jalik ehtiyojlari uchun materiallar, uskunalar hamda boshqa mol-mulkni ta'mirlash uchun materiallar va ehtiyoq qismlar;

-inventar, xo'jalik anjomlari, amortizatsiya qilinadigan mol-mulk bo'limgan boshqa mol-mulk;

- soliq to'lovchining texnologik, transport, boshqa ishlab chiqarish va xo'jalik ehtiyojlari uchun sarflanadigan barcha turdag'i yoqilg'i, energiya, shu jumladan soliq to'lovchining o'zi tomonidan ishlab chiqarish hamda xo'jalik ehtiyojlari uchun barcha turdag'i energiyani hosil qilish, binolarni isitish, shuningdek energiyani bir shakldan o'zga shaklga o'tkazish va uzatish xarajatlari;

-erlarni rekultivatsiya qilish va tabiatni muhofaza qilishning boshqa tadbirlari uchun xarajatlar;

- belgilangan normalar doirasida suv xo'jaligi tizimlaridan soliq to'lovchilar tomonidan iste'mol qilinadigan suv uchun to'lov;

- belgilangan normalar doirasida ishlab chiqarish va tashish chog'idagi texnologik yo'qotishlar;

- belgilangan meyorda tovar-moddiy zaxiralarni saqlash hamda tashish chog'idagi yo'qotishlar va buzilishlar.

Mehnatga haq to'lash xarajatlariga quyidagilar kiritiladi:

- mehnatga haq to'lashning qabul qilingan shakllari va tizimlariga muvofiq ishbay narxlar, tarif stavkalari va mansab maoshlaridan kelib chiqqan holda hisoblangan ish haqi;

- ilmiy daraja va faxriy unvon uchun ustamalar;

-predmeti ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish bo'lgan fuqarolik-huquqiy tusda tuzilgan shartnomalarga muvofiq jismoniy shaxslarga to'lanadigan to'lovlar;

- yuridik shaxsning boshqaruv organi a'zolariga yuridik shaxsning o'zi tomonidan amalga oshiriladigan to'lovlar;

- rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar;

-ishlanmagan vaqt uchun haq to'lash;

-nogironlarga tutilgan qo'shimcha to'lovlar.

Amortizatsiya xarajatlariga asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar amortizatsiya ajratmalari kiritiladi.

Ammo. ayrim asosiy vosita turlariga ammartizatsiya ajratmalari amalga oshirilmaydi. 3-rasmga qarang.

Soliq solish maqsadlari uchun har bir kichik guruh boyicha amortizatsiya ajratmalari amortizatsiya normasini qo'llash orqali hisoblab chiqiladi.

Ayrim xarajatlar joriy hisobot davrida soliq solinadigan foydani hisoblab chiqarishda chegilirmaydi, ular keyingi davrlarda, soliq to'lovchining hisob siyosati bilan belgilangan, lekin o'n yildan ko'p bo'limgan muddat ichida chegilishi mumkin.

Bunday xarajatlarga quyidagilar kiradi:

- yangi ishlab chiqarishlar, tsexlар, agregatlarni, shuningdek seriyali va ommaviy ishlab chiqariladigan yangi mahsulot turlarini hamda texnologik jarayonlarni o'zlashtirish xarajatlari;

- barcha turdag'i asbob-uskunalar va texnik qurilmalarni, ularning o'rnatilish sifatini tekshirib ko'rish maqsadida kompleks sinab ko'rish (ishlab turgan holatida) xarajatlari;

- ishchi kuchlari qabul qilish va yangi ishga tushirilgan korxonada ishslash uchun kadrlar tayyorlash bilan bog'liq xarajatlari;

- asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning jadallashtirilgan usulda hisoblangan amortizatsiya summasi bilan belgilangan normalar boyicha hisoblangan amortizatsiya summasi o'rtasidagi farq. Debitorlik va kreditorlik qarzlar haqida ma'lumotnomasi 2a-sonli shakl deb nomlanadi.

2a-sonli shaklda korxonaga bog'liq bo'limgan sabablar boyicha vujudga kelgan qarzlar, muddati o'tgan qarzlar, Hukumat qarorlariga asosan oldindan haq to'lamay jo'natilgan (olingan) mahsulotlar boyicha qarzlar, Davlat resurslari va jamg'armalaridan jo'natish ko'zda tutilgan xom ashyo va materiallar boyicha o'tkazilgan bo'nak to'lovleri summasi, Hukumat qarorlari boyicha kechiktirilgan qarzlar, qonunchilikka muvofiq da'volar boyicha sud jarayonida ko'rib chiqilayotgan yoki xo'jalik sudi tomonidan kreditorlardan undirish to'g'risida qaror chiqqan qarzlar summasi aks ettiriladi.

Buxgalteriya balansida soliq to'lovchining jami aktivlari va passivlarini valyuta qiymati, tarkibi aks ettiriladi. U korxona aktiv va passivlarining hisobot davri oxirgi sanasidagi holati boyicha tuziladi. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini proqnoz qilishda buxgaletiri balansi ma'lumotlaridan foydalaniлади. Balans ma'lumotlaridan foydalangan holda soliq to'lovchining moliyaviy barqarorligi, soliqlar va majburiy to'lovlar boyicha qarzdorliklar, hamda ortiqcha to'lovlar miqdorini aniqlash mumkin. 3-rasmga qarang.

Ushbu ma'lumotnomma asosida rejalahtiriluvchi soliq tushumlarini uning debtorlik qarzlaridan undirish chora-tadbirlarini ishlab chiqishda foydalaniлади. Bundan tashqari, foyda solig'ini proqnozlashda, soliq tushumlarini oshishiga yoki kamayishigiga sabab bo'lувчи debtorlik qarzları ta'lil qilinadi.

O'tgan yilning shu davrida, hisobot davrida olingan daromadlar (foyda), qilingan xarajatlar (zararlar) to'g'risida ma'lumotlar moliyaviy natija to'g'risidagi hisobot ko'rsatkichlaridan olinadi. Ayniqsa yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini proqnozlashda o'rgniluvchi yalpi foyda, asosiy faoliyatdan olingan foyda, umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda (yoki zarar), soliq to'languncha olingan foyda ko'rsatkichlari aynan moliyaviy natija to'g'risidagi hisobotdan olinadi. 6-rasmga qarang.

1.	Debitorlar, jami
2.	Respublika ichidagi qarzlar, jami
2.1.	shu jumladan debitorlar nomi boyicha
2.2.	Ichki idoraviy qarzlar, jami
2.2.1.	shu jumladan debitorlar nomi boyicha
3.	Respublikadan tashqaridagi qarzlar, jami
3.1.	shu jumladan debitorlar nomi boyicha
KREDITORLIK QARZLARI	
4.	Kreditorlar, jami
5.	Respublika ichidagi qarzlar, jami
5.1.	shu jumladan kreditorlar nomi boyicha
5.2.	Ichki idoraviy qarzlar, jami
5.2.1.	shu jumladan kreditorlar nomi boyicha
6.	Respublikadan tashqaridagi qarzlar, jami
6.1.	shu jumladan kreditorlar nomi boyicha

3-rasm. Debitorlik va kreditorlik qarzlar haqida ma'lumotnomma

Hisobot ko'rsatkichlari "Maxsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish harajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarini shakllantirish tartibi to'g'risida"gi Nizom asosida aniqlanadi.

Mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda quyidagi formula asosida ifodalanadi:

Yaf=SST-IT

ya'ni Yaf-yalpi foyda, SST-sotishdan olingan sof tushum, IT-sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi;

Asosiy faoliyatdan olingan foydani aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalananamiz:

AFF=Yaf-DX+BD-BZ.

Bunda, AFF-asosiy faoliyatdan olingan foyda, DX-davr harajatlari, BD-asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar, B3-asosiy faoliyatdan ko'rigan boshqa zararlar.

-umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda (yoki zarar).

UF=AFF+MD-MX

bunda UF-umumxo'jalik faoliyatidan olingen foyda; MD-moliyaviy faoliyatdan daromadlar; MX-moliyaviy faoliyat harajatlari;
-soliq to'languncha olingen foyda.

STF=UF+FP-F3

bunda STF-soliq to'laguncha olingen foyda; FP-favqulodda vaziyatdan olingen foyda; F3-favqulodda vaziyatdan ko'rilgan zarar.

Foya solig'i to'laguncha olingen foyda yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini prognozlashda asosiy, bazoviy ko'rsatkich hisoblanadi.

Byudjetga to'lovlar to'g'risida ma'lumot soliq to'lovchining moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tavsiflovchi asosiy hisobot shakllaridan biri hisoblanadi. Ushbu hisobot shaklida yuridik shaxslar tomonidan to'lanuvchi nafaqat foyda solig'i boyicha, balkim barcha soliq to'lari boyicha ma'lumotlar jamlanadi.

Pul oqimi to'g'risidagi hisobotda soliq to'lovchining operatsion faoliyati, investitsiya faoliyati, moliyaviy faoliyati, soliq majburiyatini bajarish bilan bog'liq pul mablag'larining harakati aks etadi.

Chet el valyutasidagi pul mablag'larining harakati to'g'risida ma'lumot shaklida mahsulot sotishdan olingen, milliy valyutani konvertatsiya qilish natijasida kelib tushgan valyuta mablag'lari, mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga, moliyaviy faoliyat boyichachet el valyutasida to'langan to'lovlar miqdori jamlanadi. Ushbu hisobot ma'lumotlaridan foydalangan holda eksport operatsiyalari boyicha beriluvchi foyda solig'i imtiyozlari summalarini prognoz ko'rsatkichlarini tahlil qilishimiz mumkin. 4-rasmga qarang.

t/r	Xususiy kapital to'g'risidagi hisobotning asosiy ko'rsatkichlari
1	Yil boshidagi qoldiq
2	Qimmatli qog'ozlar emissiyasi
3	Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash
4	Ustav kapitalini shakllantirishda paydo bo'lgan valyuta kursi farqlari
5	Rezerv kapitaliga ajratmalar
6	Joriy yilning taqsimlanmagan foydasi (zarari)
7	Tekinga olingen mol-mulk
8	Maqsadli foydalanish uchun olingen mablag'lar
9	To'langan dividendlar
10	Xususiy kapital shakllanishining boshqa manbalari
11	Yil oxiridagi qoldiq
12	Xususiy kapitalining ko'payishi (+) yoki kamayishi (-)
13	Chiqarilgan aktsiyalar soni, dona
14	shu jumladan:
15	imtiyozli
16	oddiy
17	Aktsianing nominal qiymati
18	Muomaladagi aktsiyalar soni, dona
19	shu jumladan:
20	imtiyozli
21	oddiy

4-rasm. Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot ko'rsatkichlari

Asosiy vositalar harakati to'g'risidagi hisobotda soliq to'lovchiga tegishli bo'lgan asosiy vositalarning boshlang'ich (qayta tiklash) qiymati, jamg'arilgan eskirishi, qoldiq qiymati, yil boshidagi qoldig'i, kelib tushgan, chiqib ketgan qiymati, yil oxiriga qoldig'i aks ettiriladi. 11-rasmga qarang.

Soliq organlarida tuziladigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlardan tushumi to'g'risidagi hisobotlarda yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i boyicha prognoz ko'rsatkichlari va

ularning bajarish holatlari ham o'z aksini topadi. Soliq idoralarida foyda solig'i boyicha soliq tushumlari ham «Hisoblangan va davlat byudjetiga haqiqatda tushgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar summasi to'g'risida» gi 1-«N» hisobotida jamlanadi. Hisobotlar har oyning 1-sanasiga soliq turlari boyicha to'liq va asosiy soliq turlari boyicha qisqartirilgan shaklda har oyning 16 sanasiga jamlanadi.

1 – «N» hisobotida umumiyligi soliqlar tushumi va soliq turlari bilan bir qatorda yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i boyicha xukumat tomonidan belgilangan prognoz ko'rsatkichlari, xaqiqatda byudjetga o'tkazilgan summalar, o'rtaqidagi farqi va bajarilish foizlari aks ettiriladi. Ko'rsatkichlar yil boshidan, chorak va oy boshidan o'sib borish surati bilan jamlanib boriladi.

Soliq idoralari tomonidan tuzilgan 1 – «N» hisobot moliya, statistika va boshqa tegishli idoralariga foydalanish uchun taqdim etiladi. Manfaatdor davlat idoralari hisobotdagি malumotlar orqali respublika va ma halliy byudjetlarning bajarilishi doimiy tahlil qilinadi.

«Hisoblangan va davlat byudjetiga haqiqatda tushgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar summasi to'g'risida» gi 1-«N» hisobotiga yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i boyicha soliq tushumlari haqidagi ma'lumot soliq to'lovchilar tomonidan taqdim qilinuvchi foyda solig'i hisob-kitobi va mos shaxsiy hisob varaqlaridan olinadi.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i summasini hisob-kitobini amalga oshirishda yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i to'langunga qadar foyda (zarar) miqdoriga ("Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot"- 2-sonli shaklning 240-satri), soliq to'lovchi tomonidan boshqa shaxslardan tekinga olingan mol-mulk qiymati, chegirilmaydigan xarajatlar miqdori, hisobot davrida soliq solinadigan bazadan chegirilmaydigan, biroq kelgusi hisobot (soliq) davrlarning soliq solinadigan bazasidan chiqarib tashlanadigan xarajatlar summasi qo'shiladi. Hosil qilingan yig'indidan hisobot davrida soliq solinadigan bazadan chegirib tashlanadigan ilgari qilingan xarajatlar miqdori, foyiz, dividend ko'rinishda olingan daromad summalar, foyda solig'i boyicha soliq imtiyozlari summasi ayirib tashlanadi. Ayirma natijasiga soliq stavkasini ko'paytirib foyda solig'i miqdori hisoblanadi. 5-rasmga qarang.

Ko'rsatkichlar	Summa (so'm)
Hisobot davrida yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini to'lagunga qadar taxmin qilinayotgan foyda summasi	
Taxmin qilinayotgan foydaning tuzatish koeffitsienti, % da	
Hisobot davridagi taxmin qilinayotgan soliq solish bazasi	
Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i uchun belgilangan stavka, %	
Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i summasi	
Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i boyicha joriy to'lovlar summasi	

5-rasm.Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i boyicha joriy to'lovlarini hisoblash uchun ma'lumotnomasi

Hisobot davri mobaynida soliq to'lovchilar yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i summasini joriy to'lovlar tarzida amalga oshiradi. 13-rasmga qarang.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i boyicha joriy to'lovlarining miqdori joriy hisobot davri uchun taxmin qilinayotgan soliq solinadigan foydadan va yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining belgilangan stavkasidan kelib chiqib hisoblanadi. Foyda solig'i boyicha joriy to'lovlar miqdorini aniqlash uchun soliq to'lovchi hisobot davri birinchi oyining 10-kunigacha davlat soliq xizmati organiga ma'lumotnomasi taqdim etadilar.

Joriy to'lovlar har oyning 15-kuniga qadar, yil choragi boyicha yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i summasining uchdan bir qismi miqdorida to'lanadi. Agar hisobot davrida taxmin qilinayotgan soliq solinadigan foyda eng kam ish haqining ikki yuz baravaridan kam miqdorni tashkil etsa, soliq to'lovchilar joriy to'lovlarini to'lamaydi.

Soliq imtiyozlari vositasida soliqlarning rag'batlantirish va tartibga solish funktsiyalari

bajariladi.

Soliq imtiyozlari rag'batlantirishning muhim omili bo'lib, ular bozor munosabatlariga o'tish davri uchun xos bo'lган eng muhim iqtisodiy vazifalarni xal etishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Lekin shu asosiy vazifani belgilashga noto'g'ri yondashish soliq imtiyozlaridan foydalanishning hech qanday samara bermasligiga olib keladi. Bizning fikrimizcha, xozirgi paytda soliq imtiyozlari avvalo har tomonlama milliy ishlab chiqarishni yuksaltirishga qaratilgan bo'lishi lozim. Ishlab chiqarishga soliq imtiyozlarini taqdim etishdan yutqazilgan budget daromadlari yoki, boshqacha aytganda, soliq harajatlari yaqin davr ichida ishlab chiqarish rivojlanishi, iqtisodiyotda yuzaga keladigan nomutanosiblikni oldini olish va yo'qotishga xizmat qilishi va shu orqali albatta qoplanishi lozim. Aks holda soliq imtiyozlarini berishdan xech qanday ma'no bo'lmaydi. Respublikamizda ko'p hollarda berilgan imtiyozlardan samarali foydalanmaslik, imtiyozlarni taqdim etishdan ko'zlangan maqsadlarning ruyobga chiqmasligi, ya'ni imtiyozlarning ishlamasligi kuzatilmogda.

O'zbekiston Respublikasi soliq kodeksining 158- muddasida yuridik shaxslardan olinadigan foya solig'i boyicha imtiyozlar berilgan. Soliq kodeksining ushbu muddasiga asosan yuridik shaxslardan olinadigan foya solig'ini to'lashdan quyidagi yuridik shaxslar ozod qilinadi:

- nogironlarning jamoat birlashmalari, "Nuroni" jamg'armasi va "O'zbekiston chernobilchilari" assotsiatsiyasi mulkida bo'lган, ishlovchilari umumiylar sonining kamida 50 foizini nogironlar, 1941-1945 yillardagi urush va mehnat fronti faxriylari tashkil etgan, savdo, vositachilik, ta'minlash-sotish va tayyorlov faoliyati bilan shug'ullanmaydigan yuridik shaxslar;
- davolash muassasalari huzuridagi davolash-ishlab chiqarish ustaxonalari;
- jazoni ijro etish muassasalari;
- ichki ishlar organlari huzuridagi qo'riqlash bo'linmalari.

O'zbekiston Respublikasi soliq kodeksida yuridik shaxslarning ayrim turdag'i foydalarini foya solig'iga tortishdan ozod qilingan. Bunday foya turlariga quyidagilar kiradi:

- protez-ortopediya buyumlari, nogironlar uchun inventarlar ishlab chiqarishdan, shuningdek nogironlarga ortopedik protezlash xizmati ko'rsatishdan, nogironlar uchun mo'ljallangan protez-ortopediya buyumlari va inventarlarni ta'mirlash hamda ularga xizmat ko'rsatishdan olingan foydasi;

- shahar yo'lovchilar transportida (taksidan, shu jumladan yo'nalishli taksidan tashqari) yo'lovchilarni tashish boyicha xizmatlar ko'rsatishdan olingan foydasi;

- tarix va madaniyat yodgorliklarini ta'mirlash hamda qayta tiklash ishlarini amalga oshirishdan olingan foydasi;

-investitsiya fondlarining xususiylashtirilgan korxonalar aktsiyalarini sotib olishga yo'naltiriladigan foydasi;

-Xalq banki tomonidan fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag'lardan foydalanishdan olingan foydasi.

- to'liq amortizatsiya qilingan asosiy vositalarni realizatsiya qilishdan yoki tugatishdan olingan foydasi.

Ishlovchilari umumiylar sonining 3 foizidan ko'prog'ini nogironlar tashkil etgan yuridik shaxslardan alohida shartli soliq imtiyozi belgilangan. 3 foizidan ortiq ishga joylashtirilgan nogironlarning har bir foiziga yuridik shaxslardan olinadigan foya solig'ining summasi ham mos ravishda bir foizga kamaytiriladi.

Yuridik shaxslardan olinadigan foya solig'ini hisoblashda soliq solinadigan foya miqdorini kamaytirish imtiyozi ham soliq qonunchiliginu nazarda tutlgan. Yuridik shaxslarning quyidagi turdag'i soliq solinadigan foydasi kamaytirilish imtiyoziga ega:

-ekologiya, sog'lomlashtirish va hayriya jamg'armalariga, madaniyat, sog'liqni saqlash, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish, jismoniy tarbiya va sport muassasalariga, ta'lim muassasalariga, mahalliy davlat hokimiyati organlariga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga beriladigan badallar, homiylik va hayriya tariqasidagi mablag'lar summasiga, biroq soliq solinadigan foydaning ikki foizidan ko'p bo'lмаган miqdorda;

-O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida kollejlar, akademik litseylar, maktablar va maktabgacha tarbiya ta'lif muassasalari qurilishiga yo'naltirilgan mablag'lar summasiga, lekin soliq solinadigan foydaning 30 foizidan ko'p bo'lмагan miqdorda;

-ishlab chiqarishni modernizatsiyalashga, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlashga, yangi texnologik jihoz xarid qilishga, ishlab chiqarishni yangi qurilish shaklida kengaytirishga, ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun foydalaniladigan binolar va inshootlarni rekonstruktsiya qilishga, shuningdek ushbu maqsadlar uchun olingan kreditlarni uzishga, lizing ob'ekti qiymatining o'rnini qoplashga yo'naltiriladigan mablag'lar summasiga, tegishli soliq davrida hisoblangan amortizatsiyani chegirib tashlagan holda, biroq soliq solinadigan foydaning 30 foizidan ko'p bo'lмагan miqdorda. Soliq solinadigan foydani kamaytirish yuqorida ko'rsatib o'tilgan xarajatlar qilingan soliq davridan e'tiboran, texnologik jihoz boyicha esa u foydalanishga topshirilgan paytdan e'tiboran besh yil ichida amalga oshiriladi. Yangi texnologik jihoz xarid qilingan (import qilingan) paytdan e'tiboran uch yil ichida realizatsiya qilingan yoki tekinga berilgan taqdirda, yuridik shaxslardan olinadigan foya solig'ini to'lash boyicha majburiyatlar tiklangan holda, mazkur imtiyozning amal qilishi imtiyoz qo'llanilgan butun davr uchun bekor qilinadi. Ushbu imtiyoz tovarlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarishni amalga oshiruvchi soliq to'lovchilar tomonidan qo'llaniladi;

- ishlab chiqarishni modernizatsiyalashga, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlashga, yangi texnologik jihozlar xarid qilishga, ushbu maqsadlar uchun berilgan kreditlarni uzishga, lizing ob'ekti qiymatining o'rnini qoplashga, tegishli soliq davrida hisoblangan amortizatsiyani chegirgan holda yo'naltiriladigan mablag'lar summasiga. Soliq solinadigan bazani kamaytirish yuqorida ko'rsatib o'tilgan xarajatlar amalga oshirilgan soliq davridan e'tiboran, texnologik jihozlar boyicha esa u foydalanishga topshirilgan paytdan e'tiboran uch yil ichida amalga oshiriladi. Yangi texnologiya jihozlari ular olingan (import qilingan) paytdan e'tiboran uch yil ichida realizatsiya qilingan yoki tekin berilgan taqdirda, mazkur imtiyozning amal qilishi foydadan olinadigan soliqni to'lash boyicha majburiyatlar tiklangan holda, imtiyoz qo'llanilgan butun davr uchun bekor qilinadi;

- yosh oilalar toifasiga kiruvchi xodimlarga ipoteka kreditlari badallari to'lashga va (yoki) mulk sifatida uy-joy olishga tekin yo'naltiriladigan mablag'lar summasiga, biroq soliq solinadigan bazaning 10 foizidan oshmagan miqdorda;

- diniy va jamoat birlashmalarining (kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar va harakatlardan tashqari), hayriya jamg'armalarining mulkida bo'lgan korxonalar foydasidan shu birlashmalar va jamg'armalarining ustavda belgilangan faoliyatini amalga oshirish uchun yo'naltiriladigan ajratmalari summasiga.

-Banklarning soliq solinadigan foydasi jismoniy shaxslarning muddatli omonatlari, plastik kartochkalar boyicha omonatlар hamda joylashtirilgan jamg'arma sertifikatlari hajmlarining ko'paygan summasiga(bo'shagan mablag'larni yuqorida ko'rsatilgan omonatlari boyicha foiz stavkalarini oshirishga maqsadli yo'naltirish sharti bilan kamaytiriladi);

- qo'shimcha foya solig'ini to'lovchilar uchun sof qo'shimcha foya summasiga.

Soliq to'lovchi ko'rilgan zararlarni soliq davridan keyingi besh yil ichida kelgusiga taqsimlab o'tkazish huquqiga ega.

Iqtisodiy islohotlarning birinchi bosqichida korxonalar uchun belgilangan soliqlarning yuqori stavkalari ijobjiy natijalar bermadi, ishlab chiqarishni rivojlantirish va uni texnik jihatdan qayta qurollantirish uchun etarli mablag'larni yo'naltirish imkonini bermadi. Respublika hukumati buni hisobga olgan holda foya solig'i stavkasini bosqichma – bosqich pasaytirish maqsadli siyosatini yuritib kelmoqda.

Yuridik shaxslardan olinuvchi foya solig'i stavkasi oxirgi 13 yil moboynida qariyb 22 foyizga kamayganini kuzatishimiz mumkin. 2000 yilda foya solig'ining stavkasi 31% ni tashkil qilgan bo'lsa, 2013 yilda ushbu soliq stavkasi 9 %ni tashkil qildi. Bu esa yuridik shaxslardan olinuvchi foya solig'ining soliq to'lovchilar zimmasiga to'g'ri keluvchi soliq yukini kamayishiga olib keldi. Foya solig'i stavkasining yildan-yilga kamayishi soliq tushumlarining prognoz ko'rsatkichlariga to'g'ridan-to'g'ri salbiy ta'sir qilishi mumkin. Ammo. foya solig'i boyicha soliq

stavkasining kamayishi soliq to'lovchining moliyaviy xo'jalik faoliyatini rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, uzoq muddatli jarayonda foyda solig'i tushumlarini oshishiga olib keladi.

O'zbekiston Respublikasi norezidentining doimiy muassasa bilan bog'liq bo'lmanagan va to'lov manbaida soliq solinadigan daromadlariga alohida soliq stavkalari belgilangan. Masalan:

- dividendlar va foizlarga - 10 foiz;

- sug'urta qilish, birgalikda sug'urta qilish va qayta sug'urta qilish shartnomalari boyicha sug'urta mukofotlariga - 10 foiz;

- xalqaro aloqa uchun telekommunikatsiyalar, xalqaro tashishlarga (fraxtdan olinadigan daromadlarga) - 6 foiz.

Foyda solig'ini prognoz qilishda zarur bo'lgan asosiy ko'rsatkichlar jamlanadi. Bunda, foyda solig'i prognozni amalga oshirishda o'rganiluvchi quyidagi ko'rsatkichlar jamlanadi:

- foyda solig'ini prognozlashtirishda foyda solig'ini to'laydigan soliq to'lovchilar royxati;

- foyda solig'idan berilgan imtiyozlar summasi;

- soliq to'lovchi sub'ektlarning ishlab chiqarish to'g'risidagi ma'lumotlar;

- soliq stavkalari; xo'jalik sub'ektlarini joriy davrda olgan foyda to'g'risidagi ma'lumotlar;

- debitorlik, kreditorlik qarzlar va boqimanda to'g'risidagi ma'lumotlar;

- korxona va tashkilotlarning moliyaviy-xo'jalik natijalari.

Foyda solig'i tushumini prognoz ko'rsatkichiga yuqorida keltirilgan barcha iktisodiy faktorlar katta ta'sir ko'rsatadi. Dastlab, foyda solig'ini hisoblash uchun zarur bo'lgan soliq bazasini hisoblash talab qilinadi. Soliq basasi qanchalik to'g'ri hisoblangan bo'lsa, byudjetga tushadigan tushumning miqdori ham ko'p bo'ladi. Prognozlashtirilayotgan yil uchun foyda solig'ini rejallashtirishda jami daromad tarqibi, jami daromaddan chegirmalar, umidsiz qarzlar boyicha ma'lumotlar, molyaviy jazo va penya summalar, asosiy vositalar, kimmatl qog'ozlar va boshqa aktivlarni sotishdan olgan foyda (zararlari), amortizatsiya chegirmalari, soliq imtiyozlari va amaldagi soliq stavkalari to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalaniadi.

2-jadval

AQShda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini prognozlash¹⁰

Tarkibiy tuzilishi	Prognozlashtirish metodologiyasi	Bog'liq o'zgaruvchilar bo'lgan
Umumiy majburiyat	Mikrostimulyativ metod	Ish haqi
Manbada undirilish	Ekonometrik formulara	Ish haqi
Ortiqcha to'lov	Ekonometrik formulara	Dividendlar
Hisob-kitob to'lovi	Umumiy majburiyat minus hisob-kitob	Soliq

Demak jamlangan statistik ma'lumotlar, soliq organlarida jamlanadigan byudjetga o'ndirilgan tushumlari, soliq to'lovchi yuridik shaxslarni moliyaviy faoliyati haqidagi hisobotlar asosida foyda solig'ini prognoz ko'rsatkichlari hisoblab chiqiladi.

Birinchi usulda statistika organlari tomonidan chop etilgan hisobotlardan foydalansila, ikkinchi usulda byudjetga haqikatda tushgan tushumlarning usish sur'atlaridan foydalangan xolda amalga oshiriladi.

Foyda solig'ini hisoblab chiqishda korxona faoliyati moliyaviy natijalarini to'g'ri shakllantirish hamda shu faoliyat bilan bog'liq harajatlarni hisoblash muhim ahamiyatga ega.

Rejallashtirilayotgan yil uchun soliq ob'ekti aniklangan so'ng soliqni prognoz kilishda belgilangan soliq stavklaridan foydalananadir.

Foyda solig'ining prognoz ko'rsatkichlari hisoblashda imtiyozlar summasi ham to'g'ridan to'g'ri prognozlashtirilgan tushum summasiga ta'sir qiladi.

Foyda solig'ining prognoz ko'rsatkichlari asosan uchta usulda amalga oshirilishi mumkin:

- yirik soliq manbalari;

- hakikatda tushgan soliq va to'lovlar tushumini tahlili asosida;

¹⁰ Tax policy, Revenue forecasting and economic analysis force. Joshua Goldstain, assistant director. Office of management and budget. The City of New York. 2017. 308p.(39p.)

-korxona va tashkilotlarning moliyaviy xo'jalik faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarga ko'ra. AQShda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini prognozlash jarayonida jismoniy shaxslarning daromadlari qismlarga bo'linadi va ular alohida prognozlashtiriladi. 2-jadvalga qarang.

Makromanbalar boyicha prognoz qilishda asosiy soliq turlari boyicha, QQS, foyda solig'i; jismoniy shaxslarning daromad solig'i; aktsiz solig'i; er solig'i; mulk solig'i; suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq; er ssti boyliklardan foydalanganlik uchun soliqlar hisoblanadi, chunki jami soliq tushumlari ichida ushbu soliq turlaridan tushgan tushum asosiy o'rinni egallaydi.

Birinchi variant boyicha prognoz qilishda Makroiqtisodiy va statistika idoralari tomonidan tayerlangan korxonalarning moliyaviy natijalari hisobotlari, korxonalarni ishlab chiqarish hajmi, mexnat va mexnatga haq to'lash haqidagi hisobotlar, mahsulotning tannarxi, tayyor mahsulotni realizatsiyasi to'g'risidagi hisobotlari, korxonalarni debitorlik va kreditorlik qarzları to'g'risidagi malumotlar, soliq stavkalari, soliq turlari boyicha berilgan imtiyozlar va boshqa malumotlardan foydalaniladi.

3-jadval

Yuridik shaxslardan olinuvchi foyda solig'ini prognozlash hisob-kitobi

Ko'rsatkichlar	Oldingi besh yil					O'rtacha miqdor	Prognoz hisob-kitobi bilan qo'shiluvchi qiymat	Prognoz yili
	1	2	3	4	5			
Mahsulot,ish va xizmat sotuvidan tushum(jami daromad)	2246	2342	2451	2383	2569	2398,2	108,18	2506,38
Tannarx	1523	1592	1618	1611	1679	1604,6	50,15	1654,75
Chegilmaydigan xarajatlar	236	250	261	259	300	261,2	21,3	282,5
Soliq imtiyozi	150	152	155	154	160	154,2	3,37	157,57
Soliq bazasi	809	848	939	877	1030	900,6	77,37	976,56
Soliq stavkasi	13	12	11	10	9			8
Foyda solig'i summasi	105,17	101,76	103,29	87,7	92,7	98,12	6,75	78,12

Yuridik shaxslardan olinuvchi foyda solig'ini prognozlash hisob-kitobida kami bilan oldingi besh yil tahlil uchun olinadi. 3-jadvalga qarang. Foyda solig'iga ta'sir qiluvchi barcha omillar – mahsulot, ish va xizmatlar(jami daromad) summasi, tannarx miqdori, chegilmaydigan xarajatlar qiymati, soliq imtiyozlari summalarining oldingi besh yil davomida ega bo'lgan o'zgarish tendentsiyalari statistik usullar yordamida o'rganiladi.

4-jadval

Foyda solig'i bazasiga ta'sir qiluvchi jami daromad miqdorining variatsion o'zgarishi

yillar	Jami daromad(x)	O'rtacha miqdor(x_1), mln.so'mda	$x-x_1$, mln. so'mda	$(x-x_1)^2/5$, mln. so'mda	Dispersiya, mln. so'mda
1	2246	2398,2	-152,2	4632,97	68,07
2	2342	2398,2	-56,2	631,69	25,13
3	2451	2398,2	52,8	557,57	23,61
4	2383	2398,2	-15,2	46,21	6,8
5	2569	2398,2	170,8	5834,53	76,38
Jami	11991	2398,2	0	11702,96	108,18

Bunda, foyda solig'i bazasiga ta'sir qiluvchi barcha omillarning oldingi besh yil moboynidagi bo'lgan o'rtacha kattaligi, o'rtacha kattalikdan chelanishi, dispersiyasi tadqiq qilingan holda prognoz davri uchun belgilanuvchi soliq prognozi ko'rsatkichi aniqlanadi. Bizning shartli misolimizda mahsulot,ish va xizmat sotuvidan tushum(jami daromadning dispersiyasi 108.18 mln. so'mni tashkil qilgan. Topilgan dispersiya miqdoriga o'rtacha kattalik miqdorini qo'shgan holda prognoz ko'rsatkichi hisoblandi(2506.38 mln. so'm.).

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i bazasini asosini tashkil qiluvchi, oldingi besh yil moboynida amalda yig'ilgan jami daromadlarning ikki varianti o'rtasidagi variatsiya miqdori 323 mln. so'mni tashkil qiladi. Ammo, soliq prognozi ko'rsatkichini hisoblashda ikki maksimal va minimal variantlar o'rtasidagi farqni olish maqsadga muvofiq emas. Chunki maksimal va minimal variantlar o'rtasidagi farq tanlab olingan yillar davomida, jami daromadlar summalarini o'rtasidagi tafovutga aniq xulosa bermaydi. Prognoz ko'rsatkichini hisob -kitobi uchun jami daromadning dispersiyasi uning haqqoniyligini ta'minlashga imkon beradi.5-jadvalga qarang. Hisob-kitob natijasida jami daromadning oldingi besh yil davomidagi farqlanish dispersiyasi 108.18 mln. so'mni tashkil qilgan.

5-jadval

Foyda solig'i bazasiga ta'sir qiluvchi tannarx miqdorining variatsion o'zgarishi

yillar	Tannarx	O'rtacha miqdor(x_1), mln.so'mda	$x-x_1$, mln. so'mda	$(x-x_1)^2/5$, mln. so'mda	Dispersiya, mln. so'mda
1	1523	1604,6	-81,6	1331,71	36,49
2	1592	1604,6	-12,6	31,75	5,63
3	1618	1604,6	13,4	35,91	5,99
4	1611	1604,6	6,4	8,19	2,86
5	1679	1604,6	74,4	1107,07	33,27
Jami	8023		0	2514,64	50,15

Soliq prognozi uchun tanlab olingan besh yil muddatida tannarx miqdori turlicha o'zgargan. Uning o'rtacha miqdori 1604.6 mln. so'mni tashkil qilgan.6-jadvalga qarang. Kuzatish natijalarining ikki maksimal va minimal qiymati o'rtasidagi farq 156 mln. so'mni tashkil qilgan. Besh yil davomida shakllangan tannarx summalarini o'rtasidagi tafovut dispersiyasi 50.15 mln. so'mni tashkil qilgan. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini prognoz qilishda tannarx qiymatlari o'rtasidagi dispersiya miqdori va o'rtacha kattalik miqdor hisobga olingan holda kutilayotgan soliq bazasi miqdoridan ayirib tashlandi.

6-jadval

Foyda solig'i bazasiga ta'sir qiluvchi chegrilmaydigan xarajatlar miqdorining variatsion o'zgarishi

yillar	Chegrilmaydigan xarajatlar	O'rtacha miqdor(x_1), mln.so'mda	$x-x_1$, mln. so'mda	$(x-x_1)^2/5$, mln. so'mda	Dispersiya, mln. so'mda
1	236	261,2	-25,2	127,01	11,27
2	250	261,2	-11,2	25,09	5,01
3	261	261,2	-0,2	0,01	0,09
4	259	261,2	-2,2	0,97	0,98
5	300	261,2	38,8	301,09	17,35
Jami	1306	261,2	0	454,16	21,31

Chegrilmaydigan xarajatlar yillik miqdori ham tadqiqot uchun olingan besh yil davomida o'zarib turgan. Birinchi yilda jami bo'lib 236 mln. so'mlik chegrilmaydigan xarajatlar mavjud bo'lgan bo'lsa, beshinchi yilda ushbu ko'rsatkich 300 mln. so'mni tashkil qilgan.7-jadvalga

qarang. Tanlangan besh yil davomida chegrilmaydigan xarajatlarning o'rtacha miqdori 261.2 mln. so'mni tashkil qilgan. Foyda solig'ini prognoz hisob-kitobi uchun foydalanilgan, chegrilmaydigan xarajatlar summalar o'rtasidagi dispersiya summasi – 21.31 mln. so'mni tashkil qilgan.

Tadqiqot uchun olingan yillar boyicha foyda solig'ini hisoblashda qo'llanilgan jami soliq imtiyozlari summasi ham yillar kesimida jamlanadi. Tanlangan yillar boyicha soliq imtiyozining o'rtacha miqdori aniqlanib, ular o'rtasidagi dispersiya miqdori aniqlanadi. Bizning shartli misolimizda, yillar orasida jami soliq imtiyozi summasining dispersiyasi 3.37 mln. so'mni tashkil qilgan. 8-jadvalga qarang.

7-jadval
Foyda solig'i bazasiga ta'sir qiluvchi soliq imtiyozlari miqdorining variatsion o'zgarishi

yillar	Soliq imtiyozi	O'rtacha miqdor(x_1), mln.so'mda	$x-x_1$, mln. so'mda	$(x-x_1)^2 / 5$, mln. so'mda	Dispersiya, mln. so'mda
1	150	154,2	-4,2	3,53	1,88
2	152	154,2	-2,2	0,97	0,98
3	155	154,2	0,8	0,13	0,36
4	154	154,2	-0,2	0,01	0,09
5	160	154,2	5,8	6,73	2,59
Jami	771	154,2	0	11,36	3,37

Foyda solig'ining soliq bazasi boyicha prognoz ko'rsatkichlarini hisoblash jami daromad, tannarx, chegrilmaydigan xarajatlar, soliq imtiyozlarining prognoz ko'rsatkichlari asosida hisoblanadi. Hisob-kitob natijasida kutilayotgan soliq bazasi miqdori 976.56 mln. so'm bo'lish ehtimoli aniqlandi(2506,38-1654,75+282,5-157,57). Prognoz yilda kutilayotgan foyda solig'ining soliq solish bazasiga kutilayotgan foyda solig'i stavkasini ko'paytirib, foyda solig'ining prognoz tushumi miqdorini aniqlaymiz. Kutilayotgan foyda solig'i tushumi miqdori 78.12 mln. so'mni tashkil qildi(976.56 mln. so'm X 8%).

Ammo, foyda solig'ining bazasini oldingi yillardagi haqiqatdagi summasini o'rtacha kattaligi, o'rtacha kvadratik cheklanishi va dispersiyasi asosida ham hisoblab topish mumkin. Foyda solig'ining soliqqa tortish bazasini va uning o'zini bevosita, taasir qiluvchi omillar ta'sirisiz hisoblaganda kutilayotgan miqdor biinchi usul natijasidan farq qilishini ko'ramiz.

8-jadval
Foyda solig'i bazasiga ta'sir qiluvchi soliq bazasi miqdorining variatsion o'zgarishi

yillar	Soliq bazasi	O'rtacha miqdor(x_1), mln.so'mda	$x-x_1$, mln. so'mda	$(x-x_1)^2 / 5$, mln. so'mda	Dispersiya, mln. so'mda
1	809	900,6	-91,6	1678,11	40,96
2	848	900,6	-52,6	553,35	23,52
3	939	900,6	38,4	294,91	17,17
4	877	900,6	-23,6	111,39	10,55
5	1030	900,6	129,4	3348,87	57,87
Jami	4503	900,6	0	5986,64	77,37

Bizning hisob-kitobimizda tahlil uchun olingan besh yil moboynida soliq bazasining o'rtacha miqdori 900,6 mln.so'mni, uning dispersiyasi 77.37 mln. so'mni tashkil qilgan.9-jadvalga qarang.

Foyda solig'ining bazasi kabi foyda solig'ini prognoz yilda kutilayotgan miqdorini uning o'zini oldingi yillar mahlumotlaridan foydalanib, ehtimolli o'zgarish miqdorini aniqlash mumkin.

Oldingi besh yil davomida foyda solig'inining summasi 92.7 mln. so'mdan 105.17 mln. so'mgacha – maksimal va minimal djarajada tebrangan. 10-jadvalga qarang. Tahlil uchun olingan davrda foyda solig'inining o'rtacha miqdori 98.1240 mln. so'mga, o'rtacha kvadratik cheklanishi 227.63 mln. so'mga. Dispersiyasi 15.09 mln. so'mga tenglashgan.

Yuqorida amalga oshirilgan prognoz hisob-kitoblari oldingi yillarda foyda solig'i bazasiga ta'sir qiliuvchi omillarning haqiqatdagi natijasi asosida tashkil qilindi. Shuni esda tutish kerakki, har-bir yangi yil uchun prognoz ko'rsatkichini belgilashda prognoz yilida kutilayotgan mamlakat makroiqtisodiy ko'rstanichlarini, e'tiborga molik bo'lган yangi soliq bazalarini, inflyatsiya darajalarini inobatga olish tavsiya qilinadi. Yalpi foyda miqdorining prognoz qiymatini aniqlashda yalpi ichki mahsulotning, sanoat mahsulotlaring, tovarooborotning umumiy hajmini, baho indeksini, inflyatsiya darajasini o'zgarish tendentsiyalarini inobatga olish talab qilinadi.

9-jadval

Tadqiqot uchun tanlangan yillar moboynida foyda solig'i summalarini o'rtasidagi variatsion o'zgarish

yillar	Foyda solig'i summasi	O'rtacha miqdor(x_1), mln.so'mda	$x-x_1$, mln. so'mda	$(x-x_1)^2 / 5$, mln. so'mda	Dispersiya, mln. so'mda
1	105,17	98,1240	7,05	9,93	3,15
2	101,76	98,1240	3,64	2,64	1,63
3	103,29	98,1240	5,17	5,34	2,31
4	87,7	98,1240	-10,42	21,73	4,66
5	92,7	98,1240	-5,42	5,88	2,43
Jami	490,62	98,1240	0	45,53	6,75

Yuridik shaxslardan olinuvchi foyda solig'ini prognoz ko'rstanichlarini hisob-kitobini tashkil qilishda soliq to'lovchilarning debtorlik va kreditorlik qarzlarini inobatga olish o'ta muhim hisoblanadi.

Foyda solig'i yuzasidan paydo bo'lувчи soliq majburiyatlarini o'z vaqtida bajarmaslik natijasida soliq to'lovchida kreditorlik qarzlarini yuzaga keladi. Yuridik shaxslarning foyda solig'i to'lovi bilan bog'liq bo'lган kreditorlik qarzlarini prognozlashtiriluvchi yilda to'lanishi rejalashtiriladi. Shu sababli soliq to'lovchining foyda solig'i boyicha kreditorlik qarzlarini miqdorini prognozlashtiriluvchi yilda undiriluvchi foyda solig'i tushumi sifatida qarash maqsadga muvofiq. Aksincha, soliq to'lovchining foyda solig'i to'lovlari boyicha debtorlik qarzlarini prognozlashtiriluvchi yilda undirilishi rejalashtirilayotgan soliq tushumining miqdorini kamayishiga olib keladi.

Soliq to'lovchilarning debtorlik va kreditorlik qarzlarini tahlil qilishda ularning muddati o'tgan yoki o'tmaganligiga alohida e'tibor qaratiladi. Muddati o'tgan debtorlik qarzlarining ayrim turlari gumondor toifga mansub bo'lishi mumkin. Gumondor toifadagi debtorlik va kreditorlik qarzlarini undirish masalasi murakkab jarayon hisoblanadi, ularning ayrimlarini undirish imkoniyatlari deyarli mavjud bo'lmaydi. Shu sababli foyda solig'inining prognoz ko'rstanichlarini tashkil qilishda soliq to'lovchining debtorlik va kreditorlik qarzlarida ehtimoldagi mavjud bo'lган gumondorlik koeffitsentlarini hisobdan chiqarish tavsiya qilinadi.

Soliq to'lovchilarning debtorlik va kreditorlik qarzlarini to'g'rsidagi ma'lumotlar yuridik shaxslar tomonidan taqdim qilinuvchi hisobotlardan yig'iladi. Bunday ma'lumotlar dastlab tuman soliq inspeksiylarida, keyinchalik yig'ilgan ma'lumotlar mumumlashtirish uchun viloyat soliq boshqarmalariga yuboriladi. Viloyat soliq boshqarmalari esa debtorlik va kreditorlik qarzlarini to'g'risidagi ma'lumotlarni O'zbekiston Respublikasi soliq qo'mitasiga taqdim qiladi.

Debtorlik va kreditorlik qarzlarini tahlil qilishda yuridik shaxslarning respublika ichidagi qarzlar, ichki idoraviy qarzlar, respublikadan tashqaridagi qarzlar alohida guruhlarga ajratilib, qrazdorlarning nomlari boyicha o'rganiladi. Tahlil jarayonida debtorlik va kreditorlik qarzlarini yuzaga kelish sabablari, undirish imkoniyatlari, oldingi soliq davriga nisbatan o'sish, kamayish sur'atlari batafsil tadqiq qilinadi.

Foyda solig'i tushumi boyicha prognoz ko'rsatkichlari belgilangan tartibda tasdiqlangandan keyin, u ijorga soliq idoralariga yuborladi. Belgilangan prognoz ko'rstakichlarini to'liq va o'z vaqtida bajarilishi davlat soliq xizmmati xodimlari tomonidan amalga oshiriladi. Foyda solig'i boyicha soliq majburiyatlar soliq qonunchiligidagi belgilangan muddatda soliq to'lovchi tomonidan bajarilishi lozim. Soliq majburiyati belgilangan muddatlarda bajarilmagan hollarda soliq idorasi xodimlari soliq to'lovlarini majburiy undirish choralarini ko'radilar. Dastlab soliq to'lovchining bank hisob raqamidagi mavjud pul mablag'laridan undirish tashkil qilinadi. Yuridik shaxslarning bank hisob raqamida pul mablag'lari mavjub bo'limganda, yoki undirishning iloji yo'q hollarda ularning debtorlaridan undirish choralarini ko'rildi. Aynan ushmu maqsadlarda ham yuridik shaxslarning debtorlik va kreditorlik qarzlarini tahlil qilish va o'rganish o'ta muhim hisoblanadi.

Yuridik shaxslarning foyda solig'i boyicha solq qarzdorligini ularning bank hisob raqamlaridagi pul mablag'laridan va debtorlaridan undirish ilojsiz bo'lsa, qarzdorlikni undirish soliq to'lovchining mulkiga qaratiladi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i jismoniy shaxslar tomonidan mehnatga haq to'lash ko'rinishida va boshqa toifadagi daromdlaridan undiriladi. Mazkur soliq to'lovchilari bo'lib soliq solinadigan daromadga ega bo'lgan barcha jismoniy shaxslar, shuningdek O'zbekiston Respublikasi rezidentlari va norezidentlari hisoblanadi. Ushbu soliq turining jismoniy shaxslar tomonidan olinadigan daromad bilan bevosita bog'liq ekan, jismoniy shaxslarning jami daromdalari va ularning tarkibi jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini mohiyati ochadi.

Jismoniy shaxslarning jami daromadi tarkibi O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 30-bobida bayon qilingan. O'zbekiston Respublikasi soliq kodeksining 171- moddasiga asosan jismoniy shaxslarning jami daromadlari tarkibiga quyidagilar kiradi:

- mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar;
- mulkiy daromadlar;
- moddiy naf tarzidagi daromadlar;
- boshqa daromadlar.

Ish beruvchi bilan tuzilgan mehnatga oid mehnat shartnomasiga muvofiq ishlarni bajarayotgan jismoniy shaxslarga hisoblanadigan va to'lanadigan barcha to'lovlar mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar deb e'tirof etiladi. Mehnatga to'langan haq ishbay narxlar, tarif stavkalari va mansab maoshlari asosida hisoblanadi. Bundan tashqari, mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlari turiga rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar, kompensatsiya to'lovlar, ishlanmagan vaqt uchun haq to'lashlar ham kiradi.

t/r	Rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lov turlari
1	yillik ish yakunlari boyicha mukofot, bayram sanalar va muhim sanalar, jamoatchilik faoliyatidagi yutuqlar munosabati bilan xodimlarni rag'batlantirish xususiyatiga ega bir yo'la beriladigan mukofotlar va boshqa shunga o'xshash to'lovlar
2	yuridik shaxsning mukofotlash to'g'risidagi qoidasida nazarda tutilgan rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar
3	kasb mahorati, murabbiylit uchun tarif stavkalariga va maoshlarga ustamalar
4	ko'p yil ishlaganlik uchun pul mukofoti va to'lovlar
5	ta'tilga qo'shimcha haqlar
6	ratsionalizatorlik taklifi uchun to'lov

6-rasm. Rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lov

Rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar sifatida quyidagilarni ko'rsatishimiz mumkin. 6-rasmga qarang.

Rag'batlantirish xususiyatlariga ega bo'lgan to'lovlar tarkibiga ishchi va xodimlarning ish natijalari, kasbiy mahorati, ko'p yillik ish staji va shunga o'xshash ko'rsatkichlar asosida, mukofot tariqasida to'lanuvchi mukofotlar kiradi.

Ish haqi ko'rinishidagi to'lovlar tarkibida kompensatsion to'lovlar muhim o'rinn egallaydi. 7-rasmga qarang.

Aksariyat yuridik shaxslar ishchi va xodimlarga komensatsion to'lovlarini og'ir, zararli, o'ta zararli mehnat sharoitlarida ishlaganlik uchun, xizmat ishlari uchun xodimning shaxsiy

avtomobilidan yoki xizmat maqsadlari uchun uning boshqa mol-mulkidan normalardan ortiqcha foydalanganlik uchun va shu kabi boshqa holatlar boyicha amalga oshiradilar.

Ayrim sabablarga ko'ra ishchi va xodimlarning vaqtinchalik ishlamagan vaqt uchun ham to'lovlar amalga oshirilishi mumkin. Bunday to'lovlar ham ish haqi ko'rinishidagi daromad sifatida talqin etiladi.

Ishchilarning ishlanmagan vaqt uchun amalga oshirilgan to'lovlar tarkibiga quyidagilar kiradi:

-yillik asosiy (uzaytirilgan asosiy) ta'tilga haq to'lash, shuningdek ushbu ta'tildan foydalanilmaganda, shu jumladan xodim bilan mehnat shartnomasi bekor qilinganda pullik kompensatsiya to'lash;

- noqulay va o'ziga xos mehnat sharoitlarida, shuningdek og'ir va noqulay tabiiy-iqlim sharoitlarida ishlaganligi uchun ayrim tarmoqlarning xodimlariga beriladigan qo'shimcha ta'tilga haq to'lash;

- o'qish bilan bog'liq ta'tilga va ijodiy ta'tillarga haq to'lash;

- o'n ikki yoshga to'lмаган ikki va undan ortiq bolasi yoki o'n olti yoshga to'lмаган nogiron bolasi bor ayollarga berilgan qo'shimcha ta'tilga haq to'lash;

- asosiy ish haqi qisman saqlanib qolgan holda majburiy ta'tilda bo'lgan xodimlarga beriladigan to'lovlar;

t/r	Kompensatsiya to'lovleri turlari
1	tabiiy-iqlim sharoitlari noqulay bo'lgan joylardagi ishlar bilan bog'liq qo'shimcha to'lovlar
2	og'ir, zararli, o'ta zararli mehnat sharoitlarida ishlaganlik uchun ustamalar
3	tungi vaqtida, ish vaqtidan tashqari, dam olish kunlarida va bayram (ishlanmaydigan) kunlarida ishlaganlik uchun tarif stavkalariga hamda maoshlarga ustamalar va qo'shimcha to'lovlar
4	ko'p smenali rejimda ishlaganlik, shuningdek bir necha kasbda, lavozimda ishlaganlik, xizmat ko'rsatish doirasi kengayganligi, bajariladigan ishlar hajmi ortganligi, o'zining asosiy ishi bilan bir qatorda ishda vaqtinchalik bo'lмаган xodimlarning vazifalarini bajarganlik uchun ustamalar
5	doimiy ishi yo'lda kechadigan, harakatlanish va (yoki) qatnov tusiga ega bo'lgan xodimlarning, shuningdek doimiy ishi ishlarni vaxta usulida bajarilishini nazarda tutadigan xodimlarning ish haqiga normalardan ortiqcha to'lanadigan ustamalar
6	xizmat safarları vaqtidagi normalardan ortiqcha kundalik xarajatlar uchun haq (sutkalik pullar)
7	xizmat ishlari uchun xodimning shaxsiy avtomobilidan yoki xizmat maqsadlari uchun uning boshqa mol-mulkidan normalardan ortiqcha foydalanganlik uchun to'lovlar
8	mehnatda mayib bo'lganlik yoki sog'liqqa boshqacha shikast etganlik bilan bog'liq zararning o'rnini qoplash uchun miqdorlardan ortiqcha olingan summalar

7-rasm. Kompensatsiya to'lovleri

- donor xodimlarga ko'rikdan o'tish, qon topshirish va qon topshirilgan har bir kundan keyin beriladigan dam olish kunlari uchun haq to'lash;

-O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksiga muvofiq davlat yoki jamoat vazifalarini bajarganlik uchun mehnatga haq to'lash;

- qishloq xo'jaligi va boshqa ishlarga jalb qilinadigan xodimlarning asosiy ish joyi boyicha saqlab qolinadigan ish haqi;

- boshqa yuridik shaxslardan avvalgi ish joyida lavozim boyicha maoshi miqdorlari ma'lum bir muddat davomida saqlab qolning holda ishga olingan, shuningdek vaqtinchalik vazifani bajarib turganda xodimlarga maoshdagi farqni to'lash;

- yuridik shaxslarning xodimlariga kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimida ishdan ajralgan holda o'qishlari vaqtida asosiy ish joyi boyicha ularga to'lanadigan ish haqi;

- mehnat layoqatini vaqtinchalik bo'lмаган xodimlarga qo'shimcha haq to'lash;

- qonun hujjatlariga muvofiq yoki yuridik shaxsning qarori bilan majburiy progul vaqt yoki kam haq to'lanadigan ishni bajarganlik uchun haq to'lash;

- o'n sakkiz yoshga to'lмаган shaxslarning imtiyozli soatlariga, onalarga bolani ovqatlantirishi uchun ishda beriladigan tanaffuslarga, shuningdek tibbiy ko'rikdan o'tish bilan bog'liq vaqt uchun haq to'lash;

- yuridik shaxslarning asosiy ishidan ozod qilingan va ozod qilinmagan holda xodimlar tayyorlash, ularni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish uchun hamda o'quvchilar va

talabalarning ishlab chiqarish amaliyotiga rahbarlik qilish uchun jalg qilinadigan yuqori malakali xodimlari mehnatiga haq to'lash;

-yuridik shaxsning boshqaruv organi (kuzatuv kengashi yoki boshqa shunga o'xshash organi) a'zolariga yuridik shaxsning o'zi amalga oshiradigan to'lovlar;

-moddiy yordam to'lovni

-yuridik shaxsning mablag'lari hisobidan to'lanadigan pensiyalar va nafaqalarga qo'shimchalar, stipendiyalar;

-oliy o'quv yurtini tamomlaganidan keyin yosh mutaxassislarga ta'til vaqtin uchun yuridik shaxs hisobidan to'lanadigan nafaqalar;

-xodimiga muhim sana, uzoq yillik xizmati, jamoatchilik faoliyatidagi yutuqlari munosabati bilan to'lanadigan rag'batlantirish tarzidagi to'lov.

Jismoniy shaxslarning mulkiy daromadlarining tarikibi 3-rasmida keltirilgan.

Jismoniy shaxslarning mulkiy daromadlari ularninginvestitsion faoliyati bilan bevosita bog'liq. Mulkiy daromadlarning foyizlar va dividendlar ko'rinishidagi turlari to'lov manbaasida soliqqa tortiladi. Bugungi kunda jismoniy shaxslarning mulkiy daromadlarini salmog'i va ahmiyati oshib bormoqda.

Jismoniy shaxslar boshqa shaxsdan moddiy naf tarzida ham daromadga ega bo'lishi mumkin. Bunday daromadlarga yuridik shaxs tomonidan jismoniy shaxslarning bolalarini maktabgacha ta'lim muassasalarida o'qitish, tarbiyalash xarajatlarini to'lash, kommunal xizmatlar, xodimlarga berilgan uy-joy haqini, uy-joydan foydalanish xarajatlari haqini, yotoqxonadagi joylar haqini yoki ularning o'rnini qoplash qiymatini to'lash, oziq-ovqat, yo'l chiptalari qiymatini to'lash yoki oziq-ovqat, yo'l chiptalari qiymatini qoplash va shu kabi jismoniy shaxsga to'langan xarajatlar kiradi.

Jismoniy shaxslar to'layotgan soliqlar ichida byudjet tushumlaridan salmoqli o'rinni egallaydigan soliq bu – jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'idir. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i – davlat byudjeti daromad manbalaridan biri bo'lib, u umum davlat soliqlari tarkibiga kiradi. Uning o'ziga xos xususiyati shundaki, soliq jismoniy shaxslarning bevosita daromadlaridan olinadi. Bugungi kunda jismoniy shaxslar to'layotgan soliqlar va yig'imlar byudjet daromadlarining qariyib 15-20 foizini tashkil etmoqda. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i 2012 yilda Davlat byudjetining maqsadli jamg'armalarisiz jami daromadlarining 11.7 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2013 yilda 11.06 foizni tashkil etgan. 2017 yilda soliqning ushbu turini Davlat byudjetining maqsadli jamg'armalarisiz jami daromadlaridagi ulushi 8.68 foyizni tashkil qilishi kutilmoqda.

t/r	Jismoniy shaxslarning mulkiy daromadlari turlari
1	foizlar
2	dividendlar
3	mol-mulkni ijara berishdan olingan daromadlar
4	jismoniy shaxsning xususiy mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan olingan daromadlar
5	sanoat mulki ob'ektlariga, seleksiya yutug'iga berilgan patent (litsenziya) egasi bo'lgan jismoniy shaxsning patentdan boshqa shaxs foydasiga voz kechganda yoki litsenziya shartnomasi tuzganda olgan daromadi
6	qimmatli qog'ozlarni realizatsiya qilishdan tushgan daromadlar va yuridik shaxslarning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushini (payini) realizatsiya qilishdan olingan daromadlar
7	soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'laganidan keyin xususiy korxona mulkdori hamda fermer xo'jaligi boshlig'i ixtiyorida qoladigan foya summasi

8-rasm. Mulkiy daromadlar

Yuqorida bildirilgan fikirlar va diagramma ma'lumotlaridan ko'rilib turibdiki, bugungi kunda soliqning ushbu turi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida muhim rol oynaydi. Soliq tushumlarini prognoz qilishda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'inining salmoqli ulushi mavjud.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'inining prognoz ko'rsatkichlarini shakllanishiga va amalda bajarilishiga ko'plab omillar ta'sir qiladi. Ayrim omillar soliq tushumlarining

o'zgarishiga funksional ravishda bog'langan bo'lib, to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qilishi mumkin. Shunday omillarga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining soliq solish bazasi, soliq imtiyozlari va soliq stavkalari kiradi. Soliq solish bazasi mazkur soliq boyicha prognoz tushumlari bilan yuqori ijobiy korrelatsion bog'lanishga ega hisoblanadi. Ya'ni soliq solish bazasining oshishi jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i tushumlarini oshishiga olib keladi. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i boyicha beriluvchi soliq imtiyozlari esa, aksincha prognoz ko'rsatkichlarining pasayishiga olib kelishi mumkin. Shu ma'noda soliq imtiyozlari va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i tushumining prognoz ko'rsatkichi o'rtaida teskari, kuchli korrelatsion bog'lanish mavjud deb xulosa qilishimiz mumkin.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i tushumlari miqdori soliq stavkalarining belgilangan progressiv setkalariga bog'liq. So'zsiz. Soliq stavkalarining miqdorini oshishi kutilayotgan soliq tushumlariga ijobiy ta'sir qiladi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining soliq solish bazasini aniqlash tartibi O'zbekiston Respublikasi soliq kodeksining 170- moddasida bayon qilingan. Ushbu moddaga asosan, soliq solinadigan baza jami daromaddan kelib chiqib, soliq solishdan ozod qilingan daromadlar chegirilgan holda aniqlanadi.

Mazkur soliq turi boyicha soliq imtiyozlari ikki toifadaga bo'linadi:

- jismoniy shaxslarning soliq solinmaydigan daromadlari;
- jismoniy shaxslarni soliq solishdan ozod qilish.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini undirishda bir-necha turdag'i soliq stavkalaridan foydalaniladi. Jismoniy shaxslarning ish haqi ko'rinishidagi daromadlarini soliqqa tortishda progressif tavkadan foydalaniladi. Stavka miqdori ish haqi ko'rinishidagi daromad hajmiga bog'liq.

Norezident jismoniy shaxslarning doimiy muassasa bilan bog'liq bo'limgan holda O'zbekiston Respublikasidagi manbadan olgan daromadlariga ularni to'lash manbaida chegirmalarsiz, quyidagi stavkalar boyicha soliq solinadi:

- dividend va foizlar - 10 foiz;
- xatarni sug'urtalash yoki qayta sug'urtalashga to'langan sug'urta mukofotlari - 10 foiz;
- O'zbekiston Respublikasi va boshqa davlatlar o'rtaida harakat qatnovida xalqaro aloqa uchun telekommunikatsiyalar yoki transport xizmatlari (fraxtdan daromadlar) - 6 foiz;
- roylati, ijara dan kelgan daromadlar, xizmatlar ko'rsatishdan kelgan daromadlar, shu jumladan boshqaruv boyicha xizmatlar, maslahatlarga oid va boshqa daromadlar - 20 foiz;

To'lov manbaida soliq solish, to'lov O'zbekiston Respublikasi ichida yoki undan tashqarida amalga oshirilganidan qat'i nazar, qo'llaniladi.

Jismoniy shaxslarga to'lanadigan dividendlar va foizlarga 10 foizlik stavka boyicha to'lov manbaida soliq solinadi.

Jismoniy shaxslarning daromad solig'ini prognozlashtirishda foydalanadigan ma'lumotlar soliq, statistika va boshqa davlat organlarining hisobotlaridan yig'iladi. Xususan, tarmoqlar boyicha ishchilar soni va ularning ish haqi to'g'risidagi hisobotlar, soliqdan berilgan imtiyozlar, amaldagi soliq stavkalari, soliq organlarida tuziladigan statistik hisobotlar va shu kabi boshqa hisobot shakllari jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i tushumini prognozlashtirish uchun asosiy ma'lumotlar manbaasi hisoblanadi. Soliq idoralarida yuritiluvchi yig'ma hisobotlar ma'lumotlari soliq to'lovchilar tomonidan soliq idoralariga taqdim qilinuvchi ma'lumotlar, hisobotlar, hisob-kitoblar shakllaridan yig'iladi.

Ma'lumotnomma shaklidan prognozlashtirish uchun zarur bo'lgan, yuridik shaxslarda daromad olgan jismoniy shaxslar, daromad solig'i boyicha yil boshidagi va yil oxiridagi soliq qarzdorligi, ortiqcha to'lovlari to'g'risidagi axborotlar yig'iladi. Ma'lumotnomma shakli soliq to'lovchi tomonidan to'ldiiladi va soliq idorasiga taqdim qilinadi.

To'langan daromadlar va byudjetga o'tkazilgan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i hamda ShjBPHga badallar summasining rasshifrovkasida mehnatga haq to'lash uchun bankdan olingan mablag'lar, daromadni naturada to'langan hajmi, ShjBPHga hisoblangan badallar summasi to'g'risidagi zarur ma'lumotlar prognoz hisob kitob uchun olinadi.

Jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to'g'risida deklaratsiyada O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining mulkiy daromadlari, fan, adabiyot va san'at asarlarini yaratganlik hamda ulardan foydalanganlik uchun mualliflik haqi tariqasida olingan daromadlari, asosiy bo'lмаган ish joyidan olingan moddiy naf tarzidagi daromadlari, ikki yoki undan ko'p manbadan olingan soliq solinadigan daromadlari, O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqaridagi manbalardan olingan daromadlar, soliq agentlari bo'lмаган manbalardan olingan daromadlari to'g'risidagi ma'lumotlar jamlanadi.

10-jadval

O'tgan besh yil davomida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i tushumi va soliq bazasining zanjirli o'sish sur'ati

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i va uning soliq soish bazasi	2008 yilda haqiqatda jismoniy shaxslardan olinan daromad solig'i miqdori,	2009 yilda haqiqatda jismoniy shaxslardan olinan daromad solig'i miqdori,	2010 yilda haqiqatda jismoniy shaxslardan olinan daromad solig'i miqdori,	2011 yilda haqiqatda jismoniy shaxslardan olinan daromad solig'i miqdori,	2012 yilda haqiqatda jismoniy shaxslardan olinan daromad solig'i miqdori,i	2013 yilda haqiqatda jismoniy shaxslardan olinan daromad solig'i miqdori,	Prognozlashtirilayotgan yilda kutilayotgan jismoniy shaxslardan olinuvchi daromad solig'i miqdori						
		mutloq miqdori, mln.sur'ati, %da	2008yilga nisbata q miqdori, mln.sur'ati, %da	mutloq yilganisbata q miqdori, mln.sur'ati, %da	mutloq yilganisbata q miqdori, mln.sur'ati, %da	mutloq yilganisbata q miqdori, mln.sur'ati, %da	2013 yilganisbata n kutilayotgan o'sish sur'ati, %da						
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining soliq soish bazasi	625	640	102,40	670	104,69	702	104,78	720	102,56	760	105,56	105,26	799,98
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	75	83,2	110,93	93,8	112,74	105,3	112,26	115,2	109,40	129,2	112,15	111,23	143,71

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i tushumlarini proqnoz qilishda O'zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan to'lanuvchi daromad solig'i tushumlarini ham inobatga olish talab qilinadi. O'zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan to'lanuvchi daromad solig'i to'g'risidagi ma'lumot 9-9-jadvalda keltirilgan shakl asosida yig'iladi.

$$\begin{aligned} & nA_o + A_1 \sum_{i=1}^n i = \sum_{i=1}^n \check{Y}_i \\ \hline & A_0 \sum_{i=1}^n i + A_1 \sum_{i=1}^n i^2 = \sum_{i=1}^n i \check{Y}_i \end{aligned}$$

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar manbaalaridan foydalangan holda, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i tushumlarini prognoz qilish usullari tanlanadi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i tushumlarini prognoz qilish ekstropolyatsiya usuliga asoslanadi. Oldingi yillar davrida haqiqatda yig'ilgan soliq tushumining o'zgarish tendentsiyalari o'rganiladi. Bunda, jismoniy shaxslardan olingan daromad solig'inining jami summasini dinamik qatori tuziladi, tuzilgan dinamik qatorlar o'rtasidagi qonuniyatlar aniqlanadi. Tadqiqot qilishda iqtisodiy-matematik usullardan biri bo'lgan, regression tahlil usullaridan foydalaniladi. Tahlilda shartli ma'lumotlardan foydalanamiz. 10-jadvalga qarang.

$O'_i = A_o + A_1 i$ formuladan foydalangan holda jismoniy shaxslardan olingan daromad solig'i tushumlarining va o'zgarish qonuniyatlari asosida, o'tgan besh yil uchun to'g'ri chizziqli regressiya tenglamasini tuzamiz. Regression tenglama uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'inining zanjir usulidagi o'sish sur'atlarini aniqlaymiz. Yillar boyicha o'sish sur'atlari asosida dinamik qator tuzamiz.

Tuzilgan to'g'ri chizziqli regressiya tenglamasida belgilangan A_o va A_1 parametralarining qimatini aniqlash uchun quyidagi to'g'ri chizziqli tenglamalar sistemasidan foydalanamiz.

11-jadvalda jismoniy shaxslardan olingan daromad solig'i summasining yillar boyicha zanjirli o'sish sur'ati dinamik qatorlarga joylashtirilgan. I – dinamik qatorning tartib raqami, regresson to'g'ri chizziqli tenglamada esa o'zgarmas son hisoblanadi.

11-jadval

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i tushumining o'tgan besh yil davomida o'zgarish qonuniyatlari

Yillar	i	Jismoniy shaxslardan olingan daromad solig'inining o'sish sur'ati, O'	iO'	i^2
1	1	110,93	110,9333	1
2	2	112,74	225,4808	4
3	3	112,26	336,7804	9
4	4	109,40	437,6068	16
5	5	112,15	560,7639	25
Summa	15	557,49	1671,5652	55

12- jadvalda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i soliq solish bazasining o'zgarish qonuniyatlari o'rganilgan.

12-jadval

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining soliq solish bazasini o'tgan besh yil davomida o'zgarish qonuniyatları

Yillar	i	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining soliq solish bazasi o'sish sur'ati,O'	iO'	i*i
1	1	102,40	102,4	1
2	2	104,69	209,38	4
3	3	104,78	314,33	9
4	4	102,56	410,26	16
5	5	105,56	527,78	25
Summa	15	519,98	1564,14	55

9-13-jadval asosida regression to'g'ri chizziqli tenglamalar sistemasidagi Ao, A1 parametrlarining qiymati aniqlanadi.

Regression tenglamalar sistemasiga Ao, A1 parametrlarining qimatini qoyib jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining kutilayotgan o'sish sur'atini aniqlaymiz. Shartli misolimizda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining kutilayotgan o'sish sur'ati 111.23 %ni tashkil qildi($Ao = 111,77$, $A1 = -0,09$). Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining o'sish sur'atini(111.23) 2010 yilda haqiqatda jismoniy shaxslardan olingan daromad solig'i miqdoriga(129,2 mln. so'm) ko'paytirib, ko'paytma yuzga bo'linadi. Hosil bo'lган 143,71 mln. so'm jismoniy shaxslardan yig'ilishi kutilayotgan daromad solig'i tushumining prognoz ko'rsatkichi hisoblanadi.

13-jadval

Regression to'g'ri chizziqli tenglamalar sitemasining Ao, A1 parametrlarining qiymati.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i va uning soliq soish bazasi	Ao	A1	i	O'6
Jismoniy shaxslardan olingan daromad solig'ining kutilayotgan o'sish sur'ati,O'	111,77	-0,09	6	111,23000
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining soliq solish bazasining kutilayotgan o'sish sur'ati,O'	102,74	0,42	6	105,26000

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i soliq solish bazasining prognozlashtirilayotgan yildagi zanjirli o'sish sur'ati 105.26 % ga tenglashishi kutilmoqda.

9. MAVZU. “TO‘G‘RI SOLIQLARNI PROGNOZLASH VA TUSHUMLARGA TA’SIR QILUVCHI OMILLAR ” ЮЗАСИДАН КЕЙСЛАР ТЎПЛАМИ, АМАЛИЙ ТОПШИРИҚЛАР, ИШЛАНМАЛАР

Reja:

1. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ini prognozlashni o‘ziga xos jihatlari
2. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i va uni prognozlashni o‘ziga xos jihatlari

«Aylana sto‘l atrofida» muhokama uchun savollar

1. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining o‘ziga xos jihatlari nimadan iborat?
2. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining o‘ziga xos jihatlari nimadan iborat?
3. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ini amalga joriy qilinish zarurati nimadan iborat?
4. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining asosiy ko‘rsatkichlariga nimalar kiradi?
5. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining asosiy ko‘rsatkichlariga nimalar kiradi?
6. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ini prognozlashni o‘ziga xos jihatlari nimadan iborat?
7. Jismoniy shaxslardan daromad solig‘i va uni prognozlashni o‘ziga xos jihatlari nimadan iborat?
8. To‘g‘ri soliqlarni prognozlashda qanday usullardan foydalaniladi?



1-topshiriq.

1-KEYS-STADI Kirish

Tavsiya etilgan keysni yechish quyidagi natijalarga erishishga imkon yaratadi:

- o‘zlashtirilgan mavzu bo‘yicha bilimlarni mustahkamlash;
- mantiqiy fikrlashni rivojlantirish;
- to‘g‘ri soliqlarni prognozlash va tushumlargaga ta’sir qiluvchi omillar borasida mustaqil ravishda qaror qabul qilish ko‘nikmalarini egallash;
- to‘g‘ri soliqlarni prognozlash va tushumlargaga ta’sir qiluvchi omillar uslubiyatini qo‘llash qobiliyatini tekshirish.

VAZIYAT

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i O‘zbekiston Respublikasi soliq tizimida muhim rol o‘ynaydi. To‘g‘ri ssoliqlarning yorqin namoyandasiga sifatida yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i nafaqat byudjet daromadlarini shakllantirishda faol ishtiroketadi, balkim u mamlakat ijtimoiyq‘iqtisodiy rivojlantirishda rag‘batlantiruvchanlik rolini bajaradi. Ilmiy asoslangan holda prognozlashning natijasiga rejalashtiriluvchi soliq yukining meyori brg‘liq. E’tiborlaringizga o‘tgan besh yil moboynida mavjudbo‘lgan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining yalpi soliq solish bazasi hamda mazkur soliq bo‘yicha yig‘ilgan soliq summasi keltirilgan.

Variant №1

Ko‘rsatkichlar	2012	2013	2014	2015	2016
Foyda solig‘ining soliq solish bazasi,mlrd so‘m	15.0	17.0	17.5	20.0	22.0
Foyda solig‘i summasi,mlrd so‘m	1.5	1.6	1.6	2.1	2.5

Variant №2


Ko‘rsatkichlar	2012	2013	2014	2015	2016
Foyda solig‘ining soliq solish bazasi,mlrd so‘m	20.0	23.0	22.0	19.0	23.5

SAVOLLAR VA TOPSHIRIQLAR:

- 1.Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan foydalanib, 2017 yilda foyda solig'i boyicha soliq tushumini prognoz ko'rsatkichini hisoblang.
2. Nima deb o'ylaysiz, qanday makroiqtisodiy omillar prognoz hisobga kitoblariga ta'sir qiladi?
3. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining elementlarini o'zgarishi mazkursoliqni prognozlash hisob kitoblariga qanday ta'sir qiladi?

2-topshiriq.

"Nima uchun" grafik organizayzeri yordamida to'g'ri soliqlarni prognozlash muammosini tahlil qiling.



Foydalilanildigan adabiyotlar royxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiysi to'g'risida. 2018 yil 29 iyun. Elektron-huquqiy baza.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 488 b.
3. Mirziyoyev Sh.M.Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 104 b.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Soliq ma'muriyatichilagini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarining yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida. 2017 yil 18 iyul, pf-5116-son. Elektron-huquqiy baza.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Mahalliy davlat hokimiyyati organlarining moliyaviy erkinligini oshirish, mahalliy byudjetlarga tushumlarning to'liqligini ta'minlash bo'yicha soliq va moliya organlari javobgarligini kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. 2017 yil 13 dekabr, PF-5283-son. Elektron-huquqiy baza.
6. Распоряжение Президента Республики Узбекистан. Об организации критического изучения деятельности финансовых, налоговых и таможенных органов. 16 января 2018 г. № р-5182. Электронно-правовая база.

7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini huquqiy tartibga solishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida. 2017 yil 28 avgust, 677-soni. LEX.UZ. Elektron-huquqiy baza.
8. Абдуганиева Г.К., Бабабекова Н.Б. Прогнозирование налогов. Учебное пособие. – Т.: “Тафаккур-Бўстони”, 2012. - 224 с.
9. Doschanova N.P. Soliq statistikasi va prognozi. O‘quv qo‘llanma. – Т.: “Ren-Poligraf” bosmaxonasi, 2009. – 216 b.
10. Vahobov A.V,Jo‘rayev A.S Soliqlar va soliqqa tortish.Darslik.T: “Sharq”, 2009. -448 b.
11. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. “Norma” huquqiy bazasi.
12. O‘zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi. “Norma” huquqiy bazasi.
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 iyuldagagi “Soliq ma’muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarining yig‘iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5116-sonli Farmoni. Xalq so‘zi» gazetasi. 2017 yil 19 iyuldagagi 141 (6835)-son.
14. Гадоев Э. и др. Упрощённая система налогообложений. Учебно практическое пособие. - Т.: Норма, 2011.- 324 стр.
15. Gadoev E. va b. Foyda solig‘i. O‘quv-amaliy qo‘llanma. - Т.: Norma, 2011.- 408-b.
16. Zavalishina I.A. Soliqlar: nazariya va amalyot. “Iqtisodiyot va huquq dunyosi” nashriyot uyi, 2005. 544 bet.
17. Gadoev E, Kuzieva N. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish. Darslik. – Т.: “O,,zbekiston”, 2012. - 336 b
18. Jo‘rayev A, S. Shirinov. Soliq statistikasi va prognozi: O‘quv qo‘llanma, Т.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2015.-392b.
19. Eshboyev T.T. Yuridik shaxslarni soliqqa tortish. Darslik. T: “Cho‘lon” 2013, 296 bet
20. Musagaliyev A. Yuridik shaxslarni soliqqa tortishni takomillashtirishning dolzarb masalalari. Soliq akademiyasi. Monografiya, Toshkent: 2010, 116 bet.
21. A.Xomma, A.Tangirqulov, Sh.Toshmatov, I.Norqo‘ziyev va N.Roziqovlar. Soliq qarzi va uni undirish. O‘quv qo‘llanma. - Т.: O‘quv qo‘llanma, “Yangi asr avlod”, 2011.
22. I.Xabibullayev, G.Mansurova, Soliq statistikasining nazariy asoslari. O‘quv qo‘llanma - Т.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi», 2005.
23. Forecasting Scottish taxes. The National Archives, Kew, London TW9 4DU. Crown copyright 2017. 25p/(20p.).
24. Federal taxation: practice and procedure. Robert E., Richard J. Chicago, 2017.987p. (252p.).
25. Tax analysis and revenue forecasting. Issues and Techniques. By Glenn P. Jenkins Chun-Yan Kuo Gangadhar P. Shukla. Harvard Institute for International Development Harvard University . 2017. 187 p.(2p.).
26. An Analysis of Tax Revenue Forecast Errors. Martin Keene and Peter Thomson. New Zealand treasury working paper 07/02. 2017.41p.(2p.).
27. Tax policy, Revenue forecasting and economic analysis force. Joshua Goldstain, assistant director. Office of management and budget. The City of New York. 2017. 308p.(39p.)

Internet saytlari:

28. www. <http://el.tfi.uz/> - Toshkent moliya instituti elektron kutubxonasi;
29. www. <http://soliq.uz>;
30. www. <http://edu.uz>;
31. www. <http://mf.uz>;
32. www. <http://oxs.uz>;
33. www. <http://norma.uz>;
34. www. <http://lex.uz>;
35. www. <http://my.gov.uz>;
36. www. <http://alleng.ru>;

10.1. “MAVZU. BILVOSITA SOLIQLARNI PROGNOZLASH VA TUSHUMLARGA TA’SIR QILUVCHI OMILLAR ” O’QUV MODULI YUZASIDAN MA’RUZA MATNI

X. O’QUV MATN (MODUL)

MODUL: MAVZU. BILVOSITA SOLIQLARNI PROGNOZLASH VA TUSHUMLARGA TA’SIR QILUVCHI OMILLAR



Reja:

1. Aksiz solig‘ini prognozlashni o‘ziga xos jihatlari
2. Qo‘shilgan qiymat solig‘i va uni prognozlashni o‘ziga xos jihatlari

Tayanch so‘z va iboralar: aksiz solig‘ining asosiy ko‘rsatkichlari, aksiz solig‘ini prognoz qilish, qo‘shilgan qiymat solig‘ini prognoz qilish, egri soliq, advalor stavka, ekstrapolyatsiya, omillar.

Mohiyatan, aktsiz solig‘i tovar bahosiga kiritiluvchi va oxirgi iste’molchi tomonidan to’lanadigan egri soliq hisoblanadi.

Aksiz solig‘ining iqtisodiy mohiyati va milliy iqtisodiyotdagi ahamiyati uning davlat byudjeti daromad qismini shakllantirishdagi o’rni bilan baholanadi.

Ushbu soliqning O’zbekiston Respublikasi davlat byudjetining daromad qismini shakllantirishdagi ahamiyatini ko’z oldimizga keltirish uchun uning egri soliqlar va davlat byudjeti daromadlari tarkibidagi ulushini bilishimiz zarur. 1-jadvalga qarang.

1- jadval

Aktsiz solig‘ining egri soliqlar tarkibidagi ulushi

t/r	Ko’rsatkichlar	2016yil, salmog‘i, %da	2017 yil, salmog‘i, %da
1	Egri soliqlar	100	100,00
2	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	58,41	56,09
3	Aktsiz olig‘i	28,85	28,92
4	Bojxona boji	7,31	8,28
5	Jismoni shaxslarning transport vositalariga ishlatalgan benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz uchun soliq	5,42	6,70

2016 yilda aktsiz solig‘ining egri soliqlari tarkibidagi ulushi qo‘shilgan qiymat solig‘idan keyin ikkinchi o‘rinda turadi. Tahlil davrida, uning ulushi egri soliqlar boyicha rejalashtirilgan soliq tushumining 28.85%ni tashkil qilgan.

Aktsiz solig‘ining davlat byudjeti jami daromadlari tarikibidagi ulushi ham yildan – yilga pasayib bormoqda. Masalan, 2010 yilda aktsiz solig‘ining davlat byudjeti jami daromadlari tarkibidagi ulushi 16.71%ni tashkil qilgan bo’lsa, 2016 yilda ushbu ko’rsatkich 13.81%ni tashkil qilish kutilmoqda. 2-jadvalga qarang.

Aktsiz solig‘ini davlat byudjeti daromadlari tarkibidagi ulushining pasayishi asosiy sabablaridan biri - O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 13 noyabrdagi “Bozorni iste’mol tovarlari bilan to’ldirishni rag’batlantirish hamda ishlab chiqaruvchilar va savdo tashkilotlarini o’zaro munosabatlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida” gi, 390-sonli

Qarorining amalga joriy qilinishidir. Mazkur Qarorga asosan “O’zJMAvto” aktsionerlik jamiyatining ishlab chiqarayotgan avtomobilari (Lasetti, Neksiya, Damas, Matiz, Malyubo, Kaptiva), billurdan qilingan mahsulotlar, mebel, video va audioapparatura hamda kumushdan yasalgan pichoq va sanchqilarga hisoblangan aktsiz soliqlarini, ishlab chiqarishni rivojlantirish, iste’mol tovarlarining assortimentini ko’paytirish va raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarishni qo’llab-quvvatlash maqsadida korxonalarining o’z ixtiyorlarida qoldirila boshladi.

Byudjet daromadlari tushumini ta’minlash orqali xalq xo’jaligi manfaatlarini qondirish, iqtisodiyotni zarur sohalarini rivojlanishini soliq imtiyozlari oraqli ta’minlash, yalpi ichki ma’sulotni qayta taqsimlashda faol ishtirok etish – aktsiz solig’i bajaruvchi asosiy ijtimoiy-iqtisodiy vazifalar hisoblanadi.

Aksiz solig’ining birinchi harakat doirasi bevosita uning ob’ektlari bilan bog’liq bo’lsa, ikkinchisi unga mansub stavkalariga ta’luqlidir.

O’zbekistonda aktsiz solig’i 1992 yilda oborot solig’i va sotuvdan olinadigan soliqlar o’rniga joriy qilingan. Aktsiz solig’i individual xarakterga ega bo’lib, faqat aktsiz osti tovarlarga nisbatan tadbiq qilinadi.

2-jadval

Aktsiz solig’ining davlat byudjeti daromadlaridagi ulushi

Ko’rsatkichlar	2014	2015	2014	2015	2016	2017
Davlat byudjetining maqsadli jamg’armalarisiz jami daromadlari	100,00	100,00	100,00	100,00	100,00	100
Egri soliqlar	53,17	53,51	54,27	51,94	40,93	52,83
Aktsiz olig’i	16,71	15,34	15,11	14,84	13,81	15,28

Aktsiz solig’i mahsulot, tovar, ish va xizmatlarning narxida hisobga olinadigan, realizatsiya qiymatining bir qismini egri soliq sifatida byudjetga undirish shakli hisoblanadi.

Aktsiz solig’ini to’lovchilari bo’lib, aktsizosti tovarlarni ishlab chiqaruvchi va import qiluvchi yuridik va jismoniy shaxslar hisoblanadi. Oddiy shirkat aktsiz to’lanadigan tovarlarni ishlab chiqarganda shirkat ishlarini yuritish zimmasiga yuklatilgan shirkat sherigi aktsiz solig’ini to’lovchi bo’lib hisoblanadi.

Aktsiz to’lanadigan tovarlar royxati O’zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlanadi.

O’zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan aktsizli tovarlarga etil spiriti, vino, konyak, aroq, pivo, o’simlik (paxta) yog’i, sigaretalar, zargarlik buyumlari, “O’zJMAvto” aktsionerlik jamiyati ishlab chiqargan avtomobilari, kumushdan ishlangan oshxona anjomlari, qimmatbaho metallar, neft mahsulotlari, tabiiy gaz, ishlab chiqarish korxonalarini tomonidan sotiladigan suyultirilgan gaz, paxta toiasi kiradi.

Aktsiz solig’i solinadigan ob’ektlarga tovarki sotish (jo’natish), garov bilan ta’minlangan majburiyat yuzasidan garovga qoyilgan aktsiz to’lanadigan tovarlarni garovga qoyuvchi tomonidan topshirish, aktsiz to’lanadigan tovarlarni bepul topshirish, aktsiz to’lanadigan tovarlarni ish beruvchi tomonidan ish haqi sifatida ishchilarga yoki hisoblangan dividendlar hisobiga yuridik shaxsning muassisiga (ishtirokchisiga) berish, aktsiz to’lanadigan tovarlarni boshqa tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) ayriboshlash, aktsiz to’lanadigan tovarlarni yuridik shaxsning ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissa yoki pay badali sherikning (ishtirokchining) hissasi sifatida topshirish, aktsiz to’lanadigan tovarlarni yuridik shaxsning ishtirokchisiga yuridik shaxs tarkibidan chiqqish munosabati bilan ularga ulush sifatida qaytarish, aktsiz to’lanadigan tovarlarni ulush qo’shish asosida qayta ishslashga topshirish, ishlab chiqarilgan va (yoki) qazib olingan aktsiz to’lanadigan tovarlarni o’z ehtiyojlari uchun ishlatish, aktsiz to’lanadigan tovarlarni O’zbekiston Respublikasining bojxona hududiga import qilish operatsiyalari kiradi.

O’zbekiston Respublikasining soliq qonunchiligiga asosan aktsiz osti mahsulot va tovarlar bilan bog’liq operatsiyalar soliqqa tortilmaydi.

O’zbekiston Respublikasi soliq kodeksining 232-moddasida aktsiz solig’ining soliq solinadigan bazasini aniqlash umumiyligini qoidalari bayon qilingan. Soliq kodeksining mazkur

moddasi aktsiz solig'i boyicha soliq tushumlarini prognoz qilishning nazariy –uslubiy asoslarini tashkil qiladi.

Mutlaq summada aktsiz solig'i to'lanadigan tovarlar boyicha soliq solinadigan baza aktsiz osti tovar va mahsulotlarining naturada ifodalangan hajmi asosida aniqlanadi.

Stavkalari foizlarda (advalor) belgilanuvchi aktsiz solig'i boyicha soliq solish bazasi sifatida realizatsiya qilingan aktsiz aktsizosti tovarlarining qiymati olinadi. Bunda aktsiz solig'i hamda qo'shilgan qiymat solig'i summasi soliq bazasiga kiritilmaydi.

Aktsiz solig'inining stavkalari foizlarda (advalor) belgilangan import qilinayotgan aktsiz to'lanadigan tovarlar boyicha soliq solinadigan baza bojxona bojxona qiymati asosida belgilanadi.

Shuni taakidlash joizki, aktsiz solig'ini davlat byudjetiga to'lashda soliq chegirmalari ham nazarda tutilgan. Masalan, aktsiz to'lanadigan tovarlar olinayotganda yoki O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga import qilinayotganda, agar mazkur tovarlardan keyinchalik aktsiz to'lanadigan tovarlar ishlab chiqarish uchun xom ashyo sifatida foydalanilgan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi hududida to'langan aktsiz solig'i summasi chegirib tashlanadi. Bunday chegirmalar aktsiz solig'inining prognoz ko'rsatkichlarini hisob-kitob qilishda hisobga olinuvchi, to'langan aktsiz solig'i deb e'tirof etiladi.

Aktsiz osti mahsulotlar ishlab chiqaruvchi va import qiluvchi xo'jalik yurituvchi sub'ektlar soliq idoralari, statistika idoralari va boshqa mutasaddi idoralarga moliyaviy-xo'jalik faoliyati to'g'risidagi hisobtlarni hamda soliq hisob-kitoblarini taqdim qilishadilar. Taqim qilingan hisobtlar aktsiz solig'i boyicha soliq tushumlarini prognoz hisob-kitoblari uchun ma'lumot manbaa bo'lib xizmat qiladi. Ma'lumot manbaasi bo'lib xizmat qiluvchi hisobot turlariga xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning buxgalteriya balansi, debtorlik va kreditorlik qarzlar haqida ma'lumotnomalar(2a-sonli shakl), moliyaviy natija to'g'risidagi hisobot(2-sonli shakl), byudjetga to'lovlar to'g'risida ma'lumot, pul oqimlari to'g'risida hisobot(4-sonli shakl), aktsiz solig'i boyicha hisobot va hisob-kitoblar va boshqa hisobot shakllari kiradi. Quyida keltirilgan jadvallarda aktsiz solig'i tushumlarini prognoz qilish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar yig'iluvchi, ayrim hisobot shakllari keltirilgan.

Alkogolli mahsulot boyicha aktsiz solig'i hisob-kitobini qilish paytida hisobga olinadigan aktsiz solig'i summasi to'g'risidagi ma'lumotnomalar(2-rasm.) asosida aktsiz solig'ini tushumlarini prognozlashda prognoz ko'rsatkichidan chegirib tashlanuvchi aktsiz solig'i summasiga oid ma'lumotlar jamlanadi.

3-rasmda sigaretalar boyicha aktsiz solig'ini hisob-kitob shakli keltirilgan. Ushbu hisob-kitob shaklidan ishlab chiqariluvchi tamaki mahsulotlariga hisoblanuvchi aktsiz solig'i tushumlarini prognoz qilish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar olinadi. Bundan, tamaki mahsulotlariga belgilanuvchi aktsiz solig'ini xisoblash uchun aniqlangan, haqiqatdagi soliq solinadigan baza, shuningdek tamaki mahsulotlarni eksportga sotilgan hajmi, hisoblangan soliq summalarini to'g'risidagi ma'lumotlar tadiqot uchun olinadi.

Ma'lumotlari asosida yuridik shaxslar tomonidan ishlab chiqarilgan pivo boyicha aktsiz solig'i tushumlarining prognoz ko'rsatkichlari hisob kitob qilinadi. Prognoz uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarilgan mahsulotning fizik hajmi, soliq solinadigan bazaning tadqiqot yillar davomidagi haqiqatdagi miqdori, eksportga sotilgan pivo ichimligining miqdori va shu kabi boshqa zaruriy ma'lumotlar oldingi yillar boyicha jamlanadi.

Alkogolli mahsulotlar boyicha aktsiz solig'i tushumlarining prognoz hisob-kitoblari uchun kerakli ma'lumotlar keltirilgan hisobot shaklidan olinadi. Mazkur hisobot shaklidan jami ishlab chiqarilgan, sotilgan, jumladan eksportga sotilgan alkogolli mahsulotlarning fizik hamda qiymatdagi hajmi to'g'risidagi ma'lumotlar jamlanadi. Prognoz hisob-kitobi uchun zarur bo'lgan, hisoblangan va to'langan aktsiz solig'inining haqiqatdagi summasiga oid ma'lumotlar ham ushbu hisobot shakli olinadi.

O'simlik (paxta) yog'i boyicha aktsiz solig'i tushumlarini prognoz ko'rsatkichlari alohida hisob-kitob qilinadi. Tadqiqot uchun zarur bo'lgan, ma'lumotlar -realizatsiya qilingan o'simlik yog'i mahsuloti hajmi, eksportga sotilgan mahsulot miqdori to'lanishi lozim bo'lgan aktsiz solig'i

yillik summasi, jumladan byudjetga hamda “Yog'-moy va oziq-ovqat sanoati “ uyushmasiga to’langan aktsiz solig’ining yillik miqdori 6-rasmida keltirilgan hisobot shaklidan olinadi.

Aktsiz solig’i tushumini prognoz qilishda foydalaniluvchi - mahsulot (tovar, ish va xizmat) larni sotishdan sof tushum, sotilgan mahsulot (tovar, ish va xizmat) larning tannarxi, jami hisoblangan va to’langan aktsiz solig’i summasi to’g’risidagi ma’lumotlar moliyaviy natijalar to’g’risidagi hisobot shaklidan ham olinadi.

Moliyaviy hisobotlar va soliq hisob-kitoblaridagi ma’lumotlar davlat soliq idoralarida hisobga olinib, jamlanib boriladi. Shu sababli, aktsiz solig’i tushumlarini prognoz qilish uchun zarur bo’lgan ma’lumotlarning tumanlar, viloyatlar va respublika boyicha yillik jami miqdori soliq idoralarining yig’ma hisobotlaridan olinadi.

Aktsiz solig’ini prognoz qilish muddatiga qarab uch turga - tezkor, qisqa muddatli va o’rtal muddatli turlari bo’lishimiz mumkin. Tezkor prognoz qilishda soliq to’lovchilar tomonidan taqdim etilgan soliq hisob- kitoblari, avans to’lovları, to’lanishi kutilayotgan soliq to’lovları asosida amlaga oshiriladi. Soliq to’lovchilar tomonidan taqdim qilinayotgan ma’lumotlar ularning shaxsiy hisob kartochkalaridagi axborotlar bilan solishtiriladi. Joriy yil uchun belgilangan prognoz ko’rsatkichlarining bajarilish holati tahlil qilinadi. Belgilangan prognoz ko’rsatkichclarining bajarilish ehtimoli o’rganiladi. Tezkor prognozlash odatda bir kundan bir oygacha bo’lgan davrni o’z ichiga oladi.

Aktsiz solig’ini prognoz qilishning qisqa muddatli turi tadqiqot uchun kamida bir yilni qabul qiladi. Prognozning ushbu turi asosida yillik pognoz ko’rstakichlar ishlab chiqiladi. Kutilayotgan prognoz ko’rsatkichlarini belgilashda soliq to’lovchilarning o’zidan, tijorat banklari, sug’urta tashkilotlari, notarial idoralar, statistika organlari, moliya idoralaridan olingan ma’lumotlar, soliq organlarida shakllantirilgan axborot tizimlari bazasida mavjud ma’lumotlar tadqiqot qilinadi.

Bir yildan besh yilgacha muddatda soliq tushumlari prognozlashtirish o’rtal muddatli deb hisoblanadi. Soliq tushumlarini o’rtal muddatga prognozlashtirish mamlakatni iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Aktsiz solig’i tushumlarini prognozlashtirishda prognozlashtirilayotgan davrda soliqqa tortish shart-sharoitlari (stavka, imtiyozlar, to’lov muddatlari va h.k.)ni to’liq inobatga olish talab qilinadi.

Har-qanday holatda, aktsiz solig’i tushumlarini prognozlashtirish to’g’ri hisob-kitob va o’tgan davr ko’rsatkichlarini statistik qayta ishslash usullari yordamida amalga oshiriladi.

To’g’ri hisob-kitob usuli haqiqiy va kutilayotgan mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarish hajmi, yalpi foya, daromad, tannarx, ish haqi va boshqa prognoz hisob-kitob uchun zarur ko’rsatkichlar to’g’risida ma’lumotnomaga olishni talab qilinadi. Bunday ma’lumotlar tegishli Davlat boshqaruvi va vakillik organlaridan olinadi.

Oldingi yillar ko’rsatkichlarini statistik qayta ishslash usuli tadqiqot uchun tanlangan yillardagi haqiqiy aktsiz solig’i tushumlari to’g’risidagi ma’lumotlarni yig’ish hamda ularni statistik qayta ishslashni talab qiladi.

Aktsiz solig’i tushumlarini prognoz ko’rsatkichlarini hisob-kitob qilishni ham ikki usulda amlaga oshirish mumkin. Birinchi usuli – aktsiz solig’i tushumlarining barcha manbaalari boyicha alohida prognoz ko’rsatkichlari hisoblanadi va natijalar umumlashtiriladi. Masalan: alkogol mahsulotlari, o’simlik moyi, sigaret, avtomobillar hamda import boyicha aktsiz solig’i tushumlarining ko’tilayotgan miqdori soliq bazasi asosida hisoblanadi. Hisob-kitob natijalari jamlanib, aktsiz solig’i tushumining umumiyl prognoz ko’rsatkichi belgilanadi. Ikkinci usul – oldingi besh yil moboynida haqiqatda yig’ilgan aktsiz solig’i miqdorining o’zgarish qonuniyatlarini o’rganishni talab qiladi. Bunda aktsiz solig’i tushumining oldingi yillar davomida o’sish sur’ati, regression tahlil qilinib, kutilayotgan prognoz ko’rsatkichi belgilanadi.

Prognoz ko’rsatkichlarini hisoblashda shartli ma’lumotlardan foydalananamiz. Dastlab aktsiz osti mahsulotlar boyicha oxirgi besh yil moboynida to’langan aktsiz solig’i hajmining o’sish sur’ati hisoblanadi.

$O'_i = A_0 + A_1 i$ formuladan foydalangan holda to'g'ri chizziqli regressiya tenglamasini tuzamiz.

3-jadval Prognozlashtirilayotgan yilda kutilayotgan aktsiz solig'i tushumlarini hisob-kitobi

	2008 yilda haqiqatda to'langan aktsiz solig'i miqdori	2009 yilda haqiqatda to'langan aktsiz solig'i miqdori	2010 yilda haqiqatda to'langan aktsiz solig'i miqdori	2011 yilda haqiqatda to'langan aktsiz solig'i miqdori	2012 yilda haqiqatda to'langan aktsiz solig'i miqdori	2013 yilda haqiqatda to'langan aktsiz solig'i miqdori	Prognozlashtirilayotgan yilda kutilayotgan aktsiz solig'i miqdori						
Aktsiz osti mahsulotlar	2012 mutloq yilga nisbatan aktsiz solig'i miqdori, mln. so'mda	2013 mutloq yilga nisbatan aktsiz solig'i miqdori, mln. so'mda	2014 mutloq yilga nisbatan aktsiz solig'i miqdori, mln. so'mda	2015 mutloq yilga nisbatan aktsiz solig'i miqdori, mln. so'mda	2016 mutloq yilga nisbatan aktsiz solig'i miqdori, mln. so'mda	2017 yilga nisbatan kutilayotgan aktsiz solig'i miqdori, mln. so'mda	Kutilayotgan aktsiz solig'i miqdori, mln. so'mda						
Alkagol mahsulotlari	1256	1295	103,11	1334	103,01	1361	102,02	1392	102,28	1495	107,40	105,91848	1583,48
Tamaki mahsulotlari	955	1001	104,82	1123	112,19	1185	105,52	1260	106,33	1300	103,17	103,66238	1347,61
Yog' mahsulotlari	645	693	107,44	732	105,63	784	107,10	830	105,87	865	104,22	104,186742	901,22

Quyidagi to'g'ri chizziqli tenglamalar sistemasidan foydalangan holda kutilayotgan aktsiz solig'i tushumi miqdorini aniqlaymiz

$$\begin{aligned} & \left| \frac{nA_o + A_1 \sum_{i=1}^n i = \sum_{i=1}^n \check{Y}_i}{A_0 \sum_{i=1}^n i + A_1 \sum_{i=1}^n i^2 = \sum_i i \check{Y}_i} \right. \end{aligned}$$

4-jadval Alkagol mahsulotlar boyicha aktsiz solig'inining proqnoz tushumlarini hisoblash

Yillar	i	Aktsiz solig'inining o'sish sur'ati, O'	iO'	i*i
2009	1	103,11	103,1051	1
2010	2	103,01	206,0232	4
2011	3	102,02	306,0720	9
2012	4	102,28	409,1109	16
2013	5	107,40	536,9971	25
Summa	15	517,82	1561,3083	55

Proqnoz hisob-kitobi uchun shartli ravshda alkagol, tamaki, yog' mahsulotlarini sotuv hajmi olindi. Hisob-kitoblar natijasida alkagol mahsulotlari boyicha 1583.48 mln. so'mlik, tamaki mahsulotlari boyicha 1347.61 mln.so'mlik, yog' mahsulotlari boyicha 901.22 mln. so'mlik aktsiz solig'i tushumi kutilayotganligi aniqlandi.

Kutilayotgan aktsiz solig'i tushumining mutloq miqdorini aniqlash uchun kutilayotgan o'sish sur'atini 2010 yildagi haqiqatda yig'ilgan aktsiz solig'i tushumiga ko'paytirilib, 100 ga bo'lindi.

Tanlangan mahulotlar boyicha kutilayotgan aktsiz solig'inining 2010 yilga nisbatan o'sish sur'atini hisob-kitobi 4, 5, 6 –jadvallarda keltirilgan.

Jadvalda keltirilgan i- dinamik qatorning tartib boyicha soni, O'- aktsiz solig'inining o'sish sur'ati.

Ao va A1 parametrlarni topish uchun quyidagi tenglamalar sistemasini echamiz:

$$\begin{array}{|l} 5A_o + A_1 15 = 517,82 \\ \hline A_0 15 + A_1 55 = 1561,3083 \end{array}$$

5.jadval

Tamaki mahsulotlari boyicha aktsiz solig'i tushumlarini prognoz qilish hisob kitobi

Yillar	i	Aktsiz solig'inining o'sish sur'ati,O'	iO'	i*i
2009	1	104,82	104,82	1
2010	2	112,19	224,38	4
2011	3	105,52	316,56	9
2012	4	106,33	425,32	16
2013	5	103,17	515,87	25
Summa	15	532,03	1586,94	55

Tamaki mahsulotlari boyicha aktsiz solig'i tushumlarini prognoz qilish hisob- kitobida I – 15ga, O' -532.03ga, iO' -1586.94ga teng. Ushbu ma'lumotlardan foydalanib quyidagi tenglamalar sistemasini echamiz. Tenglamalar sitemasini echish natijasida Ao va A1 parametrlarining qimatinini aniqlaymiz.

$$\begin{array}{|l} 5A_o + A_1 15 = 532,03 \\ \hline A_0 15 + A_1 55 = 1586,94 \end{array}$$

6.jadval

Yog' mahsulotlari boyicha aktsiz solig'i tushumlarii prognoz qilish hisob-kitobi

Yillar	i	Aktsiz solig'inining o'sish sur'ati,O'	iO'	i*i
2009	1	107,44	107,44	1
2010	2	105,63	211,26	4
2011	3	107,10	321,31	9
2012	4	105,87	423,47	16
2013	5	104,22	521,08	25
Summa	15	530,26	1584,5624722	55

Yog' mahsulotlari boyicha aktsiz solig'i tushumlarii prognoz qilish hisob-kitobida keltirilgan ma'lumotlardan foydalanib, quyidagi tenglamalar sistemasini echamiz.

$$\begin{array}{|l} 5A_o + A_1 15 = 532,03 \\ \hline A_0 15 + A_1 55 = 1586,94 \end{array}$$

Bunda, Ao - 530.26 ga, A1 - 1584.5624722 ga tengligini topamiz.

7 jadvalda, aktsiz osti mahsulotlar boyicha, prognozlashtirilayotgan yil uchun kutilayotgan aktsiz solig'ining oldingi yilga nisbatan o'sish sur'ati hisob-kitobi ko'rsatilgan. Bunda, A1 parametrga I miqdor ko'paytirilib, ko'paytmaga Ao qiymat qo'shilgan. Natijada, alkagol mahsulotlaridan kutilayotgan aktsiz solig'i tushumining o'sish sur'ati 105.91848%, tamaki mahsulotlariniki - 103.66238%, yog' mahsulotlariniki – 104.186742 % ligi aniqlandi.

Aktsiz solig'i boyicha kutilayotgan tushumni aniqlash uchun o'sish sur'atini oldingi yilda haqiqatda yig'ilgan soliq miqdoriga ko'paytiriladi va hosil qilingan ko'paytma natijasi 100 ga bo'linadi.

7-jadval

Prognozlashtirilayotgan yilda aktsiz solig'i tushumining kutilayotgan o'sish sur'atini hisoblash

Aktsiz osti mahsulotlar	Ao	A1	i	O'6
Alkagol mahsulotlari	101,20950	0,78483	6	105,91848
Tamaki mahsulotlari	109,14962	-0,91454	6	103,66238
Yog' mahsulotlari	107,91726	-0,621753	6	104,186742

Shunday qilib, aktsiz solig'i tushumlarini pognoz ko'rstanichlarini tadqiqot qilish natijasida quyidagilar aniqlandi:

- alkagol mahsulotlari boyicha 1583,48 mln. so'm;
- tamaki mahsulotlari boyicha 1347,61 mln. so'm;
- yog' mahsulotlari boyicha 901,22 mln. so'mlik aktsiz solig'i yig'ilishi bashorat qilindi.

O'zbekiston Respublikasida aksiz solig'i stavkalari byudjet daromadlarii tashkillashtirishda yuzaga keluvchi muammolarni echish maqsadida o'zgarishi mumkin. Aksiz solig'i stavkalari va soliqka tortiladigan mahsulotlar soni har yili kurib chiqiladi va yil davomida kerak bo'lsa o'zgartirib boriladi. Shuni aytish joizki, aktsiz solig'i pognoz ko'rstanichlarini belgilashda kelgusi yilda amalga joriy qilinishi rejalashtirilayotgan aktsiz solig'i ob'ektidagi, soliq solish bazasidagi, soliq stavkalaridagi, soliq to'lovchilar tarkibidagi o'zgarishlarni, baho indeksini, inflyatsiya darajasini, mamlakatda amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan katta hajmdagi investitsion loyihalarini, yalpi ichki mahsulotning o'sish darajasini inobatga olish maqsadga muvofiq.

O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining daromad manbai sifatida qo'shilgan qiymat solig'i hozirga qadar o'zining ahamiyatini saqlab kelmoqda. Masalan, 2017 yilda qo'shilgan qiymat solig'ining davlat byudjeti daromadlari tarkibidagi salmog'i 29 foizni tashkil qilgan.

8-jadval

2016-2017 yillarda qo'shilgan qiymat solig'ining egri soliqlar tarkibidagi ulushi

	Ko'rsatkichlar	2016 yilda salmog'i, %da	2017 yilda salmog'i, %da
1	Egri soliqlar	100	100,00
2	Qo'shilgan qiymat solig'i	58,41	56,09
3	Aktsiz olig'i	28,85	28,92
4	Bojxona boji	7,31	8,28
5	Jismoniy shaxslarning transport vositalariga ishlataligan benzin, dizel yoqilg'isi va gaz uchun soliq	5,42	6,70

2017 yilda qo'shilgan qiymat solig'ining egri soliqlar tarkibidagi ulushi 56.09%ni tashkil qilgan.. Tahlil ma'lumotlaridan xulosa qilish mumkinki, qo'shilgan qiymat solig'i respublikamiz hududida undiriluvchi barcha egi soliqlarning qariyib 2/3 qismini tashkil qiladi. Shu sababi, qo'shilgan qiymat solig'i boyicha soliq tushumlarini to'g'ri prognozlash makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. 8-jadvalga qarang.

Qo'shilgan qiymat solig'ining davlat byudjeti jami daromadlari tarkibida ham sezilarli ulushga ega bo'lган. Uning o'tgan besh yil davomida davlat byudjeti daromadidagi ulushi tebranish xususiyatiga ega bo'lганligini kuzatishimiz mumkin. Ammo, 2016 yilda qo'shilgan qiymat solig'ining davlat byudjetini soliqli daromadlaridagi ulushi oxirgi besh yilda eng kam ulushga ega bo'lганligini kuzatishimiz mumkin. Masalan, 2010 yilda uning ulushi 30.40%ni tashkil qilgan bo'lsa, 2016 yilda ushbu ko'rsatkich 28.91%ni tashkil qilgan. 9-jadvalga qarang.

9-jadval

Qo'shilgan qiymat solig'ining davlat byudjeti daromadlaridagi ulushi¹¹

Ko'rsatkichlar	2012	2013	2014	2015	2016	2017
Davlat byudjetining maqsadli jamg' armalarisiz jami daromadlari	100,00	100,00	100,00	100,00	100,00	100
Egri soliqlar	53,17	53,51	54,27	51,94	50,93	52,83
Qo'shilgan qiymat solig'i	30,40	32,32	32,91	30,82	28,91	29,63

Qo'shilgan qiymat solig'iga xos bo'lган muhim xususiyatlardan biri shundaki, soliqla tortishning ob'ekti bo'lib, nafaqat ichki bozordagi tovaroborot, balki mamlakat korxonalarining tashqi bozorlaridagi tovaroboroti ham hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi soliq kodeksining 197 – moddasida qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari sifatid to'rt toifadagi shaxslar ko'rsatilgan.

t/r	Qo'shilgan qiymat soliq to'lovchilari
1	soliq solinadigan oborotlarga ega bo'lган yuridik shaxslar
2	O'zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan amalga oshirilayotgan soliq solinadigan oborotlar uchun qo'shilgan qiymat solig'i to'lash boyicha majburiyat yuklatiladigan yuridik shaxslar
3	tovarlarni O'zbekiston Respublikasi hududiga import qiluvchi yuridik va jismoniy shaxslar
4	oddiy shirkat soliq solinadigan oborotlarni amalga oshirayotganda zimmasiga uning ishlarini yuritish yuklatilgan (ishonchli shaxs) sherik (ishtirokchi) - yuridik shaxs

1-rasm. Qo'shilgan qiymat soliq to'lovchilari

Notijorat tashkilotlar, soliq solishning soddalashtirilgan tartibi asosida soliq to'lovchii yuridik shaxslar qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari hisoblanmaydi. soliq solishning soddalashtirilgan tartibi asosida soliq to'lovchii yuridik shaxslarga savdo tashkilotlari, yagona soliq to'lovchi kichik korxonalar, yagona er solig'i to'lovchi qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilar kiradi. 1-rasmga qarang.

QQS to'lovchilarni xalq xo'jaligi soxalariga qarab sanoat, transport, o'urilish, kommunal xo'jaligi, aloqa va boshqalar bo'lishi mumkin. Faoliyat turlariga qarab ishlab chiqarish, tayyorlov, vositachilik, birja, banka xizmatlari va boshqalar, turlarga bo'lish mumkin.

Mantiqiy jihatidan tahlil qilinganda, qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilarning sonini ortishi mazkur soliq to'ri boyicha soliq to'shumini oshishiga olib kelishi so'zsiz. Ammo, amalda mavjud bo'lган qo'shilgan qiymati solig'i to'lovchi –yuridik shaxslarning tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, tovaroborot hajmini keskin oshirish orqali ham qo'shilgan qiymat solig'i tushumi hajmini oshirish mumkin.

Boshqa soliq turlariga nisbata qo'shilgan qiymat solig'i boyicha amaldagi soliq qonunchiligidan ko'proq imtiyozlar ko'zdautilgan. Mazkur soliq turi boyicha berilgan soliq imtiyozlarini to'rt guruhga bo'lamiz:

- 1) soliqdan ozod etiladigan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oboroti (208-modda);
- 2) soliqdan ozod qilinadigan moliyaviy xizmatlar (209-modda);
- 3) soliqdan ozod etiladigan sug'urta xizmatlari (210-modda);
- 4) soliqdan ozod etiladigan import.

¹¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori asosida

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan xulosa qilish mumkinki, qo'shilgan qiymat solig'i boyicha berilgan imtiyozlar deyarli barcha iqtisodiy va ijtimoiy soha tarmoqlariga taaluqlidir. Bugungi kunda katta miqdordagi soliq to'lovchilar qo'shilgan qiymat solig'i imtiyozidan foydalanmoqda. Albatta ushbu berilgan soliq imtiyozlar qo'shilgan qiymat solig'inining prognoz ko'rsatkichlarini pasayishiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladi. So'zsiz. Qo'shilgan qiymati solig'i prognoz ko'rsatkichlarini hisob-kitob qilishda soliq imtiyozlari summasini ayirib tashlash tavsiya qilinadi.

Belgilangan soliq imtiyozlari Qo'shilgan qiymat solig'inining prognoz ko'rsatkichlarining miqdorini kamayishiga olib kelishi haqida xulosa qildik. Qo'shilgan qiymat solig'inining prognoz ko'rsatkichlariga ta'sir qiluvchi navbatdagi element – bu mazkur soliq turi boyicha belgilanuvchi soliq imtiyozlaridir. Shub'hasiz, soliq stavkasining ko'tarilishi prognoz ko'rsatkichlarining oshishiga olib keladi. Qo'shilgan qiymati soliq stavkalari amlga joriy qilingandan boyon bir-necha bor o'zgardi. Dastlab, 1992 yildan respublikamizda qo'shilgan qiymat solig'i stavkasini 30% qilib belgilandi. Keyinchalik soliq stavkasi 25% qilib belgilangandi. 1993 yilning 1 sentabridan boshlab 1994 yilning iyuningacha korxonalar ixtiyorida qoladigan qo'shilgan qiymat soliq miqdori stavkasining 6% ni tashkil etdi, qolgan qo'shilgan qiymat solig'inining 19% stavkasi byudjetga o'tkazila boshladidi. Korxonalar 1994 yil 1 iyundan boshlab qo'shilgan qiymat solig'ini 20% miqdorida to'lay boshladilar va korxonalar ixtiyorida qoladigan qo'shilgan qiymat solig'inining 6% ni bekor qilindi.

Qo'shilgan qiymat solig'i stavkasini 20% ga tushirish hisobiga tovar bahosini ma'lum darajada pasaytirish ko'zda tutilgan edi. 1996 yilda 17 foizni, 1997 yilda 18 foizni, ayrim oziqovqat mahsulotlari turlariga (un, non, go'sht, sut va sut mahsulotlari) esa kamaytirilgan 10 foizli stavka belgilandi. 1999 yilda respublikada qo'shilgan qiymat solig'inining 3 xil stavkasi (20%, 15%, va 0%) amalda qo'llanildi. Faqat 3 ta band, ya'ni eksport, qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun qishloq xo'jalik korxonalariga beriladigan mineral o'g'it va yoqilg'i moylash materiallari hamda diplomatik vakolatxonalar va unga tenglashtirilgan vakolotxonalarga realizatsiya qilinadigan tovar (ish va xizmat)lar "0" stavkasi boyicha soliqqa tortildi. 15% li qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi esa un, non, go'sht, sut va sut mahsulotlari hamda import qilinadigan tirik mol va bug'doy kabi mahsulotlarga nisbatan belgilandi.

Ko'rsatkichlar	Summa
Hisobot davrida hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) summasi	
Avvalgi soliq davrida eksportga realizatsiya qilingan tovarlar boyicha tushum joriy soliq davrida kelib tushishi munosabati bilan hisobga olinadigan QQS summasi	
Hisobga olinadigan jami QQS summasi	
Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oboroti boyicha QQS summasi	
Byudjetga to'lanadigan (kamaytiriladigan) QQS summasi	

2-rasm. Qo'shilgan qiymat solig'i hisob-kitobi asosiy ko'rsatkichlari

2000 yildan hozirgi kungacha soliq Kodeksiga ko'ra respublikamizda 20 foizli va "0" foizli stavka qo'llanilib kelinmoqda.

Qo'shilgan qiymat solig'i tushumini prognozlashtirishda "to'g'ri hisob-kitob", va "o'tgan davr ko'rsatkichlarini statistik qayta ishslash" usullaridan foydalanish mumkin.

"To'g'ri hisob-kitob" usulidan foydalanishda tegishli davlat idoralaridan haqiqiy va kutilayotgan mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarish hajmi va boshqa prognoz hisob-kitob uchun zarur ko'rsatkichlar to'g'risida ma'lumotnomaga yig'iladi. Aniq hisob-kitobi ko'rsatilgan qo'shilgan qiymat solig'i bazasi asosida prognozlashtirish uchun prognoz ko'rstatkichlari aniqlanadi.

O'tgan davr ko'rsatkichlarini statistik qayta ishslash usuli orqali qo'shilgan qiymat solig'i prognoz ko'rsatkichlarini hisoblashda avvalgi yillardagi soliq tushumlarini yig'ish borasida erishilgan natijalar to'g'risidagi ma'lumotlar yig'iladi. Yig'ilgan ma'lumotlarga statistik ishlov berilib, prognoz ko'rsatkichlari belgilanadi.

Tahlil uchun olinayotgan ma'lumot manbaasiga qarab qo'shilgan qiymat solig'i tushumlarini prognoz qilish usullarini quyidagilarga ajratishimiz mumkin:

- haqiqiy erishilgan darajadan kelib chiqib prognoz qilish usuli;
- mikroiqtisodiy ko'rsatkichlar (korxona ma'lumotlari) asosida prognoz qilish usuli;
- makroiqtisodiy ko'rsatkichlar asosida prognoz qilish usuli;
- ko'p omilli tahlil asosida prognoz qilish usuli.

Haqiqiy erishilgan darajadan kelib chiqib prognoz qilish usulidan foydalanishda oldingi hisobot davrlaridagi qo'shilgan qiymat solig'i tushumlari to'g'riidagi, haqiqatdagi ma'lumotlar tahlil qilinadi. Mazkur usulni qo'llashda prognoz qilinayotgan davr uchun kutilayotgan tushumlar summasi o'tgan hisobot davrlaridagi haqiqatdagi tushumlarga nisbatan koeffitsient qo'llash orqali hisoblab chiqiladi. Koeffitsientni aniqlashda ekstrapolyatsiya usuli foydalanish mumkin.

Ushbu hisobot ko'rsatkichlari asosida qo'shigan qiymat solig'i tushumlarini prognoz qilish uchun zarur bo'lgan, tovarlar, ishlar, xizmatlar realizatsiya qilish oborotlari, tovar (ish, xizmat)larni realizatsiya qilishdan sof tushumi, qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan obort va realizatsiya boyicha boshqa oborotlar haqidagi ma'lumotlar yig'iladi. 6-rasmga qarang.

Oldingi paragrafda qo'shilgan qiymati solig'i boyicha ko'plab soliq imtiyozlari berilganligi to'g'risida mulohaza qilingan edi. Soliq imtiyozlariga to'g'ri keluvchi realizatsiya oboroti, soliq summalarining ehtimoldagi hajmiga to'g'ri baho berish mazkur soliq tushumlarini prognoz qilishda muhim ahmiyat kasb etadi. Qo'shilgan qiymat solig'i boyicha soliq imtiyozlari summlarini o'rghanishda mazkur hisobot ko'rsatkichlaridan va ma'lumotlaridan foydalaniladi.

Soliq solinadigan ob'ektlar	Soliq solinadigan baza
1	3
Nol darajali stavka boyicha soliq solinadigan tovarlar realizatsiyasi – jami	
shu jumladan:	
tovarlarni chet el valyutasida eksportga realizatsiya qilish	
chet el diplomatiya vakolatxonalari va ularga tenglashtirilgan vakolatxonalarga rasmiy foydalanish uchun tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiyasi	
«Bojxona hududida qayta ishslash» bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlarni qayta ishslash boyicha bajariladigan ishlar (ko'rsatiladigan xizmatlar) realizatsiyasi	
xalqaro yo'nalishda yuk tashish boyicha xizmatlar realizatsiyasi	
suv ta'minoti, kanalizatsiya, issiqlik ta'minoti, gaz ta'minoti boyicha aholiga ko'rsatiladigan xizmatlar, shu jumladan, hususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari aholi nomidan olayotgan shunday xizmatlar realizatsiyasi	
QQS boyicha nol darajali stavka qo'llanilishi boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda ko'zda tutilgan boshqa tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiyasi – jami	

3-rasm. Nol darajali stavka boyicha qo'shilgan qiymat solig'i solinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiyasi hisob-kitobi asosiy ko'rsatkichlari

Nol darajali stavka boyicha qo'shilgan qiymat solig'i solinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiyasi hisob-kitobi va u bilan bog'liq ma'lumotlarning zarurligi shundan iboratki, yig'ilgan ma'lumotlardan foydalangan holda davlat byudjetiga haqiqatda to'lanishi lozim bo'lgan soliq tushumi proqnozi summasi belgilanadi. 3-rasmga qarang. Boshqa so'zlar bilan izzoohlaganda, nolli darajada soliqqa tortilgan qo'shilgan qiymat solig'i bazasi proqnoz ko'rsatkichlarini pasayishiga olib keladi.

Qo'shilgan qiymat solig'i boyicha proqnoz tushumlarining asosiy manbaalaridan biri O'zbekiston Respublikasi norezidentlaridan olingan ishlar, xizmatlar boyicha qo'shilgan qiymat solig'idir. 3-rasmga qarang. Soliq tushumlarini proqnoz qilishda O'zbekiston Respublikasi norezidentlaridan olingan ishlar, xizmatlar hajmi, va unga mos keluvchi qo'shilgan qiymati solig'i summasi haqidagi ma'lumotlar ushbu hisobot shaklida yig'iladi.

Davlat soliq idoralariga taqdimqilingan soliq va boshqa hisobotlar asosida qo'shilgan qiymat solig'ini proqnozini tashkil qilish uchun tazur ma'lumotlar yig'iladi.

Tumanlar miqyosida hisoblangan soliqlar boyicha tushumlarning prognoz summalarini esa viloyat soliq boshqarmalarida jamlanib Davlat soliq qo'mitasiga uzatiladi.

Xuddi shu tariqa respublika miqyosida soliqlar boyicha tushumlarning prognoz summalarini ham barcha hududiy davlat soliq boshqarmalaridagi kutilayotgan tushumlarni jamlash orqali hisoblab chiqiladi.

Mikroiqtisodiy ko'rsatkichlar (korxona ma'lumotlari) asosida prognoz qilish usulida soliqlar boyicha kutilayotgan tushumlar hisob -kitobi soliq to'lovchilarning soliq organlariga taqdim etadigan moliyaviy va buxgalteriya hisobotlari (balans, moliyaviy natijalar to'g'risdagi hisobot va boshqa ma'lumotlari asosida amalga oshiriladi.

10-jadval

Hisoblangan qo'shilgan qiymat solig'i summasi prognoz ko'rsatkichlarining hisob-kitobi

Ko'rsatkichlar	Oldingi besh yil					O'rtacha miqdor	Prognoz hisob-kitobi bilan qo'shiluvchi qiymat	Prognoz yili
	1	2	3	4	5			
Mahsulot,ish va xizmat sotuvidan tushum(jami daromad),jumladan,mln.so'mda:	546490	695589	750269	798611	896459	737483,6	116109,36	853592,96
«O»stavkada soliq solinadigan obort summasi(eksportdan tashqari), mln. so'mda.	45048	51648	57832	59897	62144	55313,8	6210,05	61523,85
«O»stavkada soliq solinadigan obort summasi(eksportga sotilgan mahsulot,tovar, ish va xizmatlar), mln. so'mda.	112356	145289	167910	198271	230451	170855,4	40957,9	211813,3
QQS boyicha soliq imtiyoziga ega bo'lgan obort summasi,mln. so'mda	82192	94913	101950	112020	156670	109549	25482,77	135031,77
20% stavkada undiriladigan qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash bazasi,mln. so'mda.	306894	403739	422577	428423	447194	401765,4	49420,61	445224,04
Soliq stavkasi	20	20	20	20	20			20
Hisoblangan qo'shilgan qiymat solig'i, mln. so'mda.	61378,8	80747,8	84515,4	85684,6	89438,8	80353,08	9884,12	89044,81

Mazkur usulda katta hajmdagi moliyaviy va buxgalteriya hisobotlari ma'lumotlarini yuritish zarur bo'lganligi va bu juda ko'p vaqt talab qilganligi bois, soliq organlarida ushbu hisobotlarning ma'lumotlari kiritib boriladigan dasturiy mahsuli ishlab chiqilgan va kerakli ma'lumotlar avtomatlashgan tarzda prognoz ishiga jaib qilinadi.

Mikroiqtisodiy ko'rsatkichlar asosida prognoz qilish usulida ham soliqlar boyicha kutilayotgan tushumlar hisob- kitobi uchchala darajada, ya'ni tuman, hudud va respublika miqyosida amalga oshiriladi.

Qo'shilgan qiymat solig'i boyicha prognoz ko'rsatkichlarni hisoblashda uning soliq bazasi va unga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlashimiz zarur. Soliq solish bazasi, realizatsiya qilinayotgan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qiymati asosida, unga qo'shilgan qiymat solig'ini kiritmagan holda belgilanadi.

Qo'shilgan qiymat solig'i tushumlarini prognoz qilishda soliq solinadigan oborot va import hajmini tavsiflovchi ma'lumotlar soliq to'lovchilar tomonidan taqdim qilinuvchi hisobotlardan yig'iladi. Davlat solii idoralarida bunday ma'lumotlar doimiy yig'ilib, tahlil qilinib boriladi.

Oldingi yillarda erishilgan natijalarning o'zgarish tendentsiyasini o'rganib qo'shilgan qiymat solig'i tushumini prognozlashtiriladi. Bunday prognozlashni ikki usulda amalga oshirilishi mumkin.

Birinchi usulga asosan, soliq bazasiga ta'sir qiluvchi barcha omillarning oldingi yillardagi tendentsiyasi o'rganiladi va o'rganish natijasida qo'shilgan qiymat solig'ining ko'tilayotgan tushumi prognozlashtiriladi.

Ikkinci usul bevosita qo'shilgan qiymat solig'i tushumini oldingi yillardagi o'zgarish tendentsiyasiga asoslanadi. Prognozlashning ikki usulida ham ekstropolyatsiya metodlaridan foydalaniladi. Hisob-kitob natijalariga kutilayotgan makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, e'tiborga molik bo'lgan omillarni o'zida mujassamlashtiriluvchi koeffitsentlarni ko'paytirib, prognoz ko'rsatkichlarni tartibga solish mumkin.

11-jadval

Mahsulot, ish va xizmat sotuvidan olingan tushum(jami daromad)ning o'zgarish qonuniyatlarini o'rganish

Yillar	Mahsulot,ish va xizmat sotuvidan tushum(jami daromad),(x)(ming so'mda)	O'rtacha miqdor(x_1), mln.so'mda	$x-x_1$, mln. so'mda	$(x-x_1)^2 / 5$, mln. so'mda	O'KCH, mln. so'mda
1	546490	737483,6	-190993,6	7295711048,19	85414,93
2	695589	737483,6	-41894,6	351031501,83	18735,83
3	750269	737483,6	12785,4	32693290,63	5717,8
4	798611	737483,6	61127,4	747311806,15	27337
5	896459	737483,6	158975,4	5054635561,03	71095,96
Jami	3687418		0	13481383207,84	116109,36

Qo'shilgan qiymat solig'i boyicha prognoz tushumlarini hisoblashda dastlab mahsulot,ish va xizmat sotuvidan tushum, «O»stavkada soliq solinadigan obort summasi(eksportdan tashqari), «O»stavkada soliq solinadigan obort summasi(eksportga sotilgan mahsulot,tovar, ish va xizmatlar), QQS boyicha soliq imtiyoziga ega bo'lgan obort summasi, 20% stavkada undiriladigan qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash bazasi, hisoblangan qo'shilgan qiymat solig'i ko'rsatkichlarining o'zgarish tendentsiyalari o'rganiladi.

O'zgarish qonuniyatlarini aniqlash uchun oldingi besh yil moboynidan erishilgan haqiqatdagi natijalar tadqiq qilinadi. 10jadvalga qarang. Dastlab besh yilliy ko'rsatkichlarning o'rtacha kattaligi, o'rtacha kattalikdan kvadratik cheklanishi dispresiyasi aniqlanadi.

12-jadval

«O»stavkada soliq solinadigan obort summasi(eksportdan tashqari)ning o'zgarish qonuniyatlarini o'rganish

Yillar	«O»stavkada soliq solinadigan obort summasi(eksportdan tashqari), ming so'mda.(x)	O'rtacha miqdor(x_1), mln.so'mda	$x-x_1$, mln. so'mda	$(x-x_1)^2 / 5$, mln. so'mda	O'KCH, mln. so'mda
1	45048	55313,8	-10265,8	21077329,93	4591,01
2	51648	55313,8	-3665,8	2687617,93	1639,4
3	57832	55313,8	2518,2	1268266,25	1126,17
4	59897	55313,8	4583,2	4201144,45	2049,67
5	62144	55313,8	6830,2	9330326,41	3054,56
Jami	276569		0	38564684,96	6210,05

Mahsulot,ish va xizmat sotuvidan tushum(jami daromad) tahlili uchun besh yillik shartli ma'lumotlar olingan. Tahlil uchun olingan davrda jami daromadning o'rtacha miqdori 737483,6 mln. so'mni, uning dispersiyasi 116109,36 mln. so'mni tashkil qilgan. Mos ravishda, qo'shilgan yimat solig'i boyicha tushumni proqnoz qilishda 853592,96 mln. so'mlik jami daromad summasi yig'ilishi ko'tilmoqda.11-jadvalga qarang.

Qo'shilgan qiymat solig'i tushummini proqnoz qilishda «O»stavkada soliq solinadigan obort summasi(eksportdan tashqari) alohida o'rganiluvchi omil sifatida qaraladi. Tadqiqot uchun olingan besh yillik jami «O»stavkada soliq solinadigan obort summasi(eksportdan tashqari) 276569 mln. so'mni tashkil qilgan. Uning o'rtacha kattaligi 55313,8 mln. so'mni, dispersiyasi 6210,05 mln. so'mni tashkil qilgan.12-jadvalga qarang.

Shu sababli qo'shilgan qiymat solig'ini proqnoz ko'rsatkichlarini hisoblashda 61523,85 mln. so'mlik «O»stavkada soliq solinadigan obort summasi(eksportdan tashqari) olindi.

13-jadval

«O»stavkada soliq solinadigan obort summasi(eksportga sotilgan mahsulot,tovar, ish va xizmatlar)ning o'zgarish qonuniyatlarini o'rganish

Yillar	«O»stavkada soliq solinadigan obort summasi(eksportga sotilgan mahsulot,tovar, ish va xizmatlar), ming so'mda.	O'rtacha miqdor(x_1), mln.so'mda	$x-x_1$, mln. so'mda	$(x-x_1)^2 / 5$, mln. so'mda	O'KCH, mln. so'mda
1	112356	170855,4	-58499,4	684435960,07	26161,73
2	145289	170855,4	-25566,4	130728161,79	11433,64
3	167910	170855,4	-2945,4	1735076,23	1317,22
4	198271	170855,4	27415,6	150323024,67	12260,63
5	230451	170855,4	59595,6	710327107,87	26651,96
Jami	854277	170855,4	0	1677549330,64	40957,9

«O»stavkada soliq solinadigan obort summasi(eksportga sotilgan mahsulot,tovar, ish va xizmatlar)ning o'zgarish qonuniyatlarini o'rganish ham oldingi besh yillik kuzatuv natijalari asosida amalga oshiriladi. Ushbu ko'rsatkichning hisob- kitob natijalari qo'shilgan qiymat solig'ini ehtimoldagi miqdorini kamayishiga olib keladi. Bizning shartli misolimizda «O»stavkada soliq solinadigan obort summasi(eksportga sotilgan mahsulot,tovar, ish va xizmatlar)ning kutilayotgan miqdori 211813,3 mln. so'mni tashkil qilgan($170855,4+40957,9$).13-jadvalga qarang.

O'tgan besh yil davomida QQS boyicha soliq imtiyoziga ega bo'lgan jami obort summasi 547745 mln. so'mni, imtiyoz summalarining o'rtacha miqdor kattaligi 109549 mln. so'mni, dispersiyasi 25482,77 mln. so'mni tashkil qilgan.14-jadvalga qarang. Mos ravishda, qo'shilgan qiymat solig'i solig'i boyicha soliq imtiyozlari berilishi proqnoz yilda kutilayotgan qo'shilgan qiymat solig'i bazasini miqdorini 135031,77 mln. so'mga kamayishiga olib keladi.

14-jadval

QQS boyicha soliq imtiyoziga ega bo'lgan obort summasini o'zgarish qonuniyatlarini tadqiqoti

Yillar	QQS boyicha soliq imtiyoziga ega bo'lgan obort summasi,ming so'mda	O'rtacha miqdor(x_1), mln.so'mda	$x-x_1$, mln. so'mda	$(x-x_1)^2 / 5$, mln. so'mda	O'KCH, mln. so'mda
1	82192	109549	-27357	149681089,8	12234,42
2	94913	109549	-14636	42842499,2	6545,42
3	101950	109549	-7599	11548960,2	3398,38
4	112020	109549	2471	1221168,2	1105,06
5	156670	109549	47121	444077728,2	21073,15
Jami	547745	109549	0	649371445,6	25482,77

20% stavkada undiriladigan qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash bazasini o'zgarish qonuniyatlari tadiqoti natijasida uning o'rtacha miqdori 401765,4 mln. so'm, dispersiyasi 49420,61 mln. so'mga tengligi belgilandi. 8-jadvalga qarang.

Qo'shilgan qiymat solig'i tushumlarini proqnozi uchun 20% stavkada undiriluvchi qo'shilgan qiymat solig'i bazasining kutilayotgan miqdori 445224,04 mln. so'm qilib belgilandi.

15-jadval

20% stavkada undiriladigan qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash bazasini o'zgarish qonuniyatlari tadiqoti

Yillar	20% stavkada undiriladigan qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash bazasi, ming so'mda.	O'rtacha miqdor(x_1), mln. so'mda	$x-x_1$, mln. so'mda	$(x-x_1)^2/5$, mln. so'mda	O'KCH, mln. so'mda
1	306894	401765,4	-94871,4	1800116507,59	42427,78
2	403739	401765,4	1973,6	779019,39	882,62
3	422577	401765,4	20811,6	86624538,91	9307,23
4	428423	401765,4	26657,6	142125527,55	11921,64
5	447194	401765,4	45428,6	412751539,59	20316,29
Jami	2008827	401765,4	0	2442397133,04	49420,61

Hisoblangan qo'shilgan qiymat solig'ining prognoz davridagi kutilayotgan miqdori mahsulot,ish va xizmat sotuvidan tushumi, «O»stavkada soliq solinadigan obort summasi(eksportdan tashqari), «O»stavkada soliq solinadigan obort summasi(eksportga sotilgan mahsulot,tovar, ish va xizmatlar), QQS boyicha soliq imtiyoziga ega bo'lgan obort summasi, 20% stavkada undiriladigan qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash bazalarining prognoz hisob-kitob natijalari asosida aniqlashimiz mumkin. Ushbu usulga asosan, prognoz qilinayotgan yilda jami bo'lib 89044,81 mln. so'mlik mln. so'mlik qo'shilgan qiymat solig'i summasi hisoblanishi kutilmoqda. Ammo, hisoblangan qo'shilgan qiymat solig'i summasini prognoz ko'rsatkichini o'tgan besh yil davomida bevosita, haqiqatdagi natijalar asosida ham taddiqot qilib, belgilashimiz mumkin. Bu ikki usulda aniqlangan prognoz ko'rsatkichi o'rtasida farq sezilarli hisoblanmaydi.

O'tgan besh yil davomida haqiqatda hisoblangan qo'shilgan qiymat solig'i summasini taddiqot qilish natijasida 80353,08 mln. so'mlik o'rtacha hisoblangan miqdor, 9884,12 mln. so'mlik qo'shimcha qo'shiluvchi miqdor aniqlandi. Natijada, ikkinchi usulga asosan, 90237,20 mln. so'mlik qo'shilgan qiymat solig'i hisoblanishi kutilishi aniqlandi. 9-jadvalga qarang.

16-jadval

Hisoblangan qo'shilgan qiymat solig'i

Yillar	Hisoblangan qo'shilgan qiymat solig'i	O'rtacha miqdor(x_1), mln. so'mda	$x-x_1$, mln. so'mda	$(x-x_1)^2/5$, mln. so'mda	O'KCH, mln. so'mda
1	61378,8	80353,0800	-18974,28	72004660,3	8485,56
2	80747,8	80353,0800	394,72	31160,78	176,52
3	84515,4	80353,0800	4162,32	3464981,56	1861,45
4	85684,6	80353,0800	5331,52	5685021,1	2384,33
5	89438,8	80353,0800	9085,72	16510061,58	4063,26
Jami	401765,4	80353,0800	0	97695885,32	9884,12

Qo'shilgan qiymat solig'ini boyicha soliq tushumlarni prognoz qilishda faqat hisoblanishi kutilayotgan soliq summasini belgilash etarli bo'lmaydi. Bundan tashqari, qo'shilgan qiymat solig'i summasini byudjetga undirilishida hisobga olinadigan, soliq obortiga oid, tovar, mahsulot, ish, xizmatlarni xarid qilishda haqiqatda to'lanishi kutilayotgan soliq summasini ham hisob-kitob qilish zarur.

17-jadval

**Oborot uchun ishlatilgan tovar, ish va xizmatlarni sotib olishda to'lanadigan, hisobga
olininuvchi qo'shilgan qiymat solig'i summasini prognoz ko'rsatkchilarini hisob-kitobi**

Ko'rsatkichlar	Oldingi besh yil					O'rtacha miqdor	Prognoz hisob-kitobi bilan qo'shiluvchi qiymat	Prognoz yili
	1	2	3	4	5			
Oborot uchun ishlatilgan tovar, ish va xizmatlarni sotib olishda to'langan, hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasi, mln. so'mda, jumladan:	20156	25594	29683	32264	36952	28929,8	5729,69	34659,49
20% stavkada soliq solinadigan obortga oid, hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasi, mln. so'mda.	8549	11486	14123	15462	16964	13316,8	2987,9	16304,7
«O»stavkada soliq solinadigan obortga oid, hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasi(eksportdan tashqari), mln. so'mda.	1600	2000	2301	2405	2843	2229,8	415,03	2644,83
«O»stavkada soliq solinadigan obortga oid, hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasi(eksportga sotilgan mahsulot,tovar, ish va xizmatlar), mln. so'mda.	4006	5123	5831	6300	7200	5692	1079,76	6771,76
Eksportga sotilgan mahsulot, tovar, ish va xizmatlarning umumiylajmi, mln. so'mda	112356	145289	167910	198271	230451	170855,4	40957,9	211813,3
Eksportga sotilgan mahsulot, tovar, ish va xizmatlar uchun, joriy davrda kelib tushgan valyuta hajmi, mln. so'mda	90458	123875	152643	188563	219597	155027,2	45692,96	200720,16
Eksportga sotilgan mahsulot, tovar, ish va xizmatlar uchun, joriy davrda kelib tushgan valyuta qiymatining jami eksport hajmidagi ulushi, %da	80,51	85,26	90,91	95,1	95,29	89,41	5,76	94,763
«O»stavkada soliq solinadigan obortga oid, hisobga olinigan qo'shilgan qiymat solig'i summasi(eksportga sotilgan mahsulot,tovar, ish va xizmatlar), mln. so'mda.	3225,24	4367,93	5300,82	5991,53	6860,89	5149,24	1262,83	6417,11
Soliq solinmaydigan obortga oid, hisobga olinmaydigan qo'shilgan qiymat solig'i summasi, mln. so'mda.	6781,76	7740,07	7958,18	8405,47	10284,11	8233,92	1154,24	9292,86
Oborot uchun ishlatilgan tovar, ish va xizmatlarni sotib olishda to'langan, hisobga olinuvchi qo'shilgan qiymat solig'i summasi, mln. so'mda,	13374,24	17853,93	21724,82	23858,53	26667,89	20695,8	4656,37	25366,63
Haqiqatda byudjetga to'lanishi kutilayotgan qo'shilgan qiymat solig'i summasi, mln. so'mda.	48004,56	62893,87	62790,58	61826,07	62770,91	59657,2	5227,75	63678,18

Oborot uchun ishlatilgan tovar, ish va xizmatlarni sotib olishda to'lanadigan, hisobga olininuvchi qo'shilgan qiymat solig'i summasini prognoz ko'rsatkchilarini hisob-kitobini amalgalash.

oshirishda 20% stavkada soliq solinadigan oborotga oid, hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasi, «O»stavkada soliq solinadigan obortga oid, hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasi(eksportdan tashqari), «O»stavkada soliq solinadigan obortga oid, hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasi(eksportga sotilgan mahsulot,tovar, ish va xizmatlar), eksportga sotilgan mahsulot, tovar, ish va xizmatlarning umumiy hajmi, eksportga sotilgan mahsulot, tovar, ish va xizmatlar uchun, joriy davrda kelib tushgan valyuta hajmi, eksportga sotilgan mahsulot, tovar, ish va xizmatlar uchun, joriy davrda kelib tushgan valyuta qiymatining jami eksport hajmidagi ulushi, «O»stavkada soliq solinadigan obortga oid, hisobga olingan qo'shilgan qiymat solig'i summasi(eksportga sotilgan mahsulot,tovar, ish va xizmatlar), soliq solinmaydigan obortga oid, hisobga olinmaydigan qo'shilgan qiymat solig'i summalarining o'zgarish tendentsiyalari tadiqot qilinadi.10-jadvalga qarang.

18-jadval

Oborot uchun ishlatilgan tovar, ish va xizmatlarni sotib olishda to'langan, hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasining o'zgarish qonuniyatları

Yillar	Oborot uchun ishlatilgan tovar, ish va xizmatlarni sotib olishda to'langan, hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasi, mln. so'mda,	O'rtacha miqdor(x_1), mln.so'mda	$x-x_1$, mln. so'mda	$(x-x_1)^2/5$, mln. so'mda	O'KCH, mln. so'mda
1	20156	28929,8000	-8773,8	15395913,29	3923,76
2	25594	28929,8000	-3335,8	2225512,33	1491,82
3	29683	28929,8000	753,2	113462,05	336,84
4	32264	28929,8000	3334,2	2223377,93	1491,1
5	36952	28929,8000	8022,2	12871138,57	3587,64
Jami	144649	28929,8000	0	32829404,16	5729,69

Hisoblangan qo'shilgan qiymat solig'i boyicha prognoz ko'rsatkichdan oborot uchun ishlatilgan tovar, ish va xizmatlarni sotib olishda to'langan, hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasining prognoz ko'rsatkichini ayirish natijasida haqiqatda byudjetga to'lanuvchi qo'shilgan qiymat solig'inining prognoz ko'rstanichi belgilanadi.

19-jadval

20% stavkada soliq solinadigan oborotga oid, hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasining o'zgarish qonuniyati

Yillar	20% stavkada soliq solinadigan oborotga oid, hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasi,mln. So'mda.	O'rtacha miqdor(x_1), mln.so'mda	$x-x_1$, mln. so'mda	$(x-x_1)^2/5$, mln. so'mda	O'KCH, mln. so'mda
1	8549	13316,8000	-4767,8	4546383,37	2132,22
2	11486	13316,8000	-1830,8	670365,73	818,76
3	14123	13316,8000	806,2	129991,69	360,54
4	15462	13316,8000	2145,2	920376,61	959,36
5	16964	13316,8000	3647,2	2660413,57	1631,08
Jami	66584	13316,8000	0	8927530,96	2987,9

Hisobga olinuvchi qo'shilgan qiymat solig'i summasi ko'rsatkichini prognoz qilishda dastlab oborot uchun ishlatilgan tovar, ish va xizmatlarni sotib olishda to'langan, hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasi tadqiq qilinadi.

Tadqiqot uchun tanlangan oldingi oldingi besh yillik, oborot uchun ishlatilgan tovar, ish va xizmatlarni sotib olishda to'langan, hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasining

o'rtacha miqdori 28929,8 mln. so'mni, dispersiyasi 5729,69 mln. so'mni tashkil qilgan. 18-jadvalga qarang. Ikki ko'rsatkich birgalikda 34659,49 mln. so'mni tashkil qiladi.

Aynan, 34659,49 mln. so'm qo'shilgan qiymat solig'i tushumini prognoz qilishda kutilayotgan, oborot uchun ishlatalgan tovar, ish va xizmatlarni sotib olishda to'langan qo'shilgan qiymat solig'i summasi hisoblanadi.

20% stavkada soliq solinadigan oborotga oid, oborot uchun ishlatalgan tovar, ish va xizmatlarni sotib olishda to'langan hamda hisobga olinadigan, qo'shilgan qiymat solig'i summasi mazkur soliq tushumining prognoz ko'rsatkichini kamayishiga sabab bo'ladi. Shu sababli, 20% stavkada soliq solinadigan oborotga oid, hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasining o'zgarish qonuniyatini tadqiq qilish o'ta muhim hisoblanadi.

Tadqiqot uchun tanlangan davr ichida, 20% stavkada soliq solinadigan oborotga oid, hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasining o'rtacha miqdori 13316,8 mln. so'mni, dispersiyasi esa 2987,9 mln. so'mni tashkil qilgan. 12-jadvalga qarang. Mazkur prognoz ko'rsatkichi ta'siri natijasida kutilayotgan prognoz yilda byudjetga tushadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasi 16304,7 mln. so'mga kamayishi bashorat qilinmoqda.

«O»stavkada soliq solinadigan obortga oid, hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasi ham byudjetga to'lanadigan qo'shilgan qiymat solig'i – hisoblangan qo'shilgan qiymat solig'ining prognoz ko'rstanakichlarini kamayishiga olib keladi. Jadvallar ma'lumotlariga qarang.

Oldingi besh yil davomida «O»stavkada soliq solinadigan obortga oid, hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasi(eksportdan tashqari), jami bo'lib 11149 mln. so'mni tashkil qilgan. Uning o'rtacha miqdori 2229,8 mln. so'mni, dispersiyasi 415,03 mln. so'mni tashkil qilgan.

20-jadval

«O»stavkada soliq solinadigan obortga oid, hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasi(eksportdan tashqari)ning o'zgarish qonuniyatları tadqiqi

Yillar	«O»stavkada soliq solinadigan obortga oid, hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasi(eksportdan tashqari), mln. so'mda.	O'rtacha miqdor(x_1), mln.so'mda	$x-x_1$, mln. so'mda	$(x-x_1)^2/5$, mln. so'mda	O'KCH, mln. so'mda
1	1600	2229,8000	-629,8	79329,61	281,66
2	2000	2229,8000	-229,8	10561,61	102,77
3	2301	2229,8000	71,2	1013,89	31,84
4	2405	2229,8000	175,2	6139,01	78,35
5	2843	2229,8000	613,2	75202,85	274,23
Jami	11149	2229,8000	0	172246,96	415,03

Rejalashtirilayotgan yilda «O»stavkada soliq solinadigan obortga oid, hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasi(eksportdan tashqari) 2644,83 mln. so'mga tenglashishi kutilmoqda va mos ravishda hisoblanishi kutilayotgan qo'shilgan qiymat solig'i summasini davlat byudjetiga undirilgan qismini shuncha miqdorga kamayishiga olib keladi.

«O»stavkada soliq solinadigan obortga oid, hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasi(eksportga sotilgan mahsulot,tovar, ish va xizmatlar)ning qo'shilgan qiymat solig'i tushumlari prognoz ko'rsatkichiga ta'siriga baho berish uchun eksportga sotiladigan mahsulot, tovar, ish va xizmatlarning umumiy hajmini ehtimoldagi miqdorini aniqlash zarur.

21-jadval

«O»stavkada soliq solinadigan obortga oid, hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasi(eksportga sotilgan mahsulot,tovar, ish va xizmatlar), mln so'mda.

Yillar	«O»stavkada soliq solinadigan obortga oid, hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasi(eksportga sotilgan mahsulot,tovar, ish va xizmatlar), mln so'mda.	O'rtacha miqdor(x_1), mln.so'mda	$x-x_1$, mln. so'mda	$(x-x_1)^2/5$, mln. so'mda	O'KCH, mln. so'mda
1	4006	5692,0000	-1686	568519,2	754
2	5123	5692,0000	-569	64752,2	254,46
3	5831	5692,0000	139	3864,2	62,16
4	6300	5692,0000	608	73932,8	271,91
5	7200	5692,0000	1508	454812,8	674,4
Jami	28460	5692,0000	0	1165881,2	1079,76

14-jadval ma'lumotlaridan xulosa qilish mumkinki, prognoz yilida eksportga sotilgan mahsulot, tovar, ish va xizmatlarning kutilayotgan umumiylajmi 211813,3 mln. so'mga tenglashishi ehtimol qilinmoqda($170855,4+40957,9$). Hisobga olinadigan qo'shilgan qimat solig'i summasini aniqlash uchun eksportga sotilgan mahsulot, tovar, ish va xizmatlar uchun, prognoz yilida kelib tushadigan valyuta hajmini aniqlash talab qilinadi.

22-jadval

Prognoz yilida eksportga sotilgan mahsulot, tovar, ish va xizmatlarning kutilayotgan umumiylajmi tadqiqi

Yillar	Eksportga sotilgan mahsulot, tovar, ish va xizmatlarning umumiylajmi, mln.so'mda	O'rtacha miqdor(x_1), mln.so'mda	$x-x_1$, mln. so'mda	$(x-x_1)^2/5$, mln. so'mda	O'KCH, mln. so'mda
1	112356	170855,4000	-58499,4	684435960,07	26161,73
2	145289	170855,4000	-25566,4	130728161,79	11433,64
3	167910	170855,4000	-2945,4	1735076,23	1317,22
4	198271	170855,4000	27415,6	150323024,67	12260,63
5	230451	170855,4000	59595,6	710327107,87	26651,96
Jami	854277	170855,4000	0	1677549330,64	40957,9

O'tgan besh yil moboynida eksportga sotilgan mahsulot, tovar, ish va xizmatlar uchun jami bo'lib 775136 mln. so'mlik chet elvalyutasi tushgan. Tushgan valyuta qiyamatining yillik o'rtacha miqdori 155027,2 mln. so'mni tashkil qilgan. Valyuta tushumining yillik o'rtacha miqdori va dispersiyasi asosida prognoz yilida 200720,16 mln. so'mlik valyuta qimati tushishi kutilishi hisoblandi.

Eksportga sotilgan mahsulot, tovar, ish va xizmatlarga oid, hisobga olinuvchi qo'shilgan qiyamat solig'i summasini aniqlash uchun prognozlashtirilayotgan yilda kelib tushuvchi valyuta qiyamatining jami eksport hajmidagi ulushini aniqlash talab qilinadi.

Amalga oshirilgan hisob-kitob va tadqiqot natijasida prognozlashtirilayotgan yilda kelib tushuvchi valyuta qiyamatining jami eksport hajmidagi ulushi 94,763 %ni tashkil qilish kutilmoqda.

Prognoz yilida kutilayotgan, eksportga sotilgan mahsulot, tovar, ish va xizmatlarga oid, hisobga olinuvchi qo'shilgan qiyamat solig'i summasi 6417,11 mln. so'm($(6771,76 \times 94,763\%) / 100$) aniqlandi.

Endi «O»stavkada soliq solinadigan obortga oid, hisobga olinadigan qo'shilgan qiyamat solig'i summasini hisob-kitob asosida emas, balkim uning o'zining oldingi besh yildagi haqiqatdagagi natijasi asosida hisoblaymiz(taqqoslash uchun).

23-jadval

Eksportga sotilgan mahsulot, tovar, ish va xizmatlar uchun, prognozlashtirilayotgan yilda kelib tushishi kutilayotgan valyuta hajmini tadqiqi

Yillar	Eksportga sotilgan mahsulot, tovar, ish va xizmatlar uchun, joriy davrda kelib tushgan valyuta hajmi, mln.so'mda	O'rtacha miqdor(x_1), mln.so'mda	$x-x_1$, mln. so'mda	$(x-x_1)^2/5$, mln. so'mda	O'KCH, mln. so'mda
1	90458	155027,2000	-64569,2	833836317,73	28876,22
2	123875	155027,2000	-31152,2	194091912,97	13931,69
3	152643	155027,2000	-2384,2	1136881,93	1066,25
4	188563	155027,2000	33535,8	224929976,33	14997,67
5	219597	155027,2000	64569,8	833851814,41	28876,49
Jami	775136	155027,2000	0	2087846903,36	45692,96

«O»stavkada soliq solinadigan obortga oid, hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasini oldingi besh yildagi haqiqatdagi natijasi asosida hisoblaganda uning qiymati(5149.242 mln. so'm+ 1262,83 mln. so'm)6312.07 mln. so'mga tenglashdi.

Prognoz yilida soliq solinmaydigan obortga oid, hisobga olinmaydigan qo'shilgan qiymat solig'i summasi qo'shilgan qiymati solig'i tushumlar pognozini ko'rsatkichini oshishiga olib keladi.

Prognozlashtirilayotgan yilda soliq solinmaydigan obortga oid, hisobga olinmaydigan qo'shilgan qiymat solig'i summasining kutilayotgan summasini aniqlash uchun Oborot uchun ishlatilgan tovar, ish va xizmatlarni sotib olishda to'langan, hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasidan 20% stavkada soliq solinadigan oborotga oid, hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasi, «O»stavkada soliq solinadigan obortga oid, hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasi(eksportdan tashqari), «O»stavkada soliq solinadigan obortga oid, hisobga olingan qo'shilgan qiymat solig'i summasi(eksportga sotilgan mahsulot,tovar, ish va xizmatlar) ayirib tashlanadi. Bizning hisob-kitobimiz natijasida kutilayotgan, to'langan, ammo hisobga olinmaydigan qo'shilgan soliq summasi 9292,86 mln. so'mni tashkil qiladi.

24-jadval

«O»stavkada soliq solinadigan obortga oid, hisobga olingan qo'shilgan qiymat solig'i summasi(eksportga sotilgan mahsulot,tovar, ish va xizmatlar)ning kutilayotgan o'zgarish qonuniyati

Yillar	«O»stavkada soliq solinadigan obortga oid, hisobga olingan qo'shilgan qiymat solig'i summasi(eksportga sotilgan mahsulot,tovar, ish va xizmatlar), mln so'mda.	O'rtacha miqdor(x_1), mln.so'mda	$x-x_1$, mln. so'mda	$(x-x_1)^2/5$, mln. so'mda	O'KCH, mln. so'mda
1	3225,24	5149,2420	-1924	740356,74	860,44
2	4367,93	5149,2420	-781,31	122089,69	349,41
3	5300,82	5149,2420	151,58	4595,18	67,79
4	5991,53	5149,2420	842,29	141889,81	376,68
5	6860,69	5149,2420	1711,45	585810,85	765,38
Jami	25746,21	5149,2420	0	1594742,27	1262,83

Oldingi besh yil haqiqatdagi natijasi asosida hisoblagan soliq solinmaydigan obortga oid, hisobga olinmaydigan qo'shilgan qiymat solig'ining kutilayotgan summasi 9388.158 mln. so'mga (8233,918 mln. so'm + 1154.24 mln. so'm) tenglashdi.

25-jadval

Soliq solinmaydigan obortga oid, hisobga olinmaydigan qo'shilgan qiymat solig'i summasi, mln so'mda

Yillar	Soliq solinmaydigan obortga oid, hisobga olinmaydigan qo'shilgan qiymat solig'i summasi, mln so'mda.	O'rtacha miqdor(x_1), mln.so'mda	$x-x_1$, mln. so'mda	$(x-x_1)^2/5$, mln. so'mda	O'KCH, mln. so'mda
1	6781,76	8233,9180	-1452,16	421752,57	649,42
2	7740,07	8233,9180	-493,85	48777,17	220,86
3	7958,18	8233,9180	-275,74	15206,29	123,31
4	8405,47	8233,9180	171,55	5886,02	76,72
5	10284,11	8233,9180	2050,19	840657,45	916,87
Jami	41169,59	8233,9180	0	1332279,49	1154,24

Prognozlashtirilayotgan davrda oborot uchun ishlatiladigan tovar, ish va xizmatlarni sotib olishda to'lanadigan, hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'inining kutilayotgan summasi 25366,63 mln. so'mga tenglashishi hisoblandi. Ammo ushbu prognoz ko'rsatkichini oxirgi besh yil davomida haqiqatda erishilgan natijalarni tahlil qilgan holda ham aniqlashimiz mumkin.

Oborot uchun ishlatilgan tovar, ish va xizmatlarni sotib olishda to'langan, hisobga olingan qo'shilgan qiymat solig'inining kutilayotgan summasini aniqlash uchun oxirgi besh yillik ma'lumotlarning o'rtacha miqdori va dispersiyasi hisoblanadi. Bizning hisobimizda kutilayotgan, hisobga olinadigan hamda to'langan qo'shilgan qiymat solig'inining o'rtacha miqdori 20695.882 mln. so'mga, dispersiya miqdori 4656,37 mln. so'mga tenglashgan(Ikkinchisi usul). (26-jadvalga qarang).

Prognozlashtirilayotgan yil uchun haqiqatda byudjetga to'lanishi kutilayotgan qo'shilgan qiymat solig'i miqdorini aniqlash uchun jami hisoblangan qo'shilgan qiymat solig'i summasidan oborot uchun ishlatilgan tovar, ish va xizmatlarni sotib olishda to'langan, hisobga olingan qo'shilgan qiymat solig'inining kutilayotgan summasini ayirish oraqli aniqlanadi. Bizning hisob-kitobimiz natijasida byudjetga haqiqatda to'lanishi kutilayotgan qo'shilgan qiymat solig'i summasi 63678,18 mln. so'mga tenglashdi.

26-jadval

Oborot uchun ishlatilgan tovar, ish va xizmatlarni sotib olishda to'langan, hisobga olingan qo'shilgan qiymat solig'i summasi, mln. so'mda

Yillar	Oborot uchun ishlatilgan tovar, ish va xizmatlarni sotib olishda to'langan, hisobga olingan qo'shilgan qiymat solig'i summasi, mln. so'mda,	O'rtacha miqdor(x_1), mln.so'mda	$x-x_1$, mln. so'mda	$(x-x_1)^2/5$, mln. so'mda	O'KCH, mln. so'mda
1	13374,24	20695,8820	-7321,64	10721288,32	3274,34
2	17853,93	20695,8820	-2841,95	1615338,23	1270,96
3	21724,82	20695,8820	1028,94	211742,68	460,16
4	23858,53	20695,8820	3162,65	2000468,47	1414,38
5	26667,89	20695,8820	5972,01	7132975,91	2670,76
Jami	103479,41	20695,8820	0	21681813,62	4656,37

Qo'shilgan qiymati solig'i boyicha prognoz ko'rsatkichlarini tashkil qilishda, olib borilgan tadqiqot hisob-kitoblaridan tashqari, boshqa ta'sir qiluvchi omillarni inobatga olish zarur hisoblanadi. Shunday omillarga soliq to'lovchining soliq qarzdorligi, debitorlik qarzlari va shu kabi boshqa faktorlar kiradi. Ayniqsa debitorlik qarzlari soliq to'lovchining soliq qarzdorligini majburiy tartibda undirish asosiy manbaalaridan biri hisoblanadi.

AQSH mamlakatida ham bilvosita soliqlar prognozlashtiriladi. Sotuvdan olinuvchi soliq bilvosita soliq turlaridan biri hisoblanadi. Uni prognozlashda sotuvdan olinuvchi soliq tushumlari

gurhlanadi. YA'ni, mahalliy sotuvdan olinuvchi hamda turistlarga ko'rsatilgan savdo bo'yicha kelib tushgan tushumlarga bo'linadi¹².

10. MAVZU. "BILVOSITA SOLIQLARNI PROGNOZLASH VA TUSHUMLARGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR " ЮЗАСИДАН КЕЙСЛАР ТҮПЛАМИ, АМАЛИЙ ТОПШИРИҚЛАР, ИШЛАНМАЛАР

Reja:

1. Aksiz solig'ini prognozlashni o'ziga xos jihatlari
2. Qo'shilgan qiymat solig'i va uni prognozlashni o'ziga xos jihatlari

«Aylana sto'l atrofida» muhokama uchun savollar

1. Aksiz solig'ining o'ziga xos jihatlari nimadan iborat?
2. Qo'shilgan qiymat solig'ining o'ziga xos jihatlari nimadan iborat?
3. Aksiz solig'ini amalga joriy qilinish zarurati nimadan iborat?
4. Aksiz solig'ining asosiy ko'rsatkichlariga nimalar kiradi?
5. . Qo'shilgan qiymat solig'ining asosiy ko'rsatkichlariga nimalar kiradi?
6. Aksiz solig'ini prognozlashni o'ziga xos jihatlari nimadan iborat?
7. Qo'shilgan qiymat solig'i va uni prognozlashni o'ziga xos jihatlari nimadan iborat?
8. Egri soliqlarni prognozlashda qanday usullardan foydalilanildi?



1-topshiriq.

1-KEYS-STADI Kirish

Tavsiya etilgan keysni yechish quyidagi natijalarga erishishga imkon yaratadi:

- o'zlashtirilgan mavzu bo'yicha bilimlarni mustahkamlash;
- mantiqiy fikrlashni rivojlantirish;
- egri soliqlarni prognozlash va tushumlarga ta'sir qiluvchi omillar borasida mustaqil ravishda qaror qabul qilish ko'nikmalarini egallash;
- egri soliqlarni prognozlash va tushumlarga ta'sir qiluvchi omillar uslubiyatini qo'llash qobiliyatini tekshirish.

VAZIYAT

Qo'shilgan qiymat solig'ini boshqqarishda uni prognozlash masalasi murakkab jarayon hisoblanadi. Mazkur soliq turi bo'yicha soliq tushumlar Davlat byudjetining soliqli daromadlarining 30%ga yaqin qismini tashkil qiladi. Shu sababli, qo'shilgan qiymat solig'ini prognozlashda yo'o qo'yilgan xato davlat byudjetini balanslilik tamoyilini buzilishiga olib kelishi mumkin.

2012 yildan 2016 yilga qadar qo'shilgan qiymat solig'i 20%li stavkadan undirilgan. Prognozlashtirilayotgan 2017 yilda qo'shilgan qiymat solig'ining amaldagi stavkasi 20%dan

¹² Tax policy, Revenue forecasting and economic analysis force. Joshua Goldstain, assistant director. Office of management and budget. The City of New York. 2017. 308p.(49p.)

10%ga tushurish rejalashtirilmoqda. Bundan tashqari, 2016 yilda mavjud bo‘lgan soliq imtiyozlarining 50% bekor qilinishi kutilmoqda. Quyida, qo‘shilgan qiymat solig‘ini prognozlash uchun zarur bo‘lgan, oxirgi besh yildagi oborot va boshqa ko‘rsatkichlar haqida ma’lumot keltirilgan.

Ko‘rsatkichlar	2012	2013	2014	2015	2016
Tovarlar, ishlar, xizmatlar realizatsiya qilish oborotlari, jami,mlrd so‘m	100.0	120.0	125.5	133.0	140.0
Tovar (ish, xizmat)larni realizatsiya qilishdan sof tushum, mlrd so‘m	94.0	114.0	116.2	124.0	132.0
QQSdan ozod qilinadiganlari,mlrd so‘m	5.0	6.0	6.5	7.3	8.1
nol darajali stavka boyicha soliq solinadiganlari , mlrd so‘m	12.0	13.0	14.0	14.6	15.9

SAVOLLAR VA TOPSHIRIQLAR:

1.Yuqorida keltirilgan ma’lumotlardan foydalanib, 2017 yilda qo‘shilgan qiymat solig‘i boyicha soliq tushumini prognoz ko‘rsatkichini hisoblang.

2. Nima deb o‘ylaysiz, qanday makroiqtisodiy omillar prognoz hisobg‘kitoblariga ta’sir qiladi?

3. Qo‘shilgan qiymat solig‘i ning elementlarini o‘zgarishi mazkursoliqni prognozlash hisob kitoblariga qanday ta’sir qiladi?


2-topshiriq.

“Venn diagrammasi” grafik organizayzeridan foydalangan holda aksiz solig‘i hamda qo‘shilgan qiymat solig‘ini prognozlashning umumiyy va o‘ziga xos jihatlarini tahlil qiling.

Ko‘rsatma:

Grafik organizayzer talabalarda mavzuga nisbatan tahliliy yondashuv, ayrim qismlar negizida mavzuning umumiyy mohiyatini o‘zlashtirish (sintezlash) ko‘nikmalarini hosil qilishga yo‘naltiriladi. U kichik guruhlarni shakllantirish asosida aniq sxema bo‘yicha amalga oshiriladi.

Yozuv taxtasi o‘zaro teng to‘rt bo‘lakka ajratiladi va har bir bo‘lakka quyidagi sxema chiziladi:



Grafik organizayzer talabalar tomonidan o‘zlashtirilgan o‘zaro yaqin nazariy bilim, ma’lumot yoki dalillarni qiyosiy tahlil etishga yordam beradi.

Foydalaniladigan adabiyotlar royxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiysi to‘g‘risida. 2018 yil 29 iyun. Elektron- huquqiy baza.
2. Mirziyoyev Sh.M.Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 104 b.

3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: “O’zbekiston” NMIU, 2017. – 48 b.
4. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Soliq ma’muriyatichilagini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to’lovlarining yig‘iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. 2017 yil 18 iyul, pf-5116-son. Elektron-huquqiy baza.
5. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy erkinligini oshirish, mahalliy byudjetlarga tushumlarning to‘liqligini ta’minlash bo‘yicha soliq va moliya organlari javobgarligini kuchaytirishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida. 2017 yil 13 dekabr, PF-5283-son. Elektron-huquqiy baza.
6. Распоряжение Президента Республики Узбекистан. Об организации критического изучения деятельности финансовых, налоговых и таможенных органов. 16 января 2018 г. № р-5182. Электронно-правовая база.
7. Абдуганиева Г.К., Бабабекова Н.Б. Прогнозирование налогов. Учебное пособие. – Т.: “Тафаккур-Бўстони”, 2012. - 224 с.
8. Doschanova N.P. Soliq statistikasi va prognozi. O‘quv qo‘llanma. – Т.: “Ren-Poligraf” bosmaxonasi, 2009. – 216 b.
9. Vahobov A.V,Jo‘rayev A.S Soliqlar va soliqqa tortish.Darslik.T: “Sharq”, 2009. -448 b.
10. O’zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. “Norma” huquqiy bazasi.
11. O’zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi. “Norma” huquqiy bazasi.
12. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 iyuldagи “Soliq ma’muriyatichilagini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to’lovlarining yig‘iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5116-sonli Farmoni. Xalq so‘zi» gazetasi. 2017 yil 19 iyuldagи 141 (6835)-son.
13. Malikov T.S., Jalilov P.T. Byudjet-soliq siyosati. O‘quv qo‘llanma. – Т.: “Akademnashr”, 2011. - 472 b.
14. Haydarov N.H. Soliqlar va soliqqa tortish masalalari. O‘quv qo‘llanma. AkademiY. - Т.: 2007. - 214 b.;
15. Gadoyev E. va b. Bilvosita soliqlar. O‘quv-amaliy qo‘llanma. - Т.: Norma, 2011.- 328 –b.
16. Yax’oyev Q. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. Darslik. Toshkent. 2003. 246 bet.
17. Zavalishina I.A. Soliqlar: nazariya va amalyot. “Iqtisodiyot va huquq dunyosi” nashriyot uyi, 2005. 544 bet.
18. Jo’rayev A, S. Shirinov. Soliq statistikasi va prognozi: O‘quv qo‘llanma, T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2015.-392b.
19. Eshboyev T.T. Yuridik shaxslarni soliqqa tortish. Darslik. T: “Cho‘lpon” 2013, 296 bet
20. Перов А. Налоги и налогообложение. Учебное пособие. – М.: “Юрайт”, 2012 г. – 899 стр.
21. Пансков В. Налоги и налогообложение: теория и практика. Учебник. – М.: “Юрайт”, 2012 г. – 680 стр.
22. Musagaliyev A. Yuridik shaxslarni soliqqa tortishni takomillashtirishning dolzarb masalalari. Soliq akademiyasi. Monografiya, Toshkent: 2010, 116 bet.
23. A.Xomma, A.Tangirqulov, Sh.Toshmatov, I.Norqo‘ziyev va N.Roziqovlar. Soliq qarzi va uni undirish. O‘quv qo‘llanma. - Т.: O‘quv qo‘llanma, “Yangi asr avlodи”, 2011.
24. I.Xabibullayev, G.Mansurova, Soliq statistikasining nazariy asoslari. O‘quv qo‘llanma - Т.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi», 2005.
25. Forecasting Scottish taxes. The National Archives, Kew, London TW9 4DU. Crown copyright 2017. 25p/(20p.).
26. Federal taxation: practice and procedure. Robert E., Richard J. Chicago, 2017.987p. (252p.).
27. Tax analysis and revenue forecasting. Issues and Techniques. By Glenn P. Jenkins Chun-Yan Kuo Gangadhar P. Shukla. Harvard Institute for International Development Harvard University . 2017. 187 p.(2p.).

28. An Analysis of Tax Revenue Forecast Errors. Martin Keene and Peter Thomson. New Zealand treasury working paper 07/02. 2017.41p.(2p.).
29. Tax policy, Revenue forecasting and economic analysis force. Joshua Goldstain, assistant director. Office of management and budget. The City of New York. 2017. 308p.(39p.)

Internet saytlari:

30. www. <http://el.tfi.uz/> - Toshkent moliya instituti elektron kutubxonasi;
31. www. <http://soliq.uz>;
32. www. <http://edu.uz>;
33. www. <http://mf.uz>;
34. www. <http://oxs.uz>;
35. www. <http://norma.uz>;
36. www. <http://lex.uz>;
37. www. <http://my.gov.uz>;
38. www. <http://alleng.ru>;

11.1. “RESURS SOLIQLARNI PROGNOZLASH VA TUSHUMLARGA TA’SIR QILUVCHI OMILLAR” O’QUV MODULI YUZASIDAN MA’RUZA MATNI

XI.O’QUV MATN (MODUL)

MODUL: RESURS SOLIQLARNI PROGNOZLASH VA TUSHUMLARGA TA’SIR QILUVCHI OMILLAR



Reja:

1. Mol-mulk solig‘ini prognoz qilishning o‘ziga xos xususiyatlari
2. Yer solig‘ini prognoz qilishning o‘ziga xos xususiyatlari

Tayanch so‘z va iboralar: mol-mulk solig‘ini prognoz qilish, yer solig‘ini prognoz qilish, mol-muulk solig‘ini o‘rtacha yillik qoldiq qiymati, prognoz tahlilining ma’lumot manbalari, regression tenglama, o‘sish sur’ati.

Resurs soliqlari barcha mamlakatlarda prognoz qilinadi. Mazkur soliq turalarini prognoz qilishda turli davlatlarda turli xil usullardan foydalaniladi. AQSH davlatida mol-mulk solig‘ini prognoz qilishda mulkning bozor bahosini o‘zgarishi, soliq qonunchiligi, soliq stavkalari uslubiy asos bo‘lib xizmat qiladi¹³.

Mol-mulk solig‘i soliq tizimida o‘z o‘rniga ega hisoblanadi. Mazkur soliq turi o‘zining soliq solish bazasi, soliq hisoblash va soliqlarni byudjetga to’lash tartiblari bilan o‘ziga xos jihatlarga ega. Mol-mulk solig‘ining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi ahmiyati yildan-yilga ortib bormoqda. Birinchidan, mol-mulk solig‘i davlat byudjeti daromad qismini shakllantirishda faol ishtirok etadi. Uning davlat byudjeti daromadlari tarkibidagi salmog‘i yildan – yilga tebranib tursada, o‘rtacha miqdor 1/6 atrofida aniqlanmoqda. 1-jadvalga qarang.

1-jadval

O’zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti daromadlari tarkibida mol-mulk solig‘ininining ulushi, (foizda)¹⁴

Ko’rsatkichlar	2012	2013	2014	2015	2016	2017
Davlat byudjetining maqsadli jamg’armalarisiz jami daromadlari	100,00	100,00	100,00	100,00	100,00	100
To’g’ri soliqlar	26,08	26,20	25,21	26,22	20,41	23,64
Mol-mulk solig‘i va resurs to’lovleri	15,05	14,27	13,32	14,96	11,85	15,87
Mol-mulk solig‘i	2,70	3,03	3,11	3,31	2,97	4,74
Er solig‘i	2,32	2,14	2,16	2,57	1,74	2,57
Er qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	9,64	8,71	7,69	8,68	6,80	8,10
Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	0,39	0,38	0,35	0,39	0,33	0,45

Yuqoridagi jadval ma’lumotlaridan ko’rinib turibdiki, O’zbekiston Respublikasi davlat byudjeti daromadlari yil sayin o’sib borganligiga kuzatishimiz mumkin. Mol-mulk solig‘i tushum summasining absolyut miqdorlari yillar boyicha oshib borgan bo‘lib, uning Davlat byudjetining maqsadli jamg’armalarisiz jami daromadlaridagi foizdagi salmog‘i esa nobarqarorlik

¹³ Tax policy, Revenue forecasting and economic analysis force. Joshua Goldstain, assistant director. Office of management and budget. The City of New York. 2017. 308p.(21p.)

¹⁴ O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori asosida tuzilgan

tendentsiyasiga ega. Jumladan, 2012 yilga borib 2.7 foizni tashkil etgan. 2015 yilda bu ko'rsatkich 3.3 foizni tashkil etgan va kamayish tendentsiyasiga ega. 2016 yilda mol-mulk solig'ining Davlat byudjetining maqsadli jamg'armalarisiz jami daromadlaridagi ulushi 2.97 foyizni tashkil qilishi kutilmoqda.

Mol-mulk solig'ining soliq solish bazasi haqida so'z yuritganda, albatta yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulklaridan olinadigan soliqning soliq solish bazasi tushuniladi. Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ining soliqqa tortish bazasi mol-mulkning tarkibi bilan bevosita bog'liq. Mol-mulk takibidan kelib chiqqan holda yuridik shaxslarning mol-mulklaridan olinadigan soliqning soliq solish bazasi quyidagi tartibda aniqlanadi:

- a) asosiy vositalarning o'rtacha yillik qoldiq qiymati (shu jumladan moliyaviy ijara (lizing) shartnomasi boyicha olingan asosiy vositalar);
- b) nomoddiy aktivlarning o'rtacha yillik qoldiq qiymati;
- v) belgilangan muddatlarda tugallanmagan qurilish ob'ektining o'rtacha yillik qiymati;
- g) meyoriy muddatlarda o'rnatilmagan uskunalarning o'rtacha yillik qiymati hisoblanadi.

Soliq solish bazasida mol-mulkning o'rtacha yillik qoldiq qiymati muhim ahamiyat kasb etar ekan, uni bilish talab qilinadi. Soliq solish ob'ektlarining o'rtacha yillik qoldiq qiymatini aniqlash uchun hisobot davridagi har bir oyning oxirgi kunidagi holatga ko'ra soliq solish ob'ektlarining qoldiq qiymatlari qo'shiladi. Hosil qilingan yig'indi 12 ga bo'linib soliq solish ob'ektining o'rtacha yillik qiymati aniqlanadi. Soliq solish ob'ektining o'rtacha yillik qiymati aniqlanadi quyidagi formuladan foydalanamiz:

$$\begin{array}{rcl} \text{O'rtacha yillik} & 31 \text{ yanvar} & + 28 (29) \text{ fevral} \\ \text{qoldiq qiymati} & = & \hline \end{array} + \dots + 30 \text{ noyabr} + 31 \text{ dekabr}$$

12

Mol-mulk solig'i tushumlarini prognoz ko'rsatkichlariga soliq solish bazasi katta ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari soliq to'lovchilar soni, soliq stavkalarining miqdori ham prognoz ko'rsatkichlarini belgilashda inobatga olinadi.

T/r	To'lovchilar	Soliq solinadigan bazaga nisbatan %larda soliq stavkasi
1.	Yuridik shaxslar	5
2.	O'zi ishlab chiqqagan tovarlar (ishlar, xizmatlar) eksportining erkin almashtiriladigan valyutadagi hissasi quyidagi miqdorlarni tashkil etadigan eksportchi korxonalar uchun:	
	sotishning umumiy hajmida 15 foizdan 30 foizgacha	belgilangan stavka 30%ga pasaytiriladi
	sotishning umumiy hajmida 30 foiz va undan yuqori	belgilangan stavka 50%ga pasaytiriladi

1-rasm. 2016 yilda yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i stavkalari

Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ining stavkalari har yili keyingi moliya yil uchun tasdiqlanadigan asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognози va davlat byudjeti parametrlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori asosida belgilanganadi. 2017 yil 1 yanvardan boshlab yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i stavkasi quyidagi miqdorlarda belgilangan.

Mol-mulkdan olinuvchi soliq tushumlarini prognoz qilishda qanday usuldan foydalansin, tadqiqot uchun tanlangan barcha usullarda ma'lumot yig'ish, ma'lumot manbaalaridan foydalanish zarur bo'ladi. Prognoz tadqiqotining ma'lumot manbaasi bo'lib, soliq to'lovchilar tomonidan taqdim qilinuvchi moliyaviy hisobotlar, soliq hisob-kitoblari, soliq ob'ekti, bazasi va hisob-kitobiga oid ma'lumotlar hisoblanadi.

2-rasmida soliq davri uchun yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq boyicha joriy to'lovlarini hisoblash boyicha ma'lumotnomaning asosiy ko'rsatkichlari keltirilgan.

Ko'rsatkichlar	Summasi
Asosiy vositalar, shu bilan birgalikda moliyaviy ijara (lizing) shartnomasi boyicha olingen asosiy vositalar)ning va nomoddiy aktivlarning xisoblangan o'rtacha yillik qoldiq qiymati	
Soliq stavkasi, %da	
Soliq summasi	
Normativ muddatda tugallanmagan qurilish ob'ektining taxmin qilinayotgan o'rtacha yillik qiymati	
Soliq stavkasi, %da	
Soliq summasi	
Belgilangan muddatda ishga tushirilmagan uskunaning taxmin qilinayotgan o'rtacha yillik qiymati	
Soliq stavkasi, %da	
Soliq summasi	
Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning umumiy summasi	
Har oylik joriy to'lovlar summasi	

2-rasm. Soliq davri uchun yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq boyicha joriy to'lovlarini hisoblash boyicha ma'lumotnoma

Soliq davri uchun yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq boyicha joriy to'lovlarini hisoblash boyicha ma'lumotnoma boyicha prognozlashtirilgan soliq tushumlari yilning oylar, choraklar kesimidagi hajmi hisoblab chiqiladi.

3-rasmda yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq hisob-kitobi asosiy ko'rsatkichlari keltirilgan.

Ko'rsatkichlar	Summa
Asosiy vositalar, shu bilan birgalikda moliyaviy ijara (lizing) shartnomasi boyicha olingen asosiy vositalarning va soliq solinadigan nomoddiy aktivlarning o'rtacha yillik qoldiq qiymati -	
Soliq solinadigan bazaning kamaytirilishi -	
Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblash uchun soliq solinadigan baza	
Belgilangan soliq stavkasi, %	
Tuzatilgan stavka, % -	
Soliq summasi	
Normativ muddatda tugallanmagan qurilish ob'ektining o'rtacha yillik qiymati – Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq hisob-kitobiga 1-ilovaning	
Soliq stavkasi, %da	
Soliq summasi	
Belgilangan muddatda ishga tushirilmagan uskunaning o'rtacha yillik qiymati –	
Soliq stavkasi, %da	
Soliq summasi	
Byudjetga to'lanadigan yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq summasi	
O'tgan hisobot davri uchun hisob-kitob boyicha hisoblangan yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq summasi	
Qo'shimcha to'lashga	
Kamaytirishga	

3-rasm.Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq hisob-kitobi

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq hisob-kitobining asosiy ko'rsatkichlaridan soliq solish bazasining ehtimoldagi, kutilayotgan miqdorini aniqlashda foydalilanadi. Ushbu hisobot ko'rsatkichlari ham joylardagi soliq idoralari tomonidan umumlashtirilib boriladi.

Prognozlashtirilayotgan yilda kutilayotgan soliq bazasini miqdorini hisoblash uchun yuridik shaxslarga teshili mol-mulkarning o'rtacha yillik qoldiq qiymatlari to'g'risidagi ma'lumot zarur

bo'ladi. Bunday ma'lumotlar ham soliq to'lovchilar tomonidan taqdim qilingan hisob-kitob shakllarida mavjud. 4-rasmga qarang.

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq hisob-kitobiga soliq solinadigan ob'ektlarning o'rtacha yillik qoldiq qiymati to'g'risidagi ma'lumotlar statistika idoralaridan, shuningdek soliq to'lovchilarning o'zlaridan ham olinishi mumkin.

Normativ muddatlarda ishga tushirilmagan, qurilishi tugallanmagan ob'ektlar to'g'risidagi ma'lumot soliq to'lovchilar tomonidan soliq idoralariga taqdim qilinadi. 5-rasmga qarang.

Belgilangan muddatlarda ishga tushirilmagan, qurilishi tugallanmagan ob'ektlar qimati mol-mulk solig'ining prognoz ko'rsatkichlariga ta'sir qiluvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Shu sababli, ularning qimatidagi o'zgarish prognoz ko'rsatkchilarini oshishiga yoki pamayishiga sabab bo'lishi mumkin.

Ko'rsatkichlar	yanvar	fevral	mart	(qoldik) qiymat (3-ust+ 4-ust + 5-	oktabr	noyabr	dekabr	O'rtacha yillik (qoldiq) qiymat
Asosiy vositalar:								
Boshlang'ich (tiklash) qiymati -				x				x
Eskirish summasi				x				x
Qoldik (balans) qiymati								
Nomoddiy aktivlar:								
Boshlang'ich qiymati				x				x
Amortizatsiya summasi				x				x
Qoldik (balans) qiymati								
Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning qoldik qiymati - jami								
Normativ muddatda ishga tushirilmagan, qurilishi tugallanmagan ob'ektning qiymati – Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq hisob- kitobiga								
Belgilangan muddatda ishga tushirilmagan uskunaning qiymati – Yuridik shaxslarning mol- mulkiga solinadigan soliq hisob-kitobiga								

4-rasm.Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq hisob-kitobiga soliq solinadigan ob'ektlarning o'rtacha yillik qoldiq qiymati (o'rtacha yillik qiymati) hisob-kitobi

Mol-mulk solig'ining soliq solish bazasi soliq solinmadigan mol-mulk qimatiga kamayadi. Soliq solinmadigan mol-mulklar to'g'risidagi ma'lumot 6-rasmda keltirilgan shaklda soliq idoralariga taqdim qilinadi.

Qurilishi tugallanmagan ob'ektning nomi	Ob'ekt qurilishiga doir loyiha-smeta hujjatlarida belgilangan normativ muddat	Ob'ektni ishga tushirish muddati	Normativ muddatlarda tugallanmagan qurilish qiymati
--	---	-------------------------------------	---

5-rasm.Normativ muddatlarda ishga tushirilmagan, qurilishi tugallanmagan ob'ektlarning royxati

O'tgan yillardagi soliq solinmaydigan mol-mulkning yillik qiymatidagi o'zgarishlar qonuniyatlari tahlil qilinadi. Tahlil natijasida soliq solinmaydigan mol-mulkning kutilayotgan qimati oshishi aniqlansa, prognoz ko'rsatkichlariga tegishli tuzatishlar kiritiladi.

Mol-mulk solig'ining prognoz ko'rstanakichlariga ta'sir qiluvchi yana-bir omil-soliq to'lovchining eksportga mahsulot chiarishi hisoblanadi. Chunki, eksportga mahsulot chiqaruvchilarga mol-mulk solig'i boyicha imtiyoz berilgan.(7-rasmga qarang).

Eksport ulushiga bog'liq holda mol-mulk solig'i stavkasiga kiritilgan tuzatishlar to'g'risidagi ma'lumotlar ham jamlanadi, o'zgarish tendentsiyalari o'rganiladi. O'rganish natijasida prognoz ko'rsatkichlariga tegishli o'zgartirishlar kiritiladi.

Soliq solinmaydigan mol-mulk	Mol-mulkning o'rtacha yillik qoldiq qiymati
Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq boyicha soliq solinadigan bazaning kamaytirilishi	
O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga muvofiq -jami: uy-joy kommunal xo'jaligi ob'ektlari ijtimoiy-madaniy soha ob'ektlari	
yuridik shaxslarning madaniyat muassasalari, maktabgacha va umumta'lim o'kuv muassasalari ehtiyojlari uchun foydalaniladigan mol-mulki	
qishloq xo'jaligi (o'simlikshunoslik, chorvachilik, baliqchilik) mahsulotlarini etishtirish va saqlash uchun foydalaniladigan qishloq xo'jaligi korxonalarini balansida bo'lgan mol-mulk	
sug'orish va kollektor-drenaj tarmoqlari ob'ektlari	
aloqa yo'ldoshlari	
kredit hisobidan olingan asbob-uskuna, uni foydalanishga topshirilgan paytdan boshlab besh yilga, lekin kreditni uzish uchun belgilanganidan ko'p bo'limgan muddatga	
tabiatni muhofaza qilish va sanitariya-tozalash maqsadlari, yong'in xavfsizligi uchun foydalaniladigan ob'ektlar	
tuzilgan shartnomalarga muvofiq yuridik shaxsning buyurtmasi boyicha ishlarni bajarish uchun kasanachilarga bepul foydalanishga berilgan asbob-uskunalar (foydalanish davriga)	
telekommunikatsiyalar tarmoqlarida tezkor-qidiruv tadbirlari tizimi texnik vositalari	
ishlab chiqarishga yangi joriy etilgan yangi texnologik jihozlar, besh yil muddatga	
Normativ-xuquqiy hujjatlarga asosan soliqqa tortiladigan bazaning kamayishi - jami	
shu jumladan:	
Mahalliylashtirilgan mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan asosiy ishlab chiqarish vositalari	

6-rasm.Soliq solinmaydigan mol-mulk royxati

Mol-mulk solig'ini prognoz qilish statistik ma'lumotlar asosida; haqiqatda byudjetga tushgan tushumlar tahlili asosida va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning buxgalteriya ma'lumotlari asosida tashkil qilinishi mumkin. Har-qanday tanlangan usul ekstropolyatsiya(oldingi yillar ma'lumotlar asosida prognoz tadqiqotini amalga oshirish)ga asoslanadi. Olingan ma'lumotlarning birlamchi manbaisi soliq to'lovchi hisoblanadi. Soliq to'lovchi soliq idoralari va statistika idoralari hisobotlar taqdim qiladi. O'z navatida, soliq idoralari va statistika idoralari olingan ma'lumotlarni jamlaydi va guruhlaydi.

Mol-mulk solig'i tushumlarini prognoz qilish uchun haqiqiy erishilgan darajadan kelib chiqib prognoz qilish usulini tanlaymiz. Ushbu usul oldingi hisobot davrlaridagi haqiqatdagi tushumlar tahliliga asoslanadi.

Prognозлаш usuli sifatida regression tahlildan foydalaniladi. Dastlab, quyidagi logarifimik to'g'ri chizziqli regression funktsiyanini tuzamiz.

$Lg O't = Lg Ao + Lg A1$ bunda, A1 , Ao lar regression to'g'ri chizziqli funktsiyaning parametrlari hisoblanadi. Ushbu parametrlarni aniqlash talab qilinadi. A1, Ao parametrlarning qimatini topish uchun quyidagi to'g'ri chizziqli regression tenglamani echish talab qilinadi.

$$\begin{cases} nLgAo + LgA1\sum t = Lgy \\ LgAo \sum t + LgA1 \sum t^2 = \sum tLgy \\ \sum t = 0 \text{ ni inobatga olgan holda} \end{cases}$$

$$LgAo = \frac{\sum Lgy}{n} \quad LgA1 = \frac{\sum tLgy}{\sum t^2} \quad \text{tengligi topiladi.}$$

2-jadvalda ekstropolyatsion tahlil uchun shartli ravishda o'tgan etti yil olindi. O'tgan yillar davomida mol-mulk solig'i tushumining haqiqatdagi miqdorini zanjirli o'sish sru'atlari aniqlandi.

Amalga oshirilgan tadqiqot natijasida $A1 = 0.012029$ ga $Ao = 2.072319$ ga tengligi topildi. $Lg O't = Lg Ao + Lg A1$ formuladan foydalangan hoda mol-mulk solig'i boyicha kutilayotgan prognoz tushumi 131.9576 ga tengligini aniqlaymiz.

Ko'rsatkichlar	Summa
Tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni realizatsiya qilishdan sof tushum	
shu jumladan:	
o'zi ishlab chiqargan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning erkin almashtiriladigan valyuta (EAV)ga eksport qilishdan, shu jumladan:	
o'zi ishlab chiqargan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning erkin almashtiriladigan valyuta (EAV)ga eksport qilishdan (ushbu ilovaga berilgan izohda ko'rsatilgan xom ashya tovarlarini hisobga olmagan holda)*	
Tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni realizatsiya qilishdan sof tushumda o'zi ishlab chihargan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning erkin almashtiriladigan valyuta (EAV)ga eksport tushumining ulushi, %da	
Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning stavkasi, %da	
Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning tuzatilgan stavkasi, %da	

7-rasm.Eksport ulushiga bog'liq holda mol-mulk solig'i stavkasiga tuzatish kiritish

1990 yilda er solig'ining huquqiy asoslari aratildi. O'zbekistonda "Er to'g'risida" Qonun qabul qilindi. Mazkur Qonunga asosan erga egalik qilish va erdan foydalanishning pullik bo'lishi belgilandi. Er uchun to'lovlar yillik er solig'i sifatida undiriladigan bo'ldi.

1991 yilda "Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar to'g'risida", 1993 yilda "Er solig'i to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi. Bu esa er solig'ini amalga joriy qilishning mexanizmini tashkil bo'lishiga olib keldi. 1997 yilda "Soliq kodeksi"ning qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi soliq kodeksining qabul qilinishi er solig'ining mexanizmini takomillashishiga olib keldi. Er solig'i O'zbekiston soliq tizimida mahalliy soliqlar va yig'imlar tarkibiga kiradi hamda mahalliy byudjetlarning barqaror daromad manbai hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida jami er fondi 20014 yilda 44410,3 ming gektarni tashkil etib, shundan 57,8 foizi qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari ixtiyoridagi er maydonlariga to'g'ri kelgan. 2015 yilda esa 57,9 foizi, 2016 yilda 58,2 foizini tashkil qilgan.

Er solig'i o'zining iqtisodiy mohiyatiga ko'ra u renta to'lovidir. Ushbu soliqni er egalari va erdan foydalanuvchi xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyaviy faoliyatining natijalaridan qatiy nazar to'laydilar. Bu esa erdan oqilona foydalanishni rag'batlanirish, tuproq unumdorligini oshirish, sifati turlicha bo'lgan erlarda xo'jalik yuritishning ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarini tenglashtirish, aholi yashaydigan joylarda infrastruktura rivojlanishini ta'minlash hamda erni talon-taroj qilinishiga yo'l qoymaslikga iqtisodiy zamin yaratadi.

O'z mulkida, egaligida yoki foydalanishida er uchastkalariga ega bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar, shu jumladan O'zbekiston Respublikasining norezidentlari er solig'ini to'lovchilari hisoblanishadi. Soliqqa tortishning soddalashtirilgan tartibi asosida soliq to'lovchi yuridik shaxslar – yagona soliq to'lovi to'lovchilari, yagona er solig'ini to'lovchi qishloq ho'jalik korxonalari, tadbirkorlik faoliyatining qat'iy soliq to'lanishi belgilangan yuridik shaxslar er solig'i to'lovchilari hisoblanmadi.

2-jadval

Mol-mulk solig'i tushumini regression tahlili

Yillar	Mol-mulk solig'ining o'sish sur'ati(U)	Lg U	Vaqtni ng shartli belgisi(t)	t*t	t Lg U	Ao	A1	Lg O't	O'(tekisl ashtirilgan darajasi)
1	108,3	2,034628	-3	9	-6,10389	2,072319	0,012029	2,036232	108,7006
2	111,8	2,048442	-2	4	-4,09688	2,072319	0,012029	2,048261	111,7534
3	115,1	2,061075	-1	1	-2,06108	2,072319	0,012029	2,06029	114,892
4	118,5	2,073718	0	0	0	2,072319	0,012029	2,072319	118,1187
5	121,7	2,085291	1	1	2,085291	2,072319	0,012029	2,084348	121,436
6	124,7	2,095866	2	4	4,191733	2,072319	0,012029	2,096376	124,8465
7	128	2,10721	3	9	6,32163	2,072319	0,012029	2,108405	128,3528
Jami	828,1	14,50623	0	28	0,336809	2,072319	0,012029	14,50623	828,1002
Prognoz yil uchun kutilayotgan miqdor			4			2,072319	0,012029	2,120434	131,9576

Erga nisbatan mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yuridik shaxslarga tegishli bo'lgan er uchastkalari soliq solish ob'ekti hisoblanadi.

Soliq solinmaydigan er uchastkalari maydonlarini chegirib tashlash orqali soliq solinadigan baza aniqlanadi. Boshqa soliq turularidan farqli, er solig'ining soliq solish ob'ekti va soliq solish bazasining oshish darajasi chegaralangan hisoblanadi. Chunki, er solig'ining soliq solish ob'eti va bazasi respublikamizning er resurslari bilan bog'liq. Shu sababli, er solig'ining prognozlashtirilayotgan yilda oshishiga ko'proq belgilanuvchi soliq stavkalari ta'sir qiladi.

Er solig'ini undirish boyicha belgilanuvchi soliq stavkalari murakkab tarkibga ega. Shu sababli, er solig'i tushumlarini prognoz qilishda soliq stavkalarining kutilayotgan prognoz ko'rsatkichiga ta'sirini hisobga olish murakkab jarayon hisoblanadi.

Er solig'i stavkalari er qiymatidan kelib chiqib belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasida arning bozor qiymati shakllanmaganligi sababli, 1 hektar sug'oriladigan erdan olinadigan dehqonchilik yalpi mahsulotining o'rtacha qiymatidan kelib chiqib, uni shartli baholash amalga oshiriladi.

Er solig'i stavkalarini belgilashda tuproq boniteti (sifati) hisobga olinadi. Bonitetni aniqlashda tuproqning genetik kelib chiqishi, mexanik tarkibi, sho'rланганлик darajasi, tuproq qatlaming suv o'tkaza olishi, zichligi kabi boshqa tabiiy xossalari hisobga olinadi. Tuproq boniteti 100 balli tizimda 10 ta klassga bo'linadi. Baholash setkasiga asosan 1 klass erlar nol balldan 10 ballgacha, 2 klass erlar 11 balldan 20 ballgacha, 3 klass erlar 21 balldan 30 ballgacha va h.k. 10 klass erlar 91 balldan 100 ballgacha baholanadi. Er bonitet balli qancha yuqori bo'lsa soliq stavkasi mos ravishda shuncha yuqori belgilanadi.

Erlardan noqishloq xo'jalik maqsadlarida foydalanadigan yuridik shaxslardan olinadigan er solig'i stavkalari quyidagicha guruhlanadi:

- sug'oriladigan jamoat qishloq xo'jaligi erlari uchun undiriladigan er solig'i stavkalari;
- lalmi ekinzorlar, bo'z erlar va ko'p yillik ko'chatlar uchun undiriladigan er solig'i stavkalari;
- sug'orilmaydigan pichanzorlar va yaylovlar uchun undiriladigan er solig'i stavkalari;
- qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligida foydalanilmaydigan boshqa erlar uchun undiriladigan er solig'i stavkalari;
- Toshkent shahrida er uchastkalaridan foydalanganlik uchun yer solig'i stavkalari;
- shahar va posyolkalardagi er uchastkalaridan olinadigan er solig'i stavkalari;
- qishloq joylarda joylashgan er uchastkalaridan foydalanganlik uchun korxonalar, muassasalar va tashkilotlardan undiriladigan er solig'i stavkalari;
- qishloq joylarda joylashgan yer uchastkalaridan foydalanganlik uchun fuqarolardan undiriladigan er solig'i stavkalari.

Qishloq xo'jalik erlarining sifati er uchastkasi mulkdori, er egasi yoki erdan foydalanuvchining aybi bilan yomonlashgan holatlarda, er solig'i arning sifati yomonlashuviga qadar belgilangan stavkalar boyicha undiriladi.

Shaharlar va shahar qo'rg'onlarining ma'muriy chegaralarida joylashgan qishloq xo'jalik ahamiyatiga molik erlar uchun er solig'i qishloq xo'jalik erlariga belgilangan stavkalarning ikki baravari miqdorida undiriladi.

Yuridik shaxslar foydalanadigan (shu jumladan, er solig'ini to'lashdan ozod etilgan), davlat hokimiyati organlari tomonidan ajratilgan maydonlardan ortiqcha er uchastkalari uchun er solig'i yuridik shaxslar uchun 2,0 koeffitsientini qo'llagan holda to'lanadi.

Er solig'i boyicha oliq tushumlarni prognoz qilishda soliq obekti, soliq solish bazasiga oid ma'lumotlar turli hisobot va hisob-kitob shakllaridan yig'iladi. Qishloq xo'jaligi ahamiyatiga molik bo'limgan erlar uchun to'lanadigan er solig'i hisob-kitobining asosiy ko'rsatkichlari 9-rasmida keltirilgan.

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Er maydoni	Summa
Er uchastkasining umumiyl maydoni	ga		x
Soliq solinmaydigan er maydoni -	ga		x
Soliq solinadigan baza	ga		x
Yil uchun byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan jami soliq summasi	so'm	x	
Shu jumladan:			
I chorak uchun – 15 fevralgacha	so'm	x	
II chorak uchun – 15 maygacha	so'm	x	
III chorak uchun – 15 avgustgacha	so'm	x	
IV chorak uchun – 15 noyabrgacha	so'm	x	

9-rasm.Qishloq xo'jaligi ahamiyatiga molik bo'limgan erlar uchun to'lanadigan er solig'i hisob-kitobi

Jadvalda keltirilgan hisob-kitob shaklidan er uchastkasining umumiyl maydoni, soliq solinmadigan maydo, soliq solinadigan baza, byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan soliq summalarini to'g'risidagi ma'lumotlar jamlanadi.

Qishloq xo'jaligi ahamiyatiga molik erlar uchun to'lanadigan er solig'i hisob-kitobi asosiy ko'rsatkichlari 10-rasmida keltirilgan.

Jadvalda keltirilgan jadval ma'lumotlari asosida er solig'i tushumlarini prognoz qilishda zarur bo'lgan, sug'oriladigan jamoa qishloq xo'jalik erlari, lalmikor ekinzorlar, qo'riq erlar va

sug'orilmaydigan ko'p yillik daraxtlar, sug'orilmaydigan pichanzorlar va yaylovlar maydoni, ularning qimati to'g'risidagi axborotlar umumlashtiriladi.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq tushumlarini prognoz qilish asosida mazkur soliq turining kelajakdagi rivojlanish istiqbollari belgilanadi. O'tgan davrlardagi erishilgan natijalarning dinamik qtorlari tahlil qilinib, ichiki qonuniyatları aniqlanadi. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun belgilangan soliq tushumlarining o'zgarish tendentsiyalari hisobga olingan holda prognozlashtirayotgan davr uchun kutilayotgan soliq tushumi summasi bashorat qilinadi.

Mazkur soliq tushumlarining prognoz ko'rsatkichlariga ta'sir qiluvchi bir qancha omillar mavjud. Shunday omillar qatoriga, uning soliq bazasi, soliq stavkalari, soliq to'lovchilari kiradi. Shu sababli, ushbu omillarning o'zgarish tendentsiyalarini o'rganish prognoz ko'rstakichlarining ilmiylik darajasini yanada oshiradi.

11. MAVZU. “RESURS SOLIQLARNI PROGNOZLASH VA TUSHUMLARGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR ” ЮЗАСИДАН КЕЙСЛАР ТҮПЛАМИ, АМАЛИЙ ТОПШИРИҚЛАР, ИШЛАНМАЛАР

Reja:

3. Mol-mulk solig'ini prognoz qilishning o'ziga xos xususiyatlari
4. Yer solig'ini prognoz qilishning o'ziga xos xususiyatlari

«Aylana sto'l atrofida» muhokama uchun savollar

1. Mol-mulk solig'ining o'ziga xos jihatlari nimadan iborat?
2. Yer solig'ining o'ziga xos jihatlari nimadan iborat?
3. Mol-mulk solig'ini amalga joriy qilinish zarurati nimadan iborat?
4. Mol-mulk solig'ining asosiy ko'rsatkichlariga nimalar kiradi?
5. Yer solig'ining asosiy ko'rsatkichlariga nimalar kiradi?
6. Mol-mulk solig'ini prognozlashni o'ziga xos jihatlari nimadan iborat?
7. Yer solig'i va uni prognozlashni o'ziga xos jihatlari nimadan iborat?
8. Resurs soliqlarni prognozlashda qanday usullardan foydalilanildi?



1-topshiriq.

1-KEYS-STADI Kirish

Tavsiya etilgan keysni yechish quyidagi natijalarga erishishga imkon yaratadi:

- o'zlashtirilgan mavzu bo'yicha bilimlarni mustahkamlash;
- mantiqiy fikrlashni rivojlantirish;
- resurs soliqlarni prognozlash va tushumlarga ta'sir qiluvchi omillar borasida mustaqil ravishda qaror qabul qilish ko'nikmalarini egallash;
- resurs soliqlarni prognozlash va tushumlarga ta'sir qiluvchi omillar uslubiyatini qo'llash qobiliyatini tekshirish.

VAZIYAT

Quyidagi jadvallarda o‘tgan 7 yil davomida mol-mulk solig‘i bo‘yicha soliq tushumlarining o‘sish sur’atlari berilgan. Mazkur ko‘rsatkichdan foydalangan holda, kelgusi 8-yilda mol-mulk solig‘i bo‘yicha kutilayotgan soliq tushumlari miqdorini prognozlashtiring.

1-variant

Ko‘rsatkich	1-yil	2-yil	3-yil	4-yil	5-yil	6-yil	7-yil
Mol-mulk solig‘ining o‘sish sur’ati,%	108,3	111,8	115,1	118,5	121,7	124,7	128

2-variant

Ko‘rsatkich	1-yil	2-yil	3-yil	4-yil	5-yil	6-yil	7-yil
Mol-mulk solig‘ining o‘sish sur’ati,%	109	111	114	116	115	117	120

SAVOLLAR VA TOPSHIRIQLAR:

1.logarifimik to’g‘ri chizziqli regression funktsiyani tuzing.

$$\begin{cases} nLgAo + LgA1 \sum t = Lgy \\ LgAo \sum t + LgA1 \sum t^2 = \sum tLgy \end{cases}$$

teglamalar sistemasidan foydalangan holda regression to’g‘ri chizziqli funktsiyaning A1 , Ao parametrlarini hisoblang.


2.Yuqorida keltirilgan ma’lumotlardan foydalananib, kelgusi 8- yilda mol-mulk solig‘i boyicha soliq tushumini prognoz ko‘rsatkichini hisoblang.

4.Nima deb o‘ylaysiz, qanday makroiqtisodiy omillar prognoz hisobga kitoblariga ta’sir qiladi?

5.Mol-mulk solig‘ining elementlarini o‘zgarishi mazkur soliqni prognozlash hisob kitoblariga qanday ta’sir qiladi?

2-topshiriq.

“Nima uchun” grafik organizayzeri yordamida resurs soliqlarni prognozlash muammosini tahlil qiling.



Foydalaniladigan adabiyotlar royxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiysi to‘g‘risida. 2018 yil 29 iyun. Elektron- huquqiy baza.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 488 b.
3. Mirziyoyev Sh.M.Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 104 b.
4. ta’minalash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 48 b.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Soliq ma’muriyatichilagini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarining yig‘iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. 2017 yil 18 iyul, pf-5116-son. Elektron-huquqiy baza.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy erkinligini oshirish, mahalliy byudjetlarga tushumlarning to‘liqligini ta’minalash bo‘yicha soliq va moliya organlari javobgarligini kuchaytirishga oid qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida. 2017 yil 13 dekabr, PF-5283-son. Elektron-huquqiy baza.
7. Распоряжение Президента Республики Узбекистан. Об организации критического изучения деятельности финансовых, налоговых и таможенных органов. 16 января 2018 г. № р-5182. Электронно-правовая база.
8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini huquqiy tartibga solishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida. 2017 yil 28 avgust, 677-son. LEX.UZ. Elektron-huquqiy baza.
9. Абдуганиева Г.К., Бабабекова Н.Б. Прогнозирование налогов. Учебное пособие. – Т.: “Тафаккур-Бўстони”, 2012. - 224 с.
10. Doschanova N.P. Soliq statistikasi va prognozi. O‘quv qo‘llanma. – Т.: “Ren-Poligraf” bosmaxonasi, 2009. – 216 b.
11. Vahobov A.V,Jo‘rayev A.S Soliqlar va soliqqa tortish.Darslik.T: “Sharq”, 2009. -448 b.
12. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. “Norma” huquqiy bazasi.
13. O‘zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi. “Norma” huquqiy bazasi.
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 iyuldag“Soliq ma’muriyatichilagini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarining yig‘iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5116-sonli Farmoni. Xalq so‘zi» gazetasi. 2017 yil 19 iyuldag 141 (6835)-son.
15. Malikov T.S., Jalilov P.T. Byudjet-soliq siyosati. O‘quv qo‘llanma. – Т.: “Akademnashr”, 2011. - 472 b.
16. Haydarov N.H. Soliqlar va soliqqa tortish masalalari. O‘quv qo‘llanma. AkademiY. - Т.: 2007. - 214 b.;
17. Yax’oyev Q. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. Darslik. Toshkent. 2003. 246 bet.
18. Zavalishina I.A. Soliqlar: nazariya va amalyot. “Iqtisodiyot va huquq dunyosi” nashriyot uyi, 2005. 544 bet.
19. Gadoev E, Kuzieva N. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish. Darslik. – Т.: “O‘zbekiston”, 2012. - 336 b
20. Jo‘rayev A, S. Shirinov. Soliq statistikasi va prognozi: O‘quv qo‘llanma, Т.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2015.-392b.
21. Musagaliyev A. Juridik shaxslarni soliqqa tortishni takomillashtirishning dolzarb masalalari. Soliq akademiyasi. Monografiya, Toshkent: 2010, 116 bet.

22. Tagayev A., Xoshimoto F., Ro‘ziyev G‘., Xotamov K. Soliq nazorati.- T.:O‘quv qo‘llanma, “Yangi asr avlodi”, 2010.
23. A.Xomma, A.Tangirqulov, Sh.Toshmatov, I.Norqo‘ziyev va N.Roziqovlar. Soliq qarzi va uni undirish. O‘quv qo‘llanma. - T.: O‘quv qo‘llanma, “Yangi asr avlodi”, 2011.
24. Forecasting Scottish taxes. The National Archives, Kew, London TW9 4DU. Crown copyright 2017. 25p/(20p.).
25. Federal taxation: practice and procedure. Robert E., Richard J. Chicago, 2017.987p. (252p.).
26. Tax analysis and revenue forecasting. Issues and Techniques. By Glenn P. Jenkins Chun-Yan Kuo Gangadhar P. Shukla. Harvard Institute for International Development Harvard University . 2017. 187 p.(2p.).
27. An Analysis of Tax Revenue Forecast Errors. Martin Keene and Peter Thomson. New Zealand treasury working paper 07/02. 2017.41p.(2p.).
28. Tax policy, Revenue forecasting and economic analysis force. Joshua Goldstain, assistant director. Office of management and budget. The City of New York. 2017. 308p.(39p.)

Internet saytlari:

29. www. <http://el.tfi.uz/> - Toshkent moliya instituti elektron kutubxonasi;
30. www. <http://soliq.uz>;
31. www. <http://edu.uz>;
32. www. <http://mf.uz>;
33. www. <http://oxs.uz>;
34. www. <http://norma.uz>;
35. www. <http://lex.uz>;
36. www. <http://my.gov.uz>;
37. www. <http://alleng.ru>;

II.MUSTAQIL TA'LIM MASHG'ULOTLARI

KIRISH

Bozor iqtisodiyotining rivojlanib borishi bilan, iqtisodiyotni regulyatori sifatida soliq tizimining ahamiyati tobora oshib bormoqda. Soliqlar davlat byudjetining hamda davlat maqsadli jamg'armalarining noinflyatsion moliyalashtirish asosiy manbasi bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Bundan tashqari, soliqlar milliy iqtisodiyotda tabirkorlikni rivojlanishiga qulay shart-sharoit yaratuvchi vosita rolini ham bajarmoqda.

Studentlarning mustaqil ta'limi shaklari tarkibida mustaqil ish, referat, kes stadi, ilmiy loyihalar, taqdimotlar faol va samarali qo'llanilib kelinmoqda. Mustaqil ta'limga tayyorlanish vaqtida, talabalar tanlangan mavzu bo'yicha adabiyotlarni o'rganadilar, statistika boshqramalaridan, davlat soliq idoralaridan olingan ma'lumotlarni tahlil qiladilar, ma'lumotlarni taqqoslaydilar, jadvallar tuzadilar, ilmiy asoslangan xulosalar qiladilar. Bu esa talabalarda qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini shakllanishiga, o'quv materiallarini chuqur o'zlashtirilishiga, professional sohada ixtidorli bo'lishga xizmat qiladi.

"Soliq tushumlari hisobi va prognozi" fani bo'yicha mustaqil ta'limni bajarishdan maqsad-kurs bo'yicha o'quv materiallarni chuqur o'zlashtirish, nazariy va amaliy bilimlarni mustahkamlash, kompleks bilimlarni qo'llash borasidagi ijodkolik qobiliyatlarini rivojlantirish, ilmiy tadqiqot mavzusiga oid birlamchi va hisobot hujjatlar bilan ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish.

Mustaqil ta'lim aniq tanlangan mavzu doirasida bajariladi. Ma'ruza o'qituvchisining ruxsati bilan, ayrim ilmiy tadqiqot mavzusiga oid mustaqil ishlarni bajarishda shartli ma'lumotlardan foydalanishga yo'l qo'yiladi.

Mustaqil ta'lim unga qo'yilgan minimal mazmun, 5230800 – "soliqlar va soliqqa tortish" mutaxassisligi bo'yicha, barcha o'quv shakllarida tahsil oluvchi talabalarining tayyorgarlik darajasiga javob berishi kerak.

Mustaqil ta'lim umumi standart talablari asosida rasmiylashtiriladi. Mustaqil ta'limga qo'yilgan umumi talablarga: materialni bayon qilishda mantiqiy ketma-ketlik, argumentlarning ishoniligi, takliflarning aniqligi, xulosalarning isbotlanganligi, tavsiyalarning asoslanganligi.

I. Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni

Mustaqil ta'lim talabaning bajaradigan ilmiy izlanishi bo'lib, soliq tushumlari hisobi va prognozi jarayonini o'rganishda fanning biror bir mavzusini to'laroq o'zlashtiradi va mavzu belgilangan shaklda bajariladi. Mustaqil ishni bajarishdan maqsad, talabaning o'qishi davomida olgan bilimini mustahkamlash, chuqurlashtirish va umumlashtirishdan iboratdir.

Talabalarining mustaqil ta'limidan asosiy maqsad:

- bilimlarni mustahkamlash, chuqurlashtirish, kengaytirish, tizimlashtirish, yangi o'quv materiallarini mustaqil ravishda o'zlashtirish;
- professional xarakterini shakllantirish;
- mustaqil aqliy mehnat qilish ko'nikmalarini shakllantirish;
- mutaxassislikni egallash borasida olib borilayotgan doimiy, maqsadga yo'naltirilgan ishlarini asoslash;
- mustaqil firkirlashini rivojlantirish;
- o'ziga ishnochni, irodalilik xarakterini, o'zi tashkil qila olish qobiliyatini shakllantirish.

Talabalarining mustaqil ta'lim asosiy turlariga quyidagilar kiradi:

- qo'shimcha adabiyotlar o'qish, o'qigan materiallarini konsept qilish;
- normativ-meyoriy hujjatlar bilan tanishish va ularni konsept qilish;
- mashg'ulotlarga doklad tayyorlab, so'zga chiqish;
- mustaqil ish ko'rinishida referatlar tayyorlash;
- vaziatli masalalar va topshiriqlarni yechish;
- individual toposhiriqlarni bajarish;

- prezentatsiyalar tayyorlash;
- jadval, grafik, chizma ko‘rinishidagi tarqatma materiallar tayyorlash.

Mustaqil ta‘limni tashkil etishning mazmuni: talabalar mustaqil ishlari mavzulari kelgusida bajariladigan kurs ishlari va bitiruv malakaviy ishlari mavzulari bilan uzviylikda bajariladi. Mustaqil ta’lim uchun o`quv va ishchi o`quv rejada 26 soat ajratilgan.

Mavzuni yoritish jarayonida soliq statistikasi, soliq tushumlarini prognozlash, davlat byudjeti, davlat byudjeti loyihasini ishlab chiqish va qabul qilish, soliq tushumlari boyicha prognoz ko‘rsatkichlarini bajarilishini ta‘minlashga qaratilgan hamda xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatiga taaluqli va ularni tartibga soluvchi meyoriy hujjatlarni o‘rganishga alohida ahamiyat qaratish lozim. Bunda O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari, Prezident Farmonlari va Qarorlari, Vazirlar Mahkamasi Qarorlarining asosiy mazmuni talabalarga etkazilishi, ularning mavzuga oid qismlaridan ko‘chirmalar tarqatma material sifatida o‘rganilishi tavsiya etiladi. Qonun hujjatlarini o‘rganishda axborot tizimlaridan foydalanish mumkin. Internet saytlari ma’lumotlaridan samarali foydalanish, O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ishlar, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo‘mitasi hamda ularning rasmiy saytlaridan yangi ma’lumotlarni olib foydalanish lozim.

II. Mustaqil ta‘limni bajarilishi

Mustaqil ta‘limni bajarilishi jarayonida turli manbalardan axborotlar yig’ish va ularni jamlashda, yozma ravishda o‘zining fikrini bayon etishda, auditoriya oldida o‘zining ravon nutqi bilan chiqishda talabaning malakasi shakllanadi va oshadi. Talaba kutubxonalarda faqat adabiyotlar bilan ishslashda cheklanmasdan, balki davlat tashkilotlari, statistika boshqarmasi, jurnal, ro’znama va internet saytlari ma’lumotlaridan foydalanishini bilish lozim. Shuningdek, har bir talaba olingen zaruriy ma’lumot va axborotlarni to’g’ri va aniq tahlil qilish muhimdir.

Mustaqil ta‘limni bajarishning keng tarqalgan shakli *taqdimot*dir. Talabalar taqdimotni seminar darslariga tayyorlab kelishlari mumkin. Taqdimotni adabiyotlarni o‘rganib, tanlangan mavzuga chuqur yondashib, o‘z kuzatishlarini ham ishlata bilgan holda tayyorlashlari kerak.

Multimediyali prezentatsiya – bu texnik vositalar hada PowerPoint kabi boshqa dasturidan foydalangan holda taqtimot materiallarini tayyorlash hisoblanadi. PowerPoint dasturida tayyorlangan fayl RRT kengligiga ega bo‘lgan nom bilan xotiraga yoziladi. Bunday fayllarni shaffof plyonkalarga yoki qog‘ozga chop etish yoki proyekcion ekranda demonstratsiya qilish mumkin.

Prezentatsiyalar faqat illyustratsiyali yoki illyustratsiyalar hamda tekstlar bilan birgalikda berilishi mumkin. Mustaqil ta‘lim taqdimot ko‘rinishida bo‘lsa, u Power Point dasturida tayyorlanadi va unda titul varog’i, mavzu, reja va slaydlardan iborat bo‘lishi kerak. Bunday prezentatsiyalar o‘quvchilarning mustaqil ta‘lim olishiga imkon yaratib beradi.

Illiustrativ materiallar o‘z tarkibiga rasmlarni, reproduktiv rasmlarni, chizmalarni, diagrammalarini olish mumkin.

Har bir slayd tugallangan kompozitsiya bo‘lib, ular o‘z sarlovasiga ega bo‘lishi mumkin.

Bundan tashqari, multimediyali prezentatsiyalar animatsion effektga- paydo bo‘lishi, yo‘qolishi xususiyatlari ega bo‘lishi mumkin.

Taqdimot tayyorlash jarayonida talaba adabiyotlar bilan ishslash, turli manbalardan olgan materiallarini umumlashtirish va xulosa qilishga o‘rganadi. Taqdimot tayyorlash uchun talaba, avvalo, fanni nazariy jihatdan puxta o‘zlashtirishi kerak. Tanlab olingen mavzuni yoritish uchun kirish, 3-4 reja tuziladi va shu reja asosida mavzu yoritiladi, 15-20 slaydan iborat bo‘ladi.

Referat tayyorlash. Referat biron bir mavzuning nazariy jihatlarini yoritishga qaratiladi. Shu ma’noda referatlar ilmiy taqiqot ishlarining bir namunasi sifatida o‘zini namoyon qiladi. Talabaga qiyinchilik darjasini uning shaxsiy imkoniyatlari, qobiliyati va bilim darajasiga muvofiq bo‘lgan biror mavzu bo‘yicha referat tayyorlash topshiriladi. Bunda talaba asosiy adabiyotlardan tashqari qo‘srimcha adabiyotlardan (monografiyalar, ilmiy, uslubiy maqolalar, Internetdan olingen ma’lumotlar, elektron kutubxona materiallari va h.k.) foydalanib materiallar yig’adi, tahlil qiladi,

tizimga soladi va mavzu bo'yicha imkon darajasida to'liq, keng ma'lumot berishga harakat qiladi. Zarur hollarda o'qituvchidan maslahat va ko'rsatmalar oladi.

Referatning titul varog'i bo'lib, unda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining, institutning, fakultetning, kafedrning hamda referatmavzusi, muallif familiyasi, ismi, sharifi, rahbari, referanti yozish joyi va vaqtini to'liq ko'rsatiladi.

Keyingi qimlarda referat rejasi: kirish, paragraflar, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ko'rsatiladi.

Kirish, paragraflar, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (KIRISH, XULOSA VA FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI shaklida) bosh harflari bilan yoziladi.

Referatning umumiyyatini 10 betdan kam bo'lmasligi. 20 betdan oshmasligi lozim.

Referat teksti standart formatdagi A4 (210x297 mm) qog'oziga yoziladi. Referat tikilgan holda taqdim qilinadi.

Referat matni standart varoqda 1,5 qator oraliq'ida yozilishi, har bir bet hoshiyasi: yuqorida 2 sm., pastdan 2 sm. va o'ngdan 1,5 sm, chapdan 3 sm bo'lishi, xatboshi besh belgiga teng va bir xilda bo'lishi kerak.

Referat matni "Times New Roman" 14 o'lchamli shriftida, bir yarim intervalda Microsoft Word matni redaktoridan foydalanilgan holda bajariladi. Satr boshi 1,25 oraliqda, havolalar 12 shiriftida berilishi zarur.

Referatning har bir tarkibiy qismi yangi betdan boshlanadi. Paragraf nomidan keyin 2 interval joy tashlanib, matn yozuvini boshlanadi. Betlarni raqamlash kirish qismiga 3 raqami qo'yilib, o'suvchi tartibda rasmiylashtiriladi. Raqam betning pastki qismiga, o'rtasiga qo'yiladi.

Referatning rasmiy qismiga quyidagilar kiradi:

- titul varog'i
- reja
- kirish
- asosiy qism
- xulosa
- foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Kirish – bu qisqa qism bo'lib, unda mavzuga kirish so'zi sifatida bir necha xatboshidan iborat bo'ladi. Bunda mavzuning dolzarbligi, e'tiborga molik jihatlari. Ilmiy ahamiyati bayon qilinadi.

Asosiy qismda pragarf savollarining mazmun mohiyati to'liq yoritiladi. Xususan, unda muammoning mohiyati, muammoga nisbatan bildirilgan turli xil qarashlar va muallifning o'z qarashlari bayon qilinadi.

Xulosa qismida mavzu yuzasidan chiqarilgan asosiy fikr-mulohazalar qisqa tafsilot sifatida bayon qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida muallif referatni tayyorlashda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati keltiriladi.

Mustaqil ta'limni bajarishning yana bir shakli "*Ilmiy loyiha*"dir. Ilmiy loyihami talabalarning ilmiy ish yozishi, tadqiqot o'tkazishini dastlabki shakli sifatida ko'rish mumkin. Ilmiy loyiha (lotincha refero- axborot beryapman) — biror ilmiy asar, o'qilgan kitob, maqola kabilalar mazmunining qisqacha yozma yoki og'zaki bayoni, o'rganilgan ilmiy masalaning natijasi haqidagi axborot, tegishli adabiyot va boshqa manbalar obzorini o'z ichiga olgan ma'lum mavzudagi doklad. Ilmiy loyiha odatda, ilmiy axborot vazifasini o'taydi. Unda muayyan mavzu bilan birgalikda, tegishli ilmiy nazariyalar, xulosalar yoritilishi va tanqid qilinishi mumkin. Ilmiy tadqiqot muassasalari, oliy o'quv yurtlarida ilmiy dokladlar sifatidagi «Ilmiy loyiha»lar keng tarqagan. Odatda talabalarning seminar mashg'ulotlariga tayyorlab keladigan maxsus axborotlari ham «Ilmiy loyiha» deyiladi. Ilmiy loyiha yozish bilan talaba ilmiy adabiyotlar bilan ishlashni, statistic ma'lumotlar va boshqa materiallarni to'plash, ularni qayta ishslash, ya'ni hisob kitob qilish, tahlil qilish, o'rganilayotgan hodisalarga tanqidiy ko'z bilan qarashni, baholashni, nazariyani amaliyot bilan bog'lashni o'rganadi. Ilmiy loyiha mustaqil yozilib, uni yozish qoidalariga amal qilinsa, darslik boyicha savolga tayyorlanib kelib, seminar darslarda so'zga chiqishga qaraganda katta foyda beradi. Talaba «Ilmiy loyiha»da bildirgan o'z fikrini auditoriya oldida himoya qila olishi kerak.

Mustaqil ta'lim bajarilishida talaba bu ishga ijodiy yondoshmog'i kerak. Talabalarni fanini mustaqil o'zlashtirishlari uchun quyidagi talablar qoyilgan:

⊕ mavzuni yoritishda keltirilgan statistik ma'lumotlar aniq va to'g'rilingiga ishonch hosil qilish uchun manbasi ko'rsatilishi shart;

⊕ Ilmiy loyiha tarzda (kompyuterda) yoziladigan bo'lsa (A4 format qog'oz, chap-3 sm, yuqori-2sm, past-2,5 sm, o'ng-1 sm va 14 shriftda, 1 interrervalda yozilishi kerak) 14-15 betdan va taqdimot ko'rinishida 10-15 slayddan iborat bo'lishi kerak, tarqatma materiallar esa 8-10 tadan kam bo'lmasligi lozim.

Case Study – aniq o'quv vaziatini tahlil qilish orqali mustaqil ta'lim amalga oshiriladi. Mazkur o'qitish usuli talabalarning quyidapgi sohalardagi malakasini va ko'nikmalarini oshirishga xizmat qiladi:

- ✓ Muammoni aniqlash, tanlash va hal qilish;
- ✓ Ma'lumotlar bilan ishlash;
- ✓ Ma'lumotlarni tahlil va sintez qilish;
- ✓ Taxmin va xulosalar bilan ishlash;
- ✓ Boshqa kishilarni eshitish va tushinish;
- ✓ Guruhlardan ishlash ko'nikmasi.

Mazkur usul bitta yechimiga ega bo'limgan holatlarni o'rganishga va maqbul yechimni topishga qaratilgan.

- ✓ Yaxshi keys quyidagi talablarga javob berishi kerak:
- ✓ Qo'yilgan aniq maqsadga javob berishi;
- ✓ Yetarli darajada qiyinlikka ega bo'lishi;
- ✓ Bugungi kunda dolzar bo'lishi;
- ✓ Tipik holatni bayon qilishi;
- ✓ Analitik fikirlash qobiliyatni rivojlantirishi;
- ✓ Bir qancha yechimga ega bo'lishi.

III. Mustaqil ta'limni baholash tartibi

Talabalarning reyting asosida baholash tizimida mustaqil ta'limning bajarilishi yakuniy sinov sifatida xizmat qiladi. Albatta, mustaqil ta'limning talabalar tomonidan bajarilish muddati, yozma yoki Ilmiy loyiha ishlariga qoyilgan talabga qay darajada javob berilishi, tavsiya etilgan adabiyotlardan qanday foydalanganligi baholash me'zonida nazarda tutiladi.

Mustaqil ta'limning bajarilishini nazorat qilish va baholash tizimi o'quv guruhi darajasida tashkil etilayotgan ilmiy seminarda, amaliy mashg'ulotlarda, joriy va oraliq nazoratlarda olib boriladi. Mustaqil ta'limlarning baholash me'zoni quyidagicha tashkil etish mumkin: barcha ta'lim yo'nalishidagi talabalar uchun - oraliq nazoratga ishchi dastur boyicha maksimal 34 (24/10) ball belgilangan bo'lib, shundan mustaqil ta'lim soatlarida bajargan ishlari, qilgan taqdimoti hamda iqtisodiy tahlil boyicha berilgan qo'shimcha topshiriqlarni bajarishi uchun maksimal 10 ball ajartilgan. Bu maksimal 10 ball oraliq nazorat o'tkaziladigan vaqtarda ikki marta maksimal 5 ballga ajratilgan holda rasmiylashtiriladi.

Mustaqil ta'lim boyicha talabaning ballarda ifodalangan o'zlashtirishi quyidagi mezonlarga asosan aniqlanadi:

Ball	Baho	Talabaning bilim darajasi
8,6-10,0	A'lo	Mustaqil ta'lim talablari 86-100% bajarilgan, mustaqil ta'lim boyicha bajargan ishlari yuzasidan xulosa va qaror qabul qilish, ijodiy fikrlay olish, mushohada yuritish, mohiyatini tushuntirish, bilish, aytib berish, tasavvurga ega bo'lish.

7,1-8,5	Yaxshi	Mustaqil ta'lif talablari 71-85% bajarilgan, mustaqil ta'lif boyicha bajargan ishlari yuzasidan xulosa va qaror qabul qilish, amalda soliq statistikasi va prognosi uslubiyatlarini qo'llay olish, mohiyatini tushuntirish, bilish, aytib berish, tasavvurga ega bo'lish.
5,5-7,0	Qoniqarli	Mustaqil ta'lif talablari 55-70% bajarilgan, mustaqil ta'lif boyicha bajargan ishlari yuzasidan xulosa va qaror qabul qilish, tasavvurga ega bo'lish.
0-5,4	Qoniqarsiz	Mustaqil ta'lif talablari 54% bajarilgan, mustaqil ta'lif boyicha bajargan ishlari yuzasidan xulosa va qaror qabul qilishda aniq tasavvurga ega emaslik, bilmasslik, shuningdek belgilangan muddat va tartibda mustaqil ta'lifni bajarmaslik.

Talaba yuqori saviyada va mukammal yozgan mustaqil ta'limi bilan kafedra tavsiyasiga binoan fakultet yoki oliy o'quv yurti darajasida o'tkaziladigan talabalarning ilmiy-amaliy anjumanida ishtirok etishi mumkin.

Tavsiya etilaётган mustaqil ishlarning mavzularи

1. Tadbirkorlik subektlarini "bir darcha" tamoyili asosida davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi.
2. O'zbekiston Respublikasi soliq-byudjet tizimi.
3. Byudjet tizimini yanada isloh qilish va takomillashtirishda Byudjet kodeksining ahamiyati.
4. Soliq tushumlari hisobining asosiy prinsiplari va usullari.
5. Soliq to'lovchilarni hisobga olish va soliqqa oid ma'lumotlarni hisobini yuritish.
6. Soliq to'lovchilarga identifikatsion raqam berilishi tartibi.
7. Soliq to'lovchi yuridik shaxslarning shaxsiy kartochkalarini yuritish tartibi.
8. Soliq to'lovchi jismoniy shaxslarning shaxsiy kartochkalarini yuritish tartibi.
9. Soliqlar va boshqa majburiy to'lov larga penya hisoblash tartibi.
10. Byudjet va byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalarga to'lov lari tushumlari hisobini yuritish (1-N dasturiy mahsul) va tahlil qilish tartibi.
11. Soliq va boshqa majburiy to'lov lar bo'yicha soliq hisobotlarini taqdim etish davriyligi, topshirish va to'lash muddatlari.
12. Davlat soliq qo'mitasining yagona integratsiyalangan axborot resurs bazasini shakllantirish va axborot xavfsizligini ta'minlash masalalari.
13. Soliq solish obektlari hamda soliq solish bilan bog'liq obektlar to'g'risidagi ma'lumotlar bazasini shakllantirish va yuritish tartibi.
14. Soliq to'lovchilarga ko'rsatilaётган interaktiv xizmatlar.
15. Byudjet va davlat maqsadli jamg'armalarga kelgusi davr uchun tushumlarni proqnozlashtirish tartibi va uni takomillashtirish masalalari.
16. Soliqlar va boshqa majburiy to'lov lar bo'yicha tushumlarni proqnoz qilish tartibi va usullari.
17. Proqnozlashtirishni tashkil qilishda zaruriy ma'lumotlar va ulardan foydalanish tartibi.
18. Davlat byudjetida soliq tushumlari tahlili va ularning yig'iluvchanlik darajasi.
19. Soliq yuki va uni aniqlash usullari.
20. Davlat soliq xizmati organlarida amaliётga joriy etilgan dasturiy mahsullar va ularning vazifalari.
21. Soliq hisobotini elektron ko'rinishda tuzish va taqdim etish tartibi.

22. Soliq majburiyati va uni bajarish tartibi.
23. Soliq qarzini majburiy undirish usullari.
24. Soliq qarzini to‘lashni kechiktirishning va (èki) bo‘lib-bo‘lib to‘lashning umumiy shartlari.
25. Umidsiz qarz tushunchasi va uni hisobdan chiqarish tartibi.
26. Bankrot korxonalarni tugatish va davlat reyestridan chiqarish tartibi.
27. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ini statistik, moliyaviy va soliq hisobotlari èrdamida prognoz qilish.
28. Qo‘shilgan qiymat solig‘i oborotini aniqlash va uning o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillar tahlili asosida prognozlashtirish.
29. Aksiz solig‘i prognozini tashkil qilishdagi asosiy ko‘rsatkichlar tarkibi.
30. Jismoniy shaxslar daromad solig‘i prognozini tashkil qilish va kerak bo‘lgan ma’lumotlarni jamlash.
31. Tabiiy resurslardan undiriladigan soliqlarning byudjet daromadlarida salmog‘i tahlili va ularni prognoz qilish.
32. Yuridik va jismoniy shaxslardan undiriladigan soliq to‘lovlarining byudjet daromadlaridagi ulushining tahlili.
33. Yagona soliq to‘lovini prognozini amalga oshirish tartibi.
34. Yagona yer solig‘ini prognozini amalga oshirish tartibi.
35. Davlat maqsadli jamg‘armalarga majburiy to‘lovlarini prognozlashtirish tartibi.
36. Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarini prognozlashtirishda soliq qarzi va debtorlik qarzlarini hisobga olish.
37. Soliqlarning yig‘iluvchanligi darajasi va uni aniqlash.
38. Soliq to‘lovlarini prognoz qilishda asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning ta’siri.
39. O‘zbekistonda soliq stavkalarining o‘zgarish dinamikasi va ularning byudjet daromadlarini shakllashtirishga ta’siri.
40. Soliq tushumlarini prognoz qilishda soliq imtièzlari va preferensiyalarini hisobga olish.

III.TALABA PORTFOLIOSI

IV.O'QUV PORTFOLIOSINING TURLARI

V. GLOSSARY

ATAMANING NOMLANISHI			ATAMANING MA’NOSI
O’ZBEK TILIDA NOMLANISHI	INGLIZ TILIDA NOMLANISHI	RUS TILIDA	
“Soliq statistikasi va prognozi” fanning predmeti	The subject of discipline "Tax Statistics and Forecasting"	Predmet dissiplini «Nalogovaya statistika i prognozirovaniye»	Soliq statistiksi va pognozi fanining predmeti bo’lib, jami tasodifi hodisa va voqealarni, ularga ta’sir etuvchi omillarini o’rganish hisoblanadi. Soliq va boshqa majburiy tushumlarga oid statistik ma`lumotlarni tahlil qilish, prognoz ko’rsatkichlarni shakllantirish, belgilangan prognoz ko’rsatkichlarning bajarilishini ta`minlash, soliq tushumlari va boshqa majburiy to’lovlarining davlat soliq idoralarida hisobga olish jarayonlari o’rganish mazkur fanning predmeti mohiyatini yanada kengroq ochadi.
“Prognozlash”	“Forecasting”	«Prognozirovaniye»	Prognozlash - bu ob`ektni yoki xodisani kelajakdagи me`yoriy yoki maqbul holatlari, ularga erishish va ularni royobga chiqarishning alternativ yo’llari to’g’risidagi ehtimolga yaqin tasavvurni ishlab chiqish. Prognozlash oldindan ko’rish formasi bo’lib, ijtimoiy iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy dasturlar va rejalarни ishlab chiqishdan oldin amalga oshiriladi.
Prognozni rejadan farqi	The difference between the forecast and planning.	Otlichiye prognoza ot planirovaniY.	Prognozlashtirish rejalahtirishdan farqli ravishda ishlab chiqilgan prognozni bevosita amaliyotga tadbiq etish vazifasini oldiga qoymaydi. Prognozlar tegishli o’zgarishlarni oldindan ko’rishni o’zida aks ettiradi.
Gipoteza	Hypothesis	Gipoteza	Gipoteza – Umumiylazariya darajasidagi ilmiy asoslangan oldindan ko’rish. Ya’ni, roy berishi yoki bermasligi mumkin bo’lgan hodisani rivojlanishi haqida xulosa qilish. Gipotezaning asosini teoriya, qonuniyatlar, sabab – oqibat bog’lanishlar tashkil qiladi. Gipoteza yordamida umumiylazariytarning sifat xarakteristikalari beriladi.
Reja	Plan	Plan	Reja – maqsadning aniq qoyilishi, tadqiqot qilinayotgan

			ob'ektning holati haqidagi aniq mulohaza qilinishi. Unda rivojlanish yo'llari va vositalari qoyilgan vazifaga mos holda ko'rsatiladi. Rejada qabul qilingan boshqaruv qarori asoslanadi. Uning asosiy farqli jihat - aniqlik va direktivlik.
Eng kichik kvadratlar usuli	Least square method	Metod naimenshix kvadratov	Eng kichik kvadratlar usulining mohiyati shundan iboratki, vaqt qatoridagi dastlabki tochkadan cheklanishni minimallashtiruvchi trend modelini parametrlarini topish
Eksponentsiyal sillqlash usuli	The method of exponential smoothing	Metod eksponensialnogo sglajivaniya	Prognozlashning juda samarali va ishonchli usuli hisoblanadi. Uning yutuq tomoni shundan iboratki, unda dastlabki ma'lumotlarning og'rili hisobga olinadi, oxirgi kuzatuv vaqtida yuzaga kelgan qonuniyat inobatga olinadi.
Trend	Trend	Trend	Tasoddifiy hodisadan holi bo'lgan, vaqt boyicha harakatning asosiy qonuniyatini xarakteristikasini anglatadi.
Retrospeksiya	Retrospection	Retrospeksiya	Prognozlash ob'ektining rivojlanish tarixi tadqiq qilinadi, zarur bo'lgan axborot, manbaalar to'planadi va qayta ishlanadi, axborotlarni va taqdim qilish usullari optimallashtiriladi, prognozlash ob'ektining tuzilmasi va xususiyatlari tarkibi aniqlanadi
Diagnoz	Diagnosis	Diagnoz	Prognozlash ob'ektining rivojlanish tamoyillari aniqlanadi, prognozlash usuli va modeli tanlanib, tahlil qilinadi
Prospektsiya	Prospection	Prospeksiya	Diagnoz ma'lumotlari asosida ob'ektning rivojlanish prognozlarining aniqligi, to'g'riliqi, asoslanganligi baholanadi, ob'ekt modeliga yangi kelgan axborotga muvofiq tuzatish kiritiladi
Prognozlash ob'ektlarining baholash asosi	Evaluation of forecasting object	Osenka obyekta prognozirovaniya	Determinatsiyalik va noaniqlik jihatlari qo'shilib ketishiga asoslanadi. Ularning biri bo'lmasa, u ma'nosini yo'qotadi. Mutloq determinism holatida qarorlarni muqobililik asosida tanlab olish imkoniyati yo'qoladi. Mutloq noaniqlik holatida kelajakni aniq tasavvur etish bo'lmaydi.

Formallashgan metodlar:	Formal methods	Formalizovanniye metodi	Formallashgan metodlar: -Ekstropolyatsiya -Korrelyatsiya va regressiya tahlili usuli -Matematik modellashtirish ususli
Kollektiv ekspert baholari metodi	Collective methods	Kollektivniye metodi	Kollektiv ekspert baholari metodi: -Komissiyalar metodi -”Delfi” modeli -Kollektiv bo’lib g’oyalar yaratish metodi(aqliy hujum)
Individual ekspert baholari metodi	Individual methods	Individualniye metodi	Individual ekspert baholari metodi: -“Intervyu” metodi -Tahliliy metod -Stsenariy tuzish
Soliq hisoboti	Tax reporting	Nalogovaya otchetnost	Soliq hisoboti soliq to’lovchining soliq va boshqa majburiy to’lovning har bir turi boyicha yoki to’langan daromadlar boyicha hisob-kitoblar hamda soliq deklaratsiyalarini, shuningdek hisob-kitoblarga va soliq deklaratsiyalariga doir ilovalarni o’z ichiga oladigan hujjati
Soliqlarni hisoblash jarayoni	The process of calculating taxes.	Prosess ischisleniya nalogov.	Soliqlarni hisoblash jarayoni besh bosqichdan iborat: soliq ob’ektini aniqlash; soliq solish bazasini aniqlash; soliq stavkasini aniqlash; soliq imtiyozini qo’llash; soliqni hisoblash.
Soliq solish ob’ektlarini to’g’ridan-to’g’ri hisobga olish usuli	Direct methods of accounting objects of taxation.	Pryamiye metodi ucheta obyektor nalogoblojeniY.	To’g’ridan-to’g’ri hisobga olish usuli qo’llanilganda daromadlar, xarajatlar va soliq solishning boshqa ob’ektlari yoki soliq solish bilan bog’liq ob’ektlar faoliyatning qaysi turi amalga oshirilishi bilan bog’liq bo’lsa, shu turga kiritiladi.
Hisoblash usuli	accrual method	Metod nachisleniya	Hisoblash usulida daromad va xarajatlar ish bajarilgan, xizmat ko’rsatilgan, tovar ortilgan va mulk qabul qilingan sanada hisobga olinadi.
Deklaratsiya asosida soliqqa tortiladigan O’zbekiston Respublikasi rezidentlarining daromadlari	Income residents of the Republic of Uzbekistan, taxable on the basis of the declaration.	Doxodi rezidentov Respubliki Uzbekistan, oblagayemiye na osnovanii deklarasii.	Deklaratsiya asosida soliq solinadigan daromadlarga O’zbekiston Respublikasi rezidentlarining quyidagi daromadlari kiradi: mulkiy daromadlar, agar bu daromadlarga to’lov manbaida soliq solinmagan bo’lsa; fan, adabiyot va san’at asarlarini

			<p>yaratganlik hamda ulardan foydalanganlik uchun mualliflik haqi tariqasida olingen daromadlar; asosiy bo'lмаган ish joyidan olingen moddiy naf tarzidagi daromadlar; ikki yoki undan ko'п manbadan olingen soliq solinadigan daromadlar; O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqaridagi manbalardan olingen daromadlar; soliq agentlari bo'lмаган manbalardan olingen daromadlar.</p>
Soliq elementlari	tax items.	Elementi nalogov.	<p>Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning elementlari quyidagilardir:</p> <ul style="list-style-type: none"> soliq solish ob'ekti; soliq solinadigan baza; stavka; hisoblab chiqarish tartibi; soliq davri; soliq hisobotini taqdim etish tartibi; to'lash tartibi.
Soliq solish bazasi	The tax base.	Nalogooblagayemaya baza.	<p>Soliq solinadigan baza soliq solish ob'ektining soliq yoki boshqa majburiy to'loving stavkasi tatbiqan belgilangan ko'rsatkichlardi qiymat, miqdor, fizik va boshqa tavsiflarini ifodalarydi.</p>
Soliq stavkasi	Tax rate.	Nalogavaya stavka.	<p>Stavka soliq solinadigan bazaning o'Ichov birligiga nisbatan hisoblanadigan foizlardagi yoki mutlaq summadagi miqdorni ifodalarydi.</p> <p>Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan belgilanadi.</p>
Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar boyicha imtiyozlar	Incentives on taxes and other obligatory payments.	Lgotami po nalogam i drugim obyazatenim platejam.	<p>Boshqa soliq to'lovchilarga nisbatan ayrim toifadagi soliq to'lovchilarga beriladigan afzalliklar, shu jumladan soliq va (yoki) boshqa majburiy to'lov to'lamaslik yoxud ularni kamroq miqdorda to'lash imkoniyati soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar boyicha imtiyozlar deb e'tirof etiladi.</p>
Davlat byudjetini daromad qismini progozlash maqsadi	The purpose of budgetary forecasting	Sel byudjetnogo prognozirovaniya	<p>Davlat byudjetini daromad qismini progozlash deganda byudjetning barcha daromad manbaalari boyicha progoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqish, soliq tizimi va soliq mexanizmning kelajagi bilan bog'liq qarorlarni ishlab chiqish tushuniladi. Progozlash jarayonida soliq siyosatining</p>

			kontseptsiyasi ishlab chiqiladi.
Byudjet daromadlari	Budget revenues	Doxodi byudjeta	Davlat Hokimiyati va mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlarining ixtiyoriga, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga asosan, qaytarmaslik sharti bilan kelib tushuvchi pul mablag'lari
Daromadlarni prognozlashtirish jarayoni	The process of forecasting revenues.	Prosess prognozirovaniya doxodov.	Davlat byudjetining daromad qismini prognozlashtirish jarayoni O'zbekiston Respublikasi soliq va byudjet qonunchiligi normalari asosida tashkil qilinadi. Daromadlarni prognozlashtirish- davlatning soliq va byudjet siyosatining muhim elementi hisoblanadi.
Regressiv va korrelyatsion usullar	Regression and correlation methods.	Regressivniye i korrelyasionniye metodi.	Regressiv va korrelyatsion usullar soliq xizmatini xarakterlovchi guruqlar o'rtasidagi iqtisodiy manfaatlarni, bog'lanishni aniqlash uchun foydalaniлади.
Prognozlashtirish usullari	Forecasting methods.	Metodi prognozirovaniY.	Prognozlashtirilayotgan ob'ektning ichki va tashqi aloqlari haqidagi retrospektiv ma'lumotlarni tahlili asosida prognoz ob'ektining kelajakdagi rivojlanishiga. Ilmiy asoslangan holda baho berish usullar majmuasi.
Statistik usullar	Statistical methods	Statisticheskiye metodi	Prognoz qilinayotgan sotsial-iqtisodiy hodisalarining o'zaro aloqlarida, dinmikasida, tarkibida mavjud sonli qonuniyatlarni aniqlashga yo'naltirilgan, ma'lumotlarni qayta ishlash usullari
Ekstropolyatsiya usuli	extrapolation method	Metod ekstrapolyasiya	Ekstrapolyatsiya – bu o'tgan davrlarga aloqador bo'lgan tendentsiyalarni ilmiy tadqiq qilib, aniqlangan tendentsiyalardan prognoz ob'ektini kelajakdagi holatiga baho berishda foydalaniлади
Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyati	The obligation to pay taxes and other obligatory payments.	Obyazatelstvo po uplate nalogov i drugix obyazatelnix platejey.	Soliq to'lovchining muayyan soliq yoki boshqa majburiy to'lovnii to'lash, shuningdek mavjud soliq qarzini uzish majburiyati soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyati deb hisoblanadi.
Soliq qarzini to'lashni kechiktirish	Deferral or payment by installments of tax debt.	Otsrochka ili rassrochka uplati nalogovoy zadoljennosti.	Soliq qarzini to'lashni kechiktirish vaqtinchalik moliyaviy qiyinchilikka ega bo'lgan korxonalariga davlat tomonidan yordam ko'rsatish maqsadida to'lash muddatini soliq to'lovchi qarz summasini

			bir yo'la yoki bosqichma-bosqich to'lagan holda keyinroq muddatga ko'chirishdan iboratdir.
Ortiqcha to'langan soliq summasi	The amount of overpaid tax.	Summa izlishne uplachennogo naloga.	Soliqning byudjetga to'langan hamda to'lash uchun hisoblangan summasi o'rtasidagi ijobjiy farq soliqning ortiqcha to'langan summasi deb e'tirof etiladi.
Soliq qarzini majburiy undirish choralar	Measures enforcement of tax arrears.	Meri prinuditelnogo vziskaniya nalogovoy zadoljennosti.	Soliq qarzini majburiy undirish choralariga quyidagilar kiradi: soliq qarzini soliq to'lovchining bankdagi hisobvaraqlaridan so'zsiz undirish; undiruvni soliq to'lovchiga uning debtiorlari o'tkazishi lozim bo'lgan summalarga qaratish; undiruvni soliq to'lovchining mol-mulkiga qaratish.
Soliq organining inkasso topshiriqnomalari	Collection orders of the tax authority.	Inkassoviye porucheniya nalogovogo organa.	Soliq qarzi summasini o'tkazish to'g'risidagi inkasso topshiriqnomalari soliq va boshqa majburiy to'lovlarни to'lash muddati tugaganidan keyin uch ish kunidan kechiktirmay, yakka tartibdagi tadbirkorlarga esa, o'ttiz kundan kechiktirmay davlat soliq xizmati organlari tomonidan taqdim etiladi

VI.ILOVALAR

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

Рўйхатга олниди:
№ 50-5230800-4.04
2016 йил "О^р" 01



СОЛИҚ ТУШУМЛАРИ ЖИСОБИ ВА ПРОГНОЗИ
ФАН ДАСТУРИ

- Билим соҳаси: 200 000 – Ижтимоий соҳа, иқтисод ва хуқуқ
Таълим соҳаси: 230 000 – Иқтисод
Таълим йўналиши: 5230800 – Соликлар ва соликка тортиш

Тошкент – 2016

Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта маҳсус таълим вазирлигининг
2016 йил “22” 01 даги “26”-сонли бўйрганинг 2-иловаси билан
фан дастури рўйхати тасдиқланган.

Фан дастури Олий ва ўрта маҳсус, касб-хунар таълимий йўналишлари
бўйича Ўкув-услубий бирланмалар фаолиятини Мувоғиқлаштирувчи
Кенгашининг 2016 йил “04” 01 даги 1-сонли баённомаси билан
мъкулланган.

Фан дастури Солик академиясида ишлаб чиқилди

Тузувчилар:

- | | | |
|-------------|---|---|
| Ф.Мирзаев | — | “Соликлар ва соликка тортиши кафедраси”
мудири, в.в.б., и.ф.и. |
| Ф. Бозорова | — | “Соликлар ва соликка тортиши кафедраси”
ўқитувчиси |

Такризчилар:

- | | | |
|-------------|---|---|
| К.Джўраева | — | “Информацион технологиялар” кафедраси
мудири, и.ф.и. |
| Ф.Бабажанов | — | Давлат солик кўмитаси Солик солиш
методологияси бошқармаси давлат солик бош
инспектори. |

Фан дастури Солик академияси Кенгашида кўриб чиқилган ва тавсия
килинган(2015 йил “31” 08 даги 1-сонли баённома).

KIRISH

Ushbu dasturda “Soliq tushumlari hisobi va prognozi” fanining mazmuni, predmeti va mohiyati, uning maqsadi va vazifalari, O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining yagona reyestriga soliq to‘lovchilarni hisobga kiritishning huquqiy va tashkiliy asoslari, soliq to‘lovchilarning soliq obyektlari bo‘yicha shaxsiy kartochkalarini yuritish, davlat soliq xizmati idoralarida to‘langan soliqlar va majburiy ajratmalarning umumiy hisobini yuritish va jamlanma hisobotlarni shakllantirish, soliq majburiyatini bajarilishini ta’minlash, byudjetga tushumlarni hisobini yuritish va tahlil qilish asosida davlat byudjetining prognozini ishlab chiqish, prognozlashtirish usullari orqali bevosita, bilvosita, resurs soliqlari va majburiy ajratmalarga uzoq va yaqin muddatlarga tushumlar prognози hisobkitobi yuzasidan ishlarini tashkil etish kabi mavzular uzviylik va uzlusizlik nuqtai-nazaridan mantiqiy ketma-ketlikda o‘z aksini topgan. “Soliq tushumlari hisobi va prognozi” fanini chuqur o‘rganish tegishli sohalar muammolarini hal qilishda muhim rol o‘ynaydi.

Fanining maqsad va vazifalari

Fanni o‘qitishdan maqsad – talabalarda O‘zbekistonda iqtisodiètni modernizasiyalash va diversifikasiyalash sharoitida soliq to‘lovchilarni soliq organlarida hisobga olish, ularning hisobini olib borish, soliqlar bo‘yicha va xo‘jalik yurituvchi subyektlar bo‘yicha shaxsiy kartochkalarining yuritilishi, soliq organlarida soliq tushumlari hisobini yuritish va ularga asosan tuziladigan hisobotlar, soliq qarzlarini tahlilini olib borish, soliqlar tushumining tahlili va tahlil ma’lumotlari asosida soliqlarni prognoz qilish bo‘yicha yo‘nalish sohasiga mos bilim, ko‘nikma va malaka shakllantirishdir.

Fanning vazifasi – uni o‘rganuvchilarga:

- davlat soliq xizmati organlarida soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar tushumini hisobga olish va hisobotlar tuzish;
- ma’lumotlarni jamlash;
- tahlil qilish;
- xulosa va takliflar ishlab chiqish;
- soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha tushumlarni prognoz qilish usullarini o‘rgatishdan iborat.

Fan bo‘yicha talabalarining tasavvur, bilim, ko‘nikma va malakalariga qo‘yiladigan talablar

- “Soliq tushumlari hisobi va prognozi” o‘quv fanini o‘zlashtirish jaraènida bakalavr;
- soliq tushumlari hisobi va prognozi tushunchasi;
- statistikaning asosiy tamoyillari;
- mutloq va nisbiy ko‘rsatkichlar;
- prognoz qilishda qo‘llaniladigan elementlar;
- soliqqa tortiladigan baza va uning elementlari;
- tadbirdorlik subyektlarini ro‘yxatdan o‘tkazish;
- soliq to‘lovchiga identifikasiya raqamini berish tartibi haqida **tasavvurga ega bo‘lishi**;
- statistik kuzatishni;
- kuzatish èrdamida aniqlangan ma’lumotlarini jamlashni;
- ma’lumotlarini guruhashni;
- umumlashtiruvchi ko‘rsatkichlarni hisoblashni;
- dinamik qatorlarni tuzishni;
- soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar hisobini yuritishni;
- soliq tushumlarni tahlil qilishni;
- tahlil natijalaridan foydalana olishni;
- prognoz qilish tartibi va usullarini **bilishi va ulardan foydalana olishi**;
- soliq va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha tushumlarni hisobini yuritish,
- soliq sohasida mayjud hodisa va jaraènlarni tahlil qilish usullarini qo‘llash,

- soliq to‘lovchilarni ro‘yxatga olish va hisobini yuritish,
- soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha tushumlarni proqnoz qilish,
- shaxsiy hisob varaqalar ma’lumotlaridan proqnozlashtirishda foydalanish **ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak;**

Soliq hisobotlarini tahlil qila olish;

Byudjet tasnifi bilan ishslash;

Tushumlar asosida jamlanma hisobotlarni tayेrlash;

Ekonometrik modellarni proqnozlashtirishga tadbiq etib bilish **malakalariga ega bo‘lishi kerak.**

Fanning o‘quv rejadagi boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi va uslubiy jihatdan uzviyligi

“Soliq tushumlari hisobi va proqnozi” fani ixtisoslik fani hisoblanib, “Soliqlar va soliqqa tortish” bakalavriat ta’lim yo‘nalishida o‘qitiladi. Mazkur fan boshqa iqtisodiy fanlar (Moliya, Statistika, Iqtisodiy nazariya, Soliq nazariyasi, Yuridik shaxslarni soliqqa tortish, Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish, Soliq ma’murchiligi va nazorati, Soliq tizimida dasturiy mahsullar, Soliq va boshqa majburiy to‘lovlar hisobi, Buxgalteriya hisobi, Audit va h.k.) bilan uzviy bog‘liqidir. U tadqiqot usullari bo‘yicha boshqa ijtimoiy va matematika (Falsafa, Iqtisodiy-matematik usullar va modellar, ehtimollar nazariyasi va matematik statistika) fanlari bilan ham mustahkam bog‘liqidir.

Fanning ilm-fan va ishlab chiqarishdagi o‘rni

“Soliq tushumlari hisobi va proqnozi” fani soliq to‘lovchilarni hisobga olish, ular to‘laётgan soliqlar va majburiy to‘lovlarning hisobini yuritish, davlatimizning iqtisodiy tayanchi bo‘lgan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni yig‘ish, soliq obyektlarini aniqlash, soliq to‘lovchilar bo‘yicha hamda alohida soliqlar va boshqa majburiy to‘lov turlari bo‘yicha shaxsiy hisob kartochkalarining yuritilishi, soliqlar tushumi bo‘yicha hisobotlar tuzish ularga kiritiladigan ma’lumotlarni o‘rganish uchun ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Shuningdek, ushbu fan hisob ma’lumotlarining tahlili asosida kelgusi yilga byudjet daromadlarini proqnoz qilish, davlat daromadlarini shakllantirishda, soliq tizimining ajralmas bo‘g‘ini ishlab chiqarishni tashkil qilishda va boshqarishda muhim o‘rinni egallaydi.

Fani o‘qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Talaba “Soliq tushumlari hisobi va proqnozi” fanini o‘zlashtirishlari uchun o‘qitishning ilg‘or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informasion-pedagogik texnologiyalarni tatbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o‘zlashtirishda darslik, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar, ma’ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallar, keys- texnologiyalaridan foydalilanadi. Ma’ruza va seminar mashg‘ulotlarida o‘qitishning interaktiv usullari (aqliy xujum, vizual, muammoli, mualliflik ma’ruzalari, ikki tomonlama tahlil, insert, klaster, «Venna» va boshqalar)dan foydalilanadi.

ASOSIY QISM

Fanning nazariy mashg‘ulotlari mazmuni

Soliq tushumlari hisobi va proqnozi fanining maqsadi, predmeti va vazifalari

Soliq tushumlari hisobi va proqnozi fanining tushunchasi, maqsadi, predmeti va vazifalari. Iqtisodiёtni modernizasiya qilish va soliq tizimida ro‘y beraётgan hodisa va jaraёнlarni ifodalashda soliq tushumlari hisobini olib borishning ahamiyati.

Soliq tushumlari hisobi va proqnozi fanining boshqa fanlar bilan bog‘liqligi. Soliq tushumlari hisobi va proqnozining tashkil etilishi. Soliq tushumlari hisobi va proqnozining asosiy prinsiplari.

Statistik kuzatish shakkllari. Statistik kuzatish turlari. Kuzatish materiallarini jamlash; svodkalash va guruhlash. Statistik ko‘rsatkichlar ta’rifi. Mutloq va nisbiy ko‘rsatkichlar, proqnozlashtirish metodlari va modellari.

Soliq to‘lovchilarni hisobga olish va davlat soliq xizmati organlarida soliq to‘lovchilar bo‘yicha yagona reyestr yuritish, shuningdek davlat soliq xizmati idoralarida axborot-kommunikasiya tizimi faoliyatini samaradorligini oshirish

Soliq to‘lovchilarni hisobga olish, ularga identifikasiya raqamini berish tartibi va soliqqa oid tushumlar bo‘yicha tezkor buxgalteriya hisobini yuritish. Soliq solish obyektlari hamda soliq solish bilan bog‘liq obyektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar bazasini shakllantirish va yuritish tartibi. Soliq va boshqa majburiy to‘lovlari bo‘yicha soliq hisobotlarini taqdim etish davriyligi, topshirish va to‘lash muddatları. Byudjet va byudjetdan tashqari davlat maqsadli jamg‘armalarga to‘lovlari tushumlari va imtièzlar hisobini yuritishda foydalaniladigan dasturiy mahsullar Soliq to‘lovchilarga ko‘rsatilaётган interaktiv soliq xizmat turlari.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining Ma’lumotlarni qayta ishslash va soliqqa oid axborotlarni saqlash markazi va uning vazifalari. Yagona integrasiyalangan axborot resurs bazasining shakllantirilishi va axborot xavfsizligini ta’minalash. Soliq to‘lovchilarning majburiyatları yuzaga kelganligi to‘g‘risida axborot taqdim etadigan organ va tashkilotlar hamda ular taqdim etadigan ma’lumotlar.

Soliq solish obyektlari hamda soliq solish bilan bog‘liq obyektlar bo‘yicha ma’lumotlar bazasini shakllantirish va yuritish tartibi

Soliq obyekti tushunchasi va uni aniqlashda ta’sir qiluvchi omillar tahlili.

Soliqqa tortiladigan baza va uni aniqlash usullari. Soliqqa tortiladigan baza elementlariga ta’sir etuvchi omillar. Xo‘jalik subyektlari son va sifat jihatidan o‘zgarishining soliq bazasi hajmiga ta’siri.

Soliq solish obyektlari bo‘yicha ma’lumotlar bazasini shakllantirish va yuritish tartibi. Soliq solish bilan bogliq obyektlar bo‘yicha ma’lumotlar bazasiga kiritishda ichki va tashqi manbalar. Soliq solish obyekti bo‘yicha ro‘yxatga olish ishlarini davlat soliq idoralarida tashkillashtirish tartibi.

Soliq solish obyektlarini kengaytirish va qo‘srimcha manbalarni aniqlashda dasturiy mahsullarning ahamiyati.

Davlat soliq xizmati organlarida soliq to‘lovchilarning shaxsiy kartochkalarini yuritish tartibi

Soliq to‘lovchining shaxsiy kartochkasi to‘g‘risida tushuncha va uning tuzilishi. Soliq to‘lovchi yuridik va jismoniy shaxslarning shaxsiy kartochkalarini yuritish tartibi. SHaxsiy kartochkalarga umumiyligi tartibda kiritiladigan ma’lumotlar. Soliq to‘lovchilar tomonidan taqdim etilgan hisobotlar va ularni shaxsiy kartochkalarda aks ettirish. Soliq tekshiruvlari natijasida hisoblangan jarimalar hisobini yuritish. Yakka tartibdagagi tadbirdorlarning shaxsiy kartochkalarini yuritish tartibi.

Undiruvni soliq to‘lovchining mol-mulkiga qaratilish hisobidan tushgan summalarini shaxsiy kartochkalarda aks ettirish. Soliqlar bo‘yicha ortiqcha to‘lovlari hisobini yuritish va soliq to‘lovchiga qaytarilgan mablaglarni shaxsiy kartochkalarda aks ettirish tartibi.

Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarga penya hisoblash tartibi. Faoliyatini to‘xtatgan soliq to‘lovchilar hisobini yuritish va shaxsiy kartochkalarning yuritilishi ustidan nazorat olib borish va javobgarlik chorralari.

Davlat soliq xizmati idoralarida to‘langan soliqlar va majburiy to‘lovlari bo‘yicha yigiladigan jamlanma hisobotlar va ularni shakllantirish tartibi

Davlat byudjetiga to‘langan soliqlar va ular to‘lanadigan hisobvaraqlar. Byudjet daromadlari klassifikatori. Soliq va majburiy ajratmalarga tushumlarning guruhanishi va byudjetlararo taqsimlanishi nisbatlari. Byudjet tushumlarini aks ettiruvchi hisobvaraqlar. Pensiya jamgarmasiga tushumlarni aks ettiruvchi hisobvaraqlar. Pespublika yul jamgarmasi va boshqa jamgarmalarga tushumlarni aks ettiruvchi hisobvaraqlar.

Soliq to‘lovchilarning turlari bo‘yicha to‘langan soliqlarning banklar tomonidan balans hisobvaraqlarning shaxsiy hisob raqamlariga kirish qilinishi va davlat soliq idoralariga tushumlar bo‘yicha ma’lumotlarning taqdim etilishi.

1-N dasturiy mahsuli. 1N-B, 1N-PF, 1N-YF, 1N-MF jamlanma hisobotlarni shakllantirish. Solishtirma dalolatnomalar, ularni tuzish va byudjet tushumlarini nazorat qiluvchi idoralar urtasida tasdiqlanishi.

Soliq to‘lovchilar tomonidan soliq majburiyatini bajarish tartibi va soliq qarzini undirishni tashkil etish

Soliq majburiyatini bajarishning umumiy qoidalari.Soliq qarzdorligini kelib chiqish sabablari. Soliq hisoboti. Soliq to‘lovchi tomonidan hisobotlarni va aniqlashtirilgan hisobotlarni taqdim etish tartiblari. Soliq qarzini to‘lashni kechiktirish, bo‘lib-bo‘lib to‘lash.

Soliq qarzini undirishning umumiy asoslari.Qarzdorga beriladigan to‘lov talabnomasi,uni ijro etish muddatlari.Soliq qarzdorligini soliq to‘lovchining hisob varaqlaridan so‘zsiz undirish,debitorga qaratish,sudga da’vo ariza kiritish tartibi.

Qarzdorni bankrot deb toppish bo‘yicha sudga da’vo ariza kiritish tartibi. Bankrot deb topilgan korxonalarning hisobini yuritish.

O‘zbekiston Respublikasi byudjet tizimi, byudjet jaraèni hamda byudjet prognozini ishlab chiqish asoslari

Davlat byudjeti tushunchasi,O‘zbekiston Respublikasi byudjet tizimi va unu shakllantirish manbalari.Byudjet dotasiysi, ssudasi,subvensiyasi, ularning farqli jihatlari.Byudjet profisiti va defisiti.

Davlat byudjetini prognozlash.Prognozlashtirish turlari. Prognozlashtirishning ekstropoliya,yekspert baholash,biriktilgan metodlari.

Asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni tahlil qilgan holda byudjet daromadlarini prognozlashtirish.Davlat byudjeti loyihasini tuzish taqdim etish va tasdiqlash tartibi.

Byudjet va byudjetdan tashqari maqsadli jamgarmalarga tushumlarni tahlil qilish va prognozlashtirish tartibi

Byudjet va byudjetdan tashqari jamgarmalarga tushumlarni prognozlash. Modellashtirishning ekonometrik, deterministik usullari.Tushumlarni tahlil qilishning regression va korreliasion metodlari.

Soliq potensiali va soliq yukini hisoblash.Tushumlarni DSB va DSI pogonasida tahlil qilish.

Tushumlar dinamikasi tahlili.Reja bajarilishi nisbiy miqdori. Reja bajarilishining dinamika nisbiy miqdori. Intensivlik nisbiy miqdori. Absolyut o‘sish.Bazisli absolyut o‘sish,zanjirli absolyut o‘sish.

Soliq organi xodimlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishini ta’minlashdagi chora-tadbirlari.

Bevosita soliqlarni prognozlash va tushumlarga ta’sir qiluvchi omillar

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i tushunchasi, davlat byudjetining daromad qismidagi ulushi. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini prognoz qilishning mohiyati. Soliq to‘lovchilari va ularning sonining o‘zgarishi, soliq tushumlari hajmining o‘zgarishiga ta’siri.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i tushunchasi, byudjetning daromad qismini shakllantirishdagi o‘rni. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i to‘lovchilari. Soliq to‘lovchilarning sonini o‘zgarishi bilan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i tushumlarini o‘zgarishning bog‘liqligi. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ini prognoz qilish usullari. Prognozlashtirish uchun kerak bo‘lgan ma’lumotlarni jamlash.

Soliqni prognozlashtirishda soliq qarzi va debtorlik qarzlarini hisobga olish. Soliq organi xodimlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishini ta’minlashdagi chora-tadbirlari. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i hisobini yuritishda dasturiy mahsullardan foydalanish.

Bilvosita soliqlarni prognozlash va tushumlarga ta’sir qiluvchi omillar

Aksiz solig‘i va davlat byudjetining daromad qismidagi ulushi. Aksiz solig‘ini prognozlashtirishning mohiyati. Aksiz solig‘i to‘lovchilari va ular sonining o‘zgarishi soliq tushumlari hajmining o‘zgarishiga ta’siri.

Aksiz solig‘ini prognozlashtirishda foydalanadigan ma’lumotlar: statistik hisobotlar; xo‘jalik yurituvchi subyektlarning mahsulot ishlab chiqarish dasturi; mahsulot realizasiya hajmi; mahsulot bahosi; mahsulot tannarxi; amaldagi soliq stavkalari; xo‘jalik yurituvchi subyektlarning soliq va debtorlik qarzları.

Qo‘shilgan qiymat solig‘ini prognoz qilish usullari. Soliq prognozini tashkil qilish va kerak bo‘lgan ma’lumotlarni jamlash. Operativ prognozlashtirish maqsadi. Qo‘shilgan qiymat solig‘i oborotini aniqlash va uning o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillar tahlili asosida prognozlashtirish.

Soliqni prognozlashtirishda soliq qarzi va debitorlik qarzlarini hisobga olish. Soliq organi xodimlarining prognoz ko'rsatkichlari bajarilishini ta'minlashdagi chora-tadbirlari. Qo'shilgan qiymat solig'i hisobini yuritishda dasturiy mahsullardan foydalanish.

Resurs soliqlarni prognozlash va tushumlarga ta'sir qiluvchi omillar

Mol-mulk solig'inинг byudjet daromad qismidagi ulushi. Mol-mulk solig'i to'lovchilar va ularning soni o'zgarishining byudjet tushumlariga ko'rsatgan ta'siri. Mol-mulk solig'ini prognoz qilish usullari: statistik ma'lumotlar asosida; haqiqatda byudjetga tushgan tushumlar tahlili asosida va xo'jalik yurituvchi subyektlarning buxgalteriya ma'lumotlari asosida. Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'ini prognoz qilish.

Yer solig'ini prognozlashtirishning mohiyati va mazkur soliqning byudjetning daromad qismidagi ulushi. Yer solig'i prognozini tashkil va prognoz qilish usullari. Soliq obyekti va u bo'yicha ma'lumotlar jamlash tartibi. Yer solig'i stavkalari va ulardan prognoz qilishda foydalanish tartibi. Soliqni to'lov muddatlaridan operativ prognozlashtirishda foydalanish tartibi. Jismoniy shaxslarning yer solig'ini prognoz qilishda foydalanadigan ma'lumotlar va ularni jamlash tartibi.

Amaliy mashg'ulotlarning taxminiy ro'yxati

- Soliq tushumlari hisobi va prognozi fanning predmeti va bilish usullari
- Soliq to'lovchilarni hisobga olish va davlat soliq xizmati organlarida soliq to'lovchilar bo'yicha yagona reyestr yuritish, shuningdek davlat soliq xizmati idoralarida axborot-kommunikasiya tizimi faoliyatini samaradorligini oshirish.
- Soliq solish obyektlari hamda soliq solish bilan bogliq obyektlar bo'yicha ma'lumotlar bazasini shakllantirish va yuritish tartibi.
 - Davlat soliq xizmati organlarida soliq to'lovchilarning shaxsiy kartochkalarini yuritish tartibi.
 - Davlat soliq xizmati idoralarida to'langan soliqlar va majburiy to'lovlari bo'yicha yigiladigan jamlanma hisobotlar va ularni shakllantirish tartibi.
- Soliq to'lovchilar tomonidan soliq majburiyatini bajarish tartibi va soliq qarzini undirishni tashkil etish
 - O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimi, byudjet jaraeni hamda byudjet prognozini ishlab chiqish asoslari.
 - Byudjet va byudjetdan tashqari maqsadli jamgarmalarga tushumlarni tahlil qilish va prognozlashtirish tartibi
 - Bevosita soliqlarni prognozlash va tushumlarga ta'sir qiluvchi omillar
 - Bilvosita soliqlarni prognozlash va tushumlarga ta'sir qiluvchi omillar
 - Resurs soliqlarni prognozlash va tushumlarga ta'sir qiluvchi omillar

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlarini tashkil etish yuzasidan kafedra tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar asosiy ma'ruza mavzulari bo'yicha olgan bilim va ko'nikmalarini amaliy masalalar, keyslar orqali yanada boyitadilar. Shuningdek, darslik va o'quv qo'llanmalar asosida talabalar bilimlarini mustahkamlashga erishish, tarqatma materiallardan foydalanish, ilmiy maqolalar va tezislarni chop etish orqali talabalar bilimini oshirish, masalalar yechish, mavzular bo'yicha taqdimotlar va ko'rgazmali qurollar tayorlash, normativ-huquqiy hujjalardan foydalanish va boshqalar tavsiya etiladi

Laboratoriya ishlarini tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar

Fan bo'yicha laboratoriya ishlari o'quv rejada ko'zda tutilmagan.

Kurs ishini tashkil etish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar

Fan bo'yicha kurs ishlari o'quv rejada ko'zda tutilmagan.

Mustaqil ta'limning shakli va mazmuni

Mustaqil ta’lim quyidagi shakkarda tashkil etiladi:

- mavzularni normativ-huquqiy hujjatlar va o‘quv adabiètlari èrdamida mustaqil o‘zlashtirish;
- mavzular bo‘yicha referat tayèrlash;
- seminar va amaliy mashg‘ulotlarga tayèrgarlik ko‘rish;
- ilmiy maqola va tezislarni tayèrlash;
- fanning dolzarb muammolarini qamrab oluvchi loyihalar tayèrlash;
- nazariy bilimlarni amaliètda qo‘llash;
- amaliètdagi mavjud muammolarning yechimini topish;
- o‘rganilaètgan mavzu bo‘yicha asosiy ilmiy adabiètlarga annotasiya èzish va boshqalar.

Ta’lim jaraènida innovation texnologiyalarni, o‘qitishning interfaol usullarini qo‘llash talaba tomondan mustaqil tanlanadi. Talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etish tizimli tarzda, ya’ni uzlusiz va uzviy ravishda amalga oshiriladi. Talaba olgan nazariy bilimini mustahkamlash, shu bilan birga navbatdagi yangi mavzuni puxta o‘zlashtirishi uchun mustaqil ravishda tayèrgarlik ko‘rishi kerak.

Tavsiya etilaètgan mustaqil ishlarning mavzulari

1. Tadbirkorlik subyektlarini “bir darcha” tamoyili asosida davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibi.
2. O‘zbekiston Respublikasi soliq-byudjet tizimi.
3. Byudjet tizimini yanada isloh qilish va takomillashtirishda Byudjet kodeksining ahamiyati.
4. Soliq tushumlari hisobining asosiy prinsiplari va usullari.
5. Soliq to‘lovchilarni hisobga olish va soliqqa oid ma’lumotlarni hisobini yuritish.
6. Soliq to‘lovchilarga identifikasyon raqam berilishi tartibi.
7. Soliq to‘lovchi yuridik shaxslarning shaxsiy kartochkalarini yuritish tartibi.
8. Soliq to‘lovchi jismoniy shaxslarning shaxsiy kartochkalarini yuritish tartibi.
9. Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarga penya hisoblash tartibi.
10. Byudjet va byudjetdan tashqari maqsadli jamg‘armalarga to‘lovleri tushumlari hisobini yuritish (1-N dasturiy mahsul) va tahlil qilish tartibi.
11. Soliq va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha soliq hisobotlarini taqdim etish davriyligi, topshirish va to‘lash muddatlari.
12. Davlat soliq qo‘mitasining yagona integrasiyalangan axborot resurs bazasini shakllantirish va axborot xavfsizligini ta’minalash masalalari.
13. Soliq solish obyektlari hamda soliq solish bilan bog‘liq obyektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar bazasini shakllantirish va yuritish tartibi.
14. Soliq to‘lovchilarga ko‘rsatilaètgan interaktiv xizmatlar.
15. Byudjet va davlat maqsadli jamg‘armalarga kelgusi davr uchun tushumlarni prognozlashtirish tartibi va uni takomillashtirish masalalari.
16. Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha tushumlarni prognoz qilish tartibi va usullari.
17. Prognozlashtirishni tashkil qilishda zaruriy ma’lumotlar va ularidan foydalanish tartibi.
18. Davlat byudjetida soliq tushumlari tahlili va ularning yig‘iluvchanlik darajasi.
19. Soliq yuki va uni aniqlash usullari.
20. Davlat soliq xizmati organlarida amaliètga joriy etilgan dasturiy mahsullar va ularning vazifalari.
21. Soliq hisobotini elektron ko‘rinishda tuzish va taqdim etish tartibi.
22. Soliq majburiyati va uni bajarish tartibi.
23. Soliq qarzini majburiy undirish usullari.
24. Soliq qarzini to‘lashni kechiktirishning va (èki) bo‘lib-bo‘lib to‘lashning umumiyligi shartlari.
25. Umidsiz qarz tushunchasi va uni hisobdan chiqarish tartibi.
26. Bankrot korxonalarini tugatish va davlat reyestridan chiqarish tartibi.
27. Yuridik shaxslardan olinadigan foya solig‘ini statistik, moliyaviy va soliq hisobotlari èrdamida prognoz qilish.
28. Qo‘silgan qiymat solig‘i oborotini aniqlash va uning o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillar tahlili asosida prognozlashtirish.
29. Aksiz solig‘i prognozini tashkil qilishdagi asosiy ko‘rsatkichlar tarkibi.
30. Jismoniy shaxslar daromad solig‘i prognozini tashkil qilish va kerak bo‘lgan ma’lumotlarni jamlash.
31. Tabiiy resurslardan undiriladigan soliqlarning byudjet daromadlarida salmog‘i tahlili va ularni prognoz qilish.

32. Yuridik va jismoniy shaxslardan undiriladigan soliq to‘lovlaringin byudjet daromadlaridagi ulushining tahlili.
33. Yagona soliq to‘lovini prognozini amalga oshirish tartibi.
34. Yagona yer solig‘ini prognozini amalga oshirish tartibi.
35. Davlat maqsadli jamg‘armalarga majburiy to‘lovlarni prognozlashtirish tartibi.
36. Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni prognozlashtirishda soliq qarzi va debitorlik qarzlarini hisobga olish.
37. Soliqlarning yig‘iluvchanligi darajasi va uni aniqlash.
38. Soliq to‘lovlarini prognoz qilishda asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning ta’siri.
39. O‘zbekistonda soliq stavkalarining o‘zgarish dinamikasi va ularning byudjet daromadlarini shakllashtirishga ta’siri.
40. Soliq tushumlarini prognoz qilishda soliq imtièzlari va preferensiyalarni hisobga olish.

Dasturning informasion-uslubiy ta’minoti

Mazkur fanni o‘qitish jaraènida:

- soliq tushumlari hisobi va uning tarkibi bo‘limiga tegishli ma’ruza darslarida modul tizimiga asoslangan elektron majmuadan;
- soliq tushumlari hisobi va prognozi fanning predmeti va bilish usullari, soliq to‘lovchilarni hisobga olish va soliqqa oid ma’lumotlarni hisobini yuritish, soliq elementlarining soliqlarni prognoziga ta’siri, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha tushumlarni prognoz qilish tartibi va usullari, soliq to‘lovchilar tomonidan soliq majburiyatini bajarish tartibi va soliq qarzini undirishni tashkil etishga oid mavzularda o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda aqliy hujum, guruhli fikrlash pedagogik texnologiyalaridan; O‘zbekiston Respublikasida soliq tushumlari hisobi va prognozi amalièti masalalariga tegishli dars mashg‘ulotlarida ta’limning boshqa metodlaridan foydalanish nazarda tutilgan.

Foydalanimiladigan adabiètlar ro‘yxati

Asosiy adabiètlar:

1. Abduganiyeva G.K., Bababekova N.B. Prognozirovaniye nalogov. Uchebnoye posobiye. – T.: “Tafakkur-Bo‘stoni”, 2012. - 224 s.
2. Doschanova N.P. Soliq statistikasi va prognozi. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Ren-Poligraf” bosmaxonasi, 2009. – 216 b.
3. Vahobov A.V, Jo‘rayev A.S Soliqlar va soliqqa tortish.Darslik.T: “SHarq”, 2009. -448 b.

Qo‘shimcha adabiètlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. “Norma” huquqiy bazasi.
2. O‘zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi. “Norma” huquqiy bazasi.
3. Malikov T.S., Jalilov P.T. Byudjet-soliq sièsati. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Akademnashr”, 2011. - 472 b.
4. Haydarov N.H. Soliqlar va soliqqa tortish masalalari. O‘quv qo‘llanma. AkademiY. - T.: 2007. - 214 b.;
5. Gadoyev E. i dr. Uproshènnaya sistema nalogoooblojeniY. Uchebnoprakticheskoye posobiye. - T.: Norma, 2011.- 324 str.
6. Gadoyev E. va b. Bilvosita soliqlar. O‘quv-amaliy qo‘llanma. - T.: Norma, 2011.- 328 –b.
7. Gadoyev E. va b. Foya solig‘i. O‘quv-amaliy qo‘llanma. - T.: Norma, 2011.- 88 408-b.
8. Yax’èyev Q. Soliqqa tortish nazariyasi va amalièti. Darslik. Toshkent. 2003. 246 bet.
9. Zavalishina I.A. Soliqlar: nazariya va amalièt. “Iqtisodièt va huquq dunësi” nashrièt uyi, 2005. 544 bet.
10. Gadoev E, Kuzieva N. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish. Darslik. – T.: “O‘zbekiston”, 2012. - 336 b
11. Eshboyev T.T. Yuridik shaxslarni soliqqa tortish. Darslik. T: “Cho‘lpon” 2013, 296 bet
12. Perov A. Nalogi i nalogoooblojeniye. Uchebnoye posobiye. – M.: “Yurayt”, 2012 g. – 899 str.
13. Panskov V. Nalogi i nalogoooblojeniye: teoriya i praktika. Uchebnik. – M.: “Yurayt”, 2012 g. – 680 str.

14. O'rmonov J. Kichik biznes subyektlarini soliqqa tortishni takomillashtirishning dolzARB masalalari. -T.: El-Press. 2011. – 132 b.
15. Musagaliyev A. Yuridik shaxslarni soliqqa tortishni takomillashtirishning dolzARB masalalari. Soliq akademiyasi. Monografiya, Toshkent: 2010, 116 bet.
16. Tagayev A., Xoshimoto F., Ro'ziyev G., Xotamov K. Soliq nazorati.- T.:O'quv qo'llanma, "Yangi asr avlod", 2010.
17. A.Xomma, A.Tangirqulov, SH.Toshmatov, I.Norqo'ziyev va N.Roziqovlar. Soliq qarzi va uni undirish. O'quv qo'llanma. - T.: O'quv qo'llanma, "Yangi asr avlod", 2011.
18. I.Xabibullayev, G.Mansurova, Soliq statistikasining nazariy asoslari. O'quv qo'llanma - T.: «Iqtisodiёт va huquq dunёsi», 2005.

Internet saytlar:

1. www.soliq.uz;
2. www.edu.uz;
3. www.mf.uz;
4. www.oxs.uz;
5. www.norma.uz;
6. www.lex.uz;
7. www.my.gov.uz;
8. www.alleng.ru.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKET MOLIYA INSTITUTI

**“TASDIQLYMAN”
O'quv ishlari boyicha prorektor
I.N.Qo'ziyev
“ ” 2018 yil**



**SOLIQ TUSHUMLARI HISOBI VA PROGNOZI
ISHCHI O'QUV DASTURI**

Bilim sohasi: 200000 –Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq

Ta'lif sohasi: 230000 –Iqtisod

**Ta'lif
yo'nalishlari:** 5230800 – Soliqlar va soliqqa tortish;

Fanning ishchi o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 201_yil "___"-dagi "___"-sonli buyrug'i (buyriqning ___- ilovasi) bilan tasdiqlangan "Iqtisodiy matematika" fan dasturi asosida tayyorlangan.

Fanning ishchi o'quv dasturi Toshkent moliya institutii Kengashining 201_yil "___" _____ dagi "___" - son bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

Tuzuvchi:	Jo'rayev A.S.	-TMI "Soliqlar va soliqqatortish" kafedrasi, professori, i.f.d.,;
	Shirinov S.E.	TMI "Soliqlar va soliqqatortish" kafedrasi, dotsenti, i.f.n.
Taqrizchilar:	Xudoyqulov S.K.	- TDIU , "Moliya va soliqlar" kafedrasi mudiri, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent. (<i>turdosh OTMdan.</i>)
	Safarov G'.A.	- TMI, "Soliqlar va soliqqa tortish" kafedrasi dotsenti, i.f.n.

Fanning ishchi o'quv dasturi kafedraning 201_yil "___" _____ dagi "___" – sonli majlisida muhokama etilib, fakultet Kengashida ko'rib chiqishga tavsiya qilingan.

"Soliqlar va soliqqatortish" kafedrasi mudiri:

201_yil "___" _____ professor A.S.Jo'rayev

Fanning ishchi o'quv dasturi "Sug'urta" fakultet Kengashining 201_yil "___" _____ dagi "___" – sonli majlisida muhokama etilib, institut o'quv-uslibiy Kengashida ko'rib chiqishga tavsiya qilingan.

"Sug'urta" fakulteti dekani:

201_yil "___" _____ dotsent G'.A. Safarov

Fanning ishchi o'quv dasturi o'quv-uslibiy fakultet Kengashining 201_yil "___" _____ dagi "___" – sonli majlisida muhokama etilib, institut Kengashida ko'rib chiqishga tavsiya qilingan.

O'quv-uslibiy bo'lim boshlig'i:

201_yil "___" _____ dotsent T.M.Baymuradov

Kirish

Ushbu dasturda “Soliq tushumlari hisobi va prognozi” fanining mazmuni, predmeti va mohiyati, uning maqsadi va vazifalari, O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining yagona reyestriga soliq to‘lovchilarni hisobga kiritishning huquqiy va tashkiliy asoslari, soliq to‘lovchilarining soliq obektlari bo‘yicha shaxsiy kartochkalarini yuritish, davlat soliq xizmati idoralarida to‘langan soliqlar va majburiy ajratmalarning umumiy hisobini yuritish va jamlanma hisobotlarni shakllantirish, soliq majburiyatini bajarilishini ta’minalash, byudjetga tushumlarni hisobini yuritish va tahlil qilish asosida davlat byudjetining prognozini ishlab chiqish, prognozlashtirish usullari orqali bevosita, bilvosita, resurs soliqlari va majburiy ajratmalarga uzoq va yaqin muddatlarga tushumlar prognozi hisob-kitobi yuzasidan ishlarini tashkil etish kabi mavzular uzviylik va uzluksizlik nuqtai-nazaridan mantiqiy ketma-ketlikda o‘z aksini topgan. “Soliq tushumlari hisobi va prognozi” fanini chuqur o‘rganish tegishli sohalar muammolarini hal qilishda muhim rol o‘ynaydi.

Fanning maqsad va vazifalari

Fanni o‘qitishdan maqsad – talabalarda O‘zbekistonda iqtisodiètni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash sharoitida soliq to‘lovchilarni soliq organlarida hisobga olish, ularning hisobini olib borish, soliqlar bo‘yicha va xo‘jalik yurituvchi subektlar bo‘yicha shaxsiy kartochkalarining yuritilishi, soliq organlarida soliq tushumlari hisobini yuritish va ularga asosan tuziladigan hisobotlar, soliq qarzlari tahlilini olib borish, soliqlar tushumining tahlili va tahlil ma’lumotlari asosida soliqlarni prognoz qilish bo‘yicha yo‘nalish sohasiga mos bilim, ko‘nikma va malaka shakllantirishdir.

Fanning vazifasi – uni o‘rganuvchilarga:

- davlat soliq xizmati organlarida soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar tushumini hisobga olish va hisobotlar tuzish;
- ma’lumotlarni jamlash;
- tahlil qilish;
- xulosa va takliflar ishlab chiqish;
- soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha tushumlarni prognoz qilish usullarini o‘rgatishdan iborat.

Fan bo‘yicha talabalarining tasavvur, bilim, ko‘nikma va malakalariga qoyiladigan talablar

“Soliq tushumlari hisobi va prognozi” o‘quv fanini o‘zlashtirish jarayonida bakalavr:

- soliq tushumlari hisobi va prognozi tushunchasi;
- statistikaning asosiy tamoyillari;
- mutloq va nisbiy ko‘rsatkichlar;
- prognoz qilishda qo‘llaniladigan elementlar;
- soliqlar tortiladigan baza va uning elementlari;
- tadbirkorlik subektlarini ro‘yxatdan o‘tkazish;
- soliq to‘lovchiga identifikasiya raqamini berish tartibi haqida **tasavvurga ega bo‘lishi**;
- statistik kuzatishni;
- kuzatish èrdamida aniqlangan ma’lumotlarini jamlashni;
- ma’lumotlarini guruuhlashni;
- umumlashtiruvchi ko‘rsatkichlarni hisoblashni;

- dinamik qatorlarni tuzishni;
- soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar hisobini yuritishni;
- soliq tushumlarni tahlil qilishni;
- tahlil natijalaridan foydalana olishni;
- prognoz qilish tartibi va usullarini **bilishi va ulardan foydalana olishi**;
- soliq va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha tushumlarni hisobini yuritish, soliq sohasida mayjud hodisa va jaraènlarni tahlil qilish usullarini qo‘llash, soliq to‘lovchilarni ro‘yxatga olish va hisobini yuritish, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha tushumlarni prognoz qilish, shaxsiy hisob varaqalar ma’lumotlaridan prognozlashtirishda foydalanish **ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak**;
- Soliq hisobotlarini tahlil qila olish; Byudjet tasnifi bilan ishslash; Tushumlar asosida jamlanma hisobotlarni tayèrlash; Ekonometrik modellarni prognozlashtirishga tadbiq etib **bilish malakalariga ega bo‘lishi kerak**.

Fanning boshqa fanlar bilan o’zaro bog’liqligi va uzviyligi

“Soliq tushumlari hisobi va prognozi” fani ixtisoslik fani hisoblanib, “Soliqlar va soliqqa tortish” bakalavriat ta’lim yo‘nalishida o‘qitiladi. Mazkur fan boshqa iqtisodiy fanlar (Moliya, Statistika, 88

Iqtisodiy nazariya, Soliq nazariyasi, Juridik shaxslarni soliqqa tortish, Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish, Soliq ma’murchiligi va nazorati, Soliq tizimida dasturiy mahsullar, Soliq va boshqa majburiy to‘lovlar hisobi, Buxgalteriya hisobi, Audit va h.k.) bilan uzviy bog’liqdir. U tadqiqot usullari bo‘yicha boshqa ijtimoiy va matematika (Falsafa, Iqtisodiy-matematik usullar va modellar, ehtimollar nazariyasi va matematik statistika) fanlari bilan ham mustahkam bog’liqdir.

Fanning “Ta’lim-fan-ishlab chiqarish” integratsiyasi va innovatsyon rivojlanishdagi o’rni

“Soliq tushumlari hisobi va prognozi” fani soliq to‘lovchilarni hisobga olish, ular to‘laètgan soliqlar va majburiy to‘lovlarning hisobini yuritish, davlatimizning iqtisodiy tayanchi bo‘lgan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni yig‘ish, soliq obektlarini aniqlash, soliq to‘lovchilar bo‘yicha hamda alohida soliqlar va boshqa majburiy to‘lov turlari bo‘yicha shaxsiy hisob kartochkalarining yuritilishi, soliqlar tushumi bo‘yicha hisobotlar tuzish ularga kiritiladigan ma’lumotlarni o‘rganish uchun ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Shuningdek, ushbu fan hisob ma’lumotlarining tahlili asosida kelgusi yilga byudjet daromadlarini prognoz qilish, davlat daromadlarini shakllantirishda, soliq tizimining ajralmas bo‘g‘ini ishlab chiqarishni tashkil qilishda va boshqarishda muhim o‘rinni egallaydi.

Fanni o’qitishda qo‘llanilishi tavsiya etilayotgan pedagogik, axborot va internet texnologiyalari

Talaba “Soliq tushumlari hisobi va prognozi” fanini o‘zlashtirishlari uchun o‘qitishning ilg‘or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tatbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o‘zlashtirishda darslik, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar, ma’ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallar, keys- texnologiyalaridan foydalaniladi. Ma’ruza va seminar mashg‘ulotlarida o‘qitishning interaktiv usullari (aqliy xujum, vizual, muammoli, mualliflik ma’ruzalar, ikki tomonlama tahlil, insert, klaster, «Venna» va boshqalar)dan foydalaniladi.

“Soliq tushumlari hisobi va prognozi” fani 4-kursning VII semestrida o’qitilib, unda ma’ruza, amaliy, mustaqil ta’lim mashg’ulotlari semestrlar boyicha quyidagi jadval asosida amalga oshiriladi.

**VII semetrda o’qitiladigan mavzular boyicha mashg’ulot turlariga ajratilgan soatlar
hajmining taqsimoti**

t/r	Fan mavzularining nomi	Jami	Shu jumladan		
			Ma’ruza	Amaliy mashg’ulot	Mustaqi l ta’lim
I modul. Soliq tushumlari hisobi va prognozi					
1.	Soliq tushumlari hisobi va prognozi fanining maqsadi,predmeti va vazifalari	8	2	2	4
2.	Soliq to‘lovchilarini hisobga olish va davlat soliq xizmati organlarida soliq to‘lovchilar bo‘yicha yagona reyestr yuritish, shuningdek davlat soliq xizmati idoralarida axborot-kommunikatsiya tizimi faoliyati samaradorligini oshirish	12	4	4	4
3.	Soliq solish obektlari hamda soliq solish bilan bog‘liq obektlar bo‘yicha ma’lumotlar bazasini shakllantirish va yuritish tartibi	12	4	4	4
4.	Davlat soliq xizmati organlarida soliq to‘lovchilarning shaxsiy kartochkalarini yuritish tartibi	12	4	4	4
5.	Davlat soliq xizmati idoralarida to‘langan soliqlar va majburiy to‘lovlar bo‘yicha yigiladigan jamlanma hisobotlar va ularni shakllantirish tartibi	12	4	4	4
6.	Soliq to‘lovchilar tomonidan soliq majburiyatini bajarish tartibi va soliq qarzini undirishni tashkil etish	8	2	2	4
7.	O‘zbekiston Respublikasi byudjet tizimi, byudjet jaraèni hamda byudjet prognozini ishlab chiqish asoslari	8	2	2	4
8.	Byudjet va byudjetdan tashqari maqsadli jamgarmalarga tushumlarni tahlil qilish va prognozlashtirish tartibi	8	2	2	4
9.	Bevosita soliqlarni prognozlash va tushumlarga ta’sir qiluvchi omillar	8	2	2	4
10.	Bilvosita soliqlarni prognozlash va tushumlarga ta’sir qiluvchi omillar	6	2	2	2
11.	Resurs soliqlarni prognozlash va tushumlarga ta’sir qiluvchi omillar	6	2	2	2
VII semester boyicha jami		100	30	30	40

VII semestrda o'qitiladigan ma'ruza mashg'ulotlarining mazmuni

1-modul. Soliq tushumlari hisobi va prognozi

1-mavzu. Soliq tushumlari hisobi va prognozi fanining maqsadi, predmeti va vazifalari

Soliq tushumlari hisobi va prognozi fanining tushunchasi, maqsadi, predmeti va vazifalari. Iqtisodiètni modernizatsiya qilish va soliq tizimida ro'y beraètgan hodisa va jaraènlarni ifodalashda soliq tushumlari hisobini olib borishning ahamiyati.

Soliq tushumlari hisobi va prognozi fanining boshqa fanlar bilan bog'liqligi. Soliq tushumlari hisobi va prognozining tashkil etilishi. Soliq tushumlari hisobi va prognozining asosiy prinsiplari.

Statistik kuzatish shakllari. Statistik kuzatish turlari. Kuzatish materiallarini jamlash; svodkalash va guruhash. Statistik ko'rsatkichlar ta'rifi. Mutloq va nisbiy ko'rsatkichlar, prognozlashtirish metodlari va modellari.

2-mavzu. Soliq to'lovchilarini hisobga olish va davlat soliq xizmati organlarida soliq to'lovchilar bo'yicha yagona reyestr yuritish, shuningdek davlat soliq xizmati idoralarida axborot-kommunikatsiya tizimi faoliyati samaradorligini oshirish

Soliq to'lovchilarini hisobga olish, ularga identifikatsiya raqamini berish tartibi va soliqqa oid tushumlar bo'yicha tezkor buxgalteriya hisobini yuritish. Soliq solish obektlari hamda soliq solish bilan bog'liq obektlar to'g'risidagi ma'lumotlar bazasini shakllantirish va yuritish tartibi. Soliq va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha soliq hisobotlarini taqdim etish davriyligi, topshirish va to'lash muddatlari. Byudjet va byudjetdan tashqari davlat maqsadli jamg'armalarga to'lovlar tushumlari va imtièzlar hisobini yuritishda foydalaniladigan dasturiy mahsullar Soliq to'lovchilarga ko'rsatilaètan interaktiv soliq xizmat turlari.

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining Ma'lumotlarni qayta ishlash va soliqqa oid axborotlarni saqlash markazi va uning vazifalari. Yagona integratsiyalangan axborot resurs bazasining shakllantirilishi va axborot xavfsizligini ta'minlash. Soliq to'lovchilarning majburiyatları yuzaga kelganligi to'g'risida axborot taqdim etadigan organ va tashkilotlar hamda ular taqdim etadigan ma'lumotlar.

3-mavzu. Soliq solish obektlari hamda soliq solish bilan bog'liq obektlar bo'yicha ma'lumotlar bazasini shakllantirish va yuritish tartibi

Soliq obekti tushunchasi va uni aniqlashda ta'sir qiluvchi omillar tahlili. Soliqqa tortiladigan baza va uni aniqlash usullari. Soliqqa tortiladigan baza elementlariga ta'sir etuvchi omillar. Xo'jalik subektlari son va sifat jihatidan o'zgarishining soliq bazasi hajmiga ta'siri.

Soliq solish obektlari bo'yicha ma'lumotlar bazasini shakllantirish va yuritish tartibi. Soliq solish bilan bogliq obektlar bo'yicha ma'lumotlar bazasiga kiritishda ichki va tashqi manbalar. Soliq solish obekti bo'yicha ro'yxatga olish ishlarini davlat soliq idoralarida tashkillashtirish tartibi.

Soliq solish obektlarini kengaytirish va qo'shimcha manbalarni aniqlashda dasturiy mahsullarning ahamiyati.

4-mavzu. Davlat soliq xizmati organlarida soliq to'lovchilarning shaxsiy kartochkalarini yuritish tartibi

Soliq to‘lovchining shaxsiy kartochkasi to‘g‘risida tushuncha va uning tuzilishi. Soliq to‘lovchi yuridik va jismoniy shaxslarning shaxsiy kartochkalarini yuritish tartibi. Shaxsiy kartochkalarga umumiy tartibda kiritiladigan ma’lumotlar. Soliq to‘lovchilar tomonidan taqdim etilgan hisobotlar va ularni shaxsiy kartochkalarda aks ettirish. Soliq tekshiruvlari natijasida hisoblangan jarimalar hisobini yuritish. Yakka tartibdagи tadbirkorlarning shaxsiy kartochkalarini yuritish tartibi.

Undiruvni soliq to‘lovchining mol-mulkiga qaratilish hisobidan tushgan summalarни shaxsiy kartochkalarda aks ettirish. Soliqlar bo‘yicha ortiqcha to‘lovlar hisobini yuritish va soliq to‘lovchiga qaytarilgan mablaglarni shaxsiy kartochkalarda aks ettirish tartibi.

Soliqlar va boshqa majburiy to‘lov larga penya hisoblash tartibi. Faoliyatini to‘xtatgan soliq to‘lovchilar hisobini yuritish va shaxsiy kartochkalarning yuritilishi ustidan nazorat olib borish va javobgarlik choralarini.

5-mavzu. Davlat soliq xizmati idolarida to‘langan soliqlar va majburiy to‘lovlар bo‘yicha yigiladigan jamlanma hisobotlar va ularni shakllantirish tartibi

Davlat byudjetiga to‘langan soliqlar va ular to‘lanadigan hisobvaraqlar. Byudjet daromadlari klassifikatori. Soliq va majburiy ajratmalarga tushumlarning guruhlanishi va byudjetlararo taqsimlanish nisbatlari. Byudjet tushumlarini aks ettiruvchi hisobvaraqlar. Pensiya jamgarmasiga tushumlarni aks ettiruvchi hisobvaraqlar. Pespublika yul jamgarmasi va boshqa jamgarmalarga tushumlarni aks ettiruvchi hisobvaraqlar.

Soliq to‘lovchilarning turlari bo‘yicha to‘langan soliqlarning banklar tomonidan balans hisobvaraqlarning shaxsiy hisob raqamlariga kirish qilinishi va davlat soliq idolariga tushumlar bo‘yicha ma’lumotlarning taqdim etilishi.

1-N dasturiy mahsuli. 1N-B, 1N-PF, 1N-YF, 1N-MF jamlanma hisobotlarni shakllantirish. Solishtirma dalolatnomalar, ularni tuzish va byudjet tushumlarini nazorat qiluvchi idolar urtasida tasdiqlanishi.

6-mavzu. Soliq to‘lovchilar tomonidan soliq majburiyatini bajarish tartibi va soliq qarzini undirishni tashkil etish

Soliq majburiyatini bajarishning umumiy qoidalari. Soliq qarzdorligini kelib chiqish sabablari. Soliq hisoboti. Soliq to‘lovchi tomonidan hisobotlarni va aniqlashtirilgan hisobotlarni taqdim etish tartiblari. Soliq qarzini to‘lashni kechiktirish, bo‘lib-bo‘lib to‘lash.

Soliq qarzini undirishning umumiy asoslari. Qarzdorga beriladigan to‘lov talabnomasi, uni ijro etish muddatlari. Soliq qarzdorligini soliq to‘lovchining hisob varaqlaridan so‘zsiz undirish, debitorga qaratish, sudga da’vo ariza kiritish tartibi.

Qarzdorni bankrot deb toppish bo‘yicha sudga da’vo ariza kiritish tartibi. Bankrot deb topilgan korxonalarining hisobini yuritish.

7-mavzu. O‘zbekiston Respublikasi byudjet tizimi, byudjet jaraenі hamda byudjet prognozini ishlab chiqish asoslari

Davlat byudjeti tushunchasi, O‘zbekiston Respublikasi byudjet tizimi vaunu shakllantirish manbalari. Byudjet dotatsiyasi, ssudasi, subvensiyasi, ularning farqli jihatlari. Byudjet profisiti va defitsiti.

Davlat byudjetini prognozlash. Prognozlashtirish turlari. Prognozlashtirishning ekstropolatsiya, yekspert baholash, biriktirilgan metodlari.

Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni tahlil qilgan holda byudjet daromadlarini prognozlashtirish.Davlat byudjeti loyihasini tuzish taqdim etish va tasdiqlash tartibi.

8-mavzu. Byudjet va byudjetdan tashqari maqsadli jamgarmalarga tushumlarni tahlil qilish va prognozlashtirish tartibi

Byudjet va byudjetdan tashqari jamgarmalarga tushumlarni prognozlash. Modellashtirishning ekonometrik, deterministik usullari.Tushumlarni tahlil qilishning regression va korreliatsion metodlari.

Soliq potensiali va soliq yukini hisoblash.Tushumlarni DSB va DSI pogonasida tahlil qilish.

Tushumlar dinamikasi tahlili. Reja bajarilishi nisbiy miqdori. Reja bajarilishining dinamika nisbiy miqdori. Intensivlik nisbiy miqdori. Absolyut o'sish. Bazisli absolyut o'sish, zanjirli absolyut o'sish.

Soliq organi xodimlarining prognoz ko'rsatkichlari bajarilishini ta'minlashdagi chora-tadbirlari.

9-mavzu. Bevosita soliqlarni prognozlash va tushumlarga ta'sir qiluvchi omillar

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i tushunchasi, davlat byudjetining daromad qismidagi ulushi. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini prognoz qilishning mohiyati. Soliq to'lovchilari va ularning sonining o'zgarishi, soliq tushumlari hajmining o'zgarishiga ta'siri.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i tushunchasi, byudjetning daromad qismini shakllantirishdagi o'rni. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i to'lovchilari. Soliq to'lovchilarning sonini o'zgarishi bilan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i tushumlarini o'zgarishning bog'liqligi. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini prognoz qilish usullari. Prognozlashtirish uchun kerak bo'lgan ma'lumotlarni jamlash.

Soliqni prognozlashtirishda soliq qarzi va debitorlik qarzlarini hisobga olish. Soliq organi xodimlarining prognoz ko'rsatkichlari bajarilishini ta'minlashdagi chora-tadbirlari. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i hisobini yuritishda dasturiy mahsullardan foydalanish.

10-mavzu. Bilvosita soliqlarni prognozlash va tushumlarga ta'sir qiluvchi omillar

Aksiz solig'i va davlat byudjetining daromad qismidagi ulushi. Aksiz solig'ini prognozlashtirishning mohiyati. Aksiz solig'i to'lovchilari va ular sonining o'zgarishi soliq tushumlari hajmining o'zgarishiga ta'siri.

Aksiz solig'ini prognozlashtirishda foydalanadigan ma'lumotlar: statistik hisobotlar; xo'jalik yurituvchi subektlarning mahsulot ishlab chiqarish dasturi; mahsulot realizatsiya hajmi; mahsulot bahosi; mahsulot tannarxi; amaldagi soliq stavkalari; xo'jalik yurituvchi subektlarning soliq va debitorlik qarzlari.

Qo'shilgan qiymat solig'ini prognoz qilish usullari. Soliq prognozini tashkil qilish va kerak bo'lgan ma'lumotlarni jamlash. Operativ prognozlashtirish maqsadi. Qo'shilgan qiymat solig'i oborotini aniqlash va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili asosida prognozlashtirish.

Soliqni prognozlashtirishda soliq qarzi va debitorlik qarzlarini hisobga olish. Soliq organi xodimlarining prognoz ko'rsatkichlari bajarilishini ta'minlashdagi chora-tadbirlari. Qo'shilgan qiymat solig'i hisobini yuritishda dasturiy mahsullardan foydalanish.

11-mavzu. Resurs soliqlarni prognozlash va tushumlarga ta'sir qiluvchi omillar

Mol-mulk solig'ining byudjet daromad qismidagi ulushi. Mol-mulk solig'i to'lovchilar va ularning soni o'zgarishining byudjet tushumlariga ko'rsatgan ta'siri. Mol-mulk solig'ini prognoz

qilish usullari: statistik ma'lumotlar asosida; haqiqatda byudjetga tushgan tushumlar tahlili asosida va xo'jalik yurituvchi subektlarning buxgalteriya ma'lumotlari asosida. Jismoniy shaxslarning molmulk solig'ini prognoz qilish.

Yer solig'ini prognozlashtirishning mohiyati va mazkur soliqning byudjetning daromad qismidagi ulushi. Yer solig'i prognozini tashkil va prognoz qilish usullari. Soliq obekti va u bo'yicha ma'lumotlar jamlash tartibi. Yer solig'i stavkalari va ulardan prognoz qilishda foydalanish tartibi. Soliqni to'lov muddatlaridan operativ prognozlashtirishda foydalanish tartibi. Jismoniy shaxslarning yer solig'ini prognoz qilishda foydalanadigan ma'lumotlar va ularni jamlash tartibi.

Amaliy mashg`ulotlarning mazmuni

1-modul. Soliq tushumlari hisobi va prognozi

1-mavzu. Soliq tushumlari hisobi va prognozi fanining maqsadi, predmeti va vazifalari

Soliq tushumlari hisobi va prognozi fanining tushunchasi, maqsadi, predmeti va vazifalari. Iqtisodiètni modernizatsiya qilish va soliq tizimida ro'y beraètgan hodisa va jaraènlarni ifodalashda soliq tushumlari hisobini olib borishning ahamiyati.

Soliq tushumlari hisobi va prognozi fanining boshqa fanlar bilan bog'liqligi. Soliq tushumlari hisobi va prognozining tashkil etilishi. Soliq tushumlari hisobi va prognozining asosiy prinsiplari.

Statistik kuzatish shakllari. Statistik kuzatish turlari. Kuzatish materiallarini jamlash; svodkalash va guruhlash. Statistik ko'rsatkichlar ta'rifi. Mutloq va nisbiy ko'rsatkichlar, prognozlashtirish metodlari va modellari.

2-mavzu. Soliq to'lovchilarni hisobga olish va davlat soliq xizmati organlarida soliq to'lovchilar bo'yicha yagona reyestr yuritish, shuningdek davlat soliq xizmati idoralarida axborot-kommunikatsiya tizimi faoliyatini samaradorligini oshirish

Soliq to'lovchilarni hisobga olish, ularga identifikatsiya raqamini berish tartibi va soliqqa oid tushumlar bo'yicha tezkor buxgalteriya hisobini yuritish. Soliq solish obektlari hamda soliq solish bilan bog'liq obektlar to'g'risidagi ma'lumotlar bazasini shakllantirish va yuritish tartibi. Soliq va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha soliq hisobotlarini taqdim etish davriyligi, topshirish va to'lash muddatlari. Byudjet va byudjetdan tashqari davlat maqsadli jamg'armalarga to'lovlar tushumlari va imtièzlar hisobini yuritishda foydalaniladigan dasturiy mahsullar Soliq to'lovchilarga ko'rsatilaètan interaktiv soliq xizmat turlari.

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining Ma'lumotlarni qayta ishslash va soliqqa oid axborotlarni saqlash markazi va uning vazifalari. Yagona integratsiyalangan axborot resurs bazasining shakllantirilishi va axborot xavfsizligini ta'minlash. Soliq to'lovchilarning majburiyatları yuzaga kelganligi to'g'risida axborot taqdim etadigan organ va tashkilotlar hamda ular taqdim etadigan ma'lumotlar.

3-mavzu. Soliq solish obektlari hamda soliq solish bilan bog'liq obektlar bo'yicha ma'lumotlar bazasini shakllantirish va yuritish tartibi

Soliq obekti tushunchasi va uni aniqlashda ta'sir qiluvchi omillar tahlili. Soliqqa tortiladigan baza va uni aniqlash usullari. Soliqqa tortiladigan baza elementlariga ta'sir etuvchi omillar. Xo'jalik subektlari son va sifat jihatidan o'zgarishining soliq bazasi hajmiga ta'siri.

Soliq solish obektlari bo'yicha ma'lumotlar bazasini shakllantirish va yuritish tartibi.Soliq solish bilan bogliq obektlar bo'yicha ma'lumotlar bazasiga kiritishda ichki va tashqi manbalar.Soliq solish obekti bo'yicha ro'yxatga olish ishlarini davlat soliq idoralarida tashkillashtirish tartibi.

Soliq solish obektlarini kengaytirish va qo'shimcha manbalarni aniqlashda dasturiy mahsullarning ahamiyati.

4-mavzu. Davlat soliq xizmati organlarida soliq to'lovchilarning shaxsiy kartochkalarini yuritish tartibi

Soliq to'lovchining shaxsiy kartochkasi to'g'risida tushuncha va uning tuzilishi. Soliq to'lovchi yuridik va jismoniy shaxslarning shaxsiy kartochkalarini yuritish tartibi. Shaxsiy kartochkalarga umumiyligida kiritiladigan ma'lumotlar. Soliq to'lovchilar tomonidan taqdim etilgan hisobotlar va ularni shaxsiy kartochkalarda aks ettirish. Soliq tekshiruvlari natijasida hisoblangan jarimalar hisobini yuritish.Yakka tartibdagi tadbirkorlarning shaxsiy kartochkalarini yuritish tartibi.

Undiruvni soliq to'lovchining mol-mulkiga qaratilish hisobidan tushgan summalarini shaxsiy kartochkalarda aks ettirish.Soliqlar bo'yicha ortiqcha to'lovlar hisobini yuritish va soliq to'lovchiga qaytarilgan mablaglarni shaxsiy kartochkalarda aks ettirish tartibi.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lov larga penya hisoblash tartibi.Faoliyatini to'xtatgan soliq to'lovchilar hisobini yuritish va shaxsiy kartochkalarning yuritilishi ustidan nazorat olib borish va javobgarlik choralarini.

5-mavzu. Davlat soliq xizmati idoralarida to'langan soliqlar va majburiy to'lovlar bo'yicha yigiladigan jamlanma hisobotlar va ularni shakllantirish tartibi

Davlat byudjetiga to'langan soliqlar va ular to'lanadigan hisobvaraqlar. Byudjet daromadlari klassifikatori.Soliq va majburiy ajratmalarga tushumlarning guruhlanishi va byudjetlararo taqsimlanish nisbatlari. Byudjet tushumlarini aks ettiruvchi hisob varaqlar. Pensiya jamgarmasiga tushumlarni aks ettiruvchi hisobvaraqlar. Pespublika yul jamgarmasi va boshqa jamgarmalarga tushumlarni aks ettiruvchi hisobvaraqlar.

Soliq to'lovchilarning turlari bo'yicha to'langan soliqlarning banklar tomonidan balans hisobvaraqlarning shaxsiy hisob raqamlariga kirish qilinishi va davlat soliq idoralariga tushumlar bo'yicha ma'lumotlarning taqdim etilishi.

1-N dasturiy mahsuli.1N-B,1N-PF,1N-YF,1N-MF jamlanma hisobotlarni shakllantirish. Solishtirma dalolatnomalar, ularni tuzish va byudjet tushumlarini nazorat qiluvchi idoralar urtasida tasdiqlanishi.

6-mavzu. Soliq to'lovchilar tomonidan soliq majburiyatini bajarish tartibi va soliq qarzini undirishni tashkil etish

Soliq majburiyatini bajarishning umumiyligini qoidalari.Soliq qarzdorligini kelib chiqish sabablari. Soliq hisoboti. Soliq to'lovchi tomonidan hisobotlarni va aniqlashtirilgan hisobotlarni taqdim etish tartiblari. Soliq qarzini to'lashni kechiktirish, bo'lib-bo'lib to'lash.

Soliq qarzini undirishning umumiyligini asoslari. Qarzdorga beriladigan to'lov talabnomasi, uni ijro etish muddatlari. Soliq qarzdorligini soliq to'lovchining hisob varaqlaridan so'zsiz undirish, debitorga qaratish, sudga da'vo ariza kiritish tartibi.

Qarzdorni bankrot deb toppish bo'yicha sudga da'vo ariza kiritish tartibi. Bankrot deb topilgan korxonalarining hisobini yuritish.

7-mavzu. O‘zbekiston Respublikasi byudjet tizimi, byudjet jaraèni hamda byudjet prognozini ishlab chiqish asoslari

Davlat byudjeti tushunchasi, O‘zbekiston Respublikasi byudjet tizimi va unu shakllantirish manbalari. Byudjet dotatsiyasi, ssudasi, subvensiyasi, ularning farqli jihatlari. Byudjet profisiti va defitsiti.

Davlat byudjetini prognozlash. Prognozlashtirish turlari. Prognozlashtirishning ekstropolatsiya, yekspert baholash, biriktirilgan metodlari.

Asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni tahlil qilgan holda byudjet daromadlarini prognozlashtirish. Davlat byudjeti loyihasini tuzish taqdim etish va tasdiqlash tartibi.

8-mavzu. Byudjet va byudjetdan tashqari maqsadli jamgarmalarga tushumlarni tahlil qilish va prognozlashtirish tartibi

Byudjet va byudjetdan tashqari jamgarmalarga tushumlarni prognozlash. Modellashtirishning ekonometrik, deterministik usullari. Tushumlarni tahlil qilishning regression va korreliatsion metodlari.

Soliq potensiali va soliq yukini hisoblash. Tushumlarni DSB va DSI pogonasida tahlil qilish.

Tushumlar dinamikasi tahlili. Reja bajarilishi nisbiy miqdori. Reja bajarilishining dinamika nisbiy miqdori. Intensivlik nisbiy miqdori. Absolyut o‘sish. Bazisli absolyut o‘sish, zanjirli absolyut o‘sish.

Soliq organi xodimlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishini ta’minlashdagi chora-tadbirlari.

9-mavzu. Bevosita soliqlarni prognozlash va tushumlarga ta’sir qiluvchi omillar

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i tushunchasi, davlat byudjetining daromad qismidagi ulushi. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini prognoz qilishning mohiyati. Soliq to‘lovchilari va ularning sonining o‘zgarishi, soliq tushumlari hajmining o‘zgarishiga ta’siri.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i tushunchasi, byudjetning daromad qismini shakllantirishdagi o‘rni. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i to‘lovchilari. Soliq to‘lovchilarning sonini o‘zgarishi bilan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i tushumlarini o‘zgarishning bog‘liqligi. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ini prognoz qilish usullari. Prognozlashtirish uchun kerak bo‘lgan ma’lumotlarni jamlash.

Soliqni prognozlashtirishda soliq qarzi va debitorlik qarzlarini hisobga olish. Soliq organi xodimlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishini ta’minlashdagi chora-tadbirlari. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i hisobini yuritishda dasturiy mahsullardan foydalanish.

10-mavzu. Bilvosita soliqlarni prognozlash va tushumlarga ta’sir qiluvchi omillar

Aksiz solig‘i va davlat byudjetining daromad qismidagi ulushi. Aksiz solig‘ini prognozlashtirishning mohiyati. Aksiz solig‘i to‘lovchilari va ular sonining o‘zgarishi soliq tushumlari hajmining o‘zgarishiga ta’siri.

Aksiz solig‘ini prognozlashtirishda foydalanadigan ma’lumotlar: statistik hisobotlar; xo‘jalik yurituvchi subektlarning mahsulot ishlab chiqarish dasturi; mahsulot realizatsiya hajmi; mahsulot bahosi; mahsulot tannarxi; amaldagi soliq stavkalari; xo‘jalik yurituvchi subektlarning soliq va debitorlik qarzlari.

Qo'shilgan qiymat solig'ini prognoz qilish usullari. Soliq prognozini tashkil qilish va kerak bo'lgan ma'lumotlarni jamlash. Operativ prognozlashtirish maqsadi. Qo'shilgan qiymat solig'i oborotini aniqlash va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili asosida prognozlashtirish.

Soliqni prognozlashtirishda soliq qarzi va debitorlik qarzlarini hisobga olish. Soliq organi xodimlarining prognoz ko'rsatkichlari bajarilishini ta'minlashdagi chora-tadbirlari. Qo'shilgan qiymat solig'i hisobini yuritishda dasturiy mahsullardan foydalanish.

11-mavzu. Resurs soliqlarni prognozlash va tushumlarga ta'sir qiluvchi omillar

Mol-mulk solig'ining byudjet daromad qismidagi ulushi. Mol-mulk solig'i to'lovchilar va ularning soni o'zgarishining byudjet tushumlariga ko'rsatgan ta'siri. Mol-mulk solig'ini prognoz qilish usullari: statistik ma'lumotlar asosida; haqiqatda byudjetga tushgan tushumlar tahlili asosida va xo'jalik yurituvchi subektlarning buxgalteriya ma'lumotlari asosida. Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'ini prognoz qilish.

Yer solig'ini prognozlashtirishning mohiyati va mazkur soliqning byudjetning daromad qismidagi ulushi. Yer solig'i prognozini tashkil va prognoz qilish usullari. Soliq obekti va u bo'yicha ma'lumotlar jamlash tartibi. Yer solig'i stavkalari va ulardan prognoz qilishda foydalanish tartibi. Soliqni to'lov muddatlaridan operativ prognozlashtirishda foydalanish tartibi. Jismoniy shaxslarning yer solig'ini prognoz qilishda foydalanadigan ma'lumotlar va ularni jamlash tartibi.

Mustaqil ta'limning shakl va mazmuni

"Soliq tushumlari hisobi va prognozi" fani boyicha talabaning mustaqil ishi shu fanni o'rGANISH jarayonining tarkibiy qismi bo'lib, uslubiy va axborot resurslari bilan to'la ta'minlangan.

Talabalar auditoriya mashg'ulotlarida pedagog-xodimlarning ma'ruzasini tinglaydilar, misol va masalalar yechadilar. Bundan tashqari ayrim mavzularni kengroq o'rGANISH maqsadida qo'shimcha adabiyotlarni o'qib referatlar tayyorlaydi hamda mavzu boyicha professor o'qituvchi tomonidan brilgan mustaqil ish va testlarni yechadi. Mustaqil ta'lim natijalari reyting tizimi asosida baholanadi.

Uyga vazifalarni bajarish, qo'shimcha darslik va adabiyotlardan yangi bilimlarni mustaqil o'rGANISH, kerakli ma'lumotlarni izlash va ularni topish yo'llarini aniqlash, internet tarmoqlaridan foydalanib ma'lumotlar to'plash va ilmiy izlanishlar olib borish, ilmiy to'garak doirasida yoki mustaqil ravishda ilmiy manbalardan foydalanib ilmiy maqola va ma'ruzalar tayyorlash kabilar talabalarning darsda olgan bilimlarini chuqurlashtiradi, ularning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi. Shuning uchun ham mustaqil ta'limsiz o'quv faoliyati samarali bo'lishi mumkin emas.

"Soliq tushumlari hisobi va prognozi" fanidan mustaqil ish majmuasi fanning barcha mavzularini qamrab olgan va quyidagi mavzu ko'rinishida shakllantirilgan.

VII semestrda uchun mustaqil ta'lim mavzulari va uni amalga oshirish shakli

№	MT mavzusi	Mavzuga oid bo'lim	MTga oid topshiriq va tavsiyalar
1	Soliq tushumlari hisobi va prognozining tashkil etilishi.	Soliq tushumlari hisobi va prognozi fanining maqsadi, predmeti va	Adabiyotlardan konsept qilish. Individual topshiriqlarni bajarish

		vazifalari	
2	Yagona integratsiyalangan axborot resurs bazasining shakllantirilishi va axborot xavfsizligini ta'minlash.	Soliq to'lovchilarни hisobga olish va davlat soliq xizmati organlarida soliq to'lovchilar bo'yicha yagona reyestr yuritish, shuningdek davlat soliq xizmati idoralarida axborot kommunikatsiya tizimi faoliyatini samaradorligini oshirish	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish
3	Xo'jalik subektlari son va sifat jihatidan o'zgarishining soliq bazasi hajmiga ta'siri.	Soliq solish obektlari hamda soliq solish bilan bog'liq obektlar bo'yicha ma'lumotlar bazasini shakllantirish va yuritish tartibi	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish
4	Soliq to'lovchi yuridik va jismoniy shaxslarning shaxsiy kartochkalarini yuritish tartibi.	Davlat soliq xizmati organlarida soliq to'lovchilarning shaxsiy kartochkalarini yuritish tartibi	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish
5	1-N dasturiy mahsuli.1N-B,1N-PF,1N-YF,1N-MF jamlanma hisobotlarni shakllantirish.	Davlat soliq xizmati idoralarida to'langan soliqlar va majburiy to'lovlar bo'yicha yigiladigan jamlanma hisobotlar va ularni shakllantirish tartibi	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish
6	Soliq to'lovchi tomonidan hisobotlarni va aniqlashtirilgan hisobotlarni taqdim etish	Soliq to'lovchilar tomonidan soliq majburiyatini bajarish tartibi va soliq qarzini undirishni tashkil etish	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish
7	Davlat byudjetini prognozlash.	O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimi, byudjet	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish

		jaraèni hamda byudjet prognozini ishlab chiqish asoslari	
8	Modellashtirishning ekonometrik, deterministik usullari.	Byudjet va byudjetdan tashqari maqsadli jamgarmalarga tushumlarni tahlil qilish va prognozlashtirish tartibi	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish
9	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ini prognoz qilish usullari.	Bevosita soliqlarni prognozlash va tushumlarga ta’sir qiluvchi omillar	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish
10	Soliqni prognozlashtirishda soliq qarzi va debitorlik qarzlarini hisobga olish.	Bilvosita soliqlarni prognozlash va tushumlarga ta’sir qiluvchi omillar	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish
11	Yer solig‘i prognozini tashkil va prognoz qilish usullari.	Resurs soliqlarni prognozlash va tushumlarga ta’sir qiluvchi omillar	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish

VII semestr bo‘yicha talabalar bilimini baholash va nazorat qilish me’zonlari

Baholash usullari	Baholash mezonlari
Testlar, yozma ishlar, og‘zaki savol-javoblar.	86-100 ball “a’lo”: Fanga oid nazariy bilimlarni to‘la o‘zlashtira olish. Xulosa va qaror qabul qilish. Ijodiy fikrlay olish. Mustaqil mushohada yurita olish. Olgan bilimlarini amalda qo‘llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Tasavvurga ega bo‘lish. 71-85 ball “yaxshi”: Mustaqil mushohada qilish. Olgan bilimlarini amalda qo‘llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo‘lish. 5-70 ball “qoniqarli”: Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Ma’lum bir tasavvurga ega bo‘lish. 50-54 ball “qoniqarsiz”: Fan bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarni bilmaslik,

Reyting baholash turlari

Nazorat shakllari		Maksimal ball	Umumiy ball
1	Joriy nazorat	36	100
2	Oraliq nazorat	34	
3	Yakuniy nazorat	30	

Joriy baholash		Maksimal ball	O’tkazish vaqtি
Joiry nazorat (20 ball)	MT (16 ball)	36	Semestr

Joriy nazorat darslarga aktiv ishtiroki va o'zlashtirish darajasi, mashg'ulot daftalarining yuritilish holati va mavzular bo'yicha vazifalarining bajarilishini e'tiborga olish orqali amalga oshiriladi.	Mustaqil ta'limni baholash topshiriqlarining portfoliosi (prezetatsiya, testlar, yozma ish variantlari, keys stadilar) orqali amalga oshiriladi		davomida
---	---	--	----------

Oraliq baholash		Maksimal ball	O'tkazish vaqtি	
Nº	Oraliq nazorat (20 ball)	MT (14 ball)	Semestr davomida	
I	Oraliq nazorat ma'ruza darslarida aktivligi, mashg'ulot daftalarining yuritilish holatini e'tiborga olish va oraliq nazorat nazorat ishining baholanishi orqali amalga oshiriladi. (9 ball)	Mustaqil ta'limni baholash topshiriqlarining partfoliosi (prezetatsiya, testlat, yozma ish variantlari, keys stadilar) orqali amalga oshiriladi. (5 ball)	14	I oraliq davomida (semestrni ng 1-9 haftasi)
II	Oraliq nazorat ma'ruza darslarida aktivligi, mashg'ulot daftalarining yuritilish holatini e'tiborga olish va oraliq nazorat nazorat ishining baholanishi orqali amalga oshiriladi. (11 ball)	Mustaqil ta'limni baholash topshiriqlarining partfoliosi (prezetatsiya, testlat, yozma ish variantlari, keys stadilar) orqali amalga oshiriladi. (9 ball)	20	II oraliq davomida (semestrni ng 10-18 haftasi)

Laboratoriya ishlarini tashkil etish boyicha ko'rsatmalar

Fan bo'yicha laboratoriya ishlari o'quv rejada ko'zda tutilmagan.

Kurs ishini tashkil etish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar

Fan bo'yicha kurs ishlari o'quv rejada ko'zda tutilmagan.

Foydalaniladigan adabiyotlar royxati

Asosiy adabiyotlar:

38. “O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boyicha harakatlar strategiyasi to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagি PF-4947-sonli Farmoni.
39. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O’zbekiston” NMIU, 2017. – 488 b.
40. Mirziyoyev Sh.M.Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak. – Toshkent: “O’zbekiston” NMIU, 2017. – 104 b.
41. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O’zbekiston davlatini birligida barpo etamiz. – Toshkent: “O’zbekiston” NMIU, 2017. – 56 b.
42. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: “O’zbekiston” NMIU, 2017. – 48 b.
43. Abduganiyeva G.K., Bababekova N.B. Prognozirovaniye nalogov. Uchebnoye posobiye. – T.: “Tafakkur-Bo’stoni”, 2012. - 224 s.
44. Doschanova N.P. Soliq statistikasi va prognozi. O’quv qo’llanma. – T.: “Ren-Poligraf” bosmaxonasi, 2009. – 216 b.
45. Vahobov A.V,Jo’rayev A.S Soliqlar va soliqqa tortish.Darslik.T: “Sharq”, 2009. -448 b.

Qo’shimcha adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. “Norma” huquqiy bazasi.
2. O’zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi. “Norma” huquqiy bazasi.
3. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 iyuldagи “Soliq ma’muriyatichiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to’lovlarining yig’iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PF-5116-sonli Farmoni. Xalq so‘zi» gazetasi. 2017 yil 19 iyuldagи 141 (6835)-son.
4. Malikov T.S., Jalilov P.T. Byudjet-soliq sièsati. O’quv qo’llanma. – T.: “Akademnashr”, 2011. - 472 b.
5. Haydarov N.H. Soliqlar va soliqqa tortish masalalari. O’quv qo’llanma. AkademiY. - T.: 2007. - 214 b.;
6. Gadoyev E. i dr. Uproshennaya sistema nalogoooblojeniY. Uchebno prakticheskoye posobiye. - T.: Norma, 2011.- 324 str.
7. Gadoyev E. va b. Bilvosita soliqlar. O’quv-amaliy qo’llanma. - T.: Norma, 2011.- 328 –b.
8. Gadoyev E. va b. Foya solig’i. O’quv-amaliy qo’llanma. - T.: Norma, 2011.- 408-b.
9. Yax’èyev Q. Soliqqa tortish nazariyasi va amalièti. Darslik. Toshkent. 2003. 246 bet.
10. Zavalishina I.A. Soliqlar: nazariya va amalièt. “Iqtisodièt va huquq dunësi” nashrièt uyi, 2005. 544 bet.
11. Gadoev E, Kuzieva N. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish. Darslik. – T.: “O,,zbekiston”, 2012. - 336 b
12. Eshboyev T.T. Juridik shaxslarni soliqqa tortish. Darslik. T: “Cho’lpon” 2013, 296 bet
13. Perov A. Nalogi i nalogoooblojeniye. Uchebnoye posobiye. – M.: “Yurayt”, 2012 g. – 899 str.
14. Panskov V. Nalogi i nalogoooblojeniye: teoriya i praktika. Uchebnik. – M.: “Yurayt”, 2012 g. – 680 str.

15. O'rmonov J. Kichik biznes subektlarini soliqqa tortishni takomillashtirishning dolzarb masalalari. –T.: El-Press. 2011. – 132b.
16. Musagaliyev A. Yuridik shaxslarni soliqqa tortishni takomillashtirishning dolzarb masalalari. Soliq akademiyasi. Monografiya, Toshkent: 2010, 116 bet.
17. Tagayev A., Xoshimoto F., Ro'ziyev G., Xotamov K. Soliq nazorati.- T.:O'quv qo'llanma, "Yangi asr avlodi", 2010.
18. A.Xomma, A.Tangirqulov, SH.Toshmatov, I.Norqo'ziyev va N.Roziqovlar. Soliq qarzi va uni undirish. O'quv qo'llanma. - T.: O'quv qo'llanma, "Yangi asr avlodi", 2011.
19. I.Xabibullayev, G.Mansurova, Soliq statistikasining nazariy asoslari. O'quv qo'llanma - T.: «Iqtisodièt va huquq dunësi», 2005.

Internet saytlari:

www. <http://el.tfi.uz/pdf/mddj22.uzk.pdf> - *Toshkent moliya instituti elektron kutubxonasi;*
www. <http://el.tfi.uz/pdf/mddj22.uzl.pdf>- *Toshkent moliya instituti elektron kutubxonasi*
www. <http://el.tfi.uz/pdf/mtpzogr-.uzk.pdf>*-Toshkent moliya instituti elektron kutubxonasi;*
www. <http://el.tfi.uz/pdf/mtpzogr-.uzl.pdf>. *-Toshkent moliya instituti elektron kutubxonasi.*
www. <http://soliq.uz>;
www. <http://edu.uz>;
www. <http://mf.uz>;
www. <http://oxs.uz>;
www. <http://norma.uz>;
www. <http://lex.uz>;
www. <http://my.gov.uz>;
www. <http://alleng.ru>;

TARQATMA MATERIALLAR

1.1. -Tarqatma material

Statistik kuzatish shakllari va turlari.

Hozirgi kunda O‘zbekistonda statistik kuzatish ikki shaklda:

- statistik hisobotni taqdim etish;
- maxsus uyuştirilgan statistik tekshirishlarni amalga oshirish yo‘li bilan tashkil etiladi

I. Statistik hisobot deb, O‘zbekiston Respublikasi Statistika Davlat qo‘mitasiga yoki uning mahalliy tashkilotlari hamda Moliya Vazirligi tomonidan tasdiqlangan, tegishli ko‘rsatkichlarga ega bo‘lgan, mustaqil balansda turuvchi barcha korxona, muassasa va tashkilotlar tomonidan belgilangan muddatlarda qonuniy tartibda uyuştiriluvchi statistika va yuqori tashkilotlarga yuborilib turiladigan hisobot shakllari tushuniladi.

Statistik hisobot statistik kuzatishning eng asosiy shakli bo‘lib, u barcha korxona va tashkilotlar faoliyati haqidagi boshlang‘ich haqqoniy ma’lumotlarni keng dasturda muttasil olib turish imkoniyatini beradi.

Shu bilan birga **buxgalteriya va operativ–texnika hisobi** hujjatlarida qayd etilgan boshlang‘ich hisob-kitob yozuvlari ushbu statistik hisobot uchun ma’lumotlar manbai bo‘lib hisoblanadi.

Statistik hisobotning asosiy vazifasi xalq xo‘jaligini rivojlantirish bo‘yicha ko‘zlangan rejalarining bajarilishi ustidan to‘liq nazoratni olib borishdan iborat bo‘lib, bu har bir statistik hisobotda quyidagi uch turdag'i ma’lumotlar keltiriladi:

- Joriy davrda haqiqatda erishilgan ko‘rsatkichlar;
- Joriy davr rejalarida ko‘zlangan topshiriqlar;
- O‘tgan (bazis) davrda haqiqatda erishilgan ko‘rsatkichlar.

Statistik hisobot tavsifi va mazmuni, muddati va yuborish usuli, umumlashtirishdarajasiga qarab, quyidagi turlarga bo‘linadi.

1. Tavsifi va mazmuniga qarab:

Umumdavlat hisobotida - mamlakatni boshqarish va ijtimoiy-iqtisodiy rejalarashtirish ishlari uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlar keltirilib, barcha korxonalar, muassasalar va tashkilotlar tomonidan tuziladi va ular statistik organlarga taqdim etiladi, shundan so‘nggina umumlashtirilgan hisobotlar xukumatga (Vazirlar Maxkamasiga) topshiriladi.

Vazirliklar, maxkama va boshqarmalar, jamoatchilik tashkilotlarida operativ ishlarni olib borish maqsadida o‘rnatilgan hisobot vazirliklar, maxkamalar ichidagi hisobot deb yuritiladi. Bu hisobot o‘zidan yuqori va statistika tashkilotlariga topshirilmaydi.

Xalq xo‘jaligi tarmoqlaridan barcha korxonalar va tashkilotlar uchun umumiyligi bo‘lgan ko‘rsatkichlar bo‘yicha keltirilgan hisobotlar namunaviy hisobot deb aytildi.

Aynan tarmoq uchun xos bo‘lgan ko‘rsatkichlar bo‘yicha keltirilgan hisobotlar ixtisoslashgan hisobot deyiladi.

2. Topshirish muddatiga qarab:

-Joriy hisobot – xo‘jalik ustidan operativ boshqarish va nazorat qilish maqsadida joriy ma’lumotlarni olish uchun xizmat qiladi. Topshirish muddatiga qarab, bu hisobot kundalik, besh kunlik, o‘n kunlik, o‘nbesh kunlik, oylik, choraklik va yillik bo‘lishi mumkin:

-Korxona va tashkilotlarning bir yillik faoliyati bo‘yicha asosiy yakunlar keltirilgan hisobot bo‘yicha yillik hisobot deb yuritiladi. Unda korxona faoliyatining barcha asosiy tomonlari haqida ma’lumot keltirilgan bo‘ladi.

3. Yuborish usuliga qarab:

Hisobotlar telegraf va pochta hisobotlariga bo‘linadi. Telegraf usuli eng muhim ma’lumotlarni olish yoki yetkazish uchun xizmat qiladi. Pochta usulida esa yuboriladigan yoki qabul qilinadigan hisobotlarda ko‘proq ko‘rsatkichlar keltiriladi.

4. Umumlashtirish darajasiga qarab hisobotlar:

Boshlang‘ich hisobot – faqat mustaqil korxona, muassasa va tashkilotlar tuzadi. Bu hisobotning muhim xususiyati shundan iboratki, uning hujjatlari bir necha nusxada tuzilib, har xil joylarda saklanadi. Bu esa ushbu hisobot ma’lumotlarining aniqligini tekshirishda qo‘l keladi.

Yig‘ma hisobot – boshlang‘ich hisobot asosida boshqarma va yuqori tashkilotlar tomonidan tuziladi.

II. Maxsus uyushtirilgan statistik kuzatish – bu ma’lumotlarni ro‘yxatdan o‘tkazish, bir yo‘lakay hisob va har xil tekshirishlarni tashkil qilish yo‘li bilan to‘plashdan iborat. Statistik hisobot qanchalik yo‘lga qo‘yilmasin, baribir, statistika maxsus uyushtirilgan statistik kuzatishlarni amalga oshirmasdan barcha zaruriy ma’lumotlarni to‘play olmaydi. Shunday ijtimoiy xodisa va jarayonlar mavjudki, ular haqida hisobot olishni yo‘lga qo‘yib bo‘lmaydi. Masalan, bozor iqtisodiyoti sharoitida savdodagi narx-navo, oila byudjeti, u yoki bu muammolar bo‘yicha jamoatchilik fikrini bilish, aholi ro‘yxatlarini o‘tkazish kabilar shunday xodisalar va jarayonlar turkumiga kiradi.

Bundan tashqari, statistik hisobotda har bir masalani juda mufassal ravishda bayon etib bo‘lmaydi, chunki bu xol uning operativ boshqarish uchun xizmat qilish funksiyasiga putur yetkazadi.

I. Voqealar sodir bo‘lishini qayd qilish vaqtiga qarab:

Uzluksiz kuzatish. Bunda voqeа (xodisa) sodir bo‘lishi bilanoq, ya’ni o‘sha damning o‘zida qayd qilinadi. Masalan, tug‘ilish, o‘lish, nikohdan o‘tish va ajralishlarni fuqarolik holati dalolatnomasini yozish (FXDYO) organlarida qayd qilish, ishlab chiqarilgan maxsulotlarni boshlang‘ich hujjatlarda hisobga olish, ishchi va xodimlarning ishga chiqishini tabel hisobida qayd qilish va hokazo.

Uzluk (fursat)li kuzatish. Bunda voqeа sodir bo‘lgandan so‘ng ma’lum vaqt o‘tgach uni qayd qilish tushuniladi. Odatda, bunday kuzatishlar teng vaqt oralig‘ida takrorlanib turadi. Shunga qarab, uzlukli kuzatish: davriy va fursatli kuzatishlarga bo‘linadi. Davriy kuzatish ma’lum teng muddat o‘tishi bilan takrorlanib turadi. Fursatli kuzatish voqealar ma’lum kunda sodir bo‘lgandan so‘ng (masalan, 1-yanvar, 1-fevral, 1-mart va hokazo kunlarga) qayd etilishi tushuniladi. Masalan, bularga mos ravishda har o‘n yilda bir marta aholi ro‘yxatining o‘tkazilishi, har yilning boshida qoramollarning hisobini olish tadbirlari bunga misol bo‘la oladi.

Bir yo‘la kuzatish. Bunda qandaydir bir masalani yechish maqsadida zaruriyat tug‘ilgan xollarda turlicha muddatlarda qayta amalga oshirilib turiladi. Bunday kuzatishga uy-joy fondi ro‘yxati, ko‘p yillik mevali daraxtlar ro‘yxati, tabiiy ofat natijasida ko‘rilgan zararni aniqlash va shu kabilar misol bo‘la oladi.

II. Boshlang‘ich ma’lumotlarni olish usuliga qarab:

Bevosita kuzatish usuli. Bunda bu usulning tavsifli tomoni shundaki, tekshirishni amalga oshirayotgan tashkilotning vakili kuzatishda bevosita qatnashadi. U kuzatayotgan narsalarni birma-bir ko‘rib, sanab, tortib va o‘lchab, olingan natijalarni kuzatish varaqasiga yozadi. Masalan, kuzatuvchi paxta punktidagi paxtani maxsus asboblar bilan tekshirish natijasida uning 80 foizi birinchi, 15 foizi ikkinchi, 5 foizi esa uchinchi nav ekanligini aniqlaydi. Bu yerda kuzatuvchi boshlang‘ich ma’lumotlarni olishda bevosita kuzatish usulini qo‘llaydi.

Hujjatli kuzatish usuli. Bunda zarur bo‘lgan ma’lumotlar tegishli hujjatlardan olinadi. Bu usul ko‘pincha hisobot usuli deb yuritiladi, chunki barcha korxona, muassasa va tashkilotlar statistik hisobotlarni boshlang‘ich hisobga asoslanib tuzadilar. Masalan, yillik hisobot ma’lumotlariga asoslanib, kuzatuvchi Toshkent viloyatidagi paxtachilik xo‘jaliklarining 90 foizini rentabellik xo‘jaliklar, qolgan xo‘jaliklari esa rentabellik bo‘limganligini aniqlaydi. Kuzatuvchi boshlang‘ich ma’lumotlarni aniqlashda hujjatlari usulni qo‘llaydi.

Savol-javob usuli. Bunda kuzatilayotgan shaxslarga savollar berilib, olingan javoblar asosida kuzatish varaqalari to‘ldiriladi. Bu holda hech qanday hujjat talab qilinmaydi. 1989 yilgi aholi ro‘yxatini o‘tkazishda hisobchilar har bir oilaga kirib ro‘yxat varaqasini yashovchilardan so‘rab to‘ldirgan. Bunday kuzatishlar savol-javob usulidagi kuzatish deb yuritiladi.

Savol-javob usuli o‘z navbatida uchga bo‘linib o‘rganiladi:

a) Og‘zaki usul (ekspeditsion). Bunda maxsus tayyorlangan kishilar (hisobchilar) kuzatilayotgan shaxslarga kuzatish varaqasidagi savollarni berib, olgan javoblarini varaqaga yozadilar;

b) O‘z-o‘zini qayd qilish usuli. Bunda kuzatishni o‘tkazuvchi tashkilotning vakillari maxsus varaqalarni kuzatayotgan shaxslarga tarqatadilar va ma’lum vaqtidan so‘ng to‘ldirilgan varaqalarni yig‘ishtirib oladilar. Masalan, har bir talaba haqida to‘la ma’lumotga ega bo‘lish maqsadida hisob-iqtisod fakulteti dekanati 1-kurs talabalariga maxsus varaqalar tarqatadi. Bu varaqalar talabalar tomonidan to‘ldirilib, dekanatga qaytarilib beriladi. Bunday kuzatish o‘z-o‘zini qayd qilish usulidagi kuzatish deb yuritiladi.

v) Korrespondensiya usuli. Bunda zarur bo‘lgan ma’lumotlar statistika tashkilotlariga ixtiyoriy korrespondentlar tomonidan yuborib turiladi.

III. O‘rganilayotgan to‘plam birliklarini o‘z ichiga qamrab olishiga qarab:

Yoppasiga kuzatish. Bunda to‘plamdagи barcha birliklar haqidagi zaruriy ma’lumotlar to‘planadi va statistik hisobot shu tarzda tashkil etiladi. Uni barcha korxona, muassasa va tashkilotlar tuzishi va statistika tashkilotlariga taqdim etishi shart. Aholi ro‘yxati, chorva mollar ro‘yxati, ekin maydonlarining hisobi va shu kabilar yoppasiga kuzatishga misol bo‘la oladi.

Qisman kuzatish. Bunda o‘rganilayotgan to‘plamdagи birliklardan qandaydir bir qismi haqida kerakli ma’lumotlarni olish imkoniyatini yaratadi.

Qisman kuzatish o‘z navbatida to‘rtga bo‘linib o‘rganiladi:

a) Tanlama kuzatish. Bunda umumiy bosh to‘plamdan bir qismini ilmiy asoslangan vakolatni to‘la ta’minlab beradigan usullar yordamida tanlab olinib tekshiriladi. U to‘g‘ri tashkil etilsa, olingan natijalar umumiy to‘plam haqida to‘la-tukis va aniq fikr yuritish imkoniyatini beradi.

b) Asosiy massivni kuzatish. Bunda o‘rganilayotgan belgining umumiy hajmiga eng salmoqli o‘rin tutgan to‘plamning asosiy qismi ajratilib olinadi. Masalan, kolxoz-kooperativ savdo statistikasi ana shu massivni tekshirish prinsiplarida olib boriladi. Jamoa xo‘jaligi bozorlari besh mingdan ortiq shahar va shahar tipidagi shaharchalarda mavjuddir. Tekshirish esa 264 ta katta shaharlardagi asosiy jamoa xo‘jaligi bozorlarida olib boriladi. Bu shaharlarda shahar aholisining yarmidan ko‘pi yashaydi, jamoa xo‘jaligi savdosi oborotida esa ular asosiy salmoqni (50 foizini) egallaydi.

v) Anketa orqali kuzatish. Bunda kuzatilayotgan kishilarga oldindan maxsus tayyorlangan varaqalar tarqatiladi. Bu varaqaga o‘zлари to‘g‘risidagi ma’lumotlar to‘ldiriladi va to‘ldirilgan varaqalar qaytarilishi ko‘zda tutiladi. Lekin bu varaqalarga javob yozish ixtiyoriy bo‘lganligi uchun odatda tarkatilgan anketalarning bir qismi qaytib kelishi mumkin. Natijada qisman kuzatishga ega bo‘lamiz.

g) Monografik tasvirlash. Bunda tipik xodisalarni har taraflama chuqur sinchiklab o‘rganiladi. U ko‘pincha yoppasiga kuzatish natijalarini boyitish maqsadida ilg‘or tajribani o‘rganish va ommalashtirishda qo‘llaniladi. Monografik tasvirlash barcha to‘plam haqida fikr yuritish uchun ma’lumot to‘plashni ko‘zlamaydi va shu bilan birga qisman kuzatishning boshqa turlaridan farq qiladi. Uning ma’lumotlari ayni tekshirilayotgan xodisa, obektga tegishlidir.

1.2.-tarqatma material

Mutlaq (absolyut) va nisbiy miqdorlar

Statistik ko‘rsatkichlarning dastlabki ko‘rinishlaridan biri - mutlaq miqdorlar bo‘lib hisoblanadi.

Statistikada mutlaq miqdorlar deb, u yoki bu ijtimoiy xodisalarning miqdori va hajmini ma’lum vaqtida, ma’lum joyda tavsiflaydigan ko‘rsatkichlarga aytildi. Masalan, xo‘jalik bo‘yicha chorva mollar soni, ishchilar soni, ekin maydoni, xosildorlik, maxsuldarlik va shu kabilar kiradi.

Ifodalanimishiga qarab, mutlaq miqdorlar yakka va umumiy miqdorlarga bo‘linadi.

Yakka mutlaq miqdorlar deb, o‘rganilayotgan to‘plamning alohida birliklarini tavsiflanishi tushuniladi. Masalan, guruhlardagi har bir talaba, fermer xo‘jaligidagi ayrim ekinlar maydon, bir xodimning olayotgan ish haqi va shu kabilar kiradi.

Umumiy mutlaq miqdorlar deb, o‘rganilayotgan to‘plamning har bir birligini emas, balki uning yig‘indisini ta‘riflovchi miqdorlar tushuniladi. Masalan, guruhdagi jami studentlar soni, fermer xo‘jaligidagi jami ekin maydoni, barcha ishlovchilarning ish haqi fondi va shu kabilar kiradi.

Mutlaq miqdorlar quyidagi o'lchov birliklarida ulchanadi:

- Natura o'lchov birligi. Bunda o'rganilayotgan xodisalarining ichki xususiyatini ifodolovchi og'irlik (xo'jalik 2500 t paxtani davlatga sotishi), uzunlik (2000 metr masofani yo'lovchining bosib o'tishi), hajmi (xo'jalik jami 250.000.000 so'mlik o'simlikchilik maxsulotini ishlab chiqarishi), gektar (xo'jalikda 850 gektar maydonga paxta urug'i sepilishi) va boshqa birliklar tushuniladi.

Shuni ta'kidlab o'tish kerak-ki, ayrim davlatlarda o'zlarini uchun qabul qilingan o'lchov birliklari ham qo'llaniladi:

1-dyum (2,54sm);

1-fut=12-dyum=(30,48), 1-yard (90sm);

1-milya=(1609m 34sm), 1-pud (16,0 kg);

1-arshin, 1-qarish, 1-botmon, 1-chaqirim va shu kabilar kiradi.

- Qiymat o'lchov birligi. Bunda o'rganilayotgan ijtimoiy xodisalar pul ko'rinishida o'z aksini topadi. Masalan, O'zbekistonda so'm va tiyinda (1994 yil 1-iyulda milliy valyutamiz joriy etildi), AQSH da dollar va sentda, Rossiyada rubl va kopeyekda hisoblanadi va shu kabilar kiradi.

- Mehnat o'lchov birligi. Bunda o'rganilayotgan ijtimoiy xodisalarni vaqtida hisoblanishini tushunamiz. Masalan, kishi-soat, kishi-kun, kishi-smena va shu kabilar kiradi.

- Kompleks o'lchov birligi. Bunda o'rganilayotgan ijtimoiy xodisalarni ifodalashda ikki va undan ortiq o'lchov birliklarining o'zaro birikmasidan iboratligini tushunamiz. Masalan, yuk tashishda – t/km, iste'mol etilgan elektr energiya - kv/soatda va shu kabilar kiradi.

- Shartli natura o'lchov birligi. Bunda o'rganilayotgan ijtimoiy xodisalarning ma'lum xislatga ega bo'lgan shu to'plamdagini bir ijtimoiy xodisani shartli bir birlik qilib olib, shu to'plamdagini boshqa xodisalarni maxsus koeffitsiyentlar yordamida shu birlikka keltirib hisoblashni tushunamiz.

Jamiyat taraqqiyotini nisbiy miqdorlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Hamma narsa taqqoslanishda bilinadi.

Shunday qilib, ijtimoiy-iqtisodiy xodisalarni bilish va o'rganishda mutlaq miqdorlar muhim kurol vazifasini uynasa-da ammo ular bilan cheklanib qolish mumkin emas. Chunki axborotlash natijasida olingen dastlabki mutlaq miqdorlar xodisa va jarayonlarning qanday tezlikda rivojlanayotganini, uning uchrashish intensivligini aniqlamaydi. Bunday holatlarni bartaraf etishda statistikada nisbiy miqdorlar qo'llaniladi.

Nisbiy miqdorlar deb, ikki va undan ortiq mutlaq miqdorlarni bir-biriga taqqoslash natijasida olingen umumlashtirilgan ko'rsatkichlarga aytildi.

Nisbiy miqdorlarni taqqoslashda ko'p xollarda ikkita ko'rsatkich qatnashib, bu ko'rsatkichlardan biri bo'linuvchi miqdor – joriy (hisobotli) miqdor bo'lib, bu ko'rsatkich hamma vaqt kasr chizig'inining nisbat suratida joylashsa, ikkinchi ko'rsatkich esa bo'luvchi miqdor bazisli (taqqoslama) miqdor bo'lib, bu ko'rsatkich hammavaqt kasr chizig'inining nisbat mahrajida joylashadi. Mahrajdagi bu ko'rsatkichni ayrim xollarda asos (ayrim adabiyotlarda asosiy yoki asoslash nomi bilan ham keltiriladi) yoki baza ko'rsatkichi deb ham yuritiladi. Bu ko'rsatkich suradagi ko'rsatkichni baholashda asosiy kriteriya (etalon) bo'lib hisoblanadi.

Demak, ikkita bir xil nomdagagi ko'rsatkichlarni taqqoslash natijasida o'rganilayotgan ijtimoiy xodisa va jarayonlarni to'g'ri baholash hamda ularni chuqurroq o'rganish imkoniyatini beradi-ki, natijada shu miqdorlarning ham vaqtida, ham zamonda rivojlanish yo'naliishlarini bilish imkoniyatlarini to'liq ochib beradi.

Endi nisbiy miqdorlarning ifodalanish shakllarini ko'rib chiqamiz. Bularning ifodalanish shakli bazis miqdorining (nisbat maxrajini) qanday birlikka tenglashtirib olinishiga bog'liqidir. Shunga qarab, nisbiy miqdorlar koeffitsiyentlarda, foizda, promilleda, prodetsimilleda ifodalanadi.

Shunday qilib, ijtimoiy-iqtisodiy xodisalarni bilish va o'rganishda mutlaq miqdorlar muhim kurol vazifasini uynasa-da ammo ular bilan cheklanib qolish mumkin emas. Chunki axborotlash natijasida olingen dastlabki mutlaq miqdorlar xodisa va jarayonlarning qanday tezlikda rivojlanayotganini, uning uchrashish intensivligini aniqlamaydi. Bunday holatlarni bartaraf etishda statistikada nisbiy miqdorlar qo'llaniladi.

Nisbiy miqdorlar deb, ikki va undan ortiq mutlaq miqdorlarni bir-biriga taqqoslash natijasida olingen umumlashtirilgan ko'rsatkichlarga aytildi.

Nisbiy miqdorlarni taqqoslashda ko‘p xollarda ikkita ko‘rsatkich qatnashib, bu ko‘rsatkichlardan biri bo‘linuvchi miqdor – joriy (hisobotli) miqdor bo‘lib, bu ko‘rsatkich hamma vaqt kasr chizig‘ining nisbat suratida joylashsa, ikkinchi ko‘rsatkich esa bo‘luvchi miqdor bazisli (taqqoslama) miqdor bo‘lib, bu ko‘rsatkich hammavaqt kasr chizig‘ining nisbat mahrajida joylashadi. Mahrajdagi bu ko‘rsatkichni ayrim xollarda asos (ayrim adabiyotlarda asosiy yoki asoslash nomi bilan ham keltiriladi) yoki baza ko‘rsatkichi deb ham yuritiladi. Bu ko‘rsatkich suratdagi ko‘rsatkichni baholashda asosiy kriteriya (etalon) bo‘lib hisoblanadi.

Demak, ikkita bir xil nomdagи ko‘rsatkichlarni taqqoslash natijasida o‘rganilayotgan ijtimoiy xodisa va jarayonlarni to‘g‘ri baholash hamda ularni chuqurroq o‘rganish imkoniyatini beradi-ki, natijada shu miqdorlarning ham vaqtda, ham zamonda rivojlanish yo‘nalishlarini bilish imkoniyatlarini to‘liq ochib beradi.

